

F.T. ABDUVAXIDOV

# TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**F.T. Abduvaxidov**

# **TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI**

*O quv qo'llanma*

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi oliy  
o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
muvoziqlashniruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining  
iqtisodiy ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

836895  
ТРІУ  
kutubxonasi  
УАБ

Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2012

**УДК: 657.1(575.1)(075)**

**КБК: 65.052**

**A-15**

**Taqrizchilar:**

**A.K. Ibragimov** - O'zR Bank-moliya akademiyasi «Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit» kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor;

**K.A. Shakarov** - Toshkent bank kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosari, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**Abduvaxidov F.**

**Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi / O'quv qo'llanma** –T..  
«IQTISOD-MOLIYA», 2012 y. \_\_\_\_ bet.

Mazkur o'quv qo'llanmani yozishda tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo'yicha ishlab chiqilgan qonuniy va me'yoni hujjatlardan, shuningdek, shu sohaga oid iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot natijalari hamda davriy nashrlardagi axborot ma'lumotlardan foydalanildi.

Ushbu o'quv qo'llanmada tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, ularda ish kuni va hujjatlar aylanishi, analitik va sintetik hisobni yuritish tartibi, moddiy va nomoddiy aktivlarni hisobga olish, kassa, kredit va lizing, chet el valutasi, ustav kapitalini shakllantirish va fondlar tashkil etish, qimmatli qog'ozlar, moliyaviy natijalar hisobi hamda moliyaviy hisobotlar keng yoritib berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, uni 5340700 - «Bank ishi» va 5340900 - «Buxgalteriya hisobi va audit» hamda boshqa ta'lim yo'naliishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning o'quv jarayonida foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

**УДК: 657.1(575.1)(075)**

**КБК: 65.052**

**ISBN 978-9943-13-360-0**

© «IQTISOD-MOLIYA», 2012

© F T Abduvaxidov, 2012

## Kirish

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiyotimizda bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, bank sohasida ham o'zgarishlar bo'ldiki, natijada ularning faoliyatini amalga oshirish xalqaro andozalar talablariga yaqinlashtirildi desak mubolog'a bo'lmaydi.

Bu o'rinda Prezidentimiz I.A. Karimov o'z mazrasida «gap banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish haqida bormoqda. Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi. Bu o'rinda biz nafaqat korxonalar tomonidan investitsiya loyihamalarini amalga oshirishni jadallashturishni, balki bundan tijorat banklari qanchalar manfaatdor ekani va ular bu loyihamalarda o'z kredit resurslari bilan nechog'lik faol ishtiroy etayotganini ham ko'zda tutamiz. Buning uchun tijorat banklari yetarli kapitalga ega, moliyaviy barqaror bo'lishi lozim, bir so'z bilan aytganda, ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi darkor» deb ta'kidlagan edi<sup>1</sup>.

Albatta bunday ishlarni amalga oshirishda tijorat banklarida mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu resurslarning harakatini buxgalteriya hisobi va hisobotlarida o'z vaqtida to'g'ri hisobga olishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida, tijorat banklarida buxgalteriya hisobi fanini o'qitushda fanning oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalarini belgilab olish, shuningdek, talabalarga bugungi kundagi mavjud muammoli masalalarni qamrab oluvchi mavzularni o'qitish ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Ushbu ehtiyojlarni inobatga olib, talabalarining tijorat banklarida amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo'yicha tushuncha va ko'nikmalar hosil qilishlari uchun o'quv adabiyoti tayyorlandi.

Mazkur o'quv qo'llanmada bank tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, o'quv

<sup>1</sup> И.Каримов. Асосий маънфаси – ватаннига таракоётни ва ҳалқни фароҷнамегани яшада юксалтиришадар. Ҳалқ сўнн газетаси. 31.01.2010 йил

dasturlarida belgilangan mavzularning mazmun va mohiyatini o'chib berishga harakat qilindi.

Bunda, talabalar ushbu fanni o'qish davomida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishning tartib-qoidalarini, banklarda hisob-kitob-pul hujjatlarini qabul qilish, qayta ishlov berish, rasmiylashtirish hamda hujjatlar aylanishini tashkil qilishni, shuningdek, ularning analitik va sintetik hisobni yuritish bo'yicha tushunchalar hosil qilishlari mumkin.

Shu bilan birga, bankdagi mavjud moddiy qiymatliklardan foydalanishni va ularning harakatini hisobga olish, shuningdek, mijozlarga naqd va naqd pulsiz xizmatlar ko'rsatishdan, bankning bo'sh turgan mablag'larini vaqtinchalik daromad keltiruvchi (kredit, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar bozoriga va investitsiyga) manbalarga yo'naltirishdan kuuladigan daromadlarini (shunday xarajatlarini) buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olish, xususan, banklarda amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash bo'yicha qisqacha bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shundav qilib, mazkur o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, uni 5230900 - «Buxgalteriya hisobi va audit» va 5230700 – «Bank ishi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning o'qish jarayonida foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida O'zR Markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan qonuniy va me'yoriy hujjatlaridan keng foydalanildi.

Hurmatli kitobxonlar mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida myallif tomonidan yo'l qo'yilgan ayrim xato va kamchilliliklar bo'lsa oldindan sizlardan surʼaymiz.

## **1-bob. BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI**

### **1.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi - bank aktivlari va passivlaridan samarali foydalanish, ulami joylashtirish va ko'rsatilgan bank xizmatlari yuzasidan daromad (foizli)larni hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar (foizli) ni, shuningdek, budjet va budjetdan tashqari to'lovlarni o'z vaqtida hisoblab, yakuniy moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashdan iboratdir. Bunda talabalar banklarda buxgalteriya hisobini o'rganishda, avvalo, uning korxonalar, budjet va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tub farqlarini tushunishlari zarur.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish boshqa korxona va tashkilotlarnikiga nisbatan o'zining operativligi bilan ajralib turadi. Chunki ularda soat 16-00 gacha operatsion kun bo'lib, shu davr mobaynida amalga oshiriladigan operatsiyalar o'sha kuniyoq mijozlarning analitik hisobidagi shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi va kundalik balans orqali umumlashtirish usuli bilan nazorat qilib boriladi. Bu pul mablag'larining saqlanishi, kundalik pul aylanmasi va hisob-kitob kredit munosabatlarning holati, kassa rejasining bajarilishini nazorat qilish imkoniyatini berish bilan birgalikda, pul muomalasi hamda kredit resurslarining aylanishini tartibga solishni ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobining obyektlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash hamda ular bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun o'lchov birliklari (natura, mehnat va pul) dan foydalaniladi. Shu boisdan, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni talab qiladi:

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko'rsatish, hisob-kitob, kassa, valuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish;

- bankdan pul mablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalardan foydalanishning qonuniyligini ta'minlash;

- operatsion kun davomida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha rasmiy lashtirilgan hujjatlarning qonuniyligini hamda to'g'riligini nazorat qilish;

- tijorat banklarida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni to'g'ri aniqlash;

- kundalik balansni tuzish uchun dastlabki hujjat ma'lumotlarini qayta ishlash va ularning har bir hisobvaraqlari bo'yicha taqsimlashni samarali tashkil etish;

- oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda tegishli nazorat organlariga o'z vaqtida taqdim etib borishdan iboratdir.


Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining qonuniy va uslubiy asoslari bo'lib. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni», «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari», «Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari» hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

Ushbu qonuniy hujjatlар buxgalteriya hisobini yuritishda tartibga soluvchi qonuniy hujjatlар hisoblanadi va mulkchilik shaklidan, ya'ni, qaysi tarmoqqa tegishliligidan hamda katta-kichikligidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun amal qilinadi.

Shunday qilib, tijorat banklarida buxgalteriya hisobi fanini o'rghanishda uning nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish hamda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzishga oid me'yoriy hujjatlarni ham bilishni taqozo etadi.

## **1.2. Bank operatsiyalarining turkumlanishi va ularning mazmuni**

Banklarning o'ziga xos xususiyatlari ularning faoliyatiga bevosita bog'liqidir. Ushbu faoliyatning natijasi esa bank xizmatining yaratilishi hisoblanadi va uni quyidagilarga: to'lov vositasini amalga oshirish hamda xizmatlar ko'rsatishga ajratish mumkin. Shu boisdan, tijorat banklarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarni alohida xususiyatlariga ko'ra turkumlash mumkin (1-chizmaga qarang).



**I-chizma.** Bank operatsiyalarining turkumlanishi

I-chizmadan shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarni o'z faoliyatiga mos xizmatlar va o'z faoliyatiga mos bo'limgan xizmatlarga bo'ldik. Demak, o'z faoliyatiga mos xizmatlar deganda, tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ko'rsatiladigan xizmatlari tushuniladi va tijorat banklarining bajaradigan uchta operatsiyalarini ya'ni: depozitlar operatsiyalari; kredit operatsiyalari; hisob-kitob operatsiyalarini kiritish mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan xizmat turlarini ba'zan ana'naviy bank operatsiyasi ham deb atash mumkin va ularni bir vaqtida barcha banklar amalga oshiradilar. Chunki shunday xizmat turlaridan birini boshqa kredit muassasalari ham bajarishi mumkin. Banklar ko'rsatadigan depozit, kredit va hisob-kitob operatsiyalaridan tashqari, kassa operatsiyalarini ham amalga oshiradilar.

O'z faoliyatiga mos bo'limgan yoki noana'naviy xizmat turlariga qo'shimcha operatsiyalar kiradi. Ularning tarkibiga quyidagi operatsiyalarini kiritish mumkin: valuta, qimmatli qog'ozlar, oltin va

qimmatbaho metallar hamda qo'yilmalar bo'yicha oshiriladigan operatsiyalar. Bank xizmatlaridan huquqiy va jismoniy shaxslarning barchasi birday foydalanishlari mumkin. Ammo Respublikamiz banklarining jismoniy shaxslarga ko'rsatayotgan xizmatlarining hajmi sezilarli emas. Shuning uchun ham kelgusida ularning turlari va miqdorini ko'paytirish zarur.

Ma'lumki, banklar bo'sh pul mablag'larni yig'adi va ularni o'z mijozlari o'rtasida qaytarish sharti bilan taqsimlaydi. Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar aktiv va passiv shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Passiv operatsiyalar yordamida banklar resurslarini shakllantiradi. Banklar aktiv operatsiyalarini amalga oshirish orqali o'zining va chetdan jalb qilingan resurslarini turli xo'jalik yurituvchi subyektlarga hamda aholining ehtiyojlarini qondirish uchun joylashtiradi.

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni to'lanishiga qarab, pullik va bepul xizmat turlariga bo'linadi. Ammo bu bankdagi xizmat turlarining ba'zilari bepul yoki pulli degan ma'noni bildirmaydi. Chunki, tijorat banklari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, hisob-kitob, depozit va kredit operatsiyalarining tarkibidagi ba'zi xizmat turlariga haq to'lashni belgilamasliklari mumkin.

Moddiy ne'matlarning harakati bilan bog'liqligiga qarab, bank xizmatlarining turkumlanishi: uning harakati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar va sof xizmatlarga ajratiladi.

Banklar o'zlarining mijozlariga ayrim operatsiyalar bo'yicha pullik xizmatlar ko'rsatishlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning harakatiga hamda ularning hajmini oshirishlara yordam berishlari mumkin.

Sof xizmatlar - bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga va alohida jismoniy shaxslarning talablarini qondirish uchun xizmatlarini taklif etishidir

Umuman olganda banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar quyidagi xususiyatlarga ega: ularni zaxira sifatida ko'rsatish mumkin emasligi, unumli xarakterga ega ekanligi, kapital bank xizmatining obyekti bo'lib hisoblanishi, aktiv va passiv operatsiyalarini o'z ichiga olishi, faqat bankning monopoliyasiga aylanmasligi va boshqalardan iborat bo'lishidir.

Aktiv operatsiyalarining keng yoyilgan turlariga quyidagilarni: kredit; investitsiya; depozit; boshqa chet el valutalari bo'yicha

operatsiyalarni kiritish mumkin. Passiv operatsiyalarga esa: tijorat banklari qimmatli qog'ozlarining birinchi emissiyasi; foydadan fondlarni tuzish va ularni ko'paytirish uchun ajratmalar qilish; boshqa yuridik shaxslardan kreditlar olish; depozit operatsiyalarini kiritish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarida amalga oshiriladigan operatsiyalarni turkumlash bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik maqomga ega bo'lgan shaxslarga xizmat turlaridan foydalanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir. Shuningdek, bank ko'rsatadigan xizmat turlari bo'yicha to'liq ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi.

### **1.3. Banklarda buxgalteriya apparatini tashkil qilish**

Buxgalteriya apparati deganda, tijorat banklari tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish va uni tashkil etishni nazarot qilish, shuningdek, bankning o'zining, mijozlaridan qabul qilingan va banklararo hisob-kitob-pul hujjatlarini rasmiy lashtirish, ularni qayta ishslash hamda bank operatsiyalarini qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar tarkibi tushuniladi. Buxgalteriya apparatining ish faoliyatini amalga oshirishda tijorat banklarining bosh buxgalterlari ma'sul shaxs sifatida tan olinadi. Ular asosan, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi, «Markaziy bank to'g'risida»gi, «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qonuniy va me'yoriy hujjatlar asosida ish olib boradilar. Buxgalteriya apparati xodimlarining aniq vazifalari tijorat banklarining bosh buxgalteri tomonidan belgilab beriladi va ularni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni bank filiali rahbari amalga oshiradi. Buxgalteriya apparatiga bankning bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. U bank tizimining bosh buxgalterlari to'g'risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boradi. Bosh buxgalter bo'limagan vaqtida uning vazifalarini bosh buxgalter o'rinosari bajaradi.

Banklarda buxgalteriya ishlarini yuritish uchun buxgalteriya apparati tuziladi. Bank buxgalteriya apparatiga shartnomma asosida chetdan jalb qilingan buxgalterlar yoki buxgalteriya firmasi xodimlarining kiritilishi qat'iyan taqiqilanadi. Bank buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishi va unda tashkil etiladigan bo'limlar soni

amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmiga va ulaming avtomatlashtirilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ish hajmi kichik banklarda buxgalteriya apparati bankning yaxlit bo'linmasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunda banklararo hisobkitoblar, chet el valutasi bo'yicha operatsiyalar va bankning ichki hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarning hisobini yuritish maxsus bo'limlarga topshirilishi mumkin. Ish hajmi katta banklarda buxgalteriya apparati asosiy talablarni hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Shuningdek, barcha operatsiyalar mas'ul ijrochi buxgalterlar tomonidan dastlabki va nazoratchi buxgalterlar tomonidan joriy nazoratdan o'tishini ta'minlash maqsadida ish hajmidan kelib chiqqan holda mas'ul ijrochi va nazoratchilar soni o'rtaida mutanosiblik saqlanishi lozim.

Buxgalteriya apparati xodimlarining aniq vazifalari bank rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Mas'ul ijrochi va nazoratchi buxgalterlar zimmasiga muayyan hisobvaraqlarni yuritish yoki alohida operatsiyalarni amalga oshirish ishlari yuklatiladi. hisobvaraqlar buxgalteriya xodimlari o'rtaida shunday taqsimlanishi kerakki, bunda bitta xo'jalik yurituvchi subyektning barcha depozit va ssuda hisobvaraqlari bitta buxgalteriya xodimi tomonidan yuritilishi kerak, chet el valutasida ochilgan hisobvaraqlar bundan mustasno. Hisobvaraqlarni buxgalteriya xodimlari o'rtaida taqsimlash va qayta taqsimlash kitobi dasturiy ravishda yuritiladi hamda qo'lda maxsus daftarda qayd etib boriladi.

Bank bosh buxgalteri muhrlar, shtamplar va blanklarni ulaming yo'qolishiga yoki boshqa maqsadlarda ishlatalishiga yo'l qo'yilmaydigan tarzda saqlanishi hamda foydalanishi ustidan nazoratni ta'minlashi shart. Bank muhrlari va burchakli shtamplarining hisobi ularni saqlayotgan shaxs familiyasi va lavozimi ko'rsatilgan maxsus daftarda yuritiladi. Daftar varaqlari raqamlangan, bog'langan va bank muhri, bank rahbari hamda bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan bo'lishi va bank rahbarining yoki uning xohishiga ko'ra bosh buxgalter sey fida saqlanishi lozim.

Bank xodimlarining ish joylari shunday joylashtirilgan bo'lishi kerakki, bunda mijozlar va boshqa begona shaxslarning bankning muhrlari, shtamplari, hujjatlari va blanklarini olishlariga imkon bo'lmasligi lozim. Xodim mehnat ta'tiliga chiqqan, kasal bo'lib qolgan yoki boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan hollarda unga biriktirilgan hisobvaraqlar hamda uning vazifalari muhr va shtamplar

bilan birgalikda boshqa xodimga topshiriladi va bu haqda maxsus daftarda tegishli yozuvlar qayd etiladi.

Bosh buxgalter zimmasiga umumiy nazoratni tashkil etish hamda har kuni buxgalteriya va kassa ishlarining barcha bo'g'inalarida o'matilgan tartibga amal qilinishini kuzatib borish yuklatiladi. Shuningdek, bank bosh buxgalteriga bosh va yordamchi kitoblarda operatsiyalarini qayd etish, tegishli buxgalteriya hisobi hisobotlarini dasturiy ravishda tuzish ishlariga rahbarlik qilish yuklatiladi. Bank bosh buxgalteri ishda bo'limgan vaqtida, ushbu vazifalar bank rahbarining buyrug'iga ko'ra uning o'rinnbosapiga topshiriladi. Mijozlarning bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan shikoyatlari hamda boshqa murojaatlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi. Murojaat qilish tartibi elonlar osib qo'yish yo'li bilan mijozlarga ma'lum qilinishi lozim.

Bank rahbari buxgalteriya ishi holatini umumiy kuzatish bilan bir qatorda balans va boshqa hisobotlarni o'z vaqtida tuzilishini tekshirib borishi, mijozlarga o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatilishini muntazam nazorat qilib turishi shart. Tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofis sifatida tashkil etilgan yirik banklarning buxgalteriya apparati shu tarkibiy tuzilmalarga mos ravishda tashkil etilishi mumkin.

Buxgalteriya apparatini Front-ofis va Bek-ofisga ajratish zaruniyati quyidagilar bilan izohlanadi: tarkibiy bo'linmalarning asosiv vazifalarini mijozlarga xizmat ko'rsatish; nazoratni amalga oshirish.

Tarkibiy bo'linmalarning asosiy vazifalarini:

Bank nuqtai nazaridan Buxgalteriya apparatinining Bek-ofis va Front-ofisga bo'linishining ahamiyati shundaki, Front-ofis mutaxassislari mijozlarga to'g'ridan-to'g'ni xizmat ko'rsatadi, Bek-ofis mutaxassislari esa, dastlab Front-ofis xodimlari tomonidan boshlangan, mijoz bevosita qatnashishi va mazkur bosqichni tugatilishini kutishi talab etilmaydigan bosqichda operatsiyalarini qayta ishlab, uni nihoyasiga yetkazadi. Natijada, har bir bank operatsiyasi bir-biriga bog'liq bo'limgan ikkita bo'limda amalga oshiriladi va bank xodimlarini o'zaro nazorat qilish tizimini yaratadi.

Mijoz nuqtai nazaridan bo'linishning ahamiyati shundaki, bankning bitta bo'limi yoki binosida, ammo lavozimi turlicha bo'lgan xodimlardan o'zining barcha masalalarini echish imkoniyatini yaratish. Mijoz operatsiyalar boshlanishidan to uning tugaguniga qadar faqat

Front-ofis xodimlari bilan aloqada bo'lib, Bek-ofis mavjudligi mijoz uchun ahamiyatsiz bo'lib hisoblanadi.

Bank tarkibiy tuzilmasining mas'uliyatini belgilash uchun ular bajaradigan operatsiyalari tavsifidan kelib chiqqan holda, bo'limlar bo'yicha vazifalar taqsimlashning taxminiy doirasini aniqlash zarur. Shuni qayd etish zarurki, bo'linmaga yuklatiladigan vazifalar doirasi qat'iy bo'lishi shart emas. Bank bo'linmalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgan darajasiga bog'liq ravishda, Bek-ofis yoki Front-ofis tarkibida ayrim bo'lim / sektor bo'imasligi mumkin. Bunday hollarda, bir bo'lim / sektor vazifalarini boshqa bo'lim / sektor bajarishi ko'zda tutilishi lozim. Vazifalar, bank tarkibiy tuzilmasining har bir bo'limi uchun alohida taqsimlanadi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish:

Mijozlarga bankning barcha xizmatlar majmuasi faqat Front-ofis bo'limida ko'rsatilganligi bois, mazkur bo'lim bank xizmatlarining barcha turlarini yaxshi biladigan malakali mutaxassislardan tashkil etilishi shart. Bunda, shart-sharoitlar va bank tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxati e'lon qilinishi hamda mazkur xizmatlardan bankning mavjud va bo'lg'usi mijozlari xabardor qilinishi shart. Xizmat ko'rsatish jarayonida nostandard ko'zda tutilmagan holatlar kelib chiqishi ehtimoli mavjudligini inobatga olgan holda, aniq xizmatlar turi bo'yicha paydo bo'lgan savollarni joyida hal qiluvchi va tegishli operatsiyalarni butunlay nazorat qilish salohiyatiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan jamlangan bo'lishi kerak.

Shundan kelib chiqqan holda, operatsiyalarni amalga oshirishda mas'ul ijrochi bilishi lozim bo'lgan qonunchilik doirasi qanchalik kichik bo'lsa, uning ishi tez va sifatlari bo'ladi. Shuning uchun, Front-ofis mas'ul ijrochilar o'rtaida mijozlarni taqsimlashda, bir mas'ul ijrochida bir toifali mijozlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda, mijozning mavjud barcha hisobvaraqlariga bir mas'ul ijrochi tomonidan xizmat ko'rsatilishi shart.

Front-ofis xodimlarini mijozlarning jismoniy va yuridik shaxslar toifasi bo'yicha guruhlash lozim. Qonunchilik bazasi turli xilligiga bog'liq holda, yuqorida qayd etib o'tilgan mijozlarni yanada kichik bo'lgan quyidagi turlarga bo'lisch mumkin:

- faqat milliy valutada operatsiyalarni amalga oshiradigan mijozlar;

- milliy va chet el valutasida operatsiyalarni amalga oshiradigan mijozlar.

Turli qonunchilik ta'sir doirasida bo'lgan mijozlarning quyidagi toifalari bo'yicha guruhlarga bo'lish tavsiya etiladi: Korxona va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarga.

Korxona va tashkilotlar:

- o'z faoliyatini mamlakat doirasida va xorijda amalga oshiradigan har qanday tashkilotlar, shuningdek, chet el vakolatxonalar, yoki milliy va chet el valutasida hisobvaraqlari mavjud bo'lgan har qanday tashkilotlar;

- o'z faoliyatini faqatgina mamlakat doirasida amalga oshiruvchi yirik mijozlar;

- kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan yakka tartibdag'i tadbirkorlar.

- Jismoniy shaxslar:

- milliy va chet el valutasida hisobvaraqlari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar;

- faqat milliy valutada hisobvaraqlari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar.

Bankning Front-ofis bo'limidagi har bir guruhi mutaxassisni mijozlarga ko'rsatiladigan to'liq standart xizmatlar ro'yxatini ularga taqdim etadi. Xodimlar guruhi tomonidan mijozlarga ko'p operatsiyalar turi bo'yicha xizmat ko'rsatilsa, mazkur guruhga kamroq mijoz taqsimlanishi lozim. Chunki, ko'p turli operatsiyalar bajaruvchi mijozning bitta tashrifi bo'yicha unga xizmat ko'rsatish bank xodimining ko'p vaqtini egallaydi.

Nazoratni amalga oshirish:

Front-ofis zimmasiga mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning rasmiylashtirilishi va ular tomonidan boshlangan operatsiyalarning to'g'riligini dastlabki nazorat qilish yuklatiladi. Qo'shimcha nazorat zarur hollarda Front-ofis xodimi operatsiyalar bo'yicha hujjatlarni nazoratchi xodimiga taqdim etadi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan mijoz operatsiyalarining nazoratini o'z xususiyatlari bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- mijozning shartnomaga asoslangan harakatini tekshirish;

- mijoz o'z operatsiyalarini qonunchilikda o'matilgan tartibda bajarayotganligini tekshirish;

- hujjatlarning rasmiy lashtirilishiga qo'yilgan talablarga rioya qilinishini ta'minlash;

- to'lovlarni amalga oshirish uchun moliyaviy sharoitlar mavjudligini aniqlash.

Yakuniy nazoratning vazifasi operatsiyalarning yakuniy nazoratini amalga oshiruvchi Bek-ofis xodimlari tomonidan keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan holda o'tkazish hisoblanadi.

Shunday qilib, banklarda buxgalteriya apparatining ish faoliyatini tashkil qilishda amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini va ularning sifatli bajarilishini ta'minlashga yaqindan yordam beradi.

#### **1.4. Buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasি, uning mazmuni va mohiyati**

Respublikamizda bank tizimining uzluksiz rivojlanishi bozor munosabatlari sharoitidagi obyektiv zaruriyat bo'lib, bu o'z navbatida banklar faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar bazasini vujudga keltiruvchi buxgalteriya hisobining uslubiy asoslarini takomillashtirib borishni talab etadi.

Banklarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish ko'p jihatdan uning uslubiy asoslarini hisoblangan, buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasingin tuzilishiga bog'liqdir. Ushbu hisobvaraqlar rejasи Banklarda amalga oshiriladigan barcha bank operatsiyalarni xalqaro standartlar asosida amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ungacha Banklarda qo'llanadigan hisobvaraqlar rejasи markazlashgan rejali iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning ishslash tamoyiliga quyidagilarni:

kredit resurslarini markazlashgan holda hududiy va tarmoqlar bo'yicha yig'ish va taqsimlash;

- kredit resurslarini xalq xo'jaligi rejalarining bajarilishiga xizmat qilishini nazorat qiluvchi ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- davlat mablag'larinining harakatini va sarflanishini pastdan yuqoriga va yuqondan pastga hisobvaraqlar rejasи yordamida kuchli nazorat ostiga olish uchun asos qilib olgan edi.

Albatta, hisobning bunday tizimi mazmun va mohiyat jihatidan butunlay boshqacha bo'lgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri talabiga to'liq javob bera olmay qolgan edi. Shu boisdan, bank tizimini isloh

qilishda dastlab hisobvaraqlarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqishda ularning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan va ular quyidagi lardan iborat:

-yangi hisobvaraqlar rejası buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga mos kelib, daromadlar va xarajatlar hisobot oyining o'zida aks ettiriladi. Eski hisobvaraqlar rejasida daromadlar kelib tushganda, xarajatlar esa to'langanda buxgalteriya hisobida aks ettirilar edi;

-yangi hisobvaraqlar rejasida aktivlar mavjudlik tamoyili bo'yicha joylashtirilgan bo'lib, bu aktiv moddalarini operativ ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Passivlar esa muddati bo'yicha joylashtirilgan bo'lib, mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish imkoniyatini beradi;

-yangi setlar rejasida aktivlar va majburiyatlarning real baholash imkoniyati mavjud bo'lib, bundan kelib chiqqan holda, aktivlarning tavakkalchilik darajasi bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralar tuzish imkoniyatini beradi;

-yangi hisobvaraqlar rejasida qimmatli qog'ozlar ikki guruhga bo'lingan bo'lib, birinchi guruh oldi-sotdi qilishga, ikkinchi guruh esa investitsiyaga yo'naltirilishi rejalashtirilgan;

-bankning o'z kapitali tarkibi mustaqil bo'limlarga bo'lingan bo'lib, u e'lon qilingan, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, oddiy va imtiyozli aksiyalar to'g'risida to'la ma'lumot beradi;

-foyda va zararlar (daromad va xarajatlar) bankning ichki hisobvarag'i bo'lib, ular ham mustaqil bo'limlarga bo'lingan.

Respublika hukurnati tomonidan banklarda buxgalteriya hisobini isloq qilish borasida amalga oshirgan ishlar o'zining ijobiy natijasini berdi. Hozirgi kunda Respublika banklarning buxgalteriya hisobi tizimi jahondagi rivojlangan mamlakatlarning bank tizimiga ancha yaqinlashtirildi va xalqaro banklar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishi mumkin.

Har bir bank o'z buxgalteriya hisobini barcha banklar uchun bir xil bo'lgan hisobvaraqlar rejası asosida olib boradi. 1997-yil apreliga qadar respublikadagi barcha banklar sobiq ittifoq davrida tuzilgan yagona hisobvaraqlar rejası asosida ish yuritar edilar. Lekin iqtisodiyotimizni yangi bozor munosabatlari asosida tashkil etar ekanmiz, iqtisodiyotni izga solib, uni nazorat qilish uchun buxgalteriya hisobini xalqaro miqiyosda qabul qilingan yaxlit tizimga moslashtirib olib borish talab

etildi. Shu sababli, respublika banklari buxgalteriya hisobini yangi hisobvaraqlar tizimi asosida tashkil etishga kirishdilar.

Shu maqsadda 1995-yil Artur Andersen auditorlik firmasi bilan shartnomaga tuzilgan edi. Shartnomada O'zbekiston Respublikasi Banklarda buxgalteriya hisobini isloh qilish ko'zda tutilgan edi. Firma respublika Markaziy banki bilan birligida bankning yangi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqdi. 1996-yil 13-noyabrda Vazirlar Mahkamasining 289-sonli qarori bilan «Respublika Markaziy bankning hisobvaraqlar rejası», 290-sonli qarori bilan esa «Banklarning hisobvaraqlar rejası» tasdiqlandi. 1997-yil 1-apreldan barcha banklar buxgalteriya hisobi yangi hisobvaraqlar rejasiga asosida olib borila boshlandi. Banklarning yangi hisobvaraqlar rejasiga o'tishi nimalar bilan belgilanadi? Umuman, O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'yilganligi, jahon bozor munosabatlari tizimiga o'tganligi banklar uchun yangi hisobvaraqlar rejasiga o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Qolgan barcha sabablar shulardan kelib chiqadi:

-birinchidan, respublikada ikki pog'oonali bank tiziminining barpo etilishi;

- ikkinchidan, davlat mulki yagona bo'limgan holda turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lish;

- uchinchidan chet el investitsiyalarning jalb qilinish;

- to'rtinchidan, chet el korxonalar va tashkilotlari bilan sherikchilik munosabatlarining o'matilishi;

beshinchidan, hisobotlarni jahon andozalari talablariga javob beradigan darajada tuzilishni ta'minlash zarurligi va hokozo.

Yangi hisobvaraqlar rejası avvalgisidan farq qiladi. Eski hisobvaraqlar rejası 2 qismdan iborat bo'lib, biri balans ichidagi hisobvaraqlarni, ikkinchi qismi balansdan tashqari hisobvaraqlarni o'z ichiga olar edi. Balans ichidagi hisobvaraqlar mazmunan guruhlash prinsipi asosida tuzilgan bo'lib 24 bo'limdan iborat. Har bir bo'limda aktiv, passiv va aralash xarakterdagи aktiv-passiv hisobvaraqlar joylashgan, hamda ular bo'yicha operatsiyalar ikki yoqlama yozuv asosida olib borilar, balansdan tashqari hisobvaraqlar esa 8 bo'limga guruhlanib, bu hisobvaraqlar bo'yicha yozuvlar bir tomonlarma, ya'ni, kirim yoki chiqim ko'rinishda yuritilar edi.

Ilgari Markaziy bank ham, tijorat banklar ham buxgalteriya hisobini yagona hisobvaraqlar rejası asosida yuritar edilar. Har bir hisobvaraqlar nomeri va nomi yoniga qaysi bankda ishlatalishi haqida belgi

qo'yilgan edi. Yangi hisobvaraqlar rejası ham mazmunan, ham tuzilish jihatidan eskisidan farqlanib. Markaziy bank uchun alohida tijorat banklari uchun alohida ishlab chiqildi. Bunda har ikki bank faoliyatining xususiyatlari hisobga olingan. Masalan, Markaziy bank emissiya markazi bo'lib hisoblangani uchun kassadagi pullar banknota va tangalarga bo'lingan holda ko'rsatiladi. Tijorat banklari kassalaridagi pullarni bunday bo'lish uchun alohida hisobvaraqlar ochilmaydi. Bundan tashqari Markaziy bank barcha tijorat banklari o'tasidagi banklararo hisob-kitoblarni tashkil etadi. Shu sababli bunday hisob-kitoblar hisobini yuritish uchun olinadigan banklararo hisob-kitoblar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar va to'lanadigan banklararo hisob-kitoblar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar ochilgan. Bunday hisobvaraqlar tijorat banklarning hisobvaraqlar rejasiga kiritilmagan.

Tijorat banklari turli mulkchlik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga xizmat ko'rsatadi, shunga asosan, ularda alohida hisobvaraqlar ochiladi. Markaziy bankda esa, faqat hukumat va nazorat organlariga xizmat ko'rsatadi. Hisobvaraqlar rejası 6 bo'limdan iborat bo'lib, ulardan 5 tasi balans ichidan hisobvaraqlardan va oltinchi bo'lim esa balansdan tashqari hisobvaraqlardan tashkil topgan<sup>2</sup>. Yangi rejaning yana bir xarakterli xususiyatlari shundan iboratki, bundagi balansdan tashqari hisobvaraqlar ham balans ichidagi hisobvaraqlar kabi ikki yoqlama yozuv asosida olib boriladi. Har bir bo'lim asosiy va yordamchi hisobvaraqlarni (subschet) o'z ichiga mujassamlangan. Xulosa qilib aytganda, bank aktivlari, passivlari, kapitali, daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobvaraqlar alohida bo'limlarga kiritilgan, ya'ni,

- I - bo'lim 10000 - Aktivlar,
- II - bo'lim 20000 - Passivlar,
- III - bo'lim 30000 - Kapital,
- IV - bo'lim 40000 - Daromadlar,
- V - bo'lim 50000 - Xarajatlari,

VI - bo'lim 90000 - Ko'zda tutilmagan holat bo'yicha (balansdan tashqari) hisobvaraqlar

Yangi hisobvaraqlar rejası bosh buxgalteriya kitobidagi hisobvaraqlar tizimini ifodalaydi. Ular moliyaviy operatsiyalarni guruhlashtirish, ikki yoqlama yozuvni amalga oshirish, hisobotlarni tuzish va tablil qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, bunda quyidagilar:

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия чисобининг хисобварақлари  
режаси УчР АВ 13.08 2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (яниги таҳрири)

birinchidan, barcha hisobvaraqlarning asosiy va yordamchi kitoblarda joylashuvini osonlashtirish; ikkinchidan, hisobvaraqlarni guruhlash va turkumlash; uchinchidan, hisob ishlarini kompyuterlashtirish; to'rtinchedan, operatsiyalar bo'yicha yozuvlarni bajarishni tezlashtirishni ta'minlash mumkinligi hisobga olingan. Hisobvaraqlar rejasidagi hisobvaraqlar Bosh daftar uchun beshta raqamdan iborat qilib kodlashtirilgan va ularning raqamlanishi quyidagi ko'rinishga ega.

S MM SS Bunda, S - schetlar kategoriyasini bildiradi, ya'ni 1 aktivlar, 2 - passivlar, 3 - kapital, 4 - daromadlar, 5 - xarajatlar, 9 - ko'zda tutilmagan holatlarni ifodalaydi. M - yuqorida sanab o'tilgan kategoriyalardan biriga qarashli asosiy schet, ya'ni, 01 bank aktivlaridan biri bo'lgan naqd pullarni bildiradi. SS asosiy hisobvaraqlarga qarashli bo'lgan subschet hisoblanadi. Masalan, 10000 - aktivlarni, 10100 - «Aktivga qarashli naqd pullarni» bildiruvchi asosiy hisobvaraqlar, 10101 - «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullari»ni anglatadi. Demak, 1 - aktivlar, 01 - naqd pullar, 01 - kassadagi naqd pullar bo'yicha ma'lumot beradi. Boshqa barcha kategoriya qarashli hisobvaraqlar ham xuddi shunday tartib raqamlanadi. Masalan: 10100 - «Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari» deb nomlanadi va quyidagi shaxsiy varaqlarni o'z ichiga oladi. 10101 - «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar», 10105 - «Cheklar va boshqa kassa hujjatlari», 10109 - «Yo'lfdagi pullar» bo'yicha ma'lumot beradi.

Xuddi shunday misolni «Passivlar» kategoriyasi bo'yicha bank passivlari talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit» hisobvaraqlaridan boshlanadi ya'ni, 20200 - «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit» hisobvaraqlari, bunda 2 passivlar kategoriyasini, 02 esa shu passivlarga tegishli asosiy hisobvaraqlarini bildiradi. Korxona va tashkilotlar o'zlarining ortiqcha pul mablag'larni jamg'armali (20400) yoki muddatli (20600) depozitlarda saqlashlari mumkin. Bu asosiy hisobvaraqlar ham talab qilib olnadigan depozitlar hisobvaraqlari kabi raqamlanib, o'z ichiga yuqorida ko'rsatilgani kabi 6 ta qo'shimcha hisobvaraqlarni oladi. Hisobvaraqlar rejasining qolgan bo'limlari ham xuddi shunday tartibda raqamlanadi.

## **1.5. Bank balansining tuzilishi va operatsiyalar natijasida balansdagi o'zgarishlar**

Tijorat banklarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning analitik va sintetik hisob ma'lumotlari birlamchi ma'lumotlar hisoblanadi. Shu

boisdan, ushbu hisob ma'lumotlarning bosh hamda yordamchi kitoblarda to'g'ri rasmiy lashtirilishi buxgalteriya hisobini yuritishni osonlashtiradi. Shuningdek, ularni banklarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari tizimida aks ettirishga yaqindan yordam beradi. Bu, o'z navbatida, bankning buxgalteriya balansini tuzishga sharoit yaratadi. Buxgalteriya balansi ikki qismdan: aktiv va passivdan iborat bo'lib, ularning o'zaro tengligi balansning to'g' n tuzilganligini, ya'ni, bankning ish kuni to'liq yakunlanganligini ifodalaydi.

Banklarda amalga oshirilgan operatsiyalar ro'y berishidan qat'iy nazar har doim tegishli hisobvaraqlarda 2 yoki undan ortiq hisobvaraqlarda aks ettiriladi, ya'ni ikkiyoqlama yoziladi. Ikki yoqlama yozuv - bu ro'y berayotgan operatsiyalar yuzasidan vujudga keladigan o'zgarishlarni hisobvaraqlar tizimi orqali ifodalashdir. Ikki yoqlama yozuv usulining ahamiyati shundaki. uning yordamida, hisob ishlari to'g'ri yuritilayotganligini nazorat qilib borish imkoniyati yaratiladi. Ikkiyoqlama yozuv buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi. Operatsiyalarni bir hisobvaraqaqning debeti va ikkinchi hisobvaraqaqning kreditida aks ettirishga buxgalteriya o'tkazmasi deyiladi. Buxgalteriya o'tkazmasining ikki turi mavjud bo'lib, oddiy va murakkab o'tkazmalardan iboratdir. Oddiy buxgalteriya o'tkazmasi - bu bir hisobvaraqaqning debetlanishi va ikkinchi hisobvaraqaqning kreditlanishidir. Murakkab buxgalteriya o'tkazmasi esa - bir hisobvaraqaqning debetlanishi va bir necha hisobvaraqlarning kreditlanishi yoki bir necha hisobvaraqaqning debetlanishi va bir hisobvaraqaqning kreditlanishidir.

Bank faoliyatini amalga oshirish davomida turli operatsiyalar ro'y berib, bu operatsiyalar natijasida ushbu bankka tegishli bo'lgan bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari tarkibiy hamda qiymat jihatidan o'zgaradi. Demak, tabiiyki, mablag'lar va ular tashkil topish manbalarining o'zgarishi natijasida balansda ham o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi. Sababi, o'zgarish natijasida mablag'larning o'zaro ikki turi yoki mablag' manbalari turlarining ikki yoki undan ortig'i o'zgarishi yoki ham mablag' ham ularning tashkil topish manbalari o'zgarishi mumkin. Bank operatsiyalari amalga oshirish natijasida balansda o'zgarishlar ro'y berishining ta'sirini 4 turga ajratish mumkin va ular quyidagicha bo'ladi:

1. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko'paysa, aktiv tomonidagi boshqa bir moddasi kamayadi, lekin balansning jami summasi o'zgarmaydi. Masalan: bank kassasidan safar

xarajatlari uchun hisobdor shaxsga 50000 so'm bo'nak (avans) berildi.  
Bunda;

| Dt               | 19908 | Kt | Dt               | 10101          | Kt |
|------------------|-------|----|------------------|----------------|----|
| Kun boshiga qol: |       |    | Kun boshiga qol. |                |    |
| 150000           |       |    | 400000           |                |    |
| 1) 50000         |       |    |                  | 1) 50000       |    |
| obor: 1) 50000   |       |    |                  | obor: 1) 50000 |    |
| Kun oxiriga qol: |       |    | Kun oxiriga qol: |                |    |
| 200000           |       |    | 350000           |                |    |

2. Balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko'pysa, passiv tomonidagi boshqa bir moddasi kamayadi, lekin balansning jami summasi o'zgarmaydi. Masalan: mijozning talab qilib olunguncha saqlanadigan mablag'idan 200000 so'm muddatli depozitga o'tkazildi. Bunda;

| Dt              | 20208            | Kt | Dt | 20408            | Kt |
|-----------------|------------------|----|----|------------------|----|
|                 | Kun boshiga qol: |    |    | Kun boshiga qol: |    |
|                 | 2200000          |    |    | 1200000          |    |
| 1) 200000       |                  |    |    | 1) 200000        |    |
| obor: 1) 200000 |                  |    |    | obor: 1) 200000  |    |
|                 | Kun oxiriga qol: |    |    | Kun oxiriga qol: |    |
|                 | 2000000          |    |    | 1400000          |    |

3. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko'pysa, balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ham ko'payadi, balansning jami summasi ham shu summaga ortadi. Masalan, Jismoniy shaxsdan 100000 so'm jamg'arma depozit qabul qilindi, bunda;

| Dt               | 10101 | Kt | Dt               | 20406    | Kt |
|------------------|-------|----|------------------|----------|----|
| Kun boshiga qol: |       |    | Kun boshiga qol: |          |    |
| 350000           |       |    |                  | 1)       |    |
| 300000           |       |    |                  | obor: 1) |    |
| 1) 100000        |       |    |                  |          |    |
| 100000           |       |    |                  |          |    |
| obor: 1) 100000  |       |    |                  |          |    |
| 100000           |       |    |                  |          |    |
| Kun oxiriga qol: |       |    | Kun oxiriga qol: |          |    |
| 450000           |       |    | 400000           |          |    |

4. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi kamaysa, balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ham kamayadi, balansning jami summasi ham shu summaga kamayadi. Masalan, Jismoniy shaxsnинг arizasiga asosan jamg'arma depozit hisobvarag'idan 50000 so'm hisobdan chiqarildi, bunda;

| Dt               | 10101    | Kt | Dt             | 20406 | Kt               |
|------------------|----------|----|----------------|-------|------------------|
| Kun boshiga qol: |          |    | Kun boshiga    |       |                  |
| qol:             |          |    | 1) 70000       |       | 400000           |
| 450000           |          |    | obor: 1) 70000 |       |                  |
|                  | 1) 70000 |    | 1) 70000       |       |                  |
| Kun oxiriga qol: | 380000   |    | obor: 1) 70000 |       |                  |
|                  |          |    |                |       | Kun oxiriga qol: |
|                  |          |    |                |       | 330000           |

Yuqorida keltirilgan to'rtta operatsiya yuzasidan bank balansida quyidagicha o'zgarishlarni kuzatish mumkin:

#### Bank balansi\*

20 vil holatiga

| Aktiv   | O'zgarish-gacha        | O'zgarish (-,+)             | O'zgarish-dan so'ng        |
|---|------------------------|-----------------------------|----------------------------|
| 10101- Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar  | 400000                 | -50000<br>+100000<br>-70000 | 380000                     |
| 13101- Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar                 | 2500000                | -                           | 2500000                    |
| 16103- Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisob- kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar             | 5000000                | -                           | 5000000                    |
| 16509-Bankning imoratlari-Binolar va boshqa imoratlari  | 6450000                | -                           | 6450000                    |
| 19908-Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar                                   | 150000                 | +50000                      | 200000                     |
| <b>Jami aktivlar</b>  | <b>14500000</b>        | <b>+30000</b>               | <b>14530000</b>            |
| <b>Passiv</b>   | <b>O'zgarish-gacha</b> | <b>O'zgarish (-,+)</b>      | <b>O'zgarish-dan so'ng</b> |
| <b>Majburiyatlar</b>  |                        |                             |                            |
| 20208- Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari | 2200000                | -200000                     | 2000000                    |

|   |                |                   |                 |
|---|----------------|-------------------|-----------------|
| <b>20210- Davlat korxona, tashkilot va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari</b> | 3000000        | -                 | 3000000         |
| <b>20406- Jisruoni shaxslarning jamg'arma depozitlari</b>   | 300000         | +100000<br>-70000 | 330000          |
| <b>20408- Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning jamg'arma depozitlari</b>              | 1200000        | +200000           | 1400000         |
| <b>20410-Davlat korxona tashkilot va muassasalarining jamg'arma depozitlari</b>                             | 800000         | -                 | -               |
| <b>Jami majburiyatlar</b>   | <b>7500000</b> | <b>+30000</b>     | <b>7530000</b>  |
| <b>Kapital</b>  |                |                   |                 |
| <b>30315- Chiqarilgan ustav kapitali-Imtiyozli</b>  | 300000         | -                 | 300000          |
| <b>30318- Chiqarilgan ustav kapitali-Oddiy)</b>   | 2700000        | -                 | 2700000         |
| <b>30903- Umumiy zaxira fondi</b>   | 750000         | -                 | 750000          |
| <b>31206- Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv )</b>   | 3250000        | -                 | 3250000         |
| <b>Jami kapital</b>   | <b>7000000</b> | <b>-</b>          | <b>7000000</b>  |
| <b>Jami passivlar</b>   | <b>1450000</b> |                   | <b>14530000</b> |

\* Ma'lumotlar shartli ravishda berilgan.

Shunday qilib, tijorat banklarida analitik va sintetik hisob ma'lumotlarining dastlabki hisobi har bir hisobvaraqlar bo'yicha o'z vaqtida aniq hamda to'g'ri rasmiylashtirilishi, ularning qayta ishlanshi buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishni yengillashtiradi va balans hisobotlarini tuzishni tezlashtiradi, shuningdek, bankning ish kuni yakunlanishiga yordam beradi.

### Qisqa xulosalar

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish - uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanishidir. Chunki banklarda buxgalteriya hisobi korxona va tashkilotlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobidan farqli o'laroq, hisobni yuritishdagi operativliligi, aktiv va passivlarni real baholashning mavjudligi, kapitaldan samarali foydalanish imkoniyatining realligi, kundalik mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarning o'z vaqtida ramiylashtirilishi va shaxsiy hisob varaqalarga to'g'ri o'tkazilib, kundalik balans tuzish orqali umumylashtirish asosida nazorat qilish xususiyatlari bilan keskin farq qilishlidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bugungi kunda banklarda buxgalteriya hisobining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Banklarda buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Bank operatsiyalari qanday turkumlanadi?
5. Buxgalteriya apparatining tarkibi kimlardan tashkil topadi?
6. Buxgalteriya apparatini kim boshqaradi va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish qaysi me'yoriy hujjadar asosida tartibga solinadi?
8. Buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi necha bo'limdan iborat va ularning farqlanishini aytib bering?
9. Banklarda tuziladigan buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilarning manfaatlari nimadan iborat?
10. Bank balansi deganda nimani tushunasiz?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги конуни 30.08.1996 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Банк ва банклар фаолияти тўғрисида»ги конуни. 25.04.1996 й.
3. Ўзбекистон Республикаси тиҷорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).
5. Маренков Н.Л. Международные стандарты бухгалтерского учета, финансовой отчетности и аудита в Российских фирмах. - М.: Едиториал УРСС., 2005. - 296 с
6. Банк В.Р Организация и бухгалтерский учет банковских операций: Учеб. пособие. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 350 с.
7. Наврӯзова К.Н. ва бошқалар, Банк ҳисоби, Ўқув кўлланма, -Т., «Фан ва технология», 2006.
8. [www.gazp.ru](http://www.gazp.ru) (Халқаро стандартлар)
9. [www.buhgalt.ru](http://www.buhgalt.ru) (Российский журнал «Бухгалтерский учет»)

## **2-boz. BANKLARDA HUJJATLASHTIRISH VA HUJJAT AYLANISHI**

### **2.1. Tijorat banklarida ish kuni va hujjatlashtirish tartibi**

Buxgalteriya xodimlarning ish kuni shunday tashkil etilish lozimki, bunda kelayotgan hisob-kitob-pul hujjatlari o'z vaqtida ijro etilishi hamda ular hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya hisobida aks etirilib, kundalik balans tuzilishini ta'minlashlari lozim. Shu boisdan tijorat banklarining buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan usullardan bin hujjatlashtirish bo'lib, uning ahamiyati xo'jalikni yuritishda boshqaruvni oqilona tashkil etishda, shuningdek, hisob ishlarni yuritishning oldiga qo'ygan asosiy vazifa hamda talablariga javob berish zarur. Bunda banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda bajarilgan operatsiyalarini hujjatlashtirish va hujjatlar aylanishi amaldagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Banklarda ish kuni va hujjatlashtirishni tashkil etishda quyidagi asosiy talablar bajariladi:

- ish kunining birinchi yarmida bankka kelib tushgan barcha hisob-kitob-pul hujjatlari shu kunning o'zida qabul qilinishi, rasmiy lashtirilishi va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks etirilishi hamda operatsiya kuni tugagandan keyin bankka kelib tushgan hisob-kitob-pul hujjatlari, keyingi ish kunida mijozlarning hisobvaraqlariga kiritilishi;

- operatsiya kuni davomida mijozlardan hisob-kitob-pul hujjatlarini bevosita buxgalteriya xodimlarning o'zları qabul qilib olishi, operatsiya kunitan tashqari vaqtarda hujjatlar bankka maxsus qurilmalar orqali topshirilishi;

- operatsiyalar hajmini tartibga solib turish uchun har bir bankda doimiy ravishda bankka katta miqdorda to'lov hujjatlari taqdim etib turadigan asosiy mijozlardan hujjatlarni qabul qilish grafigi belgilanishi.

- ijro uchun qabul qilingan bank mijozlarining hisob-kitob va kassa operatsiyalarini buxgalteriya xodimlari tomonidan operatsiya kuni davomida amalga oshirish;

- barcha hisob-kitob-pul hujjatlari bo'yicha talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan amalga oshiriladigan to'lovlari, jumladan, budjetga ajratmalar va ish haqi uchun to'lovlari faqat ushbu

<sup>3</sup> "Бухгалтерий тасобида хужжатлар ва хужжатлар майланни тұрғында" номд. ҰзР АВ томонидан 14.01.2004 йылда 1297-сон башын рұбылты олиеган

**hisobvaraqlarda mablag` bo`lgan taqdirda amalga oshirilishini nazorat qilishlari lozim.**

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olib, har bir bankda mijozlarga xizmat ko`rsatish grafigi tuzilishi zarur. Unda xo`jalik yurituvchi subyektlarga hisob-kitob-kassa xizmatlarini ko`rsatishning aniq vaqtini hamda ularni qayta ishslash vaqtini, mijozlarga xizmat ko`rsatish va hujjatlarni qabul qilish grafigini bank rahbari tomonidan tasdiqlanishini talab etadi.

Banklarda hujjatashtirish xususiyatlariga ko`ra turkumlarga ajratiladi, bunday guruhlashga sabab, hujjatlashturish ishlarini, ulardan hisob ishlarida foydalanishni hamda ularning aylanishini va saqlashini osonlashtirishdir. Hujjatlar tuzilishi tartibiga, vazifasiga, operatsiyalarni aks ettirishiga, qaerda tuzilishi xususiyatlariga ko`ra turkumlarga ajratiladi. Tuzilish tartibiga ko`ra, dastlabki va yig`ma hujjatlarga bo`linadiki, buni quyidagicha izohlash mumkin: biror bir operatsiya amalga oshirilganda albatta, hujjatlashturilishi lozim.

Dastlabki hujjatlar qayta ishlanib, guruhlarga ajratiladi va yig`ma hujjatlar shaklida tikiladi hamda bu hujjatlar ma`lum bir davr ichida ro`y bergan operatsiyalar yuzasidan to`la ma`lumotlar olish imkoniyatini beradi. Yig`ma hujjatlarga bank amaliyotida sodir bo`lgan hisob-kitob-pul hujjatlari, kassir hisobotin misol tariqasida kelurish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda hujjatlar ya`ni, ularning bajaradigan vazifasiga ko`ra 5 turga: farmoyish beruvchi hujjatlar; tasdiqlovchi hujjatlar; farmoyish-tasdiqlovchi hujjatlar; rasmiylashtirish hujjatlari; axborot hujjatlariga ajratiladi.

Hujjatlar qaerda tuzilishiga ko`ra ikki turga bo`linadi: bankning o`zida tuzilgan hujjatlar; xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan (mijozlar) tuzilgan hujjatlardir.

Banklarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan sharoitlarda hujjatlarning rekvizitlari kod ko`rinishida aks ettirilishi mumkin. Hujjatlardagi rekvizitlar aniq va to`g`ri holda kimyoiy qalamda, shariqli, siyohlari ruchkada, yozuv mashinalari orqali aks ettirilishi mumkin. Hujjatlardagi yozuvlarni oddiy qalamda yozishga ruxsat etilmasligiga sabab, hujjatlar arxivlarda uzoq saqlanishi davomida yozuvlarning to`liq saqlanishini ta`minlashdir. Hujjatlashtirish jarayonida blankalardagi maxsus qatorlarda bo`sh qolganlariga chiziq tortilishi, bu mumkin bo`lmagan yozuvlar yozilishining oldi olinadi.

Shuningdek, operatsiyalar tig'izligi bir me'yorda bo'lishini ta'minlash va hujjatlashtirish ishlarni tezlashtirish va sifatlari amalga oshirish maqsadida banklarda mijozlarga xizmat ko'rsatish grafigi ishlab chiqiladi.

Ushbu grafikda hujjatlarga ishlov beriladigan barcha uchastkalardan o'tishi kerak bo'lgan aniq vaqtlar ko'rsatiladi. Bunda ish kuni davomida rasmiylashtirilmagan hujjatlar to'planib qolishiga yo'l qo'ymasligi lozimligi hisobga olinadi. Grafik tuzilayotganda quyidagilar:

- kunlik tushumni qabul qilishga doir hujjatlar pul mablag'larini dastlabki sanash kassasidan buxgalteriya bo'limi xodimlari qo'liga ish kuni boshlanishi oldidan kelib tushishi, bunda ish kuni mobaynida inkassa qilingan naqd pul tushumi hujjatlari kassadagi naqd pul tushumi sanab bo'linmaganligidan qat'iy nazar soat 16.00 dan kechikmay olinishi, kassa daftarlарini esa, kassa ma'lumotlari bilan solishtirish soat 18.00 gacha yakunlanishi;

- ish kunining ikkinchi yarmida mijozlardan qabul qilingan hisob-kitob-pul hujjatlarini to'lash vaqt mobaynida rasmiylashtirilishi;

- mijozlardan kelib tushgan hujjatlar shu mijozlarga imkonli boricha xizmat ko'rsatish vaqtigacha to'lab berilishi;

- bank mijozlarining hisobvaraqlariga mablag'lamni kiritish va chiqarib olish uchun hujjatlar kelib tushganligi hamda ishlov berilganligiga qarab buxgalteryaning bir operatsion xodimidan boshqasiga berilishi kechiktirilmasligi;

- joriy kunning operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlarni XKMiga ular bilan kelishilgan maxsus grafik bo'yicha topshirilishi;

- shaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlarni tekshirish hamda ushbu hisobvaraqlardagi yakuniy natijalarni balans hisobvaraqlari va ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bilan solishtirish kun oxirida yoki keyingi kuni ertalabdan kechiktirmasdan buxgalteriya xodimlari tomonidan amalga oshirilishi;

- hujjatlar ekspertizasi bo'limiga ular rasmiylashtirilishi bilanoq topshirilishi va ekspertiza hujjatlarni qoida bo'yicha ish kuni yakunlanishiga kamida 1,5 soat qolganda qabul qilish to'xtatilishi ta'minlanishi lozim bo'ladi.

Yuqoridagi talablar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar tijorat banklarida ish kuni samarali boshharishni va hisob-kitob-pul hujjatlarini rasmiylashtirishga shuningdek, bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga yaqindan yordam beradi

hamda buxgalteriya bo'limining ish kunini tashkil etish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **2.2. Hisob- kitob - pul hujjatarining rekvizitlari va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Banklarda barcha operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'matilgan shakldagi pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxasi hamda «Bank-mijoz» tizimidan foydalanuvchilardan elektron aloqa orqali olingan elektron to'lov hujjatlari, shuningdek, plastik kartochkalardan foydalangan holda tuzilgan elektron hujjatlar asosida amalga oshiriladi va buxgalteriya hisobida qayd etiladi. Pul hisob-kitob hujjatlar bank tomonidan ijroga faqat mijozning bankka taqdim qilgan muhr va imzo qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslar yoki mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi.

Pul hisob-kitob hujjatlarining majburiy rekvizitlari quyidagilardir:

mijozning nomi va soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR):

- pul oluvchi va pul to'lovchi mijozlar hisobvaraq raqamlari;
- ularga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi;
- hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;
- operatsiyaning nomi, maqsadi va summasi;
- mijoz muhri va mas'ul shaxslarning imzolari.

Hujjatlarda operatsiya maqsadi aniq bayon etilishi lozim. Pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaydi. Bank operatsiyalari qonun hujjatlarida belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan elektron hujjatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Elektron hujjatlar pul hisob-kitob hujjatlarning asl nusxasida belgilangan barcha rekvizitlarga ega bo'lishi shart.

Elektron hujjatlar mas'ul shaxslar imzolari o'mini bosuvchi elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Elektron hujjatlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida ularning biror ko'rsatkichlarini o'zgarturishga yo'l qo'yilmaydi. Pul hisob-kitob hujjatlar bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi:

a) yuridik shaxslardan - asl nusxada imzo namunalari varaqchasiда ko'rsatilgan imzolar namunasi va asosiy muhmming iziga muvofiq mansabdor shaxslarning imzosi hamda asosiy muhri izi mavjud bo'lganda;

b) yuridik shaxs tashkil qilmasdan turib dehqon xo'jaligi va yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan - varaqchada ko'rsatilgan imzolar namunasidan bittasi va asosiy muhrning izi mavjud bo'lganda. Agar bankka taqdim qilingan imzolar namunasi va muhr izi qo'yilgan varaqchada ularning asosiy muhri bo'limgan hollarda, dehqon xo'jaligi va yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan taqdim qilingan pul hisob-kitob hujjatlari muhr izisiz qabul qilishga ruxsat beriladi.

Imzolar o'z egasining qo'li bilan qo'yilishi shart. Barcha pul hisob-kitob hujjatlarida imzo izi tushirilgan faksimilni qo'yish taqiqilanadi. Banklarda naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan bog'liq to'lov hujjatlari «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizom» hamda naqd pul bilan bog'liq operatsiyalari bo'yicha to'lov hujjatlari «Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnomalarida belgilangan blanka shakllaridagi rekvizitlar bo'yicha to'liq va to'g'ri to'ldirib, rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Bank kassasidan naqd pul olish uchun foydalanimagan naqd pul cheklari bir xil rangli siyohli yoki sharikli ruchka bilan qo'lda to'ldirilgan bo'lishi shart. hujjatning to'ldirilmagan qismlarga ikkita parallel chiziq tortilishi lozim. Hisobvaraq egasining nomi, uning hisobvarag'i raqami va bank nomi cheklarda hamda e'londarda burchak shtamplar bilan ko'rsatilishi mumkin. Bankda beriladigan naqd pul hujjatlarida so'z bilan yoziladigan summa salarning boshidan katta harf bilan boshlanishi shart. «Summa raqam bilan» hamda «Summa so'z bilan» rek vizitlaridagi summadan oldin va keyin qolgan bo'sh joylarga uchlari diagonal chiziq bilan birlashtirilgan ikki parallel chiziq tortib qo'yiladi.

Naqd pul chekining old tomonida, albatta, naqd pul olish uchun korxona tomonidan ishonchnoma berilgan shaxsnинг ismi, sharifi yoziladi. hisobvaraq egasi naqd pul cheklarining orqa tomonida xarajatlarning maqsadini ko'rsatishi shart. ushbu ma'lumotlar chek beruvchining imzolari bilan tasdiqlanadi va pul oluvchining pasporti yoki uning o'mini bosuvchi hujjat ma'lumotlari ko'rsatiladi.

Bu ma'lumotlar oluvchilarning o'zлари tomonidan to'ldirilishi shart. Naqd pul berilishi uchun asos bo'ladiyan pul cheklari va chiqim kassa orderlari oluvchilarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Naqd pul cheki bo'yicha mablag' chekda shaxsi ko'rsatilgan shaxsga to'lanadi. Chek bo'yicha pul olish huquqi boshqa shaxsga

topshirilishi man etiladi. Ikkinchı imzo huquqi bilan chekni imzolagan tashkilot bosh buxgalteri yoki bosh buxgalter vazifasini bajaruvchi xodim nomiga yozilgan chek bo'yicha pul to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi. Faqat harbiy qismlar, harbiy tashkilotlar, markazlashtirilgan buxgalteriyalar xizmatidan foydalanmaydigan o'z-o'zini boshqarish organlarining, shuningdek, pul olishiga ruxsat etiladigan boshqa shaxs shtatida bo'limgan tashkilotlar hisobvaraqlariga doir cheklar bundan mustasno. Bu holat hisobvaraq egasi imzolar namunasi varaqchasida qayd etgan tegishli yozuv bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Bank rahbari, ayrim hollarda, chek bo'yicha qisman pul to'lashga va pul oluvchi shaxsga ushbu chek bo'yicha unga amalda berilgan pul summasi to'g'risida ma'lumotnomaga berishga ruxsat etishi mumkin. Ma'lumotnomaga bank rahbari va bosh buxgalteri imzolari qo'yilib, bank muhri bosiladi. Pul oluvchidan olingan pul summasi to'g'risida chekning orqa tomoniga tilxat yozdirib olinadi. Ushbu chek bo'yicha boshqa naqd pul olishga ruxsat berilmaydi va unga qisman to'langani haqidagi ma'lumotnomaning nusxasi ilova qilinib, shu kunning kassa hujjatlariga qo'shib tikiladi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining kassa ijrosi to'g'risidagi yo'rinqnomasi» ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi va ularga qarashli muassasalarining to'lov topshiriqnomalari va cheklarida to'lovlar maqsadi ko'tsatilishi talab qilinmaydi.

Bank operatsiyasini o'tkazish uchun asos bo'ladigan pul hisob-kitob hujjatlarida, ularni to'g'ri rasmiylashtirganligi va tekshirilganligini bildiruvchi bank mansabdor shaxslarining imzolari bo'lishi lozim. Bajarilgan operatsiyalarni isbotlovchi hujjatlar sifatida bankda saqlanadigan hujjat nusxalari hamda hisobvaraqlardan olinib, ularning egalariiga yuboriladigan ko'chirmalarga ilova qilinadigan nusxalar ham ushbu bank xodimlarining imzolari bilan rasmiylishtiriladi.

Pul hisob-kitob hujjatlariga imzo chekish huquqi berilgan mansabdor shaxslar imzolaring namunalari maxsus blankalarda beriladi. Bu namunalar bank rahbarining imzo chekish huquqini berish to'g'risidagi farmoyishi hisoblanadi, ularga bank rahbari va bosh buxgalteri imzo chekadi. Maxsus blankalar shakli bank tomonidan mustaqil belgilanadi. Ayrim buxgalteriya xodimlari boshqalari bilan almashtiriladigan hollarda yangi xodimlar imzolaring namunalari

alohida blankalarda beriladi. Bank mansabdor shaxslari imzolarining bekor qilingan va o'zgartirilgan namunalarini ulaming ustidan chizish yo'li bilan o'chiriladi. Belgilangan hollarda pul hisob-kitob hujjatlariga jo'natma kaliti ham qo'shib, gerbli muhr yoki bank kassasining muhri yoxud bank kechki kassasi apparati qo'yadigan shtamp bosiladi.

Pul va qimmatliklarni qabul qilish hamda berish bilan bog'liq hujjatlar, shu jumladan, pul va qimmatliklar qabul qilingani to'g'risidagi kvitantsiyalarda yuqorida qayd etilgan imzolardan tashqari pul va qimmatliklarni qabul qilgan yoki bergen kassirming imzosi ham bo'lishi shart. Kirim kassa orderlariga hamda pul va qimmatliklarni qabul qilish kvitantsiyalariga imzo chekish huquqi berilgan kassa xodimlarining familiyalari, ulaming imzo namunalari bank rahbari tomonidan chiqarilgan maxsus blankalarda ko'rsatiladi.

Bosh buxgalter imzolarning tegishli namunalari o'z vaqtida kassaga, buxgalteriya xodimlariga va nazoratchi xodimlarga berilib, bu haqda ulardan tilxat olinishini ta'minlashi shart. Bundan tashqari, bosh buxgalter imzo chekish huquqi bekor qilingan shaxslar imzolarining namunalaridan foydalanuvchi mansabdor shaxslar qo'lidagi ro'yxatlardan o'z vaqtida o'chirilishini ham kuzatib borishi shart.

Bankning ichki operatsiyalari bank xodimlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq o'matilgan shakllarda rasmiylashtiriladigan hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunga xususan, memorial orderlar, kirim va chiqim kassa orderlari, ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha memorial orderlar, kredit bo'limi hamda bankning alohida operatsiyalari bo'yicha tayinlangan mutasaddi xodimining farmoyishlari va boshqalar kiradi.

Bank to'lovchi bo'lib ishtirot etgan va memorial orderlar ishlatalgan hollarda, ular bank rahbarining va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlanadi, boshqa holatlarda memorial orderlar ushbu bank hisobvarag'ini olib boruvchi buxgalter va bosh buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi. Muddatida to'lanmagan pul hisob-kitob hujjatlari (2-kartotekaga kirim qilingan to'lov talabnomalari, to'lov topshiriqnomalari va inkasso topshiriqnomalari)ni qisman to'lash maqsadida tuzilgan memorial orderlarda operatsiya mazmunini bildiradigan matn o'miga uning shartli belgisi - «1» va «2» raqamlari hamda to'lov talabnomasi yoki topshiriqnomasining tegishli raqami va sana ko'rsatilishi shart.

Bank tuzgan hujjatlarda ularning raqamlari qayd etiladi. E'lolar, shuningdek, ularning kvitantsiya raqamlarining tartibi bank bosh buxgalteri tomonidan belgilanadi. Pul qabul qilinganligi to'g'risida to'lovchiga kvitantsiya beriladigan hollarda bank xodimi pul qo'yuvchiga berilgan kvitantsiya raqamining oxirgi uch raqamini e'longa yozib qo'yadi. E'lolar kompyuter texnikasi yordamida tuzilishi mumkin. Texnik imkoniyati mavjud bo'lmagan banklarda esa e'lolar qo'lda yozib to'ldiriladi. Bunda, naqd pul qabul qilingani to'g'risidagi kvitantsiyalar faqat siyohli yoki sharikli ruchka bilan qo'lda to'ldirilishi shart. Faqat blankalar komplektiga kiradigan, bir vaqtning o'zida qora qog'oz bilan to'ldiriladigan kvitantsiyalar bundan mustasno.

Bank tomonidan beradigan kvitantsiyalarda so'z bilan yoziladigan summa satrning boshidan katta harf bilan boshlanishi shart. «Summa raqam bilan» rekvizitidagi summadan oldin va keyin qolgan bo'sh joyga ikki parallel to'g'ri chiziq tortib qo'yiladi. Pul omborida saqlanayotgan qimmatliklar va hujjatlarni kirim qilish va hisobdan chiqarishga doir kirim-chiqim orderlarida yakuniy summalar so'z bilan qayta yoziladi.

Kirim va chiqim kassa jurnallari kompyuter texnikasi yordamida tuziladi. Unda sana, mijozning hisobvaraq raqami, kirim va chiqim hujjatining raqami, hisobot ramzi hamda uning summasi ko'rsatilishi lozim. Shuningdek, ushbu kassa jurnallari kirim va chiqim hujjatlarni dastlabki nazoratdan o'tkazgan mas'ul ijrochi va kassirning imzolari bilan tasdiqlanishi shart.

Bank kunlik operatsiyalar yig'majildiga tikish va saqlash uchun chiqariladigan elektron to'lov hujjatlarining ro'yxati hamda mijozlar tomonidan taqdim qilingan pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bankning mas'ul xodimlari imzosi va bank shtampi bilan tasdiqlanadi.

### **2.3. Tijorat banklarida ichki nazorat va hujjat sylanishini tashkil etish**

Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to'g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini, mavjud va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta'minlaydi.

**Banklarda buxgalteriya hisobi ishlarni yuritish va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo'yicha javobgarlik belgilangan. Shuningdek, quyidagi larni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:**

hisob-kitob, kassa, valuta kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettiresh;

- bank aktivlari, majburiyatlar, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardag'i o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiy lashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashturishni tashkil etish;

bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini doimiy ichki nazorat va auditdan o'tkazish. ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiy lashtirish imkoniyatini yaratish;

- zamонавиев компютер техникаси vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarni yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag' sarfini qisqartirish.

**Belgilangan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish to'g'risidagi talablari barcha banklar uchun majburiydir.**

Banklar belgilangan asosiy qoidalar doirasida o'zlarining ish xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki buxgalteriya hujjatlapini yuritish tartibini belgilashlari mumkin.

Bank xodimlari buxgalteriya hisobida aks ettirilgan bank siriga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi qonumi talablariga qat'iy amal qilgan holda sir saqlashlari lozim.

Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to'g'ri tashkil etilishi va nazorat qilish maqsadi quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniлади:

- bank amaliyat kuni - bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt;

bank buxgalteriya apparati pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi;

- bank ish kuni - qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'matilgan ish vaqt;

- bank operatsiyalari ichki nazorati - bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash tizimi.

Ichki nazorat ma'lum yoki aniq vaqt mobaynida amal qilinishi lozim bo'lgan tartib yoki qoida bo'lmasdan, balki u bankning barcha bo'g'inalrida kunlik bank operatsiyalarning boshlanishidan tortib tugagunga qadar doimiy yuritiladigan bank faoliyatining ajralmas qismidir.

Ichki nazorat, o'z navbatida, dastlabki nazorat, jony nazorat va yakuniy nazoratga bo'linadi:

- bosh kitob hisobvaraqlar rejasidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlari qoldiqlarining ro'yxati;

buxgalteriya hisobi registrlari ikkiyoqlama yozuv usulida operatsiyalar qayd etiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlari va tasdiqlangan blanklar;

Bek-ofis - bankning tarkibiy qismi bo'lib, Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tgan va ijro uchun taqdim qilingan operatsiyalarni joriy nazoratdan o'tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi buxgalterlar gurumi.

Bek-ofisning asosiy vazifasi Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilib, ma'qullangan barcha bank operatsiyalarni qaytadan joriy nazoratdan o'tkazib, ularni ikkiyoqlama yozuv yordamida buxgalteriya registrlarida qayd etish va tegishli hisobotlar tayyorlashdan iborat.

Bek-ofis mijozlar bilan bevosita muloqotda bo'lmaydi. U, mijozlar operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha Front-ofis bilan, bankning ichki moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha bank ma'muriyati bilan aloqada bo'ladi.

Bek-ofisga Bek-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi va u, o'z navbatida bank rahbariga bo'yusunadi:

dastlabki nazorat Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat:

- yordamchi kitob - bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek, alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar;

joriy nazorat Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat. Joriy nazorat pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarining bir-biriga mosligini tekshirishni ham o'z ichiga oladi;

- mas'ul ijrochi buxgalter - mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter;

- minibank - bank filiali binosidan tashqarida, lekin o'zi joylashgan viloyat-shahar hududida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi;

- nazoratchi buxgalter - mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilgan barcha bank operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazib amalga oshiruvchi buxgalter;

Front-ofis bankning tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjalarda nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda ularga barcha bank xizmatlari ko'rsatuvchi xodimlar guruhi. Ushbu guruhga Front-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi.

Front-ofisning asosiy vazifasi mijozlar topshirig'i hamda bank ichki faoliyati bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan operatsiyalarining qonunchilikka mos ekanligini aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlashdan iborat;

- yakuniy nazorat - amaliyot kun tugagandan so'ng, keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter va Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bajarilgan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat;

Yakuniy nazorat bank boshqaruvi tashkil qilgan Yakuniy nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladi va u, faqat bank boshqaruviga bo'y sunadi.

Yakuniy nazorat xizmati buxgalteriya apparati bir butun yaxlit bo'lgan banklarda buxgalteriya apparati ichida, Front-ofis va Bek-ofisiga bo'lingan banklarda esa Bek-ofisi tarkibida alohida bo'lim sifatida tashkil qilinadi.

Banklarda buxgalteriya operatsiyalari 3 usulda: dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratdan o'tkaziladi.

Dastlabki nazorat Front-ofis xodimlari (agar, bank tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofisiga bo'lingan bo'lsa) yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarini bajarmasdan oldin ularning samaradorligini, bankning ichki siyosatiga hamda amaldagi qonunchilikka mos ekanligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar, operatsiyalar xorijiy valutada xalqaro shartnomalar asosida amalga oshirilsa, shartnomaga shartlariga riox a qilinishi lozim.

Mijozlardan pul hisob-kitob hujjalarni qabul qilishda, ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan shakldagi blankda yozilib to'g'ri rasmiylashtirilganligi, barcha rekvizitlar to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, ushbu pul hisob-kitob hujjalarda bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l

qo'yilmaganligi, shu jumladan, hisobvaraqnini tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Agar, mijoz taqdim qilgan pul hisob-kitob hujjatlari belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, to'lov hujjatlari mijozga ijroga qabul qilinmasdan qaytarilishi lozim. Summasi, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan to'lov hujjatlari, hatto mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda tuzatish kiritilgan bo'lsa ham ijro uchun qabul qilinmaydi.

To'lov talabnomalari sana bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri bor bo'lgan holatda inkassaga qabul qilinadi. Agarda bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning talab qilib olguncha depozit hisobvarag'ida to'lov uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi. Budgetga va budgetdan tashqari jamg' armalarga to'lovlari bo'yicha taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari mijozning hisobvarag'ida to'lov uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'limganda 2-son kartotekaga kirim qilinadi.

To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniладigan elonlarning sana uni barikkka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, aks holda, ular ijro uchun qabul qilinmaydi. Mas'ul ijrochi buxgalter yoki Front-ofis xodimi to'lov hujjati nusxalarini imzolashdan oldin, ularni solishtirib, o'zaro bir xilligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shundan so'ng, ijro etish sana ko'rsatilgan holda mas'ul xodim imzosi bilan tasdiqlangan va unga biriktirilgan bank shtampi qo'yilgan hujjatning oxirgi nusxasi mijozga qaytariladi. Ushbu nusxa hujjatlar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlovchi tilxat vazifasini bajaradi.

Naqd pulni berishda ishlataladigan cheklar to'ldirilgan kundan boshlab, 10 kalendar kun davomida bank tomonidan qabul qilinadi. Mas'ul xodim qabul qilingan naqd pul chekining sanani, chekni topshirgan xo'jalik subyektining nomini va hisobvaraqlari raqamini, olinadigan mablag'ning raqam va so'z bilan yozilgan summasini tekshiradi, chekdagi imzolar va muhr izini o'zidagi imzo namunalari bilan solishtiradi. Shuningdek, naqd pul cheklarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqadi.

Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalter mijozlardan qabul qilingan barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalariga asosan

ma'lumotlarni dasturga kiritadi va to'lov hujjatlarini imzolab, elektron to'lov tizimi orqali ularni joriy nazoratdan o'tkazish uchun Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalterga yuboradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter bank ichki hujjat aylanish tartibiga asosan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterdan kelib tushgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilgandan keyin joriy nazoratni amalgalashadi.

Joriy nazoratda dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nusxalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi qaytadan tekshiriladi hamda ulardag'i imzolar va muhr izini o'zlarida mavjud imzolar va muhr izi namunalari bilan solishtiriladi. To'lov hujjatlarining asl nusxasida Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini hamda ularni o'zida mavjud bo'lgan imzo namunalaringa mos kelishini tekshiradi. Shuningdek, Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalteri pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter naqd pul cheki va e'lonnomani o'matilgan tartibda tekshirib, ularni imzolab Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterga qaytaradi. Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bankning ichki moliya-xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nusxalari hamda ushbu operatsiyalarni amalgalashadi. Bo'lgan bank tegishli bo'linmalarining Xizmat farmoyishlarining nusxalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

Pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari yoki ularning elektron faylida xato va kamchiliklar aniqlanganda, Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekmasan ularning xato va kamchiliklarini ko'rsatgan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterga ijrosiz qaytaradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan joriy nazorat natijalari ijobjiy bo'lgan taqdirda, u to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekadi va uni Bek-ofis boshlig'iiga yoki bosh buxgalterga tasdiqlash uchun jo'natadi. Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, daslabki va joriy nazoratdan o'tgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilib oladi va ushbu to'lov hujjatlarida qonunchilik hamda bankning ichki siyosatida

**o'matilgan talablarga niyoq qilinishi bo'yicha urumiy nazoratni amalga oshiradi.**

Bek-ofis boshlig'i yoki Bosh buxgalter barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalariga o'matilgan tartibda imzo chekib, tasdiqlaydi va buxgalteriya o'tkazmalarini amalga oshiradi. Bank rahbari buyrug'i bilan to'lovlarini tasdiqlash boshqa bank xodimiga topshirilishi mumkin.

Banklarda amaliyot kuni yakunlangandan so'ng, kunlik operatsiya hujjatlari o'rnatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib yakuniy nazoratdan o'tkazish uchun yakuniy nazorat xizmati xodimlariga topshiriladi va ularga elektron ma'lumotlar bazasiga kirish uchun ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat xizmati tomonidan kevingi bank ish kunitdan kechikmagan holda elektron ma'lumotlar bazasiga kirib, bankda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Bosh va yordamchi kitoblardagi amal qilib turgan shaxsiy hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettiliganligini pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bilan solishtirib tekshirishdan o'tkazilishi shart. Tekshirish natijalari dasturiy bayonnomaga bilan rasmiylashtirilishi va kunlik yig'majildga tikilishi shart.

Kunlik chop etilib, yig'majildga tikilgan balans ma'lumotlari bilan uning elektron balans ma'lumotlari bir-biriga mos kelmagan holda, zudlik bilan rahbariyatga ma'lumot beriladi va shu kunning o'zida uning sababları to'g'risida Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter va xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish xizmati xodimlari ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Bundan tashqari, yakuniy nazorat xodim bank operatsiyalarini bajarish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilishga va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada to'g'ri va maqsadga muvofiq bajarilganligi bo'yicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.

### **Qisqa xulosalar**

Tijorat banklarida ish kuniti tashkil qilish – bank mijozlari uchun sifatli xizmat ko'rsatish demakdir. Shuningdek, mijozlardan qabul qilingan hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarining to'g'riliqi va ularning ichki nazoratini ta'minlashdan iboratdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Banklarda ish kuni va hujjatlar aylanishi tashkil etishda qanday asosiy talablar belgilangan?

2. Banklarda ichki nazorat qanday tashkil etiladi?
3. Nima uchun banklarda barcha operatsiyalar hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi?
  4. Bankning operatsion kunini kim tashkil qiladi?
  5. Banklarda hujjatlar aylanishini kim nazorat qiladi?
  6. Buxgalteriya xodimi mijozlardan hisob-kitob-pul hujjatlarini qabul qilishda nimalarga e'tibor berishlari shart?
  7. Banklarda kredit operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishining chizma shaklini ko'rsating.
  8. Banklarda joriy nazorat deganda nimani tushunasiz?
  9. Banklarda tekshiruv natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
  10. Banklarda ish kunini va ularda hujjatlar aylanishini tashkil etish uchun qaysi qonuniy hamda me'yoriy hujjatlardan foydalilanadi?

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банклардаги депозит хисобварақлардан накд пул тўловларини узлуксиз таъминлаш кафолатлари тўғрисида» ги 05.08.2005 йилдаги ПК-147-сонли қарори
2. Ўзбекистон Республикаси банк тизимида бухгалтерия хисобини юритишга оид конунчиллик хужоатлари тўплами. Т.. Ўзбекистон, 2003. - 317 б.
3. «Бухгалтерий хисобида хужоатлар ва хужоатлар айланиши тўғрисида» низом. ЎзР АВ томонидан 14.01.2004 йилда 1297-сон билан рўйхатга олинган
4. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.
5. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008, стр. 209
6. Наврӯзова К.Н. ва бошқалар, Банк хисоби, Ўқув қўлланма, -Т., «Фан ва технология», 2006.
7. [www.consult.ru](http://www.consult.ru) (Бухгалтерский консультации)

## **3-bob. BANKLARDA ANALITIK VA SINTETIK HISOBNI TASHKIL QILISH**

### **3.1. Tijorat banklarida analitik hisob yuritishni tashkil qilish**

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining haqqoniy va to'g'ri yuritishini tashkil etishda analitik va sintetik hisob ma'lumotlari asosiy manbaa hisoblanadi. Shu boisdan, mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari birlamchi hujjatlar asosida dasturiy yo'l bilan ikki nusxada tayyorlanadi. Ikkinci nusxa shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bo'lib xizmat qiladi va mijozga berilishi yoki jo'natish uchun mo'ljallanadi. Shaxsiy hisobvaraqlarga yozuvlar faqat tegishlicha rasmiylashtirilgan hisob-kitob hujjatlari asosida kiritiladi.

Shaxsiy hisobvaraqlarga quyidagi rekvizitlar: shaxsiy hisobvaraqning nomi; chiqish shaklining raqami; shaxsiy hisobvaraqning tartib raqami; shaxsiy hisobvaraqnini tuzgan bank kodi va nomi; mijozning shaxsiy hisobvarag'i raqami va uning nomi; hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi buxgalterning raqami; uning familiyasi, ismi, otasining ismi; ishlov berish sanasi; hisobvaraqdagi so'nggi harakat sanasi; kun boshidagi qoldiq summasi; kun oxiridagi qoldiq summasi; buxgaltepiya yozuvlapi tartibi bo'yicha raqami; hujjat raqami, hisob-kitob shakli yoki operatsiya turi, vakil bankning FA bo'yicha raqami, debet aylanmasi bo'yicha summasi; kredit aylanmalari bo'yicha summasi; debet aylanmasi bo'yicha umumiyligi summasi; kredit aylanmasi bo'yicha umumiyligi summasi yoziladi. Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar kompyuter yordamida tayyorlansa, ular mijozlarga berilayotganda imzolar va bank shtamplari bilan rasmiylashtirilmaydi.

Kredit aylanmalari bo'yicha o'tkazilgan summalar yuzasidan shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarga hisobvaraq bo'yicha yozuvlar kiritishda asos bo'lgan ilovalar qo'shiladi. Ko'chirmalarga ilova qilinadigan hujjatlarga shtamp, shuningdek, shaxsiy hisobvaraq bo'yicha o'tkazilgan sana kalendar shtempeli bosiladi. Puli to'langan hisob-kitob hujjatlarining mijozlar hisobvaraqlaridan ko'chirmalariga ilova qilinadigan, ishlov berishning dastlabki bosqichidayoq bank shtampi yoki muhri bosiladigan ikkinchi nusxalari, shuningdek, kirim-kassa operatsiyalariga doir hujjatlar yuqorida aytilgan shtamp bilan tasdiqlanmaydi.

Ko'chirmalar mazkur hisobvaraq bo'yicha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslarga yoki ularning ishonchnoma taqdim etgan vakillariga tilxat bilan beriladi. Bunday ishonchnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim va mijoz obuna qutilari orqali ariza topshirganda esa, ko'chirmalar imzosiz beriladi.

Hisobvaraq egasi unga ko'chirmalar berilganidan keyin ikki ish kuni mobaynida bankka hisobvaraq krediti yoki debetiga xato yozilgan summalar haqida yozma ravishda xabar qilishlari lozim. Agar shu muddat ichida mijoz o'z e'tirozini bildirmasa, bajarilgan operatsiyalar hamda hisobvaraqdagi mablag' qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi.

Bank ikki ish kuni o'tganidan keyin mijoz hisobvarag'i kreditida noto'g'ri yozuvlar borligini aniqlasa, mijoz kechiktipilgan har bir kun uchun hisobvaraq kreditidagi umumiy summaning bank xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutilgan foizi miqdorida bankka jarima to'laydi. Bu jarima begonalar mablag'laridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanganliklari uchun undiriladi.

Bank mijozlari hisobvaraqlarining ahvoli to'g'risidagi yozma ma'lumotlarini faqat hisobvaraq egalariga nisbatan yuqori turuvchi tashkilotlarning, shuningdek, sud va soliq organlarining yozma talabiga ko'ra berishi mumkin. Mijoz shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmasini yo'qotib qo'ygan taqdirda, uning dublikati mijoz arizasiga ko'ra bank rahbari yoki uning muovini tomonidan beriladigan yozma ruxsatnomasi asosida berilishi mumkin. Mijoz o'z arizasida ko'chirma yo'qolishi sabablarini ko'rsatishi, arizaga korxona rahbari va bosh buxgalteri imzosi qo'yilgan bo'lishi lozim.

Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirma dublikatlari nusxa usulida olinadi va ko'chirma dublikatiga mijozga xizmat ko'rsatuvchi buxgalter, bosh buxgalter yoki uning muovini imzo chekadi, bank muhri bosiladi, shuningdek, «200\_yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da ko'chirma dublikati berildi» degan yozuv yozib qo'yiladi.

Ko'chirmalar mijozlarga berilgandan yoki jo'natilgandan keyin buxgalter shaxsiy hisobvaraqlarni ularning raqamlari ortib borishi tartibida, ular ichida esa - sanalar bo'yicha saralaydi. Oy tugaganidan keyin ular xuddi shu tartibda balans hisobvaraqlari hamda ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha tikiladi va keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay ro'yxat bo'yicha joriy apxivga topshiriladi.

Shuningdek, yordamchi kitobning boshqa materiallari ham bo'lib, ular ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar uchun ochilgan

kartotekalarda saqlanuvchi hujjatlardan tashkil topadi. Masalan: To'lov muddatini kutayotgan hujjatlar nomli 1-sonli kartotekadagi to'lov talabnomalari; o'z vaqtida to'lanmagan hisob hujjatlari deb nomlanuvchi 2-sonli kartotekadagi to'lov talabnomasi; to'lov topshiriqnomasi; inkasso topshirqnomalari kabi hujjatlar ham tafsiliy hisob uchun asosiy materiallar bo'lib hisoblanadi. Bu hujjatlar harakati bo'yicha ham hisobvaraqlar ochilib, ular ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar deb ataladi. Ular alohida sanalar va hisobvaraq raqamlari bo'yicha tikilib, keyingi oyning 20-sanasigacha bankning joriy arxiviga topshiriladi.

Shunday qilib, tijorat banklarida analitik hisob yuritishda yordamchi kitob, ya'ni, mablag'lar va moddiy boyliklar bo'yicha hisob-kitoblarning har bir turi yuzasidan alohida ma'lumotlar olish imkoniyatlarini o'rghanish mumkin. Bu o'z navbatida, banklarda buxgalteriya hisobi obyektlari bo'yicha ma'lumotlarining obyektivligini va ularni tegishli hujjatlarda rasmiylashtirishning mukammalligini ta'minlashga keng sharoitlar yaratadi.

### **3.2. Tijorat banklarida sintetik hisob yuritishni tashkil qilish**

Buxgalteriya hisobining jahon amaliyotida va hisob yuritishning xalqaro andozalarida jamlama hisob o'miga Bosh kitob, analitik hisob o'miga esa yordamchi kitoblar qo'llaniladi. Buxgalteriya hisobida kitob deb, - hisobvaraqlar guruhiga aytildi. Bosh kitob - bu bank - moliya hisobotlarida (balans hisoboti, daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisobot va boshqalar) ko'rsatiladigan hisobvaraqlar guruhidan iboratdir.

Bosh kitobdag'i hisobvaraqlar umumiylar ma'lumotni aks ettiradi, lekin batassil ma'lumot bilan ta'minlamaydi. Chunki birlamchi buxgalteriya operatsiyalari hisobvaraqlari guruhida batassil ma'lumot beradigan yordamchi kitoblar qo'llaniladi. Bosh kitobda esa, birinchi navbatda, balans hisobvaraqlari bo'yicha jamlama ma'lumotlar qayd etiladi. Yordamchi kitob hisobvaraqlariga nisbatan olganda Bosh kitob hisobvaraqlari nazorat hisobvaraqlari hisoblanadi. Yordamchi kitobdag'i yakuniy summalar har kundagi va oy oxiridagi ma'lumotlarni keyingi oyning birinchi kuni holatiga, Bosh kitob ma'lumotlari summasi bilan bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Shu boisdan, yordamchi kitob ma'lumotlari asosiy o'rinni egallab, ular dastlabki hisob ma'lumotlarining tegishli hisobvaraqlarga qanchalik to'g'ri kiritilishi natijasida hosil bo'ladi.

Bosh kitobning nazorat hisobvaraqlaridagi ma'lumotlari yordamchi kitobdag'i tegishli hisobvaraqlarning yakuniy summalar bilan taqqoslanadi va dastlabki yozuvlarda xato bo'lmasa, summalar teng chiqishini ta'minlaydi. Xorijiy valutadagi operatsiyalar bo'yicha Bosh va yordamchi kitoblar har bir valutaning turi bo'yicha alohida-alohida, mijozlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobi har bir turdag'i mablag'lar va qimmatliklar bo'yicha ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlarda (kartochkalar, kitoblar, jurnallarda) yuritilishi lozim.

Bosh kitob balans hisobvaraqlari bo'yicha yordamchi kitob hisobvaraqlaridagi ma'lumotlar to'plami hisoblanadi va ular quyidagi:

- hisobvaraqlar qoldiqlarining kundalik balanslarini;
- balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalap va qoldiqlar haqidagi jamlama ma'lumotlarni;
- oylik, choraklik va yillik qoldiq aylanma qaydnomalarini;
- kassaning kirim va chiqimi bo'yicha kassa jurnallari ma'lumotlarni;
- mahalliy budgetlarga ajratmalar qaydnomasi bo'yicha ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bundan bosh buxgalterning xohishiga ko'tra, emissiya-kassa operatsiyalar, xorijiy operatsiyalar, shuningdek, «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlari bo'yicha jamlama kartochkalari yuritilishi mumkin. Shu boisdan, biz har bir bosh kitob ma'lumotlarini alohida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ma'lumki, tijorat banklari balansi har kuni tuziladi va balansning har ikki tomonining o'zaro teng bo'lishi bank ishi kuni yakunlanganligi hamda buxgalteriya hisobining analitik va sintetik hisoblari to'g'ri yuritishidan dalolat beradi. Bosh kitob ma'lumotlari qatori kundalik balans dasturiy yo'l bilan kompyuterlar yordamida tayyorlanadi.

Demak, bankning kundalik balansida sana balans ichidagi hisobvaraq raqamlari, aktiv va passiv hisobvaraq qoldiqlari ko'rsatilib, bank ish faoliyatining bir kunlik yakunini ifodalaydi

Bosh kitob ma'lumotlaridan yana biri, balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarning jamlamalaridir. Bunday jamlama ma'lumotlar nafaqat balans hisobvaraqlari bo'yicha qoldiq, balki, hisobvaraqlar debeti va kreditidan o'tgan aylanmalar summasi ham aks ettililadi. Shuning uchun aniqroq ma'lumot olishda hozirgi kunda ko'p banklar kundalik balans bilan birgalikda hisobvaraqlar bo'yicha ham aylanmalar va qoldiqlar yuzasidan jamlama ma'lumolarni tuzib

boradilar. Ushbu bosh kitob ma'lumotlari ham dasturiy yo'l bilan kompyuterlar yordamida tayyorlanadi va tuziladi.

Balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlar haqidagi jamlama ma'lumotlar bank rahbariyatining xohishiga ko'ra, har kuni shu bilan birga aylanmalar va qoldiq summalarining o'sib borish tartibida oylik va choraklik, ya'ni, hisobot davri uchun tayyorlanishi mumkin. Oylik, choraklik va yillik qoldiq aylanma qaydnomalar ham bosh kitob ma'lumotlari bo'lib hisoblanadi. Qaydnomalarning har biri ma'lum bir hisobot davriga tuziladi.

Bankning bir kunlik balansi ma'lumotlari tegishli shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazilganidan keyin tuziladi. Kundalik balans to'g'ri tuzilganligi aktiv va passivlarning (Majburiyatlar + kapital) qoldiqlar bo'yicha yakunlari tengligi orqali. «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlari qoldiqlarining yakuni to'g'riliqi esa, u o'tgan kundagi balans yakuniga balans tuzilay otgan kundagi kredit aylanmalarini qo'shish va debet aylanmalarini ayirish orqali nazorat qilinadi. Balans aktivni balans passiviga (Majburiyatlar hisobvaraqlari qoldiqlari plus kapital hisobvaraqlari qoldiqlari) teng.

Balans bank rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi. Bank rahbari va bosh buxgalteri mijozlarga sislatli xizmat ko'rsatishi, balans o'z vaqtida tuzilishi hamda hujjatlar aylanishi qoidalariga amal qilgan holda tashkil etilishi uchun shaxsan javob beradilar. Shu boisdan, ish kuni oxirida balans tuzilmasa yoki ish kuni mobaynida mijozlarga xizmat ko'rsatish izdan chiqsa, bank bu haqda, shuningdek, yo'l qo'yilgan qoida buzarliklarni bartaraf etish uchun ko'rildigan chora-tadbirlar to'g'risida yuqori bankka xabar qilinadi.

Bosh banklar rahbarlari balans tuzilmagan, hisobotda tartibga solinmagan tafovutlar chiqqanda va bir kun davomida mijozlarga xizmat ko'rsatilishi ta'minlanmagan hollarda bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur barcha chora-tadbirlar ko'radilar.

Bank rahbarlari va bosh buxgalterlari balans chiqmaganligi haqida belgilangan muddatda xabar qilmasalar, ularga nisbatan egallab turgan lavozimlardan ozod qilishgacha bo'lgan choralar ko'rildi. Bosh va yordamchi buxgalteriya kitoblarida, shuningdek, kunlik balanslar va shaxsiy hisobvaraqlarda biron-bir tuzatishlar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Balansa summalarni o'chirib yozish va tuzatish, shuningdek, o'chiruvchi suyuqliklardan foydalaniib, tuzatishlar kiritish.

xatolar borligi aniqlanganda shaxsiy hisobvaraqlar va hujjatlar qayta yozilishi mumkin emas.

Operatsiya kuni yakunlanib, balans tuzilganidan keyin aniqlangan xato yozuvlar ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlar bo'yicha teskari yozuvlar kiritish yo'li bilan tuzatish orderlari asosida tuzatiladi. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning roziligidisiz hisobdan chiqariladi va bu, o'z navbatida, bank xizmati ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada yozib qo'yilgan bo'lishi zarur.

Tuzatish orderlari to'rt nusxada, ularning birinchi nusxasi order bo'lib, ikkinchi va uchinchi nusxalari mijozlar uchun debet va kredit yozuvlari bo'yicha bildirishnomalar, to'rtinchi nusxa esa order kitobchasida tikib qo'yiladi. Bu kitobcha bosh buxgalter yoki uning muovinida saqlanishi va orderlarga boshqa hujjatlarnikidan farqlanadigan tartib raqamlari qo'yilgan bo'lishi lozim.

Tuzatish orderi matnida qachon va qaysi hujjatda xato yozuvga yo'l qo'yilganligi, unga mijoz arizasi sabab bo'lgan bo'lsa, shu sabab ko'rsatilishi zarur. Bunda ordeming to'rtinchi nusxasining orqasiga kimning aybi bilan xatolikka yo'l qo'yilganligi qayd etiladi. ijrochining, shuningdek, noto'g'ri yozuvni nazoratdan o'tkazgan shaxsnинг lavozimi va familiyasi ko'rsatilishi, tuzatish orderlari tuzilishida asos bo'lgan arizalar orderlari bilan birga hujjatlar orasida saqlanishi lozim.

Summasi keyinchalik stomo bilan tuzatilgan shaxsiy hisobvaraqlardagi xato yozuv qarshisiga albatta «Stormolangan» belgisi qo'yiladi, tuzatish kiritulgan sana va tuzatish orderingin raqami ko'rsatiladi, bu qayd tuzatish orderini imzolagan bosh buxgalter yoki uning muovini imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bosh buxgalter tuzatish orderlarining kitobchada qolgan nusxalaridan foydalanib, xodimlarning ishdagi xatolar hisobini yuritadi va ushbu xatolar sabablarini o'rganib ishni yaxshilash choralarini ko'radi. elektron to'lovlar bo'yicha xatolarni memorial orderlar bilan tuzatish esa qat'iyan man etiladi.

Shunday qilib, banklarda buxgalteriya hisobini yurishda sintetik hisob ma'lumotlari asosiy ahamiyatga ega bo'lib, har bir shaxsiy hisobvaraq bo'yicha aylanmalarning dastlabki hisobini kompyuter dasturlarida o'z vaqtida kiritilishi va ularning qoldiqlari kun yakunida to'g'ri hisoblab chiqilganligiga bog'liqdir. Shu boisdan, ushbu ma'lumotlarning naqadar sifatli bajarilishi buxgalteriya xodimlarining bilim va malakasiga bog'liq bo'lib, bunday ishlarni amalga oshirishda

tijorat banklarida buxgalteriya hisobining analitik va sintetik hisobi tushunchalarini chuqur o'zlashtirishlarini talab qiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Tijorat banklarida analitik va sintetik hisobni yiritish – buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarining to'g'ri tashkil qilinishiga zamin yaratishdir. Shu bilan bir qatorda, bankda amalga oshirilgan operatsiyalarni dastlabki hisob shakllari va registrlarda rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Banklarda hisob-kitob-pul hujjatlari bilan bog'liq operatsiyalarni qaysi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
2. Hujjatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Hisob-kitob-pul hujjatlarining asosiy rekvizitlarini ayтиb bering?
4. Analitik hisob deganda nimani tushunasiz va unga misol keltiring?
5. Sintetik hisob deganda nimani tushunasiz va unga misol keltiring?
6. Shaxsiy hisobvaraqlarning rekvizitlarini ayтиb bering?
7. Banklarda bosh kitob va yordamchi kitoblarning asosiy vazifasi nimadan iborat?
8. Banklarda bosh kitob va yordamchi kitoblardagi xatoliklar qanday tuzatiladi?
9. Analitik va sintetik hisob ma'lumotlari o'zaro qanday solishtiriladi?
10. Tijorat banklarining balans hisoboti tuzilishini va ularning moddalarini aytинг?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банклардаги депозит ҳисобвараклардан нақд пул тўловларини узлуксиз таъминлаш кафолатлари тұғрисида» ги 05.08.2005 йилдаги ПК-147-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси банк тизимида бухгалтерия ҳисобини юритишга оид конунчиллик ҳужжатлари тұплами. Т.: Ўзбекистон, 2003. - 317 б.

3. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тўғрисидаги йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатта олинган.

4. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).

5. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.

6. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008, стр. 209

7 Наврўзова К.Н. ва бошқалар. Банк ҳисоби, Ўқув кўлланма, - Т., «Фан ва технология», 2006.

8. [www.gaap.ru](http://www.gaap.ru) (Халқаро стандартлар)

## **4-bob. BANKLARDA ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI**

### **4.1. Asosiy vositalarning turkumlanishi, baholanishi va ularning hisobini yuritishning vazifalari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirishlarida, albatta, birinchi navbatda, moddiy bazasini yaratishlariga katta e'tibor qaratadilar. Shular qatorida, tijorat banklari ham o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida asosiy vositalar bilan to'liq ta'minlanishga harakat qiladilar. Banklar uchun asosiy vositalar eng muhim moddiy asos bo'lib, ularning faoliyati bevosita ularga bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyatini amalga oshirishda bank binosi va boshqa asosiy vositalarini shakllantirgandan so'nggina ish boshlaydilar.

Shu boisdan, tijorat banklarida asosiy vositalardan foydalanish va ularning butligini ta'minlash hamda asosiy vositalarining harakatini buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tijorat banklarida foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarning turkumlanishi, qayta baholanishi va ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, asosiy vositalar to'g'risida to'liq ma'lumot va tushunchaga ega bo'lishni talab qiladi.

Asosiy vositalar deb, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida foydalanadigan, shuningdek, uzoq muddatli ijaraga beriladigan va uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xizmat qiladigan vositalarga aytildi.

Shuningdek, asosiy vositalar ilmiy asoslangan holda o'zining xususiyatidan kelib chiqib alohida turkumladi. Shu boisdan, asosiy vositalar tarmoq belgilariga, tayinlanishiga turlariga, qaysi sohaga tegishli ekanligiga va foydalanishiga ko'ra turkumlanadi. Asosiy vositalarni tarmoq belgilariga qarab guruplash (sanoat, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi va boshqalar) har bir tarmoqqa tegishli asosiy vositalarning qiymati to'g'risida aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Tayinlanishiga ko'ra, asosiy vositalar asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, boshqa tarmoqlardagi asosiy ishlab chiqarish vositalari va noishlab chiqarishdagi asosiy vositalardan tashkil topadi. Asosiy vositalar turlariga ko'ra, binolar va inshootlar; uzatuvchi moslamalar; mashina va asbob-uskunalar; transport vositalari; ishlab chiqarish

inventarları va buyumlar; xo‘jalik inventarları; ish va mahsuldor hayvonlar; ko‘p yillik daraxtlar; yerlarni yaxshilashga sarflangan kapital sarflar va boshqa asosiy vositalar kabilarga guruhlanadi. Shuningdek, ijara ga olingan asosiy vositalarga sarflangan kapital qo‘yilmalar ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Asosiy vositalarni turlari bo‘yicha turkumlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad ularning analitik hisobini tashkil qilishdir.

Kimga tegishligiga qarab, asosiy vositalar o‘ziga tegishli va ijara ga olingan asosiy vositalarga, foydalanish belgilariga qarab esa, asosiy vositalar foydalanishdagi, rekonstruktsiyadagi va qayta qurollantirishdagi asosiy vositalarga bo‘linadi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshlang‘ich qiymati; tiklanish qiymati; qoldiq qiymat; tugatish qiymati bo‘yicha baholanadi. Ayrim hollarda ular qayta baholanishi mumkin.

Asosiy vositalar balansda birinchi marta aks ettirilgandan keyin, haqiqiy qiymati bo‘yicha davriy ravishda qayta baholab borilishi, qayta baholangandan keyin, asosiy vositalar obyekti qayta baholash kunidagi uning haqiqiy qiymati bo‘yicha hisobga olinishi lozim. Asosiy vositalarning alohida obyektlari qiymati qayta baholanayotganda, ushbu aktiv guruhiga kiruvchi boshqa barcha aktivlar ham qayta baholanadi. Qayta baholash bank tomonidan mustaqil ravishda yoki qonunchilikka muvofiq, baholash faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan malakali baholovchi-ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarni qayta baholashda quyidagi usullardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi: indeks usuli; to‘g‘ridan – to‘g‘ri qayta baholash usuli.

Indeks usuli bu asosiy vositalarning balans qiymati va qayta baholash kunidagi shu aktivlar bo‘yicha jamg‘arilgan amortizatsiyasining ma‘lum indeksidan foydalangan holda amalga oshirilishidir. Bunda, aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg‘arilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi hamda o‘rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya hisobi yozuvlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, asosiy vositalarni qayta baholashning indeks usulida ularning alohida guruhi bo‘yicha aktivlarni sotib olish davridan kelib chiqib, har xil indekslar qo‘llanilishi mumkin. Bunda, to‘g‘ridan – to‘g‘ri qayta baholash usulidan foydalanilganda, asosiy vositalarning

to'liq tiklanish qiymati alohida obyektlar qiymatini, shunga o'xshash yangi obyektlarning qayta baholash sanasida shakllangan tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bozor qiymati asosida qayta hisoblash orqali aniqlanadi.

To'g'ridan-to'g'ri usul bilan asosiy vositalarni qayta baholashda, buxgalteriya hisobida tegishli asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan jamg'arilgan eskirish summasi. shu aktivning qayta baholangandagi tiklanish qiymatini qayta baholangunga qadar bo'lgan balans qiymatiga bo'lish natijasida hosil qilinadigan koefitsientga ko'paytiriladi. Qayta baholashdan keyin aktivlarning haqiqiy qiymati ularning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi hamda farq summalariga muvofiq buxgalteriya hisobi o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni hisobga olishda buxgalteriya hisobining oldiga qo'ygan asosiy vazifalari quyidagilardan:

- asosiy vositalarni kirim qilish, ichki harakati va ularni hisobdan chiqarish vaqtida tegishli hujjatlarga asosan rasmiylashtirish hamda hisob registrlarida aks ettirish;

- asosiy vositalarga eskirish hisoblashda amortizatsiya hisoblashning samarali bo'lgan usullaridan foydalanish va buxgalteriya hisobi registrlarida o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;

- asosiy vositalarning turli xil chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash;

- asosiy vositalar bo'yicha mulk solig'i to'lovlarini miqdorini to'g'ri hisoblash va ularni belgilangan muddatlarda soliq idoralariga o'tkazib berish;

- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari va ularni qoplash manbalarini belgilash hamda ulardan samarali foydalanishni nazorat qilish;

- asosiy vositalarning naqdiligi va ularning harakati to'g'risidagi statistik hamda buxgalteriya hisobida talab qilingan ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratish va x.k.

#### **4.2. Asosiy vositalarni kirim qilish va ularning harakatini hisobga olish**

Asosiy vositalar hisobini yuritishning asosiy qoidalari, ularning balans qiymati va shu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan amortizatsiya usullarini aniqlash, shuningdek, asosiy vositalarning

balans qiymati o'zgarishini aniqlash va hisobini yuritish, amortizatsiya hisoblash hamda ularni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan moliyaviy natijalar hisobini yuritish tartibidan iboratdir.

Asosiy vositalarning hisob birligi bo'lib, alohida inventar obyektlari hisoblanadi. Inventar obektlari deganda, bitta vazifani bajarishga mo'ljallangan, to'la qurib bitkazilgan yoki ishlab chiqarilgan alohida predmet yoki predmetlar kompleksi tushuniladi.

Har bir inventar obektiga alohida inventar raqamlari belgilanadi va foydalanish, tugatish, ta'mirlash jarayonida ushbu inventar raqamlari saqlanadi. Inventar raqamlari hisobga olinadigan vositaga biriktirib qo'yiladi va tegishli hujjatlarda aks ettiriladi. Ijaraga olingan asosiy vositalar esa, ijaraga beruvchi inventar raqamlar bo'yicha hisobga olinadi.

Banklarning asosiy vositalari quyidagi manbalar hisobidan: sotib olish yo'li bilan; obyektlarni qurish yoki rekonstruktsiya qilish yo'li bilan; qaytarib bermaslik sharti yoki subsidiya shaklida; shartnomada asosida moliyaviy ijaraga (lizing) olish yo'li; bankning o'zida hisobga olinmagan asosiy vositalarning kirim qilish yo'li bilan shakllanadi. Ularning hisobini yuritish banklarning buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida hisobga oljnadি<sup>4</sup>

Asosiy vositalar bankning buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks etturilishi uchun kelajakda ushbu aktivlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy samara keltirish ehtimoli bor va uning qiymatini ishonchli tarzda baholash mumkin bo'lishu lozim.

Aktivlardan foydalanish natijasida kelajakda olinadigan iqtisodiy samara, bank undan foydalanish natijasida yuzaga kelgan xizmatlarni sotishdan tushadigan tushum va xarajatlarni tejash hamda boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin. Sotib olingan asosiy vositalar balansa boshlang'ich (haqiqiy) qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Ma'lum hollarda aktiv bilan bog'liq xarajatlarning umumiyligi summasini qismrlarga bo'lish va har bir qismni alohida hisobga olish lozim. Bunday hisob yuritish ushbu obyektning alohida qismlari har xil foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi. Bank hisobidan qurilgan asosiy vositalar dastlab balansa qurilishning amaldagi tannarxi bo'yicha aks ettiriladi.

<sup>4</sup> Узбекистон Республикаси тикорият банкварида бухгалтерия ҳсбованинг ҳсбамарлари реласи. ЎзР АВ 13.08.2004 йилида 773-17-сон билан рўйхатта олганган (зебон таҳтири)

Bankka tegishli bo'lgan asosiy vositalarning harakati va ularning moliyaviy natijalari banklarda buxgalteriya hisobi schetlar rejasida tayinlangan birinchi (ikkinchi) tartibli hisobvaraqlarida hisobga olinadi: ular,

16500 - «Asosiy vositalar» hisobvarag'i;

56600 - «Eskirish xarajatlari» hisobvarag'i;

45900 - «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag'i idir.

Yuqorida keltirilgan hisobvaraqlar bo'yicha asosiy vositalarning hisobi bosh va yordamchi kitoblarida, katochkalarda shuningdek, jurnallarda yuritiladi. Kartochkaning old qismida bank nomi, asosiy vositalar nomlari, inshoot sotib olingan sana va uning joylashgan joyi, hisobvaraq raqami, kredit va debet bo'yicha aylanmalari hamda qoldig'i, buxgalteriya yozuvining mazmuni, buxgalteriya yozuvi qayd qilingan sana, nazoratchining imzosi va boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Kartochkaning orqa tomonida obyektning qisqacha tavsifi hamda texnik ahvoli bayon etiladi.

Barcha asosiy vositalar balansa dastlabki qiymat bo'yicha ya'ni, uni sotib olish yoki qurish xarajatlari milliy valutada hisobga olinib, ularni keltirish va o'mratish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlар ham shu qiymatga qo'shiladi.

Asosiy vositalarni barpo etishda loyiha-tatqiqot ishlari, qurilish materiallari, binolarni qurish - ta'mirlash xarajatlari va ularni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlari qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lab beriladi. Bunday operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 19909 - «Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar bank faoliyat uchun bino sotib olingan bo'lsa, u holda, bank balansida quyidagicha rasmiylashtiriladi

Dt 16509 - «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlari» hisobvarag'i,

Kt 19909 - «Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Shuningdek, bank uchun ofis jihozlari olinganda esa,

Dt 16535 - «Mebel, moslama va jihozlar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Ushbu sotib olingen asosiy vositalarni bank omboriga kirish qilish buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Tijorat banklari o'z faoliyatini kengaytirishi yoki binolarini ta'mirlash ishlarni amalga oshiradi, ularda ta'mirlash ishlari tugagunga qadar qilingan barcha xarajatlar 16505- «Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'ida yig'ilib boradi. Bunda binolarni qurish va ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qabul qilish - topshirish dalolatnomalari tuziladi va bunday xarajatlar buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 16505-«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar banklarda shunday xarajatlar chet ellik hamkor bilan tuzilgan shartnomaga asosan, amalga oshirilgan taqdirda, ushbu xarajatlar 16505- hisobvarag'ida amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining chet'el valutasidagi kurs bo'yicha so'mdagi ekvivalentda amalga oshiriladi. Yil oxirida 16505-«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'ida qoldiq bosh bankda va uning filiallarida tugallanmagan qurilishning hajmiga mos kelishi va u keyingi yilga o'tkazilishi lozim.

Agar qurib bitkazilgan yoki ta'mirlangan binolar foydalinishga tayyor bo'lgan holda ularning qiymati qabul qilish-topshirish dalolatnomalariga ko'ra. 16509- «Bankning imoratlari Binolar va boshqa imoratlari» hisobvarag'iga kirish qilinadi. Agar qurilish yoki ta'mirlash ishlarning xarajatlar smetasida mebel va jihozlarni sotib olish ko'nda tutilgan bo'sa, unda qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan, qiymati umumiy qiymatdan chegirilib, ularning to'liq ro'yxati ilova qilinadi. Bunda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

a) binoning dastlabki qiymatiga:

Dt 16509- «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlari» hisobvarag'i,

Kt 16505 -«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'i.

**b) mebel va jihozlarning chegirilgan qiymatiga:**

Dt 16535- «Mebel, moslama va jihozlar» hisobvarag'i,

Kt 16505 -«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'i.

Shundan so'ng, qabul qilingan asosiy vositalarning qiymati kirim hujjatlariiga asosan, bank tomonidan to'lab beriladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1. a) moddiy aktivlar kelib tushganda va ular darhol foydalanishga berilganda:

Dt 16535- «Mebel, moslama va jihozlar» yoki 16505- «Tugallanmagan qurilishlar» (agar qayta ta'mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchun materiallar sotib olinayotgan bo'ssa) hisobvarag'i.

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

b) agar ushbu asosiy vositalar bank omboriga kirim qilinganda:

Dt 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

2. Bank tomonidan aktivlarning qiymati to'lab berilganda:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 16103- «Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

3. Shuningdek, bank omboridan asosiy vositalarini foydalanishga berganda:

Dt 16535- «Mebel, moslama va jihozlar» hisobvarag'i,

Kt 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag'i.

Tijorat banklari o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida ayrim asosiy vositalar yuqori tashkilotlar yoki horimylar tomonidan bepul berilishi mumkin. Bunday bepul olingan asosiy vositalar bank daromadi sifatida hisobga olinadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi (bepul olingan asosiy vositalarning haqiqiy qiymatiga):

Dt 16500-«Asosiy vositalar» yoki 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag'i.

Kt 45994- «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag'i.

Bunda yuzaga keladigan xarajatlar joriy xarajatlarning hisobiga olinadi. Agar, asosiy vositalar subsidiya shaklida olingan bo`lsa, u holda.

Dt 16500-«Asosiy vositalar» hisobvarag`i,

Kt 22896- «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» hisobvarag`i.

Tijorat banklari asosiy vositalarni bank infratuzilmasini rivojlantirish doirasida soliqdan ozod qilingan mablag`lar hisobidan sotib olgan bo`lsa, ularning qiymatini 30903 - hisobvarag`ining tegishli shaxsiy hisobvarag`ida hisobga olishlari mumkin va ular buxgalteriya hisobida quydagicha:

Dt 30903 - «Umumiy zaxira fondi» «Bank infratuzilmasini rivojlantirish fondiga yo`naltirilgan mablag`lar» hisobvarag`i,

Kt 30903 «Umumiy zaxira fondi» «Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag`lar» hisobvaqlari.

Tijorat banklari tomonidan asosiy vositalarning sotib olinishi va ularning harakatini doirmi nazorat qilib turishda, buxgalteriya xodimlari tomonidan ularning butligi hamda naqdiligidagi ham katta e'tibor qaratiladi. Albatta, bunday nazorat bank mulkining jami qiymatidagi asosiy vositalarning ulushi qanchaligi va ulardan olinadigan iqtisodiy samaraga ham bog`liqdir. Shu boisdan, bankning asosiy vositalari bir yilda bir marta inventarizatsiyadan o`tkazilib turiladi va u bank rahbari tomonidan tayinlangan komissiya tarkibiga binoan amalga oshiriladi.

Agar inventaritsiya o`tkazilishi davomida ortiqcha chiqqan asosiy vositalar aniqlanganda, komissiya qaroriga ko`ra, baholangan qiymat bo`yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida balansga qabul qilinadi va buxgalteriya hisobida quydagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 16500-«Asosiy vositalar» hisobvarag`i,

Kt 45994- «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag`i.

Agar omborga qabul qilinganda esa,

Dt 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag`i,

Kt 45994- «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag`i.

Maboda, inventarizatsiya natijalari bo`yicha aniqlangan kamomad bank xodimlari aybi bilan sodir etilganda (o`zlashtirilsa), ushu zarar qonunchilik talablariga ko`ra, belgilangan tartibda bank xodimidan undirib olinishi mumkin, u holda bu operatsiya buxgalteriya hisobida quydagicha rasmiylashtiriladi:

1) Yig`ilgan eskirish summasiga;

Dt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvaraqlar bo'yicha yigilgan eskirish summasi,

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvaraqlarning dastlabki qiymati.

2) Agar undiriladigan summa asosiy vositaning qoldiq qiymatidan ortiq bo'lsa,

Dt 19908- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i undiriladigan summasi,

Kt 16500-«Asosiy vositalar» qoldiq qiymati va 45994- «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag'i - farq summasi.

3) Agar undiriladigan summa asosiy vositaning qoldiq qiymatidan past bo'lsa,

Dt 19908- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i undiriladigan summasi

Dt 55995 «Boshqa foizsiz xarajatlar» hisobvarag'i – farq summasi.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» hisobvarag'i qoldiq qiymati.

4) kamomadlar to'liq undirilganda,

Dt 10101-«Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Dt 29803-«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i -ish haqidan ushlab qolishlar,

Kt 19908-«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i - undiriladigan summasi.

Shunday qilib, banklarda asosiy vositalarning saqlanishi va butligini ta'minlashda inventarizatsiya o'tkazishdan tashqari, buxgalteriya bo'limida maxsus jumallar, kartochkalar va dasturiy yo'l bilan ham nazorat qilish iqtisodiy samara beradi deb hisoblaymiz.

#### **4.3. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning buxgalteriya hisobi**

Banklarda asosiy vositalarga eskirish hisoblash, foydalanishga berilgan hisobot oyining 15-sanasigacha bo'lganda, oyning 1-sanasidan, agar 15-sanadan keyin bo'lsa, keyingi oyning 1-sanasidan boshlab hisoblanadi. Asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan summasi ularning foydali xizmat qilish muddati mobaynidagi oylar bo'yicha mutanosib ravishda bank xarajatlariga o'tkazilib boriladi. Asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati quyidagicha ikki sababga ko'ra chegaralanadi:

**a) jismoniy eskirishi-** asosiy vositalarning xizmat qilish muddati davomida bank xizmatlarini amalga oshirish jarayoniga o'z qiymatini asta-sekinlik bilan o'tkazib borish xususiy atidir;

**b) ma'naviy eskirishi-** asosiy vositalardan foydalanish jarayonida ularning eskirib borishi yoki zamonaviy takomillashgan turlarining ishlab chiqilishi natijasida mehnat unumdonligi pasayib borishi tushuniladi.

Obyektning foydali xizmat qilish muddati bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmida yurish ko'rsatkichida (agar avtomobil nazarda tutilsa) o'lchanishi mumkin. Aktivning foydali xizmat qilish muddatini aniqlanishi lozim.

Asosiy vositaning foydali xizmat qilish muddati, uning dastlabki ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan keyingi xarajatlar natijasida uzaytirilishi mumkin va, aksincha, texnologik o'zgarishlar yoki xizmat ko'rsatish bozoridagi o'zgarishlar aktivning foydali xizmat qilish muddatini qisqartirishi mumkin. Bunday hollarda foydali xizmat qilish muddati va shundan kelib chiqib, amortizatsiya me'yori joriy va kelgusi davrlar uchun taqsimlanadi.

Aktivning amortizatsiyalanadigan summasi uning boshlang'ich qiymatidan tiklash qiymatini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Amaliy otda, aktivning tugatish qiymati, ko'pincha juda kichik miqdorni tashkil etganligi sababli, amortizatsiyalanadigan qiymatni aniqlashda unchalik ahamiyatga ega emas.

Banklarda foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarga amortizatsiya quyidagi usullardan birini qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

1. To'g'ri chiziqli usul;
2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda teng taqsimlash usuli;
3. Tezlashtirilgan usul:
  - 3.1. Yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul);
  - 3.2. Kamayadigan qoldiq usuli.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblash bo'yicha tanlangan usul hisob siyosatidan kelib chiqib belgilanishi va ketma-ket tartibda bir hisobot davridan keyingi hisobot davrigacha qo'llanilishi hamda tanlangan usul yil davomida o'zgarmasligi, amortizatsiya usulini tanlashda foydalanilayotgan obyektning nimaga mo'ljallanganligidan va ushbu usulni mazkur obyektga nisbatan qo'llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish lozim.

1. Bir tekisda (*to'g'ri chiziqli*) hisoblash usuli doimiy eskirish summasini asosiy vositalarning qiymatidan kelib chiqqan holda ularning foydali xizmat qilish muddati davomida teng taqsimlashdan iborat. Bunda, quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$Yes = \frac{AQ}{100} \times Em$$

$$Oes = \frac{AQ}{12 \times 100} \times Em$$

$$Axqm = \frac{1}{Em} \times 100 \%$$

Bunda,

*Yes*- yillik eskirish summasi, *AQ*- aktivning amortizatsiya qiymati, *Em*- eskirish me'yori, *Axqm*- aktivning xizmat qilish muddati, *Oes*- yilik eskirish summasidir.

2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda teng taqsimlash usuli - asosiy vositalarning eskirish miqdorini hisoblash uchun ularning butun foydali xizmat qilish muddati aniq yillar davomidagi ish hajmini aniqlashdir. Ish hajmi sifatida ishlangan soatlar miqdori va ish hajmi olinadi. Bunday amortizatsiya hisoblash jarayonida quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$As = \frac{AQ}{Abs} \times Dbs$$

Bunda. *As*- amortizatsiya summasi, *AQ*- aktivning amortizatsiyalaridan qiymati, *Dbs*- Ushbu davr uchun birliklar soni (ish hajmi), *Abs*- aktivning butun foydali xizmat qilish muddati uchun mo'ljallangan birliklar soni (ish hajmi)dir.

3. Aktivlardan jadal ravishda foydalanilganda, shuningdek, ilmiy-tehnika taraqqiyotining ta'siri katta bo'lganda aktivlar eskirishini tezlashtirilgan eskirish usullari asosida hisoblash maqsadga muvofiqdir.

3.1 Yillar yig'indisi usuli - obyektning xizmat qilish muddati, hisoblangan yillar yig'indisidan iborat bo'lib, u hisoblash koefitsientining maxrajida bo'ladi. Ushbu koefitsientning suratida obyektning xizmat qilish muddati oxirigacha qoladigan yillar soni (teskari tartibda) hisoblanadi.

3.2 Kamayib boruvchi qoldiq usuli - aktivning foydali xizmat qilish muddati davomida hisoblanayotgan amortizatsiya summasini kamayib borishini nazarda tutadi. Bu usul ham yillar yig'indisi usulidagi kabi tamoyillarga asoslangan. Ushbu usulda *to'g'ri chiziqli usuldagiga nisbatan ikki baravar oshirilgan amortizatsiya me'yori qo'llaniladi*.

Banklarda asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalari bank xarajatlariga o'tkaziladi va bu buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettililadi:

Dt 56600 – «Eskirish xarajatlari» tegishli hisobvarag'i,

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'i.

Yuqorida bildirilgan fikrlar va ko'rib chiqilgan amaliy ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash joizki, banklarda foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda, aktivlarning foydalanish muddatidan kelib chiqib, ularga eng samarali bo'lgan usullarning birini tanlashda, bankning moliyaviy natijalariga ta'siri nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi. Chunki, ushbu samarali usul hisobot oyida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritilishiga qarab, ularning ortishi yoki kamayishiga olib keladi.

#### **4.4. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishning buxgalteriya hisobi**

Tijorat banki binolari va keraksiz anjomlar sotilayotganda, bepul berilayotganda, shuningdek, yaroqsiz holga kelgan bino-inshootlar hamda anjomlar balansdan chiqarilayotganda ularning qiymati qabul qilish- topshirish dalolatnomalari hamda yuqori banklarning farmoyishlariga amalga oshiriladi. Bunda, asosiy vositalarning chiqib ketishi ularni tugatish haqidagi AV-4-soni dalolatnomaga binoan hisobdan chiqariladi. Agar asosiy vositalar tarkibida avtotransport vositalari bo'lganda esa, tugatish haqidagi AV-4a-soni dalolatnomaga binoan hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni tugatish to'g'risidagi dalolatnomalarda ularni tugatishdan olingan materiallar, ehtiyoj qismlar va boshqa tugatish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, boshlang'ich qiymati, eskirish qiymati va tugatish natijasi ko'rsatiladi.

Banklarda asosiy vositalar quyidagi holatlarda hisobdan chiqarilishi mumkin: to'liq jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirganda: sotilganda: qaytarib bermaslik sharti bilan berilganda: fors-major hollarda: kamomad va yo'qotishlar aniqlanganda: aktivlardan foydalanish to'g'risida bank rahbariyati qaror qabul qilinganda: uni hisobdan chiqarish jarayonida hech qanday iqtisodiy foyda bermaganda.

Asosiy vositalar sotilayotganda sotishdan tushgan tushum uning goldiq qiymatidan yuqori yoki pastligiga qarab, moliyaviy natija aniqlanib, hisobotlarda daromad va xarajat sifati tan olinadi. Agar

**banklarda asosiy vositadan foydalanish to'xtatilgan va boshqa holatlarda hisobdan chiqarish rejalashtirilgan paytda aktivning foydalanish to'xtatilgan kundagi balans qiymati aniqlanadi. U holda ushbu hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositaning qoldiq qiymati buxgalteriya hisobida quyidagicha ramiylashtiriladi:** Masalan:

1) bank binolari bo'lsa,

Dt 16511- «Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i.

Kt 16509 - «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlar» hisobvarag'i.

2) 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'idagi mazkur asosiy vosita obyektiga tegishli bo'lgan qoldiq summasiga.

Dt 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'i.

Kt 31203- «Taqsimlanmagan foya (aktiv-passiv)» hisobvarag'i.

Shuningdek. bankning asosiy vositalari boshqa tashkilotlar va boshqa banklarga quyidagi narxlarda sotilishi mumkin: binoning sotuv narxi - qoldiq qiymatidan yuqori bo'lishi yoki binoning sotuv narxi - uning qoldiq qiymatidan kam bo'lishi mumkin. Agar, bankning transport vositasi sotilganda, sotib oluvchi asosiy vositani to'liq rasmiylashtirgandan so'ng, uning qiymatini to'lab berganda,

Dt 19909- «Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 16529- «Transport vositalari» hisobvarag'i.

Agar sotilgan asosiy vosita bo'yicha to'lov kelib tushsa,

Dt 16103- «Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar, bank tomonidan sotilayotgan transport vositasining sotish qiymati uning qoldiq qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda, 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» -sof tushum summasiga debetlanib, 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» qoldiq qiymati va 45909- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foya»- farq summasiga kreditlanadi.

Maboda, bank tomonidan sotilayotgan transport vositasining sotish qiymati uning qoldiq qiymatidan past bo'lsa, u holda,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i -sof tushum summasi,

Dt 55902- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» - hisobvarag'i -farq summasi,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatiklar uchun to'langan mablag'lar» -hisobvarag'i- qoldiq qiymati.

Agar, bank tomonidan sotilayotgan asosiy vositalarga xaridor tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilsa.

a) aktivning sotish summasiga,

Dt 16103- «Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

b) bank tomonidan sotilayotgan transport vositasining sotish qiymati uning qoldiq qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - sof tushum summasi,

Dt 45909- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» hisobvarag'i - farq summasi

Kt 16529- «Transport vositalari» hisobvarag'i - qoldiq qiymati.

v) agar, bank tomonidan sotilayotgan transport vositasining sotish qiymati uning qoldiq qiymatidan past bo'lganda esa, u holda,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - sof tushum summasi

Dt 55902-«Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i -farq summasi,

Kt 16529- «Transport vositalari» hisobvarag'i - qoldiq qiymati.

Ushbu operatsiyalarining amalga oshirilishni amaliy ma'lumotlar asosida quyidagi misolni ko'rib chiqamiz

1. Deylik, bankning transport vositasi 7,0 mln so'mga sotildi va uning qoldiq qiymati 5,0 mln. so'm. ( 400,0 ming so'm qo'shimcha qiymat solig'i sifatida to'landi).

1) Transport vositasi xaridorga berildi (qoldiq qiymati balansdan chiqarildi).

Dt 19909-«Tovar-moddiy qimmatiklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i - 5,0 mln. so'm,

Kt 16529-«Transport vositalari» hisobvarag'i - 5,0 mln.so'm.

2) Transport vositasining sotish qiymatiga, - 7,0 mln. so'm.

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» - 7,0 mln. so'm.

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i - 5,0 mln.so'm.

Kt 45909- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» - 2,0 mln. so'm.

3) QQS hisoblanganda.

a) Dt 45909- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» - 0,4 mln. so'm,

Kt 22504-«Hisoblangan boshqa soliqlar» - 0,4 mln. so'm.

b) QQS tegishli davlat soliq idoralariga to'lab berishga.

Dt 22504-«Hisoblangan boshqa soliqlar» - 0,4 mln. so'm.

Kt 56714- Budjetga soliq to'lovlari -0,4 mln. so'm

Pul o'tkazilganda,

Dt 56714- Budjetga soliq to'lovlari -0,4 mln. so'm

Kt 29802-«Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» - 0,4 ming. so'm,

4) QQS to'lab berilgandan so'ng qolgan summaga.

Dt 29802-«Tovar- moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» -6,6 mln. so'm.

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i - 5,0 mln.so'm

Kt 45909- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» hisobvarag'i - 1,6mln. so'm.

2. Agar, yuqorida operatsiya bo'yicha bankning transport vositasi 4,0 mln so'mga sotilgan deylik, uning qoldiq qiymati esa 5,0 mln. so'mni tashkil etgan. u holda.

Dt-19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i - 4,0mln. so'm,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - 4,0mln. so'm.

Bir vaqtning o'zida ko'rilgan salbiy natijaga esa,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - 4,0 mln. so'm

Dt 55902- «Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar»- 1,0 mln. so'm.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'i - yalpi balans qiymati.

2) Agar bank filiali asosiy vositani qabul qilganda:

a) Dt 16500-«Asosiy vositalar» -tegishli hisobvarag'i – yalpi balans qiymati.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» - tegishli eskirish» hisobvarag'i.

Dt 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» - hisobvarag'i- qayta baholash natijasi,

Kt 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i – qayta baholash natijasidan qoldiq qiymatni ayirish summasi.

b) maboda asosiy vosita bank omboriga qabul qilinsa,

Dt 16561-«Ombordagi asosiy vositalar» hisobvarag'i –yalpi balans qiymati.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli yig'ilgan eskirish» hisobvarag'i.

Kt 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» - hisobvarag'i- qayta baholash natijasi,

Kt 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvaraqlari – qayta baholash natijasidan qoldiq qiymatni ayirish summaları.

Yuqorida keltirilgan ushbu operatsiyalarni Banklarning yagona balansi hisobotini umumlashtirishda 16104- «Bosh bank/ filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» va 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvaraqlar chiqarib tashlanadi va balans hisobotida aks ettirilmaydi. Bosh bank va uning filiallari o'rtasida bo'ladigan operatsiyalar harakatini quyidagi amaliy ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

1. Deylik, bosh bankdan filialga balans qiymati – 100,0 ming so'm, unga hisoblangan eskirish summasi -200,0 ming so'm va 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvaraqlar qoldig'i -10,0 ming so'm asosiy vosita berildi. Ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 16104- «Bosh bank/ filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i - 70,0 ming so'm.

Dt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli yig'ilgan eskirish hisobvarag'i -20,0 ming so'm,

Dt 30908- «Boshlang'ich qiyomatiga nisbatan baholash qiyomatining oshgan summasi» - 10,0 ming so'm.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» hisobvarag'i - 100,0 ming so'm.

2. Ushbu asosiy vositalar bank filiali tomonidan qabul qilinganda,

Dt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'i -100,0 ming so'm,

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'ida yig'ilgan eskirish summasi -20,0 ming so'm,

Kt 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i - 70,0 ming so'm,

Kt 30908- «Boshlang'ich qiyomatiga nisbatan baholash qiyomatining oshgan summasi» hisobvarag'i - 10,0 ming so'm.

3. Deylik, balans qiymati -80,0 ming so'm, yig'qilgan eskirish summasi -10, ming so'm va 30908- «Boshlang'ich qiyomatiga nisbatan baholash qiyomatining oshgan summasi» hisobvaraq qoldig'i -10,0 ming so'm bo'lgan asosiy vosita «A» filialdan «B» filialga berilganda, ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1) «A» filialda,

Dt 16104- «Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i «B» - 60,0 ming so'm,

Dt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'ida yig'ilgan eskirish summasi - 10,0 ming so'm,

Dt 30908- «Boshlang'ich qiyomatiga nisbatan baholash qiyomatining oshgan summasi» - 10,0 ming so'm.

Kt 16500-«Asosiy vositalar» - tegishli hisobvarag'i 80,0 ming so'm.

2) «B» filialda esa,

Dt 16500-«Asosiy vositalar» - tegishli hisobvarag'i 80,0 ming so'm,

Kt 16500-«Asosiy vositalar» tegishli hisobvarag'i yig'ilgan eskirish summasi - 10,0 ming so'm,

Kt 30908- «Boshlang'ich qiyomatiga nisbatan baholash qiyomatining oshgan summasi» hisobvarag'i - 10,0 ming so'm.

Kt 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i - 60,0 ming so'm.

Shunday qilib, banklarda asosiy vositalarning turlicha chiqib ketishi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish, ulardan kutiladigan xarajatlar va daromadlarni tan olishning obyektivligini ta'minlaydi, shuningdek, kelgusida ulardan samarali foydalanishni nazorat qilishga yaqindan yordam beradi.

#### **4.5. Nomoddiy aktivlarning turkumlanishi, baholanishi va ularning hisobini yuritishning asosiy tamoyillari**

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar xuddi asosiy vositalar kabi ta'rifga ega, ya'ni, ular subyektlar tomonidan foydalanish uchun saqlanadi va uzoq muddat foydalanish uchun sotib olinadi.

Nomoddiy aktivlar — moddiy ko'rinishga ega bo'limgan va foydali xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan hamda ulardan bank xizmatlarini amalga oshirishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlar hisoblanadi.

Ular quyidagicha turkumlanadi: patentlar, mualliflik huquqlari, gudvill, savdo markalari, kompyuter dasturiy ta'minotlari, litsenziya kabilardan iboratdir. Nomoddiy aktivlar bankga quyidagi manbalardan: sotib olish yo'li bilan; bank ichida yaratilishi yo'li bilan va tekinga olish yo'li bilan kirim qilinadi.

Banklarda nomoddiy aktivlarni balansga qabul qilish jarayonida qabul qilish dalolatnomalari tuziladi va ularning haqiqiy qiymati ko'rsatilib, quyidagi dastlabki qiymati, tiklash qiymati, eskirish qiymati, balans qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Nomoddiy aktivlar hisobini yuritishning asosiy qoidalari, ularning balans qiymati va shu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan amortizatsiya usullarini, amortizatsiya hisoblash tartibini, shuningdek, balans qiymatining o'zgarishini hamda ularni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan moliyaviy natijalar hisobini aniqlashdan iboratdir.

Nomoddiy aktivning o'zining ta'rifiga javob bersa, bank tomonidan kelajakda iqtisodiy samara olish ehtimoli mavjud bo'lganda va aktivning qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa, ushbu aktiv nomoddiy aktiv sifatida tan olinishi lozim. Bunda nomoddiy aktivlarni barpo etish va sotib olish jarayonida quyidagi tamoyillarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- sotib olishda - tannarx tamoyilini qo'llash;

- foydalanish davridagi mutanosiblik tamoyilini qo'llash - bunda qilingan xarajatlar va bu xarajatlar evaziga olingan daromad bir vaqtda aks ettirilishi talab qilinadi;

Muomaladan chiqim qilinayotganda daromadni e'tirof etish tamoyilini qo'llash, ya'ni chiqim qilishda - olingan to'lov va hisobdan chiqqan aktivning balans qiymati o'rtasidagi farqqa teng bo'lgan foyda yoki zarar e'tirof etiladi.

Ushbu talab chetdan sotib olingan nomoddiy aktivlar bilan birga bank ichida yaratilgan nomoddiy aktivlar uchun ham qo'llaniladi. Bank aktivlaridan unumli foydalanish muddati davomida mavjud bo'ladigan va kelajakda olinadigan iqtisodiy samara ehtimolini baholash lozim bo'ladi. Bunda nomoddiy aktivlardan kelgusida olinadigan iqtisodiy samara, bank tomonidan aktivdan foydalanish natijasida vujudga keladigan, xizmatlarni sotishdan kelib tushadigan tushum va xarajatlarni tejash hamda boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Agar nomoddiy aktiv nomoddiy aktiv sifatida tan olishning tarifiga ham, mezonlariga ham javob bermasa, u holda ushbu modda bo'yicha xarajatlar ular qaysi davrga tegishli bo'lsa, shu davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi. Aktivlarni nomoddiy aktiv sifatida tariflash imkonи bo'lmaganda, shu elementning muhimligidan kelib chiqib aniqlanadi. Ayrim hollarda nomoddiy aktivlar qoldiq qiymatiga ega bo'lishi mumkin, shunga qaramay, malum xizmat muddati yoki amal qilish muddatiga ega bo'lmagan nomoddiy aktivning qiymati asosli taxmin qilingan muddatda amortizatsiya qilinadi.

#### **4.6. Nomoddiy aktivlarning harakatini hisobga olish**

Sotib olingan nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymati bo'yicha baholanib, ularning analitik hisobi har bir nomoddiy aktiv bo'yicha ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi va amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi<sup>5</sup>. Bank ichida yaratilgan nomoddiy aktivlar balansda haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Bepul olingan nomoddiy aktivlar dastlab balansda haqiqiy qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Bepul olingan nomoddiy aktivlarning qiymati, qonunchilikka muvofiq baholash bilan shug'ullanuvchi ekspertlar tomonidan yoki qabul qilish-topshirish dololatnomalari bo'yicha aniqlanadi. Agar sotib olingan nomoddiy aktivlar qiymatini bank oldindan to'liq yoki qisman to'lab bergen taqdirda buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i,

<sup>5</sup> Узбекистон Республикасига асосиди муснададарнинг булаштириши хисоби түгрикчилари» йўлнома №У АВ ташвиши  
17.12.2004 йилда 1114-сон билан рўйхатга олинган (яшни таҳтига)

**Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.**

**Aktivlar kelib tushganda esa.**

**Dt 16601 - «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.**

**Kt 19909 - «Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'-lar» hisobvarag'i.**

Agar bank tomonidan to'lov nomoddiy aktivlar kelib tushgandan keyin amalga oshirgan bolsa, u holda buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

a) aktivlarning kelib tushishi va balansda aks ettirilishiga.

**Dt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.**

**Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.**

b) aktivlarning qiymati to'langanda esa.

**Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.**

**Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.**

Agar banklar nomoddiy aktivlarni bepul olgan taqdirda, bepul olingan nomoddiy aktivlarning haqiqiy qiymati buxgalteriya hisobida quyidacha rasmiylashtiriladi:

**Dt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.**

**Kt 30905- «Tekinga olingan mulklar» hisobvarag'i.**

Shuningdek, banklarda nomoddiy aktivlar foydalanish jarayonida o'z xususiyatlarini xizmatlar tannarxiga (obyektlariga ko'ra) o'tkazib, jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirib boradi. Bu esa, o'z navbatida, banklar tomonidan kelgusida nomoddiy aktivlarini shakllantirishlari uchun ularga mablag'lar manbaini to'ldirib borishga harakat qiladilar. Bu manba ushbu nomoddiy aktivlarning yig'ilib boradigan eskirish summalaridan tashkil topishi mumkin. Shu boisdan, banklarda nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblash ularni foydalanishga berilgan oyning keyingi oyidan boshlab hisoblab, har bir obyekt bo'yicha alohida qaydnomalarda amortizatsiya hisoblab boriladi. Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyalanadigan summasi, ularning foydali xizmat qilish muddati davomida muntazam ravishda bank xarajatlariga o'tkaziladi va foydali xizmat qilish muddati amortizatsiya me'yorlari yordamida aniqlanadi. Amortizatsiya me'yorlari bank tomonidan ularning boshlang'ich qiymati va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Aktivlar kelib tushganda esa,

Dt 16601 - «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i,

Kt 19909 - «Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'-lar» hisobvarag'i.

Agar bank tomonidan to'lov nomoddiy aktivlar kelib tushgandan keyin amalga oshirgan bo'lsa, u holda, buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

a) aktivlarning kelib tushishi va balansda aks ettirilishiga,

Dt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

b) aktivlarning qiymati to'langanda esa,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar banklar nomoddiy aktivlarni bepul olgan taqdirda, bepul olingan nomoddiy aktivlarning haqiqiy qiymati buxgalteriya hisobida quyidacha rasmiylashtiriladi:

Dt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i,

Kt 30905- «Tekinga olingan mulklar» hisobvarag'i.

Shuningdek, banklarda nomoddiy aktivlar foydalanish jarayonida o'z xususiyatlarini xizmatlar tannarxiga (obyektlariga ko'ra) o'tkazib, jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirib boradi. Bu esa, o'z navbatida, banklar tomonidan kelgisida nomoddiy aktivlarni shakllantirishlari uchun ularga mablag'lar manbaini to'ldirib borishga harakat qiladilar. Bu manba ushbu nomoddiy aktivlarning yig'ilib boradigan eskirish summalaridan tashkil topishi mumkin. Shu boisdan, banklarda nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblash ularni foydalanishga berilgan oyning keyingi oyidan boshlab hisoblab, har bir obyekt bo'yicha alohida qaydnomalarda amortizatsiya hisoblab boriladi. Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyalanadigan summasi, ularning foydali xizmat qilish muddati davomida muntazam ravishda bank xarajatlariga o'tkaziladi va foydali xizmat qilish muddati amortizatsiya me'yorlari yordamida aniqlanadi. Amortizatsiya me'yorlari bank tomonidan ularning boshlang'ich qiymati va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Foydali xizmat qilish muddati, obyektdan foydalanish vaqtida davomida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha hisobga olinishi mumkin.

Shuningdek, banklarda foydalanishda bo'lgan nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobida quyidagicha bank xarajatlariga o'tkazib boriladi:

Dt 56618- «Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi» hisobvarag'i,

Kt 16605- «Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i.

Banklarda nomoddiy aktivlar quyidagi hollarda balansdan chiqariladi: to'liq eskirganda; sotilganda; tekinga berilganda; fors-major holatlarda. Ulami hisobdan chiqarishda qoldiq qiymati quyidagicha aniqlanadi:

1) jamg'arilgan eskirish summasi;

Dt 16605- «Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i, Kt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.

2) ushbu nomoddiy aktiv bo'yicha 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvaraqdagi qoldiq summasi:

Dt 30908- «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'i,

Kt 31203- «Taqsimlanmagan foya (aktiv-passiv)» hisobvarag'i.

Agar hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar sotilganda esa,

1) xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilgan holda:

Dt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.

2) to'lov kelib tushganda: a) agar nomoddiy aktivlarning sotish bahosi qoldiq qiymatidan yuqori bo'lsa:

Dt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i

Kt 45913- «Bankning boshqa xususiy mulkclarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foya» hisobvarag'i.

b) agar nomoddiy aktivlarning sotish bahosi qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:

Dt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Dt 55906- «Bankning boshqa xususiy mulkclarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i.

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

3) agar nomoddiy aktiv uchun to'lov oldindan amalga oshirilgan holda:

Dt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Bir vaqtning o'zida: a) agar nomoddiy aktivlarning sotilish bahosi qoldiq qiymatidan ortiq bo'lganda:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 45913- «Bankning boshqa xususiy mulkclarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» hisobvarag'i

Kt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.

b) agar nomoddiy aktivlarning sotish bahosi qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i

Dt 55906- «Bankning boshqa xususiy mulkclarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i.

Kt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.

Amaliyotda vaqt o'tishi bilan nomoddiy aktivlarning qiymati to'liq eskirganda, fors-major holatlari bilan bog'liq bo'lganda, bepul berilganda belgilangan tartibda zarar sifatida hisobdan chiqariladi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Qoldiq qiymatiga.

Dt 55906- «Bankning boshqa xususiy mulkclarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i,

Kt 16601- «Nomoddiy aktivlar» hisobvarag'i.

Agar nomoddiy aktivlarning xizmat qilish muddati tugagan bo'lsayu, biroq, ular foydalanishga yaroqli bo'lsa, u holda bank ulardan foydalanishni davom etturishi va kelgusida eskinish hisoblanmaydi.

#### **4.7. Kompyuter dasturiy ta'minotida xarajatlar hisobi va sarmoyalashtirilgan xarajatlar amortizatsiyasi**

Iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, axborot texnologiyalari sohasi, xususan, barcha model, hajmdagi kompyuter va ularning dasturiy ta'minoti hisoblanadi. Kompyuterning dasturiy ta'minoti bilan shug'ullanayotgan ko'pgina kompaniyalarning asosiy aktivи bo'lib, dasturiy ta'minotlar va ularni takomillashturish uchun investitsiyalar hisoblanadi.

Sotish yoki keng foydalanish uchun ijara ga berishga mo'ljallangan kompyuter dasturiy ta'minotini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlar va ishlamalar xarajatlarning salmoqli qismini tashkil etadi. Hisobga olishda asosiy masala bo'lib, dasturiy ta'minot paketlarini takomillashtirishda amalga oshirilgan qanday xarajatlar hisobdan chiqarilishi va qaysilari sarmoyalashtirilishi lozimligi hamda buning uchun bir qator qoidalarga amal qilish zarur bo'ladi. Bu qoidalari:

- otish yoki ijara ga berish uchun mo'ljallangan kompyuterning dasturiy ta'minotini yaratishga ketgan barcha xarajatlar ilmiy tadqiqotlar va ishlamalar xarajatlari hisoblanishi hamda hisobdan chiqarilishi;

texnik iqtisodiy asoslashni o'tkazish uchun yaratilgan mahsulotning asl nusxalarini yaratishga ketgan xarajatlar sarmoyalashtirilishi;

- bu xarajatlarga kodlash va texnik iqtisodiy asoslashni o'tkazish uchun tekshiruvni amalga oshirishni;

- qaratilgan dasturiy ta'minot tizimi muayyan talablarga javob berishini aniqlash uchun amalga oshirilgan texnik iqtisodiy asoslash hisobdan chiqarilishi va, ayni paytda, yaratishda foydalanish uchun asl nusxalarini ko'rish xarajatlari sarmoyalashtirilishidir.

Ishlanmalar xarajatlarini sarmoyalashtirishni boshlashning hal qiluvchi vaqt bo'lib - bu texnik-iqtisodiy asoslash amalga oshirilgan paytdir. Agar tegishli mahsulotni rejalashtirish, yaratish, kodlash va tekshiruv o'tkazilgandan so'ng, uni yaratilishi uchun texnik-iqtisodiy asoslash amalga oshiriladi. Agarda dasturning to'lik ishlamasi tugatilmagan bo'lsa, texnik iqtisodiy asoslash tugallangan hisoblanadi. Biroq, agar dasturiy ta'minotni takomillashtirish yuzasidan xarajatlar bunday ishlammani o'z ichiga olmasa, texnik iqtisodiy asoslash tugallangan hisoblanadi.

Hujjalarning asl nusxalari va o'qitish materiallaridan dasturiy ta'minot yaratish ha'mda ularni o'matish uchun qilingan material

xarajatlari nomoddiy aktivlarni yaratish xarajatlari sifatida hisobga olinadi. Bu xarajatlar inventarizatsiya qilinadigan xarajatlar hisoblanadi va sotishdan foyda tan olingan taqdirda sotilgan dasturiy ta'minot qiymatiga kiritiladi. Amortizatsiyaning yillik summasi chiqarilgan dasturiy ta'minot asosida hisoblab chiqiladi va quyidagilardan ortiq bo'lishi ta'minlanadi:

- foydali faoliyat ko'rsatish paytida dasturiy ta'minotdan keladigan haqiqiy va kutilayotgan yalpi daromadga nisbatan dasturiy ta'minotni sotishdan olingan haqiqiy yalpi daromad koefitsienti bo'yicha;

summa dasturiy ta'minotining foydali amal qilish muddati mobaynida bir maromdag'i amortizatsiya usulini qo'llash bilan aniqlanadi.

### **Qisqa xulosalar**

Tijorat banklarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yritish – bu ularning harakatini birlamchi hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish, baholash, shuningdek, amortizatsiya hisoblashning qulay bo'lgan usullaridan foydalangan holda hisoblangan eskirish summalarini xarajatlarning obyektlariga ko'ra taqsimlanishi holatini buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirishni nazorat qilishdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Banklarda asosiy vositalar tarkibiga nimalar kiradi?
2. Asosiy vositalarni barpo etish qaysi manbalar hisobidan qoplanadi?
3. Asosiy vositalar qachon qayta baholanadi va kimlar tomonidan amalga oshiriladi?
4. Bankning asosiy vositalariga amortizatsiya hisoblashda qaysi usul samarali usul hisoblanadi?
5. Banklarda asosiy vositalar qachon va kimning farmoyishiga asosan chiqariladi?
6. Banklarda nomoddiy aktivlarning tarkiblanishini tushuntint bering va ular qanday hisobga olinadi?
7. Banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlardan foydalanish muddati qanday aniqlanadi?
8. Bepul olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlari buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?

9. Ularning harakatini hisobga olishda (daromad va xarajat sifatidan) qanday hisobvvaraqlardan foydalaniladi?
10. Ushbu bobga oid 4-5 ta buxgalteriya o'tkazmalarini keltiring?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. «Ўзбекистон Республикасида асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги» йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 17.12.2004 йилда 1134-сон билан рўйхатта олинган. (янги таҳрири).
2. «Ўзбекистон Республикасида номоддий активларнинг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги» йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 14.01.2003 йилда 1199-сон билан рўйхатта олинган.
3. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тўғрисидаги йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатта олинган.
4. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).
5. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.
6. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке. Москва. 2008. стр. 209
- 7 Наврӯзова К.Н. ва бошқалар, Банк ҳисоби, Ўкув кўлланма, -Т., «Фан ва технология», 2006.

## **5-bob. BANKLARDA MATERIAL ZAXIRALAR HISOBI**

### **5.1. Material zaxiralarining turkumlanishi, baholanishi va ularni hisobga olishdagi asosiy vazifalar**

Material zaxiralariga bank xizmatlarini amalga oshirish jarayonida qatnashuvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar kiradi. Ulardan xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladi va o'z qiymatini to'la ravishda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga o'tkazib boradi. Ushbu material zaxiralar (kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar)ning buxgalteriya hisobi amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjalarga muvofiq tegishli hujatlarda rasmiylashtiriladi.

Ushbu qonuniy va me'yoriy hujatlardagi talablarga muvofiq, material zaxiralar - bu bank faoliyatida foydalaniladigan va foydalanish jarayonida quyidagi mezonlardan birortasiga javob bera oladigan moddiy aktivlardan tashkil topadi: xizmat muddati bir yildan ortiq bo'limgan; xizmat muddatidan qat'iy nazar, bir donasining narxi O'zbekiston Respublikasida o'matulgan (sotib olish vaqtidagi) eng kam ish haqining ellik baravarigacha qiymatga ega bo'lgan buyumlardir.

Banklarda material zaxiralar xizmat qilish muddati va qiymatidan qat'iy nazar quyidagicha turkumlanadi: maxsus asboblar va moslamalar; maxsus va sanitari kiyimlar hamda maxsus poyafzallar; yotoq jihozlari; yozuv-chizuv mollari; oshxona va ovqatlanish xonasi inventarları; shuningdek, ovqatlanish xonasi choyshablari; qurilish-ta'mirlash ishlari tannarxiga olib boriladigan vaqtinchalik qurilma va moslamalar (titulsiz inshootlar); foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashish asbob-uskulalari boshqalar Banklarda material zaxiralar quyidagilardan eng kam qiymati bo'yicha baholanadi:

- dastlabki qiymat - materiallarni sotib olish, qayta ishlash va uni foydalanish holatiga keltrish bilan bog'liq jami xarajatlar summasidir;
- haqiqiy qiymat - o'zaro aloqador bo'limgan va umurni shartlarda bitimni amalga oshirishni hohlovchi bohabar tomonlar o'rtaida aktivni almashitish yoki majburiyatni qoplash uchun kelishilgan summasidir;
- sof sotish qiymati - oddiy ish faoliyat davomidagi bitim tuzish va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hamda hisoblangan xarajatlar chegirib tashlangan so'nggi sotish bahosidir. Sof sotish qiymati bank tomonidan oddiy hollarda material zaxiralarini sotishdan

\* Узбекистон Республикаси банклариди КБТЭнинг бухгалтерни хисоби тутришидаги йўрижонома. ЎЧР АВ томонидан 15.07.2005 йилда 1496-сон билан рўйхатга олиганган (йтни таҳтири).

olinishi kutilayotgan sof summani anglatadi. Material zaxiralarning sof sotish qiymati haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlarini ayirib tashlangan keyingi qiymatidan farq qiladi. Material zaxiralar haqiqatdagi yoki sof sotish qiymatlarining eng kam miqdori bilan baholanadi. Ularning haqiqatdagi qiymati sotib olish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lган barcha xarajatlarni hamda foydalish holatiga keltirish bilan bog'liq xarajatlardan iboratdir.

Banklarda material zaxiralarning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozim:

- material zaxiralarining saqlanishi ustidan nazorat o'matish;
- ombordagi mavjud material zaxiralarning belgilangan me'yordan oshmayotganligini nazorat qilish;
- material zaxiralarning kelib tushishi va sarflanishi bilan bog'liq operatsiyalarni dastlabki hujjalarda tog'ni rasmiylashtirish;
- xizmat ko'rsatishga sarflanayotgan material zaxiralarning belgilangan me'yorlariga amal qilishini va taqsimlanishini nazorat qilish;
- material zaxiralamni inventarizatsiya qilish tartibini tashkil qilish-dan iboratdir.

## **5.2. Tijorat banklarida materiallar harakatining buxgalteriya hisobi**

Material zaxiralamni sotib olish xarajatlari xarid narxi, import bojlari va boshqa to'lovlar, tashish, qayta ishlash va sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lган boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi. Savdo chegirmalari, qoplab berishlar va boshqa shunga o'xshash xarajatlar sotib olish xarajatlarini aniqlayotganda chiqarib tashlanadi. Masalan:

Deylik, tijorat banki jami -500000 so'mlik 200 dona yozuv papkalarini (donasi - 2500 so'm) savdo do'konidan sotib oldi va sotib olish vaqtida sotuvchi umumiy summadan 3% chegirma berdi hamda ushbu yozuv papkalarini keltirish uchun 5000 so'mlik transport xarajatlari sarflandi.

Demak, yozuv papkalarining jami qiymati ( $200 \times 2500$  so'm =  $500000$  so'm), chegirma  $500000 \times 3\% = 15000$  so'mni va transport uchun xarajat  $5000$  so'm) =  $490000$  so'mni tashkil etgan. ( $500000$  so'm -  $15000$  so'm +  $5000$  so'm =  $490000$  so'm). Natijada, 200 dona yozuv papkalari  $490000$  so'mga tog'ni kelgan. Ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatiklar» hisobvarag'i - 490000 so'm.

Kt 16104- «Bosh bank//filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatiklar» hisobvarag'i - 490000 so'm.

Boshqa xarajatlar materiallarning haqiqatdag'i qiymatiga uni foydalanish holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan qismigina qo'shiladi. Material zaxiralari qiyomatiga qo'shulmasdan davr xarajatlari sifatida xarajat qilingan vaqtda tan olinuvchi xarajatlarga quyidagilar saqlash xarajatdan, materiallarni foydalanish holatiga keltirish bilan bog'liq bo'limgan ma'muriy xarajatlar, sotish xarajatlari kiradi.

Tijorat banklari tomonidan material zaxiralarning qiymatini oldindan to'lab berish yo'lli bilan soub olinganda buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1) material zaxiralarga oldindan to'liq yoki qisman to'langanda:

Dt 19909-«Tovar-moddiy qimmatiklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i

Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvaraqlari.

2) material zaxiralar kirim qilinganda:

Dt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatiklar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatiklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar material zaxiralar kelib tushgandan keyin to'lovlar amalga oshirilsa, buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1) material zaxiralar kelib tushganda:

Dt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatiklar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

2) material zaxiralarning qiymati to'liq to'langanda esa,

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatiklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 16104- «Bosh bank//filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatiklar» hisobvarag'i.

Agar material zaxiralar Bosh bank/filiialdan filiallar/bosh bankka berilganda shu kungi bank hujjalariiga moddiy javobgar shaxsga tegishli

filial/ bosh bank tomonidan berilgan talabnomalar va ishonchnomaga asosan, buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Dt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

Ushbu material zaxiralalar filialga qabul qilinganda esa,

Dt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i,

Kt 22205- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i.

Agar omborga qabul qilingan material zaxiralalar sharnomadagi shartlarning talablariiga javob bermagan taqdirda yoki nuqson topilganda, molni yetkazib bergen tashkilot vakillari ishtirokida dalolatnomalar tuzilib, ushbu da'vo dalolatnomasining uchinchi nusxasi mol yetkazib beruvchiga yuboriladi. Yuborilgan da'vo mol yetkazib beruvchi tomonidan qondirilmagan taqdirda sud tomonidan tegishli qaror chiqarilib, qilingan material zaxiralarni egasiga qaytarib berishlari ham mumkin. Bunda, buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

Dt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

Bir vaqtida, qaytarilgan mablag'lar qayta yozuv bilan vakillik hisobvarag'iga o'tkaziladi:

Dt 16104- «Bosh bank//filiallardan olinadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i,

Kt 19909-«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar» hisobvarag'i.

Material zaxiralarni sotib olish bo'yicha shartnomada moliyalashtirish elementi ishlatalig'an bo'lsa, agarda, oddiy holdagi sotib olish shartlaridagi to'lanadigan baho bilan to'langan baho o'rtaсидаги farq butun xaridni moliyalashtirish davomida foizli xarajatlar sifatida tan olinadi.

Shuningdek, banklarda bir xil bo'limgan va maxsus maqsadlar uchun ajratilgan material zaxiralarning haqiqatdagi qiymati aniq xarajatlarining alohida qiymatlarini maxsus aniqlash orqali belgilanadi.

Bunda ularning qiymatini maxsus aniqlash - bu ma'lum turdag'i material zaxiralar qiymatiga aniq xarajatlar kiritiladi. Bu usul maxsus maqsadlar uchun alohida ajratilgan moddalarga nisbatan talab etiladi. Agarda, odatda bir xil narxli material zaxiralarning katta miqdori mavjud bo'lsa, maxsus baholash talab etilmaydi. Bunday hollarda oldindan foyda yoki zararga ta'simi aniqlash uchun material zaxiralarga tegishli bo'lgan moddalarni ajratib olish usulidan foydalanish mumkin. Material zaxiralardan boshqalarining haqiqatdagi qiymati «birinchi kirim birinchi chiqim» usuli (FIFO) yoki o'rtacha tannarx bo'yicha aniqlanadi. FIFO usulida bankga kelib tushgan birinchi partiyadagi sotib olingan material zaxiralar narxi bo'yicha navbatma-navbat hisobdan chiqarilishi lozim.

Banklarda material zaxiralarning sarflanishni baholash uchta usul bilan hisobdan chiqariladi<sup>7</sup>. Ular,

a) o'rtacha tortilgan qiymat usuli - TMZ har bir birligining qiymati hisobot davri boshida bir turdag'i TMZ birliklari va hisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan bir turdag'i birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati bo'yicha aniqlanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butum qiymatini shu zaxiralar birliklari soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

b) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO - birinchi kirim - birinchi chiqim) – sarflanayotgan material zaxiralar oy davomida kelib tushgan birinchi partiyada material zaxiralarning narxi bo'yicha hisobdan o'chirish tushuniladi.

v) oxirgi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli (LIFO - oxirgi kirim birinchi chiqim) – sarflanayotgan material zaxiralar oy davomidagi oxirgi partiyadagi xarid qilingan material zaxiralarning narxi bo'yicha hisobdan chiqarish tushuniladi. Shu boisdan, banklarda material zaxiralarning sarflanishini baholashda Fifo usulni qo'llash bir muncha samarali usul bo'lib, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini shakllantirishda obyektiv ravishda taqsimlanadi.

Hozirgi kunda bizning amaliyotimizda ham material zaxiralarning sarflanishi shu tariqa amalga oshirilmoqda, biroq hisobvaraqlarda aks ettirish o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan farqlanadi. Shuningdek. Banklarda material zaxiralar quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi: foydalanishga berilganda; sotilganda; bepul berilganda; kamnomad

<sup>7</sup> Кролинецкая Л.П. и др. Бухгалтерский учет в коммерческом банке в проводках. - М. Финансы и статистика - 2004, 192 стр.

aniqlanganda va foydalanish uchun yaroqsiz bo'lganda; fors-major holatlarda.

Material zaxiralar ombordan ishlatish uchun berilganda shu sana uchun xarajat sifatida tan olinadi. Agar material zaxiralar chiqib ketayotgan bo'ssa, unga mos daromad tan olingan sanada tegishli xarajat ham tan olinadi.

Materiallarni sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish va ular bo'yicha ko'rilgan zararlarni hisobdan chiqarish amalga oshirilgan yoki zarar ko'rilgan davrda davr xarajati sifatida tan olinadi. Ba'zi holatlarda, masalan: bank hisobidan qurilayotgan asosiy vositalar hisobiga qo'shiladigan material zaxiralar boshqa aktivlar hisobiga o'tkazilishi mumkin.

Boshqa aktivlar tarkibiga bunday yo'l bilan qo'shilgan material zaxiralar aktivning foydali ishlatalish davri mobaynida xarajat sifatida tan olib borilishi lozim. Banklarda material zaxiralarni bank xizmatlarini amalga oshirishda bo'limlariga foydalanishga berilganda buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 56406 «Devonxona ofis va boshqa buyumlar xarajatlari» hisobvarag'i.

Kt 19921 - «Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

Banklarda foydalanishdagi va ombordagi material zaxiralarining saqlanishi ustidan nazorat va ularning hisob tizimdan tashqari, maxsus jurnallarda raqamlangan, tikilgan va bankning rahbari, bosh buxgalteri imzosi va muhr izi bilan tasdiqlangan holda amalga oshiriladi. Tizimdan tashqari, hisob ishlari kunlik ravishda olib boniladi va material zaxiralarning alohida turlari bo'yicha qoldig'i har bir hisobot sanasiga aniqlanadi. Bankda foydalanilmagan va foydalanishga ehtiyoj bo'lmagan ortiqcha material zaxiralar sotilishi mumkin, bu holda (materiallar shartnomada kelishilgan narxlarda sotiladi) ularning harakati buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1) sotish summasiga:

Dt 16104- «Bosh bank//filiallardan olinadigan mablag'lar – Tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag'i,

Kt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

2) moliyaviy natija aniqlanganda:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

3) moliyaviy natija ijobi bo'lganda:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - sof tushum summasi,

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i

Kt 45913- «Bankning boshqa xususiy mulklerini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» hisobvarag'i - «sof tushum» va balans qiymati o'rtaсидаги farq summasi.

4) moliyaviy natija salbiy bo'lganda:

Dt 29802- «Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar» hisobvarag'i - sof tushum summasi

Dt 55906- «Bankning boshqa xususiy mulklerini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i - «sof tushum» va balans qiymati o'rtaсидаги farq summasi.

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

Tijorat banklari material zaxiralar bo'yicha kamnomad chiqishi, yaroqsiz holga kelishi (aybdor shaxslar aniqlanmagan holda), tekinga berilishi, shuningdek, fors-major holatlarda ularning qiymati belgilangan tartibda bank zarariga hisobdan chiqarilishi mumkin, u holda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Dt 56795- «Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'i,

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i

Ayrim holatlarda material zaxiralarning haqiqatidagi qiymati shikastlangan yoki sotish narxi pasayganda qoplanmasligi mumkin. Banklarda bunday zararlar miqdorini material zaxiralarning sof sotish qiymatini baholash orqali aniqlashlari mumkin. Material zaxiralarning baholangan sof sotish qiymati mazkur baholashni amalga oshirish davridagi eng ishonchli dalillarga va sotilishi kutilayotgan material zaxiralarning tasdiqlangan qiymatiga asoslangan bo'lishi lozim. Bu baholash bevosita hisobot sanasidan kevin ro'y bergan operatsiyalar bilan bog'liq narx o'zgarishlarini, hisobot sanasiga mavjud bo'lgan shartlar tasdiqlangan darajada hisobga olishlari zarur.

Tijorat banklari buxgalteriya hisobida har qanday zarar yoki material zaxiralarining qiymatini sof sotish qiymatigacha kamaytirish bo'yicha xarajatlarni zarar yoki qiymatining kamayishi ro'y beray otgan har bir hisobot davrida aks ettirib boriladi. Har bir material zaxiralarining sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish tizimdan tashqari, alohida hisob registrlari bo'yicha ham yuritiladi. Ba'zi holatlarda agar hisobga olinay otgan material zaxiralar og'irligi yoki boshqa shu kabi ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil bo'lsa, ularning hisobi shu ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlashtirish orqali alohida kartochkalarda yuritilishi lozim.

Har bir keyingi davrda sof sotish qiymatini yangidan baholash amalga oshiriladi va zarur bo'lsa qo'shimcha hisobdan chiqarishlar amalga oshiriladi. Shunday qilib, yangi balans qiymati haqiqatdagi qiymat va qayta ko'rib chiqilgan sof sotish qiymatining eng kichigiga tengdir. Banklarda material zaxiralarining sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 56895- «Boshqa aktivlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvaragi.

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvaragi.

### **5.3. Materiallarni inventarizatsiya qilish tartibi**

Bankka kirim qilinay otgan moddiy boyliklar, ularning saqlanishiga javobgar bo'lgan omborxona mudiri yoki bank boshlig'ining buyrug'iga asosan tayinlangan boshqa xodim tomonidan qabul qilinadi. Javobgar shaxs omborchi yoki boshqa xodim tomonidan bankka qabul qilinay otgan barcha material zaxiralar bo'yicha raqamlangan, tikilgan va boshqaruvchi hamda bosh buxgalterning imzosi va bankning dumaloq muhr izi bilan tasdiqlangan jurnalda alohida maxsus tizimdan tashqari hisob yuritiladi. Banklarda foydalaniyotgan va omborda saqlanayotgan material zaxiralarining haqiqatda mavjudligi ustidan nazoratni ta'minlash uchun yilda kamida bir marta inventarizatsiya o'tkaziladi. Inventarizatsiya o'tkazish tartibi bank rahbariyati tomonidan belgilanadi.

Tovar-moddiy boyliklar turli alohida xonalarda bitta moddiy javobgar shaxsda saqlanganda inventarizatsiya qilish saqlash joylari bo'yicha ketma-ketlikda o'tkaziladi. Boyliklar tekshirilganidan keyin xona eshigi plombalanadi va komissiya ishlash uchun keyingi xonaga o'tadi.

Inventarizatsiya qilish vaqtida kelib tushadigan tovar-moddiy boyliklar moddiy javobgar shaxslar tomonidan inventarizatsiya qilish komissiyasi a'zolari hozirligida qabul qilinadi va inventarizatsiya qilishdan so'ng reestr yoki tovar hisoboti bo'yicha kirim qilinadi. Ushbu tovar-moddiy boyliklar «Inventarizatsiya qilish paytida kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar» nomi bilan alohida ro'yxatga kiritiladi. Ro'yxatda ular qachon, kimdan kelib tushgani, kirim hujjatining sanasi va raqami, nomi, miqdori, narxi va summasi ko'rsatiladi. Ayni vaqtida kirim hujjatida inventarizatsiya qilish komissiyasi raisining imzosi bilan ana shu boyliklar qayd etilgan ro'yxat sanasiga havola qilgan holda «inventarizatsiya qilishdan so'ng» belgisi qo'yiladi.

Agar bank ehtiyojidan kelib chiqib, boyliklar bo'limlarga berilganda «Inventarizatsiya qilish paytida berilgan tovar-moddiy boyliklar» deb nomlangan alohida inventar ro'yxatiga kiritiladi. Bu yozuv inventarizatsiya qilish paytida kelib tushgan - tovar-moddiy boyliklarga oid hujjatlarga o'xshab rasmiylashtirilishi kerak. Chiqim hujjatlarida inventarizatsiya qilish komissiyasi raisining imzosi bilan belgi qo'yiladi. Agar kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar kirim qilinmaganligi faktlari aniqlanganla ularni olgan shaxsdan tushuntirish xatlari talab qilinishi, suiste'mollik holatida esa materiallar tergov organlariga oshirilishi kerak.

Shuningdek, shaxsan foydalanish uchun xodimlarga berilgan arzon baho va tez eskiruvchan buyumlar inventarlanganda guruhiy inventarizatsiya qilish ro'yxatlarini tuzishga yo'l qo'yiladi, ularda ana shu buyumlar uchun mas'ul bo'lgan, ularga shaxsiy varaqchalar ochilgan shaxslar ko'rsatilib, ro'yxatlarda tilxatga imzo chektiriladi. Ro'yxatlarda inventarning dastlabki qiymati ko'rsatiladi. Ushbu inventarning eskirishi ularning haqiqatdagi holati bo'yicha hisobga olinsa, izohda ishchi inventarizatsiya qilish komissiyasi tomonidan belgilanadigan har bir buyum yoki eskirishi bir xil hajmdagi guruhning eskirish foizi ko'rsatiladi.

Material zaxiralar kamomadi aniqlangan holda, ularning qiymati aybdor va moddiy-javobgar shaxslardan qonunchilikda o'matilgan tartibda, agar aybdor shaxs aniqlanganda materiallarning qiymati inventarizatsiya komissiyasining boshlig'i va a'zolari, moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolangan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, ulardan belgilangan tartibda undirib olinadi. Ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 19908- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i.

Agar ayibdor shaxsning ish haqidani undirib olinganda esa,

Dt 29803- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 19908- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Maboda, aybdor shaxsdan belgilangan tartibda kassa orqali undirib olinganda:

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt 19908- «Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Agar inventarizatsiya paytida omborda hisobda bo'lмаган buyumlar aniqlansa, ular inventarizatsiya komissiyasi tomonidan bozor narxida baholanib, belgilangan tartibda omborga kinim qilinadi va buxgalteriya hisobida quy'idagi yozuvi amalgalashiriladi:

Dt 19921-«Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar» hisobvarag'i. Kt 45994- «Boshqa foizsiz daromadlar» hisobvarag'i.

Ombor mudiri (omborchi) ishdan bo'shashi, boshqa ishga o'tkazilishi, mehnat ta'tiliga ketishi yoki bemorligi tufayli almashtirilgan taqdirda, bank rahbarining buyrug'i bilan xodimlar tarkibidagi hay'at tomonidan topshiruvchi va qabul qiluvchi xodimlar ishtirokida omborda to'liq inventarizatsiya o'tkaziladi hamda majburiy ravishda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuziladi.

Shunday qilib, banklarda material zaxiralar hisobini tashkil etishda, ularning turkumlanishini, baholanishi va harakati analitik va sintetik hisob ma'lumotlarida to'g'ni yuritishni talab qiladi. Buning uchun tovar-moddiy zaxiralarining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini tushunib olishni hamda ularning buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni chuqur o'zlashtirishni talab qiladi. Ushbu talablar bajarilganda Banklarda material zaxiralar hisobini yuritish bo'yicha to'la bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

### **Qisqa xulosalar**

Tijorat banklarida material zaxiralar hisobini yiritish - ularning tukumlanishini, baholash usullarini, dastlabki hujjalarda rasmiylashtrish, buxgalteriyada hisobga olish va hisobdan chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilishdan iboratdir. Shuningdek, ulardan samarali foydalanishni buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilish tushuniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklarida material zaxiralar tarkibiga nimalar kiradi?
2. Material zaxiralarning turkulanishini aytib bering?
3. Materiallarning baholanishi qanday amalga oshiriladi?
4. Materiallarning sarflanishi qanday baholarda amalga oshiriladi?
5. Materiallarning sof sotish qiymati deganda nimani tushunasiz?
6. Banklarga materiallar qaysi manbalardan kirim qilinadi?
7. Banklarda materiallarning chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy natija qaysi hisobvarqlar hisobga olinadi?
8. Inventarizatsiya qachon o'tkaziladi va qaysi me'yoriy hujjalalar bilan tartibga solinadi?
9. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad (aybdor shaxs aniqlanganda) summasi qaysi hisobvaraqlarga aks ettiriladi?
10. Inventarizatsiya natijasi salbiy (ijobiy) bo'lganda ushbu zarar (foyda) qaysi manba hisobidan qoplanadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси банкларида КБТЭБниңг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги йўриқнома. ЎзР АВ томонидан 15.07.2005 йилда 1496-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).
2. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М., «Дашков и К», 2008. – 288 с.
3. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008. стр. 209
4. Наврӯзова К.Н. ва бошқалар, Банк ҳисоби, Ўкув кўлланма, - Т., «Фан ва технология», 2006.

## **6-bob. BANKLARDA HISOB-KITOB OPERATSIYALARI HISOBI**

### **6.1. Mijozlarga bank hisobvaraqlarini ochish va amalga oshiriladigan operatsiyalar hisobi**

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga milliy va xorijiy valutada bank hisobvaraqlarini ochishi, ularni qayta rasmiy lashtirishi hamda yopishi mumkin<sup>\*</sup>. Bank hisobvarag'i – bu bank va mijoz o'rtaida tuziladigan maxsus shartnomaga (xizmat ko'rsatish) muvosiq, mijozning pul mablag'larini saqlash uchun ochilgan hisobvarag'i tushuniladi. Bank hisobvaraqlari quyidagi: talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar; jamg'arma depozit hisobvaraqlar; muddatli depozit hisobvaraqlar; depozit hisobvaraqlarning boshqa turlari; kredit hisobvaraqlari kabi turlarga bo'linadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun xohlagan banklarida milliy va xorijiy valutadagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari hamda depozit hisobvaraqlarning boshqa turlarini ochishlari mumkin. Bunda, mijoz va bank o'rtaida tuzilgan hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomasi asosida rasmiy lashtiradi. Mijozlar tomonidan hisobvaraqlar ochish uchun bankka ariza bilan birgalikda boshqa zaruriy (hisobvaraq ochish to'g'risida ariza davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha) hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab, banklar ikki bank ish kuni mobaynida ularga hisobvaraqlar ochishlari va keyingi ish kundan kechiktirmay, hisobvaraqlar ochilganligi to'g'risida tegishli soliq organiga yozma ravishda xabar beradi.

Mijozlar tomonidan xorijiy valutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarini hamda ikkilamchi talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va depozit hisobvaraqlarning xorijiy va boshqa milliy valutadagi turlarini ochish uchun bankka yuqorida hujjatlar taqdim qilinadi. Bankda mijoz tomonidan ilgari ochilgan hisobvaraq mavjud bo'lsa, saqat hisobvaraq ochish to'g'risida ariza taqdim qilinadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlariga xohlagan banklarda hisobvaraqlar ochishlari uchun tegishli hujjatlar bilan birga, imzo namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalar ikki nusxada taqdim

\* Uzbekiston Respublikasining banklarda ochivadigan bank hisob-varaqchalariga turg'isida Murozimli 9-yR AB 29.09.2003 № 1080-1-som bilan r'ub'bozta o'simga va "Uzbekiston Respublikasining banklarda hisob-kitoblari turg'isida" Eshon 5-yR AB tomonidan 13.12.2004 yilda 11.22-1-som bilan r'ub'bozta o'simga (mengi takrorli)

qilinadi. Varaqchaning bir nusxasi buxgalterda, ikkinchisi esa pul cheklarini rasmiylashtiruvchi nazoratchida turadi. Imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha notarial yoki yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Agar bank operatsiya qismlarini joylashtirish shartlari bo'yicha zarur bo'lsa, ushbu bankda bittadan ko'p hisobvaraqa ega bo'lgan hisobvaraq egalaridan imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchaning qo'shimcha nusxalari talab qilinishi mumkin. Bunda qo'shimcha nusxalar bank bosh buxgalteri yoki uning o'rinnbosari tomonidan varaqchaning asosiy nusxasi bilan solishtirgandan keyin tasdiqlanadi.

Varaqchalarning bunday nusxalarini qo'shimcha tasdiqlash talab qilinmaydi. Imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalarda hisobvaraqlarning raqamlari ko'rsatiladi. Imzo namunalari varaqchasiga yuridik shaxsnинг rahbari va bosh buxgalteri imzolari yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslarning imzolari kiritiladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Dehqon xo'jaligi rahbari va yakka tartibdag'i tadbirdorning asosiy muhni bo'lмаган holda ular faqat o'zlarining imzolari namunalarini taqdim qiladilar

Mijozlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobi har bir turdag'i mablag'lar va qimmatliklar bo'yicha ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlarda (kartochkalar, kitoblar, jurnallarda) yuritiladi. Bunda ularning maqsadi, shuningdek, hisobvaraq egalari ko'rsatiladi. Mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari birlamchi hujjatlar asosida dasturiy yo'l bilan ikki nusxada tayyorlanadi. Ikkinci nusxa shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bo'lib xizmat qiladi va mijozga berish yoki jo'natish uchun mo'ljallanadi. Shaxsiy hisobvaraqlarga yozuvlar faqat tegishlicha rasmiylashtirilgan hisob-kitob-pul hujjatlari asosida kiritiladi. Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar kompyuter yordamida tayyorlansa, ular mijozlarga berilayotganda imzolar va bank shtamplari bilan rasmiylashtirilmaydi. Kredit bo'yicha o'tkazilgan summalar yuzasidan, shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarga hisobvaraq bo'yicha yozuvlar kiritishda asos bo'lgan ilovalar qo'shiladi.

Ko'chirmalarga ilova qilinadigan hujjatlarga shtamp, shuningdek, hujjat shaxsiy hisobvaraq bo'yicha o'tkazilgan sana kalendor shtempeli bosilishi kerak (agar bu sana hujjat yozilgan sanaga mos kelmasa). Shtamp faqat ko'chirmaning asosiy ilovasiga qo'yiladi. Asosiy ilovada qayd etilgan operatsiyalarning mundarijasi va umumiy summasini

tushuntiruvchi hamda talqin etuvchi qo'shimcha hujjatlarga shtamp qo'yilmaydi.

Bank ikki ish kuni o'tganidan keyin mijoz hisobvarag'i kreditida noto'g'ri yozuvlar borligini aniqlasa, mijoz kechiktirilgan har bir kun uchun hisobvaraq kreditidagi umumiylar surmaning bank xizmati ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutilgan foizi miqdorida bankka jarima to'laydi. Mijoz shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirmani yo'qotib qo'ygan taqdirda, uning dublikati mijoz arizasiga ko'ra, bank rahbari yoki uning muovini beradigan yozma ruxsatnoma asosidagina mijozga berilishi munkin.

Agar mijozning asosiy hisobvarag'ini boshqa bankka o'tkazish uning arizasiga asosan hisobvaraqlarning qoldig'i tasdiqlanishi va chek daftarchalari qaytarilishi bilan amalga oshiriladi. Bunda ushbu mijozning ikkilamchi hisobvaraqlari yopilmaydi. Mijozni qabul qilayotgan bank uning arizasiga asosan o'zida «Mijozlarga to'lanishi lozim bo'lган mablag'lar hisob-kitobi» ichki bank hisobvarag'ini ochadi va bu to'g'rida mijozga xabar beradi. Asosiy hisobvaraqlari yopayotgan bank mijozning farmoyishiga asosan unga asosiy hisobvaraqlar ochayotgan bankka uning hisobvarag'i qoldig'ini o'tkazishi, shuningdek, ro'yxat bo'yicha yuridik yig'majildini, kartotekasidagi hisob-kitob hujjatlari va boshqa hujjatlari beriladi.

Mijozning barcha hujjatlari olingandan keyin bank unga belgilangan tartibda, asosiy talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvaraqlar ochadi va ushbu hisobvaraqlarga unga ilgari ochilgan ichki bank hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini o'tkazadi. Hisobvaraqlar o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot axborotlar bazasida 2 oy davomida saqlanadi.

Ushbu muddat tugagandan so'ng o'tkazilgan hisobvaraqlar to'g'risidagi ma'lumot arxivlanadi va belgilangan tartibda saqlanadi, shu bilan bir vaqtida, hisobvaraqlar to'g'risidagi ma'lumot bazadan o'chiriladi. O'tkazilgan hisobvaraqlar bo'yicha kelib tushgan hisob-kitob hujjatlari ro'yxatdan o'tkazilgach, quyidagi Masalan, «Hisobvaraqlar yopildi. UzR AT «Paxtabank» ning Xamza filialiga murojaat qiling» mazmundagi xabar bilan jo'natuvchiga qaytariladi.

## **6.2. Tijorat banklarining o'zaro (filiallararo) hisob-kitob operatsiyalari hisobi**

O'zaro yoki filiallararo hisob-kitoblar bu O'zbekiston Respublikasidagi banklar o'rtaida bo'ladigan hisob-kitoblardir. Banklar o'rtaсидаги

**vakillik munosabatlari - shartnomaviy munosabatlar bo'lib, ularga ko'ra bir bank (vakil bank) boshqa banklarning tegishli depozitlarini saqlaydi va ularga to'lov bilan bog'liq hamda boshqa operatsiyalar yuzasidan xizmatlar ko'rsatadi.**

Banklararo hisob-kitoblar har bir bankka Markaziy bankda ochiladigan «Rezident banklarning vakillik hisobvarag'i Vostro», «XKKMning HMdagi vakillik hisobvarag'iga Vostro», banklarda «Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i Nostro» vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, boshqa tijorat banklarida xorijiy valutada vakillik hisobvaraqlari ochilishi mumkin. Vakillik hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar faqat tijorat banklari taqdim etadigan to'lov topshiriqnomalari asosida, bu hisobvaraqlarda mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Vakillik hisobvaraqlari bo'yicha ikki nusxada shaxsiy hisobvaraqlar yuritiladi. Ularning birinchisi hisobvaraq egasi bo'lgan bankda (tijorat banki) va vakil bankda vakillik hisobvarag'idan ko'chirma sifatida xizmat qiladi.

Markaziy bank va boshqa barcha banklar vakillik hisobvaraqlarining ahvoldidan xabardor bo'lib turishlari. «Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlari - Vostro», «XKKMning HKMdag'i vakillik hisobvarag'i Nostro» hisobvaraqlari bo'yicha debet qoldiq yuzaga kelishuga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu hisobvaraqlar bo'yicha Markaziy bankda yuzaga kelgan debet saldosining hisobi «Rezident banklarning vakillik hisobvaraqlari - Vostro, overdraft» hisobvarag'ida yuritiladi. Markaziy bankda yuzaga kelgan debet saldosining hisobi bank bo'limlarida «Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i Nostro, overdraft» hisobvarag'ida, tijorat banklarida esa «HKKMning hisob markazidagi vakillik hisobvarag'iga - Nostro, overdraft» hisobvarag'ida yuritiladi.

Markaziy bankda vujudga kelgan debet saldosini bo'yicha banklar har bir kun uchun debet saldosini summasining 1 foiz miqdorida jarima, shuningdek, overdraft qarzidan foydalanganlik uchun foizlar to'laydi. Bu to'lovlari vakillik hisobvarag'i bo'yicha xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq debet saldosini batamom yo'qotilgunicha to'lanadi. Jarima debet saldosini qoplanganidan keyin Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi yozgan inkasso topshiriqnomalari bilan undiriladi.

Shuning uchun tijorat banklari vakillik hisobvarag'idiagi operatsiyalarni nazorat qilib turishlari shart hamda to'lovlar o'tkazilishi uchun zarur hajmdagi mablag'lar ularning vakillik hisobvaraqlariga o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlashlari lozim. Har kuni ish boshlanishidan oldin (8.00 dan) vakillik hisobvaraqlari tekshirib chiqiladi. Tijorat banklari hisob-kitoblar markaziga ichki vakillik hisobvaraqlarida turgan qoldiqlar haqida ma'lumot berib turishlari kerak. hisob-kitob markazida bank bo'limlardan olingen ma'lumotlar ulardagи qoldiqlar bilan taqqoslanadi. Agar o'rtada tafovut chiqsa, tijorat banki mazkur tafovut sabablarini aniqlab, bartaraf etmagunicha, hisob-kitob markazi orqali ishlashiga ruxsat etilmaydi.

O'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobvaraqlar rejasidagi 16103- «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» va 27406- «Filiallararo aylanmalar tranzit hisobvaraqlari» hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida banklararo hisob-kitoblar tijorat banklarining Markaziy banki hududiy Bosh Boshqarmalari (hisob-kitoblar Markazi)da ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali elektron to'lovlar tizimi bo'yicha milliy valutada amalga oshiriladi. Banklarda hujjat aylanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan amaldagi Nizom<sup>9</sup> talablari asosida tashkil qilinadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda - korxona va tashkilotlarning tovar avriboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatami naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqacha o'tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlarini o'zida aks ettirishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi:

- tovar operatsiyalari bo'yicha pul aylanishi;
- moliyaviy majburiyatlar bo'yicha pul aylanishi.

Birinchi guruhiга tovarlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish va kapital qurilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi. Ikkinci, moliyaviy majburiyatlar, guruhiга esa budjetga to'lovlar, ya'ni foydadan to'lanadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa

<sup>9</sup> «Узбекистон Республикаси банквари ўргасидаги электрон тўловлар тизими бўйича хисоб-китоблар корреташ тутрисида» номи. ЎзМБ Бойкотувсангиз: 08.02.2001 йилдаги 485-сонин қарори билан тасдиқланган.

majburiy to'lovlar hamda budjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to'lanishi, sug'urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar amaldagi Nizom<sup>10</sup> asosida tartibga solinadi. Ushbu Nizomga asosan naqd pulsiz hisob-kitoblar qonunda ko'zda tutilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan quyidagi shakllar:

- memorial order;
- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- akkreditiv;
- inkasso topshiriqnomasi;
- hisob-kitob cheklari;
- plastik kartochkalar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

To'lovchi va mablag' oluvchi orasidagi hisob-kitoblar shakli shartnoma asosida belgilanadi.

Hisob-kitob shakllari deyilganda huquqiy me'yordarda ko'zda tutilgan, hisob-kitob hujjatlarining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mablag'larni mol sotuvchi korxona hisobvarag'iga o'tkazish va yozish usuli bilan bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi.

### **6.3. Memorial orderlar bilan hisob-kitoblar**

Bank to'lovchi bo'lib chiqqan va memorial orderlar ishlatalgan hollarda ular bank rahbarining va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlanadi. boshqa holatlarda memorial orderlar ushbu bank hisobvarag'ini olib boruvchi bosh buxgalter va buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Memorial orderlar bilan sodir etilayotgan operatsiyalarning to'g'riliqi bo'yicha javobgarlik bankning rahbariga va bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi. Banklar memorial orderlardan fuqarolarning olib borayotgan tadbirdorlik faoliyatini bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqd pulsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin.

Bunda, topshiriqnomalar bo'yicha to'lash amalga oshirilgandan so'ng memorial order bilan birga bankning kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi.

<sup>10</sup> УзР МБ томонидан 2002 йил 12 айнорда тасдиqlangan va Adolat Vazirligini tomonidan 15 апрел 2002 йил 1122-son bilan r'ub'olatta oshingan "Uzbekiston Respublikasi da naqd pulsiz hisob-kitoblar t'utrig'isida" ni Nizom.

#### **6.4. To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar hisobi**

To'lov topshiriqnomasi bu to'lovchi korxona uning bankdagi depozit hisobvarag'idan pul mablag'larining ma'lum bir summasini boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish haqida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka bergen topshirig'idir.

To'lov topshiriqnomasi 0505411002 shakldagi blankada to'lovchi tomonidan rasmiylashtirilib bankka topshiriladi. To'lov topshiriqnomalari orqali quyidagi to'lovlardan amalga oshiriladi:

- tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar;
- notovar operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar;

- Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutulgan bo'lsa, bank ssudalari va unga qo'shilgan foizlarni qoplash uchun mablag'lar o'tkazish;

- hukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan hollardagi bank to'lovlari.

«Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi yangi Nizomga asosan to'lov topshiriqnomasi rasmiylashtirilgan kun bankka taqdim etilishi lozim, ya'ni topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan kun bilan bir xil bo'lishi kerak, ular mos kelmagan holda to'lov topshiriqnomasi ijro uchun qabul qilinmaydi.

To'lov topshiriqnomalarining bankka topshiradigan nusxalar soni to'lovchi va mablag' oluvchilarning qaysi bankda joylashganligiga bog'liq. To'lovchi va mablag' oluvchi korxonalar bir bank bo'limi xizmatidan foydalansalar, topshiriqnomalar bankka uch nusxada taqdim etiladi. Topshiriqnomalar nusxalarining har biri quyidagicha ishlataladi:

- birinchi nusxa to'lovlardan amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan, bankning to'rtburchak muhrining izi tushirilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

- ikkinchi nusxasi to'lov oluvchining hisobvarag'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilgan holda to'lovni oluvchi korxona vakiliga shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bilan beriladi;

uchinchchi nusxa operatsiya bajarilgan so'ng, bank bo'limining to'rtburchak shtampi izi tushirilgan, mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lovni amalga oshirish va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovchi korxona vakiliga ularning depozit hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

Lekin har doim ham bir-biri bilan munosabatda bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar bir bank xizmatidan foydalanmaydilar, chunki hisob-kitoblar bir hudud tashqarisiga chiqishi mumkin. Agar to'lovchi va mablag' oluvchi korxonalarga bir hudud ichidagi yoki boshqa hududda joylashgan turli bank bo'limlari tomonidan xizmat ko'rsatilsa, to'lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim etiladi:

- birinchi nusxasi to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

ikkinci nusxasi bank bo'limining muhr izi tushirilgan, bank mas'ul ijrochisining imzosi, to'lov amalga oshirilgan sana va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovchi korxona vakiliga beriladi.

To'lov topshiring ida quyidagi rekvizitlar ko'rsatilishi lozim:

a) to'lov topshiring ining nomi va raqami.

b) to'lov topshiring'i to'ldirilgan sana ya'ni kun, oy va yil.

v) to'lovchining nomi, to'lovchi bankining nomi va kodi.

g) to'lovchining hisobvaraq raqami va identifikatsiya kodi.

d) mablag'larni oluvchi korxona nomi, unga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi

j) mablag' oluvchining hisobvaraq raqami.

z) to'lovlarining summasi raqam va yozuvlarda ko'rsatiladi.

i) to'loving maqsadi.

To'lov topshiring ining barcha rekvizitlari to'ldirilgandan so'ng, topshiriqnomaning alohida ajratilgan pastki qismiga to'lovchi korxona rahbari va bosh buxgalterining imzosi hamda muhr izi qo'yiladi. Ushbu muhr va imzolar to'lov topshiring ining faqat birinchi asl nusxasiga qo'yiladi.

Korxonalardan hujjatlar qabul qilish, shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishslash vaqtidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda operatsion kun davomida bank tomonidan korxonalardan qabul qilingan hujjatlar shu kunning o'zidayoq ijro qilinadi. Mas'ul ijrochi mijozlardan to'lov topshiring'ini olgandan so'ng, to'lov topshiring'idan barcha rekvizitlarning to'liq va to'g'ri rasmiy lashtirilganligini tekshiradi.

Bundan tashqari, to'lovchi korxonaning depozit bo'yicha ochilgan hisobvarag'ida hujjatda ko'rsatilagan summani to'lashga yetarli pul

mablag'ları borligini aniqlaydi. Agar to'lov topshirig'i to'g'ri va to'liq rasmiylashturilib, uni to'lashga yetarli pul mablag'ları bo'lsa, mas'ul ijrochi topshiriqnomadagi barcha ma'lumotlarni dastuny yo'l bilan kompyuter orqali bankning elektron to'lovlari amalga oshiruvchi hisoblash markaziga o'tkazadi. Ertasi kun ertalabdan kechikmagan muddatda bank balansi chiqarilgandan keyin hujjatning birinchu nusxasi bankning kundalik yig'majildiga tikeladi va belgilangan tartibda avval joriy arxivda saqlanadi, bir yil o'tgandan so'ng umumiy bank arxiviga topshiriladi.

To'lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birligida operatsiyalar o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mijozga qaytarib beriladi. Bu bank operatsiyasi bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 20210 «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit»

Kt 20208 «Xususiy korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i.

Yuqorida ko'rsatilgan buxgalteriya yozuvlari har ikkala korxonaga bitta bank xizmat ko'rsatgan holda bajariladi. Agar mablag'larıni oluvchi korxona boshqa bank xizmatidan foydalanadigan bo'lsa, u holda to'lovchi bankidan vakillik hisobvarag'i orqali o'tkaziladi. Bunday holni quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali ko'rish mumkin:

Dt 20210 - «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti» hisobvarag'i.

Kt 16103 - «Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Shunday qilib, tijorat banking hisoblash markazidan dastuny yo'l orqali modern usuli bilan elektron to'lov o'tkaziladi, ya'ni «Elektron pochta» deb nomlangan tizim orqali elektron to'lov topshirig'i Markaziy bank qoshidagi hisob markaziga o'tkaziladi. Markaziy bank qoshida ochilgan hisob markazi to'lovchi korxonaga xizmat qiluvchi tijorat bankidan olingen ma'lumotlar asosida elektron to'lov topshirig'ini modern orqali mablag' oluvchi korxonaga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga o'tkazadi.

Elektron to'lovlari tizimi orqali olingen elektron to'lov topshiriqnomalari mablag'larıni oluvchi bankda ikki nusxada qog'ozga chiqariladi. Topshiriqnomanining birinchu nusxasi bank mas'ul

ijrochisining imzosi va bank muhr izi qo'yilib, kumlik hujatlar yig'majildiga tikiladi. Ikkinchi nusxasi esa bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muhri izi qo'yilgan holda mijoz hisobvarag'iga ilova sifatida mijozga beriladi. Bu bankda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 20208 - «Xususiy korxonaning talab qilib olinguncha saqlanadi-gan depozit hisobvarag'i».

Ushbu buxgalteriya yozuvi yordamida to'lovchi korxona bankidan Markaziy bank orqali kelib tushgan pul mablag'lari mablag' oluvchi korxona bankida mablag' oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o'tkazilayotgan barcha to'lovlarning 65-75 foizi to'lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu uning afzalliklari bilan bog'liq bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- hujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya'ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jihatdan qulayligi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va bank xodimlarining mehnat sarfini kamaytiradi;

- pul mablag'lari harakatining tezligi, ya'ni to'lov talabnomasiga nisbatan to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi harakati qisqaligi so'zsiz xo'jalik oborot mablag'larining aylanish tezligini oshiradi;

- tovar sotib oluvchining qabul qilgan tovarlar yoki xizmatlar sifatini oldindan aniqlab olinishi. hisob-kitoblarning bu shaklida to'lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo'lgan kabi bankka raddiya arizasi topshirilmaydi, chunki to'lovchining o'zi to'lovni to'lashga rozi bo'lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi;

- to'lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz operatsiyalarda qo'llanishi, bu esa ushbu shakl bo'yicha hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo'natuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxona uchun to'loving o'z vaqtida o'tkazilishi to'la kafolatlanmagan. Chunki to'loving o'z vaqtida o'tkazilishi to'lovchi korxonaning depozit hisobvarag'idagi mablag'lar miqdoriga bog'liq.


To'lovning to'liq o'tkazilishiga yetarli pul mablag'larining bo'lmasligi pul aylanishini sekinlashtiradi va mahsulot jo'natuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy holatini yomonlashtiradi. Lekin ko'rsatilgan kamchilik to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari oldidagi ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, hozirgi davrda xo'jalik subyektlari o'rtaida to'lov topshiriqnomalarining qo'llanilish doirasi yanada kengayib bormoqda, chunki o'tgan yillarda to'lov topshiriqnomalari bo'yicha to'lovlardan faqat mahsulot jo'natilgandan va xizmatlar ko'rsatilgandan keyingina amalga oshirilar edi.

Bunday holat bugungi kunda o'zini oqlamaydi, debetor va kreditor qarzdorliklarning oshib ketishiga olib keladi (1-chizmaga qarang).

### 1-chizma

To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini yuzasidan hujjatlar aylanishi

A) To'lovchi va mablag'ni oluvchiga har xil bankda xizmat ko'rsatiladi:



1. To'lovchi va mablag'لامи oluvchi o'rtaida oldi-sotdi shartnoma tuziladi.

2. To'lovchi to'lov topshiriqnomasini 2 nusxada o'z bankiga taqdim etadi.

3. To'lov topshiriqnomasiga asosan pul mablag'lari mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'idan oluvchining bankiga o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 20210 «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti» hisobvarag'i,

Kt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

4. Elektron to'lovlar tizimi (ETT) orqali olingan elektron to'lov topshiriqnomasi 2 nusxada qog'ozga chiqariladi va pul mablag'lari oluvchining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan kirim qilinadi:


Dt 16103-«Bosh bank // filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 20210 «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti» hisobvarag'i.

5. Tovar va mahsulotlar to'lovchiga ortib jo'natiladi.

B) To'lovchi va mablag' ni oluvchiga bitta bankda xizmat ko'rsatiladi (2-chizmaga qarang):

#### 2-chizma



1. To'lovchi va mablag'ni oluvchi o'ttasida oldi-sotdi shartnomasi tuziladi;

2. To'lovchi to'lov topshiriqnomasini 3 nusxada xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etadi;

3. To'lov topshiriqnomasiga asosan pul mablag'lari mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'idan oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilar rasmiylashtiriladi:

Dt 20210 «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti» hisobvarag'i - beruvchida.

Kt 20210 «Davlat korxonasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti» hisobvarag'i - oluvchida.

4. Tovar va mahsulotlar to'lovchiga ortib jo'natiladi.

## **6.5. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar nususni**

To'lov talabnomasi - bu mahsulot yetkazib beruvchi va mablag' oluvchilarning belgilangan summani to'lovchi bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabnomani o'z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir.

Talabnomalar yuklab jo'natilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, shuningdek, tomonlar shartnomasida ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar uchun qo'llaniladi.

Talabnomalar aksepti yoki akseptsiz bo'ladi. «Aksept» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, rozilik ma'nosini anglatadi, ya'ni bu to'lovchining to'lovni amalga oshirish uchun bankka bergan rozligidir.

Talabnomalar bitta operatsiya uchun bir marta taqdim etiladi, takroran taqdim etilmaydi. Talabnoma reestr bilan birga mablag'larni oluvchi tomonidan unga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. Reestr ikki nusxada taqdim etiladi, bunda birinchi nusxasi korxonaning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhr izi bilan tasdiqlanadi. Reestrning birinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda, buxgalterning imzosi va unga biriktirilgan bank tamqasi bilan tasdiqlanib, mablag'lar oluvchining bankida qoldiriladi, ikkinchi nusxasi esa mijozga qaytarilib beriladi.

To'lov talabnomalari mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan belgilangan 0505411001 shakldagi blankalarda bankka taqdim etiladi. To'lov talabnomalari quyidagi hollarda ishlatalishi mumkin:

- a) yuklab jo'natilgan tovarlar uchun;
- b) bajarilgan ishlar uchun;
- v) ko'rsatilgan xizmatlar uchun;
- g) amaldagi qonunchilikda, me'yoriy hujjatlar yoki shartnomada ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar uchun.

To'lov talabnomasida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan talabnoma raqami, uni to'ldirilgan sana, shu korxona nomi, uning hisobvaraq raqami, xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, bankining kodi, to'lovchi korxonaning nomi, uning bankdagi hisobvaraq raqami, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi, to'lov summasi va to'lov maqsadi ko'rsatiladi. hujjatlarda ko'rsatilishi lozim bo'lgan umumiy rekvizitlardan tashqari to'lov talabnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) shartnoma sanasi va raqami;
- b) mahsulotlarni yuklab jo'natish sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish, fopshirish hujjatlari va transport turi, tovarlar pochta va

telekomunikatsiya agentligi orqali jo'natilganda esa pochta kvitantsiyalarining raqami.

Agar mahsulot uni sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilsa, talabnomaning alohida ajratilgan joyida yuk uni sotib oluvchining o'z transporti bilan olib chiqib ketilgani hamda ishonchnomaning raqami ko'rsatiladi. Shunday hollar ham bo'ladiki, mahsulot kontraksiya shartnomalari asosida realizatsiya qilinadi. Kontraksiya shartnomalari bo'yicha mahsulot yetkazib berishda to'lov talabnomasining yuqori qismida ya'ni talabnoma deb yozilgan so'z yoniga «Kontraksiya shartnomasi» deb ko'rsatilishi lozim. To'lov talabnomasining pastki, alohida ajratilgan qismida mahsulot jo'natuvchi korxona rahbari va bosh buxgalterning imzolari va korxonaning muhr izi qo'yiladi.

Umuman, to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni rasmiylashtirish va hisobga olish ishlarini 3 bosqichga bo'lib ko'rib chiqamiz:

1-bosqich. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida to'lov talabnomasini inkassoga qabul qilinishi.

2-bosqich. Mahsulot oluvchi bankida to'lov talabnomalarini to'lash bo'yicha operatsiyalarini.

3-bosqich. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida to'lovnini qabul qilish bo'yicha operatsiyalarini.

To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblarining har bir bosqichini alohida ko'rib chiqamiz.

**1. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida to'lov talabnomasini inkassoga qabul qilinishi.**

To'lov talabnomasi mahsulot jo'natilgandan so'ng shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulot jo'natuvchi korxona tomonidan ro'yxat, ya'ni reestr asosida bankka inkassoga topshiriladi.

Ro'yxat to'lov talabnomalarining barcha rekvezitlarini o'z ichiga olgan holda ikki nusxada to'ldiriladi. Ro'yxatning birinchi nusxasi korxonaning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib muhming izi bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ro'yxatning birinchi nusxasi qabul qilingan sana, mas'ul ijrochi imzosi qo'yilgandan so'ng, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilib bankda qoldiriladi. Ro'yxatning ikkinchi nusxasi esa qabul qilingan sana, mas'ul ijrochi imzosi qo'yilib, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilib mahsulot yetkazib beruvchiga qaytariladi.

To'lov talabnomalari 2 yoki 3 nusxada to'ldiriladi. Agar mahsulot yetkazib beruvchi va to'lovchi tomonlarga bitta bank bo'limi xizmat ko'rsatsa talabnoma 3 nusxada taqdim etiladi. Bu holda to'lov talabnomalarning har bir nusxalari quyidagicha ishlataladi.

- birinchi nusxa to'lovlari amalgaga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lovi amalgaga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilgan va qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

- ikkinchi nusxasi to'lovni oluvchining hisobvarag'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalgaga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr izi qo'yilgan va qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda beriladi;

- uchinchchi nusxa qabul qilingan sana, to'lovni amalgaga oshirish sanasi, mas'ul ijrochining imzosi va bank to'rtburchak muhr izi qo'yilgan holda to'lovchiga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

Agar to'lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi bir hudud ichidagi yoki turli hududlarda joylashgan turli bank bo'limlari xizmatidan foydalansalar, bu holda to'lov talabnomalari 2 nusxada bankka taqdim etiladi. Ularning har ikkala nusxalari pochta aloqasi yoki kur'erlar orqali to'lovchi bankiga jo'natiladi.

## **2. Mahsulot oluvchi bankida to'lov talabnomasini to'lash bo'yicha operatsiyalar.**

To'lovchi korxona bankiga mahsulot yetkazib beruvchi korxona bankidan birinchi va ikkinchi nusxa to'lov talabnomasi pochta aloqasi yoki kur'erlar orqali kelib tushadi. To'lov talabnomalari tomonlar o'rjasida tuzilgan shartnomaga asosan akseptlash tartibida yoki akseptlamasdan to'lanishi mumkin. Bank tomonidan talabnomalarni akseptlash uchun:

- a) bir shahar ichida joylashgan mijozlar uchun - 3 ish kuni
- b) boshqa shaharlarda joylashgan mijozlar uchun - 5 ish kuni
- v) to'lovchining asosli iltimosiga ko'ra 10 kungacha muhlat beriladi.

Akseptlash tartibida to'lanadigan talabnomalarning birinchi nusxasi to'lovchi ogohlantirilgandan so'ng to'lov uchun akseptlashni kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 1-kartoteka deb yuritiladi. Talabnomaning ikkinchi nusxasi tovar-transport hujjatlari bilan birga keyingi ish kunidan kechiktirilmasdan hujjatni akseptlash uchun qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda va

to'lov to'g'risida ma'lumot sifatida to'lovchiga beriladi. Agar bankda 1-kartotekanining hisobini yuritish dasturiy yo'l bilan olib borilmasa, bunday talabnomalar qabul qilingan kuni «To'lov uchun akseptlanishi kutayotgan hisob-kitob hujjatlari»ni hisobga olib borish daftarida ikki nusxada quyidagi rekvizitlarni ko'rsatgan holda bank tomonidan qayd etiladi:

- to'lov talabnomasining bankka kelib tushish sanasi va to'lov muddati;
- to'lovchining hisobvaraq raqami;
- to'lovchining nomi;
- bank kodi;
- talabnomaning raqami;
- to'loving maqsadi va summasi;

To'lov talabnomasini 1 kartotekaga joylashtirishda quyidagi balansdan tashqari provodka bajariladi.

Dt 90962 - «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» hisobvaraq'i.

Kt 96319 - «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Daftarda har bir to'lov muddati bo'yicha talabnama summalarini va bu summalarning yig'indilari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. 1-kartotekanining hisobi dasturiy yo'l bilan amalga oshirilsa, talabnama bo'yicha ko'rsatilgan rekvezitlar kompyuterga kiritiladi.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, to'lovchi to'lov talabnomasining ikkinchi nusxasini olgandan keyin, uning to'g'ri rasmiylashtirilganligini, shartnoma shartlariga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirib chiqadi. To'lovchi belgilangan muddatda tovar moddiy qiymatliklarni jo'natishda xizmatlar ko'rsatishda amaldagi qonuniy hujjat talablariga hamda shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda talabnomani qisman yoki to'liq to'lashdan bosh tortishi mumkin. Buning uchun bankka yozma ravishda raddiya arizasi topshirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda bankka raddiya arizasi topshirilmasa, ya'ni yozma ravishda akseptlashni rad etmasa talabnama akseptlangan bo'lib hisoblanadi. Akseptlashni rad etish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxstar doirasini bank bo'limi boshqaruvchisi belgilaydi. Banklar akseptlashni rad qilish mohiyati bo'yicha kelib chiqqan bahs va nizolarga aralashmaydilar.

To'lov talabnomasini to'lashdan bosh tortib yozilgan raddiya arizasi to'lovchi tomonidan bankka topshirilganda talabnomalar shu kunning o'zidayoq 1-kartotekadan olinadi hamda tovar-transport hujjatlari va boshqa ilovalar bilan birga mahsulot yetkazib beruvchi korxona bankiga ijrosiz qaytarib yuboriladi. To'lovchi talabnomani akseptlashdan qisman bosh tortganda, to'lovchi tomonidan akseptlangan summa bo'yicha to'lovlar o'tkaziladi. To'lovchi hisobvarag'ida talabnomanining akseptlangan qismini to'lashga yetarli pul mablag'lari bo'lmaganda talabnoma «Muddatda to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka 2-kartoteka deb yuritiladi. Bunda talabnomaning dastlabki summasi o'chiriladi va yonida to'lovchi akseptlangan summa yozib qo'yiladi. Kartotekaga kirim qilingan summa to'lovchi korxona hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgandan so'ng to'lanadi.

Agar 1-kartotekaga joylashtirilgan to'lov talabnomasi bo'yicha to'lovchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to'lov talabnomasi akseptlash uchun berilagn 3 kun muhlat o'tgandan so'ng to'lanadi. To'lov talabnomasini to'lashdan avval to'lovchi korxonaning depozit hisobvarag'ini yurituvchi mas'ul ijrochi talabnomani to'lash uchun yetarli pul mablag'larining to'lovchi hisobvarag'ida mavjudligini tekshiradi. Agar depozit hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lari bo'lsa, talabanoma to'lanadi. To'lov talabnomasini to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali arnalga oshiriladi:

Dt 20210 «Davlat tassarrufidagi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i,

Kt 16103 - «Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Balans ichidagi hisobvaraqlar bo'yicha bajarilgan ushbu buxgalteriya yozuvlari bilan bir qatorda balansdan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlar bo'yicha ham buxgalteriya yozuvlari bajariladi. 1 kartotekadagi to'lov talabnomasining o'zi kartotekadan olinadi va hisobdan chiqariladi:

Dt 96319 - «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr hisobvarag'i»,

Kt 90962 - «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» hisobvaraq.

Bu buxgalteriya yozuviga qarama-qarshi bo'lgan yozuv to'lov talabnomasini 1-kartotekaga qabul qilingan paytda bajariladi, ya'ni

to'lov talabnomasining 1-kartotekaga kirim qilinganligini bildiradi. Yuqoridagi buxgalteriya yozuvi esa talabnomaning kartotekadan olinganligini bildiradi.

To'langan talabnoma elektron to'lovlar tizimi yordamida Markaziy bank qoshidagi hisob Markazi orqali mahsulot sotuvchi bankiga o'tkaziladi. Talabnomaning ushbu nusxasi bankning kundalik hujjatlar yig'majildiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Lekin har doim ham to'lovchi korxonaning hisobvarag'ida to'lov talabnomasini to'lashga yetarli pul mablag'lari bo'lmasligi mumkin. To'lovchining depozit hisobvarag'ida mablag' bo'limganda talabnomalar 2-kartotekada to'lovni kutayotgan hujjatlar qatoriga joylashtiriladi, bu haqda mahsulot yetkazib beruvchi bankiga xabar beriladi. Talabnoma 2-kartotekaga joylashtirilganda balansdan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Dt 90963 - «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» hisobvarag'i,

Kt 96321 - «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

To'lov talabnomasi 2-kartotekada to'lovchi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga talabnomani to'lashga yetarli pul mablag'lari kelib tushguncha saqlanadi. Pul kelib tushgandan so'ng, kelib tushgan mablag'lar doirasida me'yoriy hujjatlarda o'matilgan tartibda to'lov amalga oshiriladi. To'lov o'tkazish bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvi bajariladi:

Dt 20210 «Davlat tassarrufidagi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i -sotib oluvchi,

Kt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Bu erda mahsulot sotuvchi turli mulkchlik shakldagi xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lishi mumkin. Balans ichidagi buxgalteriya yozuvini bajarishdan avval hujjat 2-kartoteka hisobidan chiqariladi, bu operatsiya quyidagi buxgalteriya yozuvi asosida amalga oshiriladi:

Dt 96321 «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraq'i».

Kt 90963 «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» hisobvaraq,

Bank 2-kartotekadagi muddati o'tkazib yuborilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda to'lovchilardan penya undirish va oluvchilar foydasiga o'tkazish huquqiga ega, agar bu bank va mijoz o'rtaida tuzilgan shartnomada kelishilgan bo'lsa. Bank to'lovchilardan mablag'larni oluvchilar foydasiga muddati o'tkazib yuborilgan to'lovlarni bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun qonunda belgilangan miqdorda penya undiradi. Muddati o'tkazib yuborilgan kunlarni belgilashda kalendar kunlar hisobga olinadi. Undirilgan penya muddati o'tkazib yuborilgan to'loving asosiy summasi bilan to'lovchining hisobvarag'idan hisobdan chiqaziladi va mahsulot yetkazib beruvchining bankiga elektron to'lovlarni tizimi orqali o'tkaziladi.

Ba'zi vaqtarda to'lov talabnomasini to'lash uchun to'lovchi korxonaning roziligi, ya'ni akseptlashi talab etilmaydi. To'lovchilarning hisobvaraqlaridan mablag'larni akseptlamasdan hisobdan chiqarish tomonlar o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan kommunal xizmat, telefon, kanalizatsiya, pochta-telegraf xarajatlari hamda tashilgan musor uchun amalga oshiriladi. Kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni o'lchov asboblari gaz, suv, issiqlik va elektr energiyasi uchun hisoblanadi.

Bunday akseptsiz to'lovlarni amalga oshirish uchun bankka taqdim qilingan to'lov talabnomanining yuqori qismiga «akseptsiz» hamda «hisoblash asboblari asosida» degan so'zları ko'rsatib o'tilgan bo'lishi lozim. Ushbu yozuvlar bo'limgan taqdirda talabnomalar umumiy asosda akseptlanadi va to'lanadi. Talabnomada ma'lum to'lovlarni akseptlamasdan hisobdan chiqarish huquqiga ega bo'lgan qonuniy hujjat yoki shartnomaning sanasi, raqami va to'loving maqsadi ko'rsatilishi shart. Bunda bank ilova qilingan hujjatlarning talabnomada ko'rsatilgan ularning rekvezitlariga mosligini tekshirib ko'radi.

Bank operatsion kuni kelib tushgan akseptsiz to'lanadigan talabnomalar shu kunning o'zida to'lanadi. To'lovchi korxonaning depozit hisobvarag'ida talabnomani to'lash uchun mablag'lari yo'qligi yoki kamliqi aniqlansa, hamda ularni to'lashi uchun bank kreditini berish imkoniyati bo'limganda, to'lanmagan summa «O'z muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» kartotekasi bo'yicha aloxida hisobvaraqqha o'tkaziladi, talabnomanining o'zi esa 2-kartotekaga joylashtiriladi.

Operatsion kum tugagandan so'ng bankka kelib tushgan to'lov talabnomalari keyingi ish kuni to'lanadi. Bunday talabnomalarga «Kechki» degan belgi qo'yib qo'yiladi. Umuman akseptsiz to'langan yoki 2-kartotekaga joylashtirilgan talabnomalar bo'yicha buxgalteriya yozuvlari akseptlash tartibda to'lanadigan talabnomalar singari amalga oshiriladi.

### **3. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida to'lovni qabul qilish bo'yicha operatsiyalar.**

To'lovchi korxona bankida to'langan to'lov talabnomasi «Elektron pochta» elektron tizimi orqali Markaziy bank qoshidagi hisob Markaziga uzatiladi. hisob Markazida to'lovchi korxona bankining vakillik hisobvarag'idan to'lov talabnomasida ko'rsatilgan pul summasi mahsulot yetkazib beruvchi bankining korrespondentsiya hisobvarag'iga o'tkaziladi. Elektron to'lov tizimi orqali olingan elektron talabnomalar mablag'lari oluvchi bankda ikki nusxada qog'ozga chiqariladi. Ularning birinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muhri qo'yilib kundalik hujjatlar yig'majildiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Talabnomaning ikkinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muhri qo'yilgan holda mahsulot yetkazib bergen korxonaning depozit hisobvarag'iga ilova sifatida qo'shib beriladi. Shu bilan birga, bu korxonaga hisobvaraqdan ko'chirma ham beriladi. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida to'lovchi bankidan kelib tushgan to'lov summasi quyidagi buxgalteriya yozushi orqali mablag' oluvchining hisobvarag'iga o'tkazib qo'yiladi:

Dt 16103-«Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 20210-«Davlat taassarrufidagi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i.


Bu erda mahsulot yetkazib beruvchi davlat tasarrufidagi, davlat tasarrufidan tashqaridagi turli mulkchilik shakllarida qarashli korxonalar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ularning hisobvaraq raqamlari belgilanadi. Ushbu buxgalteriya yozushi mahsulot yetkazib beruvchi korxonaning hisobvarag'iga sotilgan mahsuloti uchun pul mablag'laring kelib tushganligini bildiradi.

To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar umumlashgan holda qanday amalga oshirilishini to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-

kitoblarining hujjatlar aylanishi sxemasi orqali yaqqol ko'rish mumkin  
(3-chizmaga qarang).

Ushbu chizmaning mazmuni:

1. Mahsulot jo'natuvchi korxona bilan mahsulot oluvchi korxona o'rtaida xo'jalik shartnomasi tuzilishi;
2. Mahsulot jo'natuvchi korxona mahsulot oluvchi korxonaga tovar jo'natishi;
3. Mahsulot jo'natuvchi korxona o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank bo'limga to'lov talabnomasi va tovar-transport hujjatlarini taqdim qilishi;
4. Mahsulot jo'natuvchi korxona banki mahsulot oluvchi korxona bankiga pochta yoki kur'erlar orqali hujjatlarni jo'natishi;
5. Mahsulot oluvchi korxona banki kelib tushgan to'lov talabnomasini akseptlash uchun mahsulot oluvchi korxonaga berishi;



### 3-chizma. To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish

7. Korxona o'z bankiga akseptlangan talabnomani taqdim etishi;
8. Mahsulot oluvchi korxona banki talabnomada ko'rsatilgan summani to'lovchi korxona hisobvarag'idan chegirib, talabnoma bo'yicha to'lovnini amalga oshirishi;
9. Mahsulot oluvchi korxona banki hisob Markaziga to'langan elektron to'lov talabnomasini modem orqali jo'natishi;
10. hisob Markazi elektron to'lov tizimi orqali to'langan talabnomanini mahsulot sotuvchi korxona bankiga o'tkazilishi;

**11. Mahsulot sotuvchi korxona banki talabnomasi summasini mahsulot sotuvchi korxonaning hisobvarag'iga o'tkazishi.**

To'loving kelib tushganligini xabar qilish uchun kompyuterda chiqarilgan elektron to'lov talabnomasining ikkinchi nusxasini hisobvaraqdan ko'chirma bilan birligida mahsulot sotuvchi korxonaga topshiradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar ham ma'lum bir afzallik va kamchiliklarga ega. To'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- mahsulot sotuvchi bilan mahsulot oluvchi tomonlar bir-birini o'zaro nazorat qilishga qulay;

- mahsulot oluvchiga tovarni jo'natish kechiktirilmaydi;

- mol jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun mahsulot oluvchining mablag'ini alohida hisobvaraqda deponent qilib qo'yish talab etilmaydi, ya'ni to'lovchining mablag'lari biror muddatga oborotdan tashqariga chiqib ketmaydi;

- to'lovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol yetkazib beruvchining shartnomalar shartlari qay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi, shu bilan birga, shartnomalar shartlaridan biri buzilgan holda to'lov to'lashdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi;

- mol oluvchi hisobvarag'idan akseptsiz talabnomalar bo'yicha mablag'larning majburiy olinishi mahsulot yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatgan tomon manfaatlariaga mos keladi.

To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagilar:

- mahsulot sotuvchi korxonaga to'loving o'z vaqtida o'tkazilishi kafolatlanmaydi;

- to'lov o'tkazilishi bilan tovar jo'natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi;

- to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi to'lov topshirig'iga nisbatan uzoqroq davom etadi.

Umuman, to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning ishlatalishi ko'p hollarda 2- kartotekadan o'z vaqtida to'lanmagan to'lov talabnomalarning ko'payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnomalar bankka to'lov uchun kelib tushgan vaqtida to'lovchining hisobvarag'idan har doim xam to'lovnini amalga oshirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmaydi. Kartotekaga qo'yilgan har bir to'lov talabnomasi iqtisodiyot

tarmoqlarida debetorlik va kreditorlik qarzlamining oshganligidan dalolat beradi. Shu sababli, respublika banklari o'z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ulami to'lash bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganini nazorat qilib turadilar.

#### **6.6. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha operatsiyalarning hisobi**

Inkasso topshiriqnomasi ushbu topshiriqnomani bergan bank mijozining bank-emitetnga to'lovchining hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi talabidir.

Inkasso topshiriqlari quyidagi hollarda hisob-kitoblar uchun taqdim etiladi:

- o'z vaqtida to'lanmagan soliqlarni undirish uchun;

davlat budjetiga o'tkaziladigan soliqdan tashqari to'lovlari, jumladan, penyalar, jarimalarni undirib olish to'g'risidagi soliq organlarining farmoyishiga ko'ra;

- budjetdan tashqari fondlardan to'lovlarni undirib olishda, agar bu qonuniy hujjatlarda ko'zda tutilgan bo'lsa;

- bojaxona organlarining qaroriga ko'ra o'z vaqtida to'lanmagan bojaxona to'lovlarni undirish uchun;

- ijro hujjatlariga muvofiq, xo'jalik sudining buyruqlari, sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari hamda notariuslar tomonidan yozilgan ustxatlarni kiritish mumkin.

Budjet, bojaxona va huquqni muhofaza qilish organlarini to'lovni undiruvchi deb yuritamiz. To'lovni undiruvchi inkasso topshiriqlarini ijro hujjatlarini ilova qilgan holda to'lovni undirish uchun bankka taqdim qiladilar. Agar to'lovni undiruvchi va to'lovchi tomonlar bir shahar ichidagi bank xizmatidan foydalansalar inkasso topshirig'i to'lovchining hisobvarag'i yuritiladigan bank bo'limiga topshiriladi. Agar inkasso topshirig'i boshqa shahardagi to'lovchilar nomiga rasmiylashtirilgan bo'lsa, bu holda hujjat undirib oluvchiga xizmat ko'rsatuvchi bank bo'limiga topshirilishi lozim. To'lovchilarning hisobvaraqlaridan mablag'larni hisobdan chiqarish bank bo'limlari tomonidan hujjatlarining nusxasi bo'yicha emas, balki, asl nusxasi yoki dublikati asosida bajariladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar foydasiga mablag'larni hisobidan chiqarish bo'yicha hujjatlar qonunda belgilangan muddatdan o'tkazib taqdim etilgan bo'lsa, bank bo'limlari ushbu hujjatlarni inkasso uchun

qabul qilmaydilar. Ijro hujjatlarining bajarilish muddatiari quyidagicha belgilangan:

- sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari bo'yicha - 3 yil;
- ijro ustxatlari bo'yicha, agar qonunchilik tomonidan boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa - 3 yil;
- xo'jalik sudlarining ijro varaqlari bo'yicha - 6 oy;  
xo'jalik sudining sudyasi tomonidan berilgan sud buyrug'i bo'yicha undirib olish, buyruq berilgan kundan boshlab - 10 kun muddat davomida amalga oshiriladi.

Davlat sug'urtasi, ijtimoiy sug'urta idoralari, davlat budjeti foydasiga mablag'larni o'tkazib berish hujjatlar bank tomonidan amal qilish muddati cheklanmagan holda qabul qilinadi.

Inkasso topshiriqnomasi bank bo'limiga undirib oluvchi tomonidan 0505411013 shaklda 4 nusxada topshiriladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi nusxalari bankda ijro uchun qoldiriladi, to'rtinchi nusxasi esa imzolanib va tasdiqlanib, mablag'larni oluvchiga qaytarilib beriladi. To'lov amalga oshirilgandan keyin inkasso topshiriqnomalarining nusxalari quyidagicha ishlataladi:

- birinchi nusxa to'lovlari amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, bankning to'rburchak muhr izi, to'lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikeladi;

- ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birga to'lovchining hisobvaraq'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rburchak muhrining izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovchiga beriladi;

- uchinchi nusxasi bank bo'limining to'rburchak muhr izi tushirilgan, mas'ul bajaruvchi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovni oluvchiga beriladi.

Undirib oluvchi va to'lovchiga bir shahar ichidagi turli banklar xizmat ko'rsatganda ham inkassa topshiriqnomasi 3 nusxada rasmiylashtirilib, undirib oluvchi tomonidan bevosita to'lovchi korxona bankiga topshiriladi.

Inkasso topshiriqnomasining alohida nusxalari quyidagicha ishlataladi:

- birinchi nusxa to'lovlari amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning

to'rtburchak muhri izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;

- ikkinchi nusxasi ijo hujjatlari bilan birgalikda to'lovchining hisobvarag'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko'rsatilgan va bankning muhr izi tushirilgan holda to'lovchiga beriladi;

- uchinchi nusxasi bank bo'limining to'rtburchak muhr izi tushirilgan, mas'ul ijrochining imzosi, to'lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovni oluvchining o'ziga inkasso topshiriqnomasining ijo uchun bank tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida qaytariladi.

Amaliyotda shunday hollar ham bo'ladiki, bunda to'lovni undiruvchi va to'lov to'lovchi turli shaharlarda joylashgan bo'lib, ularga turli banklar xizmat ko'rsatadi. Bunday shaharlararo yoxud hududlararo operatsiyalar banklararo hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Shaharlararo hisob-kitoblarda inkasso topshiriqlari undiruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi bank bo'limlariga undiruvchi tomonidan topshiriladi.

Bu holda inkasso topshirig'i 3 nusxada rasmiylashtinlib bankka topshiriladi. Uning birinchi va ikkinchi nusxalarini ijo hujjatlari bilan birga pochta aloqasi orqali to'lovchining bankiga jo'natiladi. Topshiriqnomani jo'natishdan avval unga mas'ul ijrochi tomonidan imzo, hujjatning qabul qilinish sanasi qo'yiladi hamda bankning to'rtburchak muhr izi tushiriladi. Inkasso topshiriqnomasining uchinchi nusxasi bank bo'limining to'rtburchak muhr izi tushirilgan, mas'ul ijrochining imzosi, qabul qilish sanasi qo'yilgan holda undiruvchiga qaytariladi.

Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarda bajariladigan buxgalteriya yozuvlari undiruvchi va to'lov to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi banklarning joylashuviga bog'liq. Agar har ikki tomoniga bitta bank bo'limi xizmat ko'rsatsa, inkasso topshiriqnomasini to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 20200- «Talab qilib olunguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i - to'lovchi,

Kt 20200 -«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i - undiruvchi.

To'lov to'lovchi va undiruvchi tomonlar bir shahar ichidagi turli banklar xizmatidan foydalansalar, undiruvchi tomon inkasso topshirig'ini to'lovchi bankiga 3 nusxada topshiradi. Topshiriqnomarining to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilganligi, uning barcha rekvezitlarining mavjudligi, shu bilan birga, to'lovchining hisobvarag'ida ushbu topshiriqnomani to'lash uchun pul mablag'larining yetarligi bank mas'ul ijrochisi tomonidan nazorat qilinadi. Shundan so'ng birinchi nusxa asosida quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 20200- «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i – to'lovchi,

Kt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

To'lov elektron to'lov tizimi orqali hisob Markaziga o'tkaziladi. Inkasso topshiriqnomalarining boshqa nusxalari yuqorida ko'rsatib o'tilganga muvofiq ishlatalidi.

To'lov to'lovchi va undiruvchi tomonlarga turli shahardagi turli banklar xizmat ko'rsatsalar, undiruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bank inkasso topshirig'ini ijro hujatlari bilan bixgalikda pochta aloqasi orqali to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka jo'natadi. To'lovchining banki kelib tushgan hujatlarning to'lanishi mumkinligi va to'g'ni rasmiylashtirilganligini tekshirib yuqoridagi buxgalteriya yozuvini o'tkazadi va elektron to'lov tizimi orqali hisob Markazi to'lovni jo'natadi.

Hisob Markazi orqali to'lov undiruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bankning vakillik hisobvarag'iga kelib tushadi. Bir vaqtning o'zida kelib tushgan pul mablag'lari undiruvchi tomonning hisobvarag'iga o'tkaziladi. Bu operatsiya quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:


Dt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i –undiruvchi banki,

Kt 20200- «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i – to'lovchi.

Undiruvchi bankida elektron to'lov tizimi orqali qabul qilingan elektron inkasso topshiriqnomasi 2 nusxada qog'ozga chiqariladi. Ularning birinchi nusxasi bankning muhr izi va mas'ul ijrochining imzosi qo'yilib, kunlik hujatlar yig'masiga tikiladi. Ikkinchi nusxasi esa

bank muhr izi va mas'ul ijrochining imzosi qo'yilgan holda undiruvchining hisobvarag'iga ilova qilib beriladi.

Inkasso topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning olib borilishini umumiy holda inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning hujjatlar aylanishi orqali ko'rish mumkin (5-chizmaga qarang).



### **5-chizma. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning hujjatlar aylanishi**

Bu erda.

- 1) tovarlar yetkazib beriladi;
  - 2) inkasso banka taqdim etiladi;
  - 3) inkasso to'lovchi bankiga jo'natiladi;
  - 4) to'lovchi korxonaga to'lov hujjatlari kelib tushganligi haqida xabar bariladi;
  - 5) inkasso to'lovchi tomonidan akseptlanadi;
  - 6) to'lovchining banki tomonidan mablag'lar to'lovni oluvchining banki hisobvarag'iga kirim qilinadi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiy lashtiniladi.
- Dt To'lovchining hisobvarag'i (20208),  
Kt To'lovchining banki hisobvarag'i (16103).
- 7) to'lovni oluvchi bank mablag'larni mijozning hisobvarag'iga kirim qiladi:
- Dt To'lovni oluvchi bankning hisobvarag'i (16103),  
Kt To'lovchining hisobvarag'i (20208).

Ushbu chizma shaharlارаро inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, uchun berilgan. Bir shahar ichidagi hisob-kitoblarda

inkasso topshiriqnomasi undiruvchi bankni chetlab o'tib bevosita to'lovchi bankiga topshiriladi.

### **6.7. Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi**

Akkreditiv -mijozning topshirig'iga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontrogenti foydasiga berilayotgan bankining shartli pul majburiyatidir. Unga ko'ra akkreditiv ochgan bank mahsulot yetkazib beruvchiga to'lojni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda va akkreditivning boshqa shartlari bajarilganda ularga bu to'lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditiv so'zining o'zi lotin tilidan olingen bo'lib, «ishonchli» degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda korxonalar o'rtaсидаги hisob-kitoblarda akkreditivlarning quyidagi turlari ochilishi mumkin:

- qoplangan akkreditiv (deponentlangan);
- qoplanmagan (deponentlanmagan).

Akkreditivlar ochilganda akkreditiv ochgan bank to'lovchining shaxsiy mablag'idan yoki unga berilgan kredit hisobidan mol yetkazib beruvchining banki tassarrufiga alohida «Akkreditivlar» balans hisobvarag'iga mablag'lami yetkazib bersa bunday akkreditivlar qoplangan akkreditivlar deyiladi. Akkreditiv ochgan bank xalqaro qabul qilingan andozalar asosida bank-emitent deb yuritiladi.

Akkreditivlarning ikkinchi turi qoplanmagan akkreditiv bo'lib, bank va boshqa korxonalar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan xo'jaliklarga bunday akkreditivlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qoplanmagan akkreditivning qoplangan akkreditivdan farqi shundan iboratki, bunda to'lovchi korxonaning pul mablag'lari alohida hisobvaraqla o'tkazib qo'yilishi talab qilinmaydi. Bank to'lovchi hisobvarag'ida to'lov hujjatlari kelib tushganda pul bo'limgan taqdirda bank mablag'lari hisobidan to'lov berishni kafolatlaydi. Akkreditivning bu turining qulayligi shundan iboratki, mol sotib oluvchining pul mablag'lari oborotdan tashqariga chiqib ketmaydi, ikkinchi tomonidan mol jo'natuvchi korxona uchun ham to'lov kafolatlangan. Faqat bank mablag'lari hisobidan to'lov amalga oshirilganda shartnomada kelishilgan miqdorda haq to'lanadi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar:

- chaqirib olinadigan akkreditivlar;
- chaqirib olinmaydigan akkreditivlar bo'lishi mumkin.

Agar akkreditiv bo'yicha hujjatlarda bu haqda belgi mayjud bo'lmasa, bunday akkreditivlar chaqirib olinuvchi bo'lib hisoblanadi. Chaqirib olinuvchi akkreditiv bank-emitent tomonidan mablag'larni oluvchi bilan oldindan kelishib olinmasdan ham o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Masalan, shartnomada ko'zda tutilgan shartlarga rioya etilmaganda, bank-emitent akkreditiv bo'yicha to'lovlarni kafolatlash muddatidan avvalroq voz kechganda va boshqa hollarda akkreditiv chaqirib olinishi mumkin. To'lovchi mahsulot yetkazib beruvchiga chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o'zgarishi yoki bekor qilinishi to'g'risidagi barcha farmoyishlarni faqat bank-emitent orqali berishi mumkin, ushbu bank mahsulot yetkazib beruvchining banki, ya'ni bajaruvchi bankni, u esa, o'z navbatida mahsulot yetkazib beruvchi korxonani xabardor qiladi.

Bajaruvchi bank, ayni paytda, mahsulot yetkazib beruvchi taqdim etgan va mahsulot yetkazib beruvchining banki tomonidan qabul qilingan akkreditiv shartlariga tegishli bo'lgan hujjatlar bo'yicha to'lovlarni mazkur bank akkreditivini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi xabarnomani olgunga qadar to'lashi shart.

Mahsulot yetkazib beruvchining roziligidan, uning foydasiga ochilgan chaqirib olinmaydigan akkreditiv o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Mahsulot yetkazib beruvchi korxona akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan hollarda akkreditivni muddatidan oldin ishlatishdan voz kechishi mumkin.

a) Emitent bankida akkreditivning ochilishi: akkreditiv faqat bir ta'minotchi bilan hisob-kitob qilishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Akkreditivning muddati va hisob-kitob qilish tartibi tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi. Shartnomada:

- emitent-bankning nomi;
- akkreditiv turi, uni bajarish muddati va bajarish usullari;
- mol yetkazib beruvchining akkreditiv bo'yicha mablag' olishi uchun taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati va ularning aniq tavsifi;
- tovarlarni jo'natgandan keyin hujjatlarni taqdim qilish muddati;
- mol yetkazib beruvchi va oluvchi tomonlar nomi, ularning yuridik adreslari;
- bajaruvchi bank nomi va boshqalar ko'rsatiladi.

Akkreditiv' ochish uchun xaridor o'z bankiga - bank emitentga akkreditivlarni ochish to'g'risidagi arizani 2 nusxada taqdim etadi. Arizada akkreditiv ochish uchun asos bo'lgan shartnomaga raqami,

**akkreditivning amal qilish muddati, akkreditivni bajaradigan bankning nomi, akkreditiv ijro etiladigan joy, akkreditiv turi, akkreditiv bo'yicha haq to'lanadigan hujjatlarning to'liq va aniq nomi, rasmiylashtirish tartibi, akkreditiv bo'yicha to'lash usuli va boshqa kerakli rekvizitlar ko'rsatiladi.**

Bankda ushbu korxonaga xizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochi akkreditiv ochish haqidagi arizani olib, uning to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilganligi, barcha kerakli rekvezitlarning mavjudligini tekshirib ko'radi. Shundan so'ng qabul qilingan akkreditiv ochish haqidagi arizaning birinchi nusxasiga o'z imzosini, bankning to'rtburchak muhr izini, arizani qabul qilish sanasi va to'lov o'tkazilgan sanasini qo'yadi. Arizaning birinchi nusxasida ko'rsatilgan barcha rekvezitlar kompyuterga kiritib elektron to'lovlar tizimi yordamida to'langan summani Markaziy bankning hisob markazi orqali mahsulot jo'natuvchi korxona bankiga, ya'ni bajaruvchi bankka jo'natiladi. Xaridorning hisobvarag'idan to'lovnini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar quyidagi buxgalteriya yozuvlari orqali amalga oshiriladi:

Dt 20210 «Davlat tassarrufidagi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i - mahsulot oluvchi,

Kt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i – emitent bank.

Bir vaqtning o'zida akkreditiv summasi akkreditivlarni hisobga oluvchi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'iga kirish qilinadi. To'lov o'tkazilgandan so'ng arizaning ikkinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi, bankning to'rtburchak muhr izi, to'lov o'tkazilgan sana hamda qabul qilish sanasi qo'yilgan holda to'lovchiga shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

b) Akkreditivni bajaruvchi bankda akkreditivning yopilishi: akkreditivni bajaruvchi bank emitent bankdan elektron to'lovlar tizimi orqali to'lovnini qabul qiladi. Bu bankda akkreditivlarni ochish haqidagi ariza 2 nusxada qog'ozga chiqariladi:

- arizaning birinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo hamda bankning muhr izi qo'yilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;

ikkinci nusxasi «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» deb nomlangan 1-kartotekaga joylashtiriladi.

Emitent bankdan qabul qilingan to'lov summasi 22602-«Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» hisobvarag'ida

o'tkazilib mahsulot jo'natilib, bu haqda mahsulot jo'natuvchi korxonadan kerakli hujjat taqdim qilingunga qadar saqlanadi va buxgalteriyada quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 16103-«Bosh bank//filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i.

Kt 22602-«Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» hisobvarag'i.

Mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga akkreditiv ochilganligi to'g'risida bank xabar beradi. Mahsulot yetkazib beruvchi akkreditiv bo'yicha kelib tushgan mablag'larni o'zining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazish uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankka yuklab jo'natish va akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

Akkreditiv bo'yicha to'lovlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlар akkreditiv muddati o'tgunga qadar mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan bankka taqdim etilishi va akkreditivning barcha shartlarini bajarilganligini tasdiqlashi shart. Akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda mahsulot yetkazib beruvchining banki mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlariga riya qilinganligini hamda tasdiqlovchi hujjatlarning to'g'ri rasmiy lashtirilganligini tekshirish lozim. Ushbu shartlarning birortasi buzilganda yoki bajarilmaganda bank akkreditivlar bo'yicha to'lovlarni o'tkazishi mumkin emas.

Bank tomonidan mahsulot yetkazib beruvchining akkreditivlar bo'yicha hisobvarag'idagi mablag'larni uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga memorial order orqali o'tkaziladi. Memorial order mas'ul ijrochi tomonidan 4 nusxada to'ldirilib, unda to'lov bo'yicha shartnomalar raqami, sanasi, to'loving mazmuni, hisobvaraqlar raqami ko'rsatiladi. Memorial orderning aloxida nusxalari quyidagicha ishlatalidi:

memorial orderning birinchi nusxasi buxgalterning imzosi, bankning to'rburchak muhrining iz tushirilib, tasdiqlovchi hujjatning bir nusxasi bilan birgalikda bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

- memorial orderning ikkinchi va uchinchi nusxalari mas'ul ijrochining imzosi, bank to'rburchak muhrining izi qo'yilib, tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda bank-emitentga jo'natiladi;

- memorial orderning to'rtinchi nusxasi mas'ul ijrochining imzosi, bankning to'rburchak muhr izi qo'yilib mahsulot yetkazib beruvchi korxona hisobvarag'iga ilova sifatida beriladi.

Mahsulot yetkazib beruvchi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan hisobvarag'iga mijozning akkreditivlar bo'yicha hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali amortga oshiriladi:

Dt 22602- «Mijozlarni akkreditivlar bo'yicha depozitlar» hisobvrag'i.

Kt 20200- «Mijozlarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvrag'i.

Mijozlarning qaysi mulkchilik shakliga asoslanganligiga qarab 20200 hisobvaraqning tegishli yordamchi (subhisobvaraq) hisobvaraq raqami olinadi.

Shunday qilib, akkreditiv mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga xizmat qiluvchi bankda quyidagicha yopilali:


a) akkreditiv muddati tugagandan keyin bajaruvchi bank akkreditiv yopilganligi to'g'risida emitent bankka xabar beradi;

b) mahsulot yetkazib beruvchining muddatdan oldin akkreditivni ishlatalishdan voz kechish to'g'risidagi arizaga ko'ra, mahsulot yetkazib beruvchining keyingi akkreditivdan foydalanishdan voz kechishi to'g'risidagi arizasiga asosan, bank-emitentga bajaruvchi bank tomonidan bildirishnomasi yuboriladi;

v) sotib oluvchining akkreditivni qisman yoki to'liq chaqirib olish to'g'risidagi arizasiga ko'ra, agar akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditivlar emitent bankdan xabar etib kelgan kuni 22602-«Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlar» hisobvarag'idagi mavjud mablag'lar doirasida to'liq yoki qisman qoplanadi. Akkreditivning yopilayotganligi haqida emitent bankka xabar beriladi.

Akkreditivlar bo'yicha depozit hisobvaraqlardan naqd pul berilishi, akkreditivlarni boshqa shaxslar nomiga o'tkazilishi va qayta rasmiy lashtirilishiga ruxsat etilmaydi.

Bank emitent akkreditivni ishlatganligi to'g'risida bajaruvchi bankdan hujjatlarni olgandan keyin memorial orderga asosan ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqdan to'liq hisobdan chiqaradi va tasdiqlovchi hujjatlarni memorial orderning nusxasi bilan birgalikda to'lovchi korxonaga beradi. Ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'i akkreditiv to'liq ishlatilmagan va u sotib oluvchi bankidagi hisobvaraqa qaytarilganda ham yopiladi (4-chizmaga qarang).



#### **4-chizma. Akkreditiv orqali hisob-kitoblarda hujjatlar aylanish sxemasi**

Ushbu chizmaning mazmuni quyidagicha tavsiflanadi:

1. Mahsulot yetkazuvchi va mahsulot oluvchi o'rtaida xo'jalik shartnomasi tuzish;
2. Mahsulot oluvchi o'z bankiga akkreditiv ochish haqida ariza taqdim etishi;
3. Mahsulot oluvchi korxona banki arizaga asosan mahsulot oluvchi korxona hisobvarag'idan to'lovni o'tkazishi;
4. Akkreditiv ochish haqida elektron ariza hisob Markaziga «Elektron pochta» orqali o'tkazilishi;
5. Hisob Markazi elektron to'lov tizimi orqali mahsulot oluvchi korxona bankining vakillik hisobvarag'idan pul mablag'larini mahsulot sotuvchi korxona bankining vakillik hisobvarag'iga pul o'tkazilishi;
6. Kelib tushgan mablag'lar mijozlarning akkreditivlar bo'yicha hisobvarag'ida deponentlashtirilishi;
7. Akkreditiv ochilgani haqida mahsulot yetkazuvchiga xabar berishi;
8. Mol sotuvchi mol oluvchi korxonaga tovar jo'natishi;
9. Mahsulot yetkazuvchi mahsulot jo'natilganligi haqidagi hujjatlarni bankka taqdim etishi;

10. Bank deponentlangan summani mahsulot hisobvarag'iga o'tkazishi va akkreditivni yopishi;

11 Bajaruvchi bank akkreditivni yopilganligi haqida emitent bankka xabar beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o'z afzalligi, shu bilan birgalikda, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakli bo'yicha hisob-kitob qilishning afzallik tomoni shundaki, mahsulot yetkazib beruvchi uchun to'lov to'liq kafolatlangan bo'ladi. Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

akkreditiv shakli bo'yicha hujjatlar aylanishi texnik jihatdan birmuncha qiyinroq:

- transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo'natish uchun tayyor transport bo'lmashigi mumkin, bu esa yuk jo'natishni kechikishiga olib keladi;

- bu shaklda to'lovchining mablag'lari oborotdan qisman chetlashadi, boshqa hisob-kitoblar uchun bu mablag'lardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;

- akkreditiv bo'yicha odatda faqat bir mol yetkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinadi.

## **6.8. Tijorat banklarida hisob-kitob cheklar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi**

Hisob-kitob cheki - bu mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankka, chek beruvchining hisobvarag'idan, chek qabul qiluvchining hisobvarag'iga chekda ko'rsatilgan summani o'tkazib berish uchun bankining maxsus blankasida bankka bergen topshirig'idir.

Hisob-kitob cheklarini yozib berishda ularning boshlang'ich summasini tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda aniqlanib, yuqori summasi Respublika Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Chekning amal qilish muddati esa tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi. Cheklar omonat qo'yuvchi jismoniy shaxsning depozit hisobvarag'ida saqlanayotgan mablag'lar hisobiga yoki topshirilgan naqd pul summasiga beriladi. hisob-kitob cheki 2 qismidan iborat:

- birinchi qismi hisob-kitob cheki;
- ikkinchi qismi koreshok.

Chekning koreshogi chekning birinchi qismida ko'rsatilgan summalarini tasdiqlash uchun belgilangan nazorat raqamlarini o'z ichiga

oladi. Bank xodimi hisob-chekini berishda quyidagi rekvezitlarni to'ldirib berishi lozim:

- chek berilgan sana;
- chek bo'yicha to'laniishi lozim bo'lgan summani raqamlar va so'z bilan;
- hisob-kitob chekiga nomi yozib berilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- uning pasportining seriyasi va raqami;
- chek beruvchining depozit hisobvarag'i raqami;
- chek bergen bank bo'limining nomi va kodi;
- cheknинг amal qilish muddati.

Ko'rsatib o'tilgan barcha rekvezitlar to'ldirilgandan so'ng, bankning mas'ul xodimi hisob-kitob cheki va koreshokga imzo qo'yadi va hisob-kitob chekining kesish chizig'ida qolgan sonlar hisob-kitob cheki summasiga mos kelishi uchun hisob-kitob cheki nazorat sonlar xoshiyasi bo'yicha koreshokni ajratadi hamda muhr bilan mustahkamlaydi. Shundan so'ng, chek oluvchi mijoz chekni olganligi haqida koreshokka o'z imzosini qo'yadi.

Bankning mas'ul xodimi alohida daftarga hisob-kitob chekining seriyasi, raqami, nomiga chek yozib berilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va chek summasini yozib qo'yishi lozim. Bunda ushbu chek omonat bo'yicha hisobvaraqdha saqlanayotgan mablag'lar yoki depozit hisobvaraqdan ko'chirilgan yoxud naqd pullarda qo'yilgan mablag'lar hisobiga berilganligini alohida ko'rsatib o'tishi shart.

Bank chek berganda jismoniy shaxsning arizasiga ko'ra chekning summasiga 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlari» alohida hisobvarag'ini ochadi va to'lovlar mana shu hisobvaraqdan amalga oshiriladi. Mas'ul bank xodimi barcha rasmiylashtirish ishlarini bajargandan so'ng chekni koreshogi bilan birgalikda kassirga beradi.

Kassir mas'ul ijrochidan barcha zaruriy hujjalarni olgandan so'ng avvalo, hujjalarda bajarilgan yozuvlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va ularni imzolaydi. Agar hisob-kitob cheki naqd pul hisobidan rasmiylashtirilgan bo'lsa, chekni oluvchidan naqd pullarni va chek uchun to'lovni qabul qiladi. Pulning to'g'riliiga ishonch hosil qilgach, chek va omonat daftarchasining alohida belgilangan joyga o'z imzosini qo'yib chekni omonat daftarchasi bilan birgalikda hisob-kitob

chekni oluvchiga topshiradi. Chekning koreshok qismi esa operatsion kun oxiriga qadar kassirming o‘zida qoladi.

Operatsion kun oxirida bank cassiri banderollardagi hisob-kitob-cheklarining koreshoklarida belgilangan rekvezitlar bilan naqd pullarda qabul qilingan summani va omonatlar bo‘yicha hisobvaraqlardan hisobdan chiqarilgan summani ko‘rsatadi. Shundan so‘ng chek koreshogini mas‘ul ijrochiga topshiradi.

Hisob-kitob chekini rasmiylashtirish davrida xatoga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Agarda hisob-kitob-chekini to‘ldirishda xatoga yo‘l qo‘yilsa, unda ushbu chek varaqasi buzilgan hisoblanadi va uning o‘rniga hisob-kitob chekining yangi varaqasi to‘ldiriladi. Bunday hollarda hisob-kitob cheki quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

- harflar bilan yozilgan «hisob-kitob» so‘zidan bir qismi qirqib olinadi;
- chek varaqasining o‘rtasiga «buzilgan» degan ustxat yoziladi va ushbu yozuv yozilgan sana ko‘rsatiladi;
- chek varaqiga kassir va bosh buxgalter tomonidan imzo qo‘yiladi.

Tijorat banklarida qabul qilingan cheklarning hisobi qimmatbaho blanklarning harakati hisobini yuritishga doir daftarda olib boriladi va balansdan tashqari ko‘zda tutilmagan holatlар bo‘yicha 93609 - «Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar» hisobvarag‘ida hisobga olib boriladi. Shu kun davomida ishlatalgan chek varaqalari chiqim orderi bo‘yicha 93609 - «Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar» hisobvarag‘i- dan hisobdan chiqariladi.

Chekni olgan jismoniy shaxs sotib olayotgan tovari yoki ko‘rsatilgan xizmat uchun hisob-kitob cheki bilan hisob-kitob qilishi mumkin. hisob-kitob chekini qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan savdo tashkiloti xodimi mahsulot to‘lovi uchun chekni qabul qilayotganda chek belgilangan namunadagi blankada rasmiylashtirilganligini nazorat raqamlari chekda yozilgan summaga muvofiqligini, chek muddati o‘tkazib yuborilmaganini, unda bank bo‘limi muhrning aniq izi va bank xodimlarning imzosi mavjudligini tekshirib ko‘radi.

Shu bilan birga, chek beruvchining pasportini ham olib chekda ko‘rsatilgan pasport seriyasi va raqamlari bilan solishtirib ko‘radi. Chek bo‘yicha tekshiruv bajarilgandan so‘ng hisob-kitob chekining orqa tomoniga savdo xodimi savdo tashkilotining belgisini qo‘yadi. Chek mahsulot uchun to‘lov sifatida qabul qilingan bo‘lib hisoblanadi.

**Bank tomonidan qabul qilingan cheklar bo'yicha to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

**chek egasi va chek beruvchiga bitta bank bo'limida xizmat ko'rsatilganda:**

- chek summasi savdo tashkilotining hisobvarag'i krediti va 19903-«Inkassatsiya qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i orqali chek beruvchining hisobvarag'ining debetidan o'tkaziladi. Chekning asl nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi.

**Chek egasi va chek beruvchiga turli bank bo'limlari xizmat ko'rsatsa:**

- chek egasining banki chekda ko'rsatilgan summani qabul qilingan chekka asosan chek beruvchining hisobvarag'iga o'tkazib beradi. Bir vaqtning o'zida tijorat banklarining elektron hisob-cheklari elektron to'lov tizimi orqali chek beruvchining bankiga jo'natiladi. Chekning asl nusxasi mas'ul ijrochi tomonidan imzo qo'yilgan, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

- chek beruvchi banki elektron to'lov tizimi orqali elektron hisob-kitob chekini qabul qilib oladi. Bu bankda chek summasi elektron hisob-kitob cheki asosida dasturiy yo'l bilan avtomatlashtirilgan tarzda chek beruvchining hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi. Elektron chek bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo qo'yilgan, bankning to'rtburchak muhr izi tushirilgan hamda to'lov amalga oshirilgan sana ko'rsatilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Foydalanmagan hisob-kitob cheki qayub bankka topshirilishi mumkin. Foydalanmagan hisob-kitob cheklari banka taqdim qilinganda bankning mas'ul ijrochisi avvalo chekning haqiqiyligini va hujjatni ko'rsatuvchi shaxsning pasporti bilan tekshirib ko'radi. Agar chek haqiqiy va shu pasport egasini bo'lsa, chekni yuz tomonida quyidagi mazmundagi ustxatni yozadi: «\_\_\_\_\_ hisobvaraqqqa o'tkazing». Shundan so'ng hisob-kitob cheki bankning bosh buxgalteriga beriladi, pasport esa egasiga qaytariladi.

Bank bosh buxgalterining ruxsati asosida chekda ko'rsatilgan summa bank buxgalteriyasida chekda ko'rsatilgan hisobvaraqqqa o'tkazib beriladi.

## **6.9. Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar hisobi**

Plastik kartochka tegishli bankda kartochka egasining hisobvarag'i mavjudligini tasdiqllovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to'lov vositasini o'zida ifoda etadi.

Plastik kartochkada, albatta, bir xil ma'noli identifikatsiya qiladigan emitentning nomi va logotipi qayd qilinishi shart.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdag'i tadbirkorlar, bir tomonдан hamda mahsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdag'i tadbirkorlar, ikkinchi tomondan, ular o'rtaсидagi bo'ladijan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek, naqd pul berish punktlari (NPBP) va bankomatlardan naqd pul olishda qo'llaniladi.

Vakolatli banklar xalqaro plastik kartochkalar chiqarishi va ular bo'yicha xizmat ko'rsatishi mumkin. Plastik kartochkalar bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) tomonlarning nomlari;
- b) shartnoma mazmuni;
- v) tomonlarning huquqi va majburiyatları;
- g) tomonlarning javobgarligi;
- d) hisob-kitoblarni o'tkazish shartları;
- e) shartomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish shartları;
- j) nizolarni hal qilish tartibi;
- z) tomonlarning yuridik manzili.

Aloqadorligi bo'yicha plastik kartochkalar shaxsiy, oilaviy va korporativ turlarga bo'linadi:

- a) shaxsiy kartochka - bu jismoniy shaxsga berilgan plastik kartochkadir
  - b) oilaviy kartochka - bu shaxsiy kartochka egasining ishonchnomasi asosida foydalanuvchiga berilgan plastik kartochkadir.
  - v) korporativ kartochka - bu yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan plastik kartochkadir. Korporativ kartochkalardan ish haqi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa to'lovlarini, shuningdek, naqd pul mablag'larini to'lashda foydalanish taqiqlanadi.
- Plastik kartochkalar bajaradigan vazifalari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

a) debet-kartochkasidan foydalanish uning egasiga, undan mijoz o'ttasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, o'zining kartochkasidagi pul mablag'lardan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olishda (korporativ kartochkalardan tashqari) foydalanish imkonini beradi;

b) kredit-kartochkasidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, emitent tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ kartochkalardan tashqari) berilgan kredit liniyasi miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

v) elektron hamyon-jismoniy shaxslarning kartochkasi bo'lib, undan foydalanish uning egasiga plastik kartochkadagi qoldiq mablag'lar doirasida tovarlar, ishlar, xizmatlariga haq to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olishga imkon beradi;

Bitta elektron kartochkada bir necha «elektron hamyonlar» joylashgan bo'lishi mumkin.

Plastik kartochkada uni shaxs nomiga biriktirishda, quyidagi rekvezitlar yozilgan bo'lishi shart:

a) idenifikatsiya belgilari (kartani raqami seriyasi va boshqalar);

b) bank-emitent (kartochkalarni chiqaruvchi bank)ning kodи;

v) hisobvaraq raqami va kartochka egasining familyasi, ismi, otasining ismi (tashkilot nomi);

r) kartochkaning amal qilish muddati;

Plastik kartochkada bir necha hamyonlar mavjud bo'lganda, identifikatsiya belgilari har bir hamyonni bir xil ma'noli identifikatsiyalashi lozim. Ko'rsatilgan rekvizitlardan tashqari, kartochkaga operatsiyalarni amalga oshirish va ular hisobini yurish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha belgilar kiritilishi mumkin.

Qayta to'lov vositasi sifatida foydalanishga tayyorlash (personalizatsiya) uchun qaytarilgan plastik kartochkalar hisobi 93609 - «Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar» ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvaraqlarida olib boriladi.

Plastik kartochkalardagi depozit summasi quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olib boriladi:

22618- «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar» hisobvarag'i;

22620- «Korporativ plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar» hisobvarag'i. •

Masalan, jismoniy shaxslar plastik kartochkalaridagi majburiyatlaridan bankomatdan naqd pul olishsa quyidagi buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi:

Dt 22618- «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar» hisobvarag'i;

Kt 10107- «Bankomatdagagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar qog'oz ko'rinishida yoki elektron shakldagi hujjatlarni, shuningdek, hisob-kitoblar qatnashchilar o'tasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan boshqa hujjatlarni tuzish lozimligini ko'zda tutadi.

Hujjatlar hisob-kitoblarda ishtirot etuvchi barcha tomonlar uchun zarur bo'lgan nusxalar miqdorida tuziladi.

Kvitantsiyalar o'tkazilgan operatsiyalarni ho'lda tiklash uchun barcha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Plastik kartochkalardan foydalangan holda, operatsiyalarni amalga oshirishda tuzilgan hujjatlar rekvizitlari, plastik kartochkalar rekvizitlari bilan kartochka egalarning bank hisobvaraqlari, shuningdek, korxona identifikatorlari, NNPBP, bankomatlar va tashkilotlarning bank hisobvaraqlari o'tasidagi muvofiqlikni haqqoniy belgilashga imkon beruvchi tomonlar o'tasida kelishib olingan belgilarni o'z ichiga olishi kerak.

Elektron hujjatlar bank-ekvayer (savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi bank)ga bank-emitentiga yoki kliring markaziga, shartnomada kelishilgan davriylikda jo'natiladi. Bitta bank bo'limlari o'tasida kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar qilish texnologiyasi, Bosh bank tomonidan, o'z imkoniyatlari va foydalananidan kartochkalar turlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil belgilanadi.

Kartochkalar bo'yicha banklararo hisob-kitoblar texnologiyasi quyidagi variantlarni ko'zda tutadi:

a) hisob-kitoblarni amaldagi elektron to'lovlar tizimi (ETT) orqali yalpi hisob-kitob asosda o'tkazish;

b) hisob-kitoblarni hisob-kitoblar qatnashchilari tomonidan tashkil etilgan protsessing markazlaridan kun davomida o'tkazilib, yakuniy o'zaro majburiyatlar hisoblangan holda, tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridan yakuniy hisob-kitoblar summasini o'tkazish.

ETT orqali plastik kartochkalardan foydalangan holda, amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha yalpi hisob-kitoblar qilish, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Bank-emitent tomonidan avtomatlashtirilmagan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarda:

a) bank-ekvayer xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotidan olingen, kartochkalardan foydalangan holda tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, mablag'larni uning hisobvarag'iga o'tkazadi, bunda elektron to'lovlar tizimi orqali bank-emitentga jo'natiluvchi debetli elektron memorial orderi avtomatik ravishda shakllantiriladi;

b) bank-emitentda olingen debetli elektron memorial orderga asosan mijozning kartochkali hisobvarag'idan dasturiy ravishda mablag'lar hisobdan chiqariladi. Debetli elektron memorial order bosmadan chiqariladi va kunlik hujjatlarga tikiladi.

2. Bank-emitent tomonidan oldindan shart bo'lgan tartibda avtorizatsiya qilinadigan hisob-kitoblarda:

a) bank-ekvayerda xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotidan olingen, kartochkalardan foydalangan holda tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, ETT orqali avtorizatsiyalash va o'tkazmani amalga oshirish uchun bank-emitentga jo'natiladigan elektron ma'lumot, foydalaniyotgan texnologiya qoidalariga muvofiq, avtomatik ravishda shakllantiriladi;

b) bank-emitent, olingen elektron ma'lumotlarga asosan, transaksiyalar avtorizatsiyasini o'tkazadi, mijozning kartochka hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish uchun avtomatik ravishda elektron memorial orderni shakllantiradi, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish uchun elektron to'lovlar tizimi orqali bank-ekvayerga jo'natadi.

v) bank-ekvayerda bank-emitentdan olingen elektron memorial orderga asosan, mablag'lar savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. Memorial order bosmadan chiqariladi va bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

3. Protsessing markazlari orqali hisob-kitoblarni o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kun davomida kartochkalar bo'yicha barcha transaksiyalar, hisob-kitoblar qatnashchilari tomonidan tasdiqlangan tartibda, protsessing

markazi orqali o'tkaziladi va hisob-kitoblarda qatnashuvchi har bir bank uchun alohida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi;

b) hisob-kitoblardan qatnashchilari kelishuviga asosan, hisob-kitoblardan bo'yicha yakuniy summalar (majburiyatlar) tijorat banklarining Markaziy bankning hisob-kitoblardan markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali shartnomada qayd etilgan davriylikda o'tkaziladi;

v) banklar, protsessing markazidan olingan ma'lumotlarga kartochkalardan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar mablag'larni mijozlarning hisobvaraqlariga kiritadilar yoki chiqaradilar.

### **Qisqa xulosalar**

Banklarda hisob-kitob operatsiyalar hisobi - bu sub'etklar o'rtasida bo'ladigan o'zaro iqtisodiy munosabarlarni buxgalteriy hisobi shakllari va registrlarda to'g'ri rasmiylashtirishdir. Shuningdek, naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini buxgalteriya hisobida, ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib yuritish bilan izohlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishda qaysi me'yoriy hujjatlari asos bo'lib hisoblanadi?
2. Pul-hisob-kitob hujjatlari qanday rekvizitlarga ega bo'lishi kerak?
3. Memorial orderlardan qachon va qaerda foydalaniladi?
4. To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
5. To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
6. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
7. Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
8. Hisob-kitob cheklari bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
9. Plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklarini ayting?
10. Banklararo hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банклардаги депозит ҳисобвараклардан накд пул тўловларини узлуксиз таъминлаш кафолатлари тўғрисида» ги 05.08.2005 йилдаги ПК-147-сонли қарори
2. «Ўзбекистон Республикасида накд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисидаги» Низом. ЎзР АВ томонидан 13.12.2004 йилда 1122-2-сон билан рўйхатга олинган. (янги таҳрири)
3. Ўзбекистон Республикаси банкларида очиладиган банк ҳисобвараклари тўғрисида йўрикнома. ЎзР АВ 29.09.2003 й. 1080-1-сон билан рўйхатга олинган
4. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тўғрисидаги йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатга олинган.
5. Ўзбекистон Республикаси тиҷорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).
6. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М. «Дашков и К», 2008. – 288 с.
7. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке. Москва. 2008, стр. 209
8. Наврӯзова К.Н. ва бошқалар. Банк ҳисоби. Ўқув кўлланма, - Т., «Фан ва технология», 2006.
9. Кроливецкая Л.П. и др. Бухгалтерский учет в коммерческом банке в проводках. -М.. Финансы и статистика - 2004. 192 стр.
10. Маренков Н.Л. Международные стандарты бухгалтерского учета, финансовой отчетности и аудита в Российских фирмах. - М.. Едиториал УРСС, 2005. - 296 с.
11. [www.gaap.ru](http://www.gaap.ru) (Халқаро стандартлар)

## **7-bob. BANKLARDA KASSA OPERATSIYALARI HISOBI**

### **7.1. Banklarda kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlardan aylanishini tashkil qilish**

Tijorat banklari dastlabki faoliyatini amalga oshirishlarida bank kassasini shakllantiradilar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning litsentsiyasini oladilar. Ushbu litsenziyaga ko'ra, kassa operatsiyalari bo'limlari tashkil etiladi va bank rahbari tomonidan kassa mudiri (bank sohasida uch yil ishlagan), kassa xodimlari tayinlanib, kassa bo'limlari (kirim kassasi, chiqim kassasi, kechki-inkassatorlardan pul qabul qilish kassasi) ni tashkil etadilar.

Mijozlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bank Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga pul omborini tashkil etish bo'yicha pasportini va boshqa hujjatlarni topshiradi va ular ko'rib chiqib, Markaziy bankning Emissiya-kassa operatsiyalari departamenti yuboradi. Ular ijobiy xulosa berganda bank operatsiyalari kassasi ochiladi.

Shuningdek, bankning kassa operatsiyalari bo'limi maxsus jihozlangan ya'ni, ichki devorlari va to'shdevorlari qalinligi 80 mm bo'lgan juftlashtirilgan gips-beton panellarga yoki qalinligi kamida 120 mm bo'lgan g'isht devordan iborat bo'lishi kerak. Kassa darchasining hajmu 200x300 mm dan oshmasligi, kassa darchasi eshikchasi va to'siqdevorlar qalinligi kamida 40 mm bo'lgan taxtalardan yasaladi, ular ikki tomonidan ruxdangan, metall listlar taxtalarga uzunligi kamida 40 mm bo'lgan mixlar bilan perimetr va diagonallar bo'yicha 60 mm ga qadar masofada mahkamlanadi.


Bank kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan naqd pul mablag'larining me'yorini belgilash uchun Markaziy bankka kassa arizasini beradi, bunda, bank chiqimlari va tushumlari hamda kassa limiti qoldig'i o'z aksini topadi. Shuningdek, bank kassasida naqd pullar qoldig'i limitlari doirasida naqd pullarga ega bo'lislari va me'yorlar doirasida tushumdan ulami ishlatishlari mumkin.

Kassadagi naqd pullar qoldig'i limitlari va tushumni ishlatish me'yorlarini Markaziy bank bilan kelishgan holda belgilangan me'yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda amalga oshiradi. Kassada naqd pullar qoldig'ining belgilangan limitlaridan ortiqcha bo'lgan barcha naqd pullarni Markaziy bankning hisob-kitob-kassa markaziga topshiradilar.

Naqd pullik hisob-kitob operatsiyalari bankning kassa operatsiyalari bo'lib, ularga kassa bo'limi xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Ular asosan, bank kassasiga mijozlardan, inkassatorlardan, bank xodimlari va jismoniy shaxslardan qabul qilingan hamda ularga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa barcha to'lovlarni hisob-kitob cheklari bo'yicha naqd pul shaklida bankning operatsion kassasidan beriladi. Bu operatsiyalar Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi<sup>11</sup>

Kassa hujjatlari bank uchun, shuningdek, hisob-kitoblarda ishtiroy etuvchi tomonlarga kerak bo'lgan nusxalar sonida texnik vositalardan foydalananligan va tijorat bankining hisob-kitob cheklari esa qo'lda yozilgan holda to'ldiriladi. Kassa hujjatlarini bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaydi.

Banklarda har bir operatsiyalarni analoga oshirish bo'yicha hujjatlar aylanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu qatori, bankning kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishiga katta ahamiyat berish zarur, chunki mijozlardan naqd pul qabul qilinayotganda yoki bank kassasidan ularga naqd pul berishda bankning operatsion kassasi markazida mijozlarning uzoq vaqt turib qolishlarining oldi olingan bo'lib, sifatlari xizmat ko'rsatish imkoniyatini vujudga keltiradi. Shu sababdan, banklarda kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigini tuzishni talab etadi (3-chizmaga qarang).



3 -chizma. Kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi tavsifi

Bu erda:

1) bank mijoji buxgalteriya nazoratchisiga naqd pul topshirish haqidagi e'lonnomanini uzatishi;

<sup>11</sup> Тикорагт банкларида касса ишлени таъсих этици, инвассанлии ва қароматликлерни тадимига дарор Мурононга. ЎзР АВ 29.03.2005 йилда 1263-1-сон билан рўйхатта олинган, ЎзРМБ ишдада чот эд вафотасига сийд операторларни шаалга ошириш хоҳмадлари. ЎзР АВ 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатта олинган, ЎзРМБ ишдада чот эд вафотасига сийд операторларни амалга ошириш кондидлари. ЎзР АВ 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатта олинган.

- 2) buxgalteriya nazoratchisi mijozning naqd pul topshirish yuzasidan e'lonnomanı ko'rib chiqib, uni kirim cassasi (simvol bo'yicha) jurnaliga qayd qilishi;
- 3) mijoz naqd pul mablag'larini bank cassiriga topshirishi;
- 4) cassir e'lonnoma asosida naqd pul mablag'larini sanab olib, mijozga bank cassasi pattasi (kvitantsiyasi)ni berishi;
- 5) nazoratchi va cassir tomonidan barcha hujjatlar hisoblash markaziga yuborilishi;
- 6) hisoblash markazi tomonidan yuborilgan naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha yozilgan hujjatlar asosida nazoratchi topshirilgan naqd pul mablag'larini mijozning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazilishi berilgan.

Tijorat banklari operatsion kassa markazidan o'zining mijozlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni berishda kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigini yuqorida tartibda belgilashlar va ularning grafigini bosh buxgalter va bank rabbari tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Bu holda bank mijozlaridan belgilangan muddatlarda hisob-kitob cheklarini olib, o'matilgan tartibda mablag'lar berilishini ta'minlaydi.

## **7.2. Banklarda kirim kassa operatsiyalari va ularning hisobi**

Banklarda mijozlar bilan kassa operatsiyalarini amalga oshirish va naqd pullarni qayta ishslash bo'yicha kirim, chiqim, kirim-chiqim, pulni qayta sanash, kechki va xo'jalik yurituvchi subyektlarning binolaridagi maxsus kassa bo'limlarini ochadilar. Mijozlardan naqd pul mablag'larini qabul qilishda quyidagi maxsus hujjat shakllaridan foydalaniladi: 0402001-naqd pul qo'yish e'lonnomasи, 0482008-kassa kirim orderi, 0402004-kvitantsiyalardan. 0402001-naqd pul qo'yish e'lonnomasи uch qismdan iborat bo'lib, naqd pul qo'yish e'loni, kvitantsiya va order bo'ladi.

Naqd pul qo'yish e'loni kunlik kassa hujjatlariga tikiladi. Kvitanсиya naqd pul topshirgan mijozga va order operatsion xodimlarga beriladi. Buxgalteriya xodimi maxsus e'lonning har uchala qismining to'g'ni to'ldirilganligini tekshirib, unga imzo qo'yadi va uning summasini kirim kassa jurnalida qayd etadi. Imzolangan e'lon bo'yicha cassir mijozdan naqd pullarni qabul qilishi va kvitantsiyaga o'z imzosini hamda kassa shtampini qo'yib, kvitantsiyani mijozga berishi lozim.

Bankning kunduzgi kassasiga asosan, jismoniy shaxslarning omonatlarini kirim qilish, bank xodimlari tomonidan safar xarajatlari uchun olingan avans summalarining ishlatilmagan qismini va boshqa pullarni topshiradilar. Jismoniy va yuridik shaxslardan turli omonatlar hamda boshqacha qo'yilmalar bo'yicha naqd pul qabul qilish jarayoni buxgalteriya xodimidan olgan maxsus shakldagi e'lonomani to'ldirib, topshiriladigan naqd pul mablag'larini tegishli simvollarda rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, naqd pullarni bank kassasiga qo'yish bo'yicha ba'zi bir operatsiyalar kirim kassa orderlari bilan rasmiylashtirilishi ham mumkin. Buxgalteriya xodimi tomonidan qabul qilingan yoki tuzilgan kirim kassa orderiga imzo qo'yilib, mablag'larni bankning ichki hisobvaraqlariga kirim qilinayoganda kirim kassa orderi ikki nusxada to'ldirilishi va ularning biri patta (kvitantsiya) vazifasini bajaradi.

Buxgalteriya xodimi kassadan kassining imzosi qo'yilgan andozali blanklar komplektidagi orderni qaytarib olgach, kassirning orderdag'i imzosi haqiqiyligini, uning namunasiga solishtirib tekshiradi hamda operatsiyani buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun uni ishlov berish maqsadida tizim bo'yicha o'tkazadi.

Shu bilan bir qatorda, inkassatsiya xizmati xodimlaridan naqd pul va boshqa qimmatliklar solingen xaltalarni qabul qilish kassa va buxgalteriya xodimlari tomonidan tayinlangan kechki kassa xodimlari qabul qiladilar. Ushbu pullarni kechki kassaning kassiri inkassatorlar brigada boshlig'idan uning a'zolari guvohligida yukxatlar, bo'sh xaltalar soni va tashrif varaqlari haqidagi hamda yo'nalishga beriladigan tashrif varaqlar haqidagi ma'lumotnomanini qabul qilishlari lozim.

Bunda, yukxati bilan tashrif varaqlari bir-biriga mos kelishi tekshirib, tashrif varaqlarini ularga qaytarib berishda nazoratchi-buxgalter inkassatorlar daftarining ikkala nusxasiga imzo qo'yadilar. So'ng, birinchi nusxasiga inkassatorlarning muhri bositgan holda, ikkinchi nusxasiga kechki kassaning muhri bositgan holda inkassatorlar brigada boshlig'iga beriladi. Qabul qilingan barcha naqd pullar qayta sanashdan o'tkazilib, maxsus seyflarga solinadi va ikkita surg'uchli muhr bositadi. Kalitning biri muhr bilan kassirda va ikkinchisi buxgalter -nazoratchida saqlanadi. Keyingi operatsion kun ertalab kechki kassa kassiri va nazoratchi-buxgalteri bilan maxsus kassaning naqd pul solingen qoglari hamda yuk xatlari kassa mudiriga topshiradi va ma'lumotnomaning har ikki nusxasiga imzo qo'ydiradi.

**Qabul qilingan naqd pullar kassa jurnaliga asosan, mijozlarning hisobvarag'iga kirish qilinadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:**

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i

Kt 20200- «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i yoki mijozning boshqa depozit hisobvarag'i.

Shundan so'ng, mijozlarning analitik va sintetik hisob ma'lumotlari olinib, ular taqqoslangandan keyin mijozning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga order mijozga beriladi, ya'ni bankka qo'yilgan naqd pullar bo'yicha mijoz ikkita hujjat oladi - kvitantsiya va order. Order mijozlar tomonidan bankka pullarning tushishi va ularning tegishli hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan yozuvlarning to'g'riligini tekshirishni ta'minlaydi. Naqd qo'yilmalarga e'lon kassirda qoladi va amaliyot kuni oxirida boshqa hujjatlar va qimmatliklar bilan birga bosh kassirga beriladi.

### **7.3. Banklarda chiqim kassa operatsiyalari va ularning hisobi**

Mijozning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'idan naqd pul mablag'larini hisobdan chiqarish ikki usulda, ya'ni, belgilangan shakldagi pul cheklari bo'yicha va jismoniy shaxslar – qarz oluvchilarga, omonatchilarga, pensionerlarga esa, chiqim kassa orderlari bo'yicha beriladi. Shuningdek, «Bank-mijoz» tizimidan foydalanuvchilardan elektron aloqa orqali olingan elektron to'lov hujjatlari, shuningdek, plastik kartochkalardan foydalangan holda tuzilgan elektron hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Kassa operatsiyalari bo'limi operatsion kunni boshlash oldidan kassadagi naqd pul qoldig'ini kassa mudiri ishtirokida qayta sanaydi va va so'ng kassirlarga chiqim operatsiyalariga zarur bo'lgan naqd pul summalarini tegishli daftarga yozib, imzo qo'ydirib beradi.

Banklarda yilning har choragi uchun korxona va tashkilotlardan kassa rejasini tuzib topshirishlarini talab qiladilar. Bunda, kassa rejasida naqd pulning tushumi bo'yicha alohida moddalar, naqd pulning xarajati bo'yicha alohida moddalar ko'rsatilgan bo'lib, ish haqi olish bo'yicha belgilangan sanalar belgilanishini nazorat qiladi. Ushbu kassa rejalariga binoan, bankning har kungi kassa operatsion bo'limlarining ish kuni maromiyligini ta'minlash uchun operatsiya kuni davomida qancha naqd

pul zarurligi, qancha naqd pul bank tushumlari hisobidan amalga oshirilishi kassa prognozlari assosida hisoblab boriladi.

Mijozlar tomonidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini olish uchun bir kun avval pul chek daftarchasiga olinishi lozim bo'lgan mablag` summasi rasmiylashtirilib, ushbu mablag`ni olish huquqiga ega bo'lgan shaxsnинг pasporti bilan birgalikda ularga xizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochiga beriladi.

Mas'ul ijrochi eng avval, shu mijozning hisobraqamida yetarli pul miqdorining mavjudligini tekshirib, shundan so'nggina pul chek daftarchasining to'liq va to'g'ri to'ldirilganligini ikkita imzo va muhming imzolari hamda muhr namunasi tushirilgan kartochkalar bilan solishtirib ko'radi. hammasi to'g'ri bo'lsa pul chek daftarchasining burchagidagi nazorat markasini qirqib olib, mablag`ni oluvchining pasporti bilan birga mijozga qaytarib beradi.

Nazoratchi tekshiruvdan so'ng, barcha rekvizitlarni kassa chiqim jurnaliga qayd qiladi. Chiqim jurnalida sana hisobvaraq raqami, pul chek daftarchasidagi summasi, hisobot simvoli, korrespondentsiya hisobvarag'i raqami ko'rsatiladi. Nazoratchi chiqim jurnali bilan birgalikda cheklarni ichki tartibda kassaga topshiradi. Kassir mijozni chaqirib, uning pasporti va nazorat markasini oladi. Nazorat markasi raqami hisob-kitob chek daftarchasi raqami bilan, pul chek daftarchasidagi passport ko'rsatkichlari pasportdagagi bilan mos kelgan taqdirda, bank kassiri ushbu ko'rsatilgan summani mijozga sanab berishi lozim.

Buxgalterlar amalga oshirgan chiqim kassa operatsiyalarini markazlashgan tartibda buxgalteriya nazoratchisi tomonidan nazorat qilinadi. Nazoratchining ish joyi imkonи boricha kassaga yaqin bo'lishi lozim. Chiqim operatsiyalarini nazorat qilish shunday tashkil etilishi lozimki, bunda quyidagilar

noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshirish, cheklarga qo'yilgan imzo va muhr izi taqdim etilgan namunadagisiga mos kelmaganda hamda shu mijozga tegishli bo'limgan pul chek daftarchasidan yozib berilgan cheklar bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish;

pul chek daftarchasi va boshqa chiqim kassa hujjatlari buxgalteriya xodimlari hamda bank nazoratchisini chetlab o'tgan holda to'g'ridan-to'g'ri kassaga kelib tushish hollari;

- kassa hujjatlariga asossiz tuzatish va qo'shimchalar kiritish kabilarga yo'l qo'ymaslik lozim.

Kirim va chiqim kassa jurnallari kompyuter texnikasi yordamida tuzilib, unda mijozning hisobvarag'i, kirim va chiqim hujjatining raqami hamda uning summasi ko'rsatiladi.

Nazoratchining cassirdan tilxat olib chiqim kassa orderlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun cassaga berish tartibi bankning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan belgilanib, kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi shunday tashkil etilishi lozimki, bunda cassaga pul amalda kelib tushganidan keyingina mijozlarga pata (kvintantsiya)lar berilishi hamda ushbu sumrnalar ularning shaxsiy hisobvaraqlariga kirim qilinishi zarur.

Kun oxirida nazoratchi va cassir bajargan operatsiyalari bo'yicha hujjatlarni o'zaro solishtirib boshqarish hisob markaziga topshiradilar. Hisob markazidan hujjatlar asosida mijozning shaxsiy hisobvaraqlari chaqirib beriladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i.

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Shuningdek, Banklarning kassasida Markaziy bank tomonidan belgilan limitdan ortiq bo'lgan taqdirda, me'yordan ortiqchasi Markaziy bankda ochilgan 10307-«Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-naqd pullar» hisobvarag'iga o'tkazishlari mumkin. Bunda, buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 10307- «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Ushbu naqd pullar vaqtinchalik Markaziy bankda zaxira sifatida saqlanib turilishi, aks holda ushbu mablag'larga ehtiyoj sezilganda bank tomonidan oldindan kassa arizasi beriladi va banka qaytarib beriladi, u holda buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiy lashtiriladi:

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 10307- «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - naqd pullar» hisobvarag'i.

## **7.4. Banklarda mijozlarning naqd pul tushumini inkassatsiya qilishning buxgalteriya hisobi**

Inkassatorlar tomonidan mijozlardan yig'ib kelingan pul mablag'lari solingan inkassator qoplari banklarning kechki kassalariga belgilangan tartibda qabul qilinadi. Ushbu pul mablag'lari solingan inkassatorlik qoplari keyingi ish kuni ertalab qayta sanash kassasiga topshiriladi. Kechki kassa tomonidan yuk xati asosida tayyorlangan kirim rýyxatining birinchi nusxasi qayta sanash kassasiga va ikkinchi nusxasi bank buxgalteriyasiga topshiriladi hamda buxgalteriya ushbu kirim ro'yxati asosida quyidagi o'tkazmalarни amalgaga oshiradi:

a) inkassatorlar orqali yig'ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul va hisob-kitob cheklari bo'yicha mablag'lar shu bank mijoziga tegishli bo'lsa:

Dt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i,

Kt «Mijoz depozit hisobvarag'i».

b) inkassatorlar orqali yig'ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul va hisob-kitob cheklari bo'yicha mablag'lar boshqa bank yoki bankning boshqa filiali mijoziga tegishli bo'lsa:

Dt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i,

Kt 29804 «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'i.

Boshqa bank mijozlariga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, elektron memorial order shakllantirilib, vakillik hisobvarag'idan shu kunning o'zida, elektron to'lov tizimi orqali, ularning hisobvaraqlariga o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalgaga oshiriladi:

Dt 29804 «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'i,

Kt «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i».

Kt 22624-«Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» tegishli hisobvarag'iga kirim qilinadi (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali).

Mablag' oluvchining bankiga elektron to'lov tizimi orqali mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Dt 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali).

Kt «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i».

Kt 22624 «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'ları» (hisobvaraqning tegishli shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilinadi).

Agar bank tomonidan 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'idan memorial order bilan boshqa bank mijozlarining asosiy depozit hisobvarag'iga yoki aksizli tovarlar sotuvidan pul tushumlari summasi o'tkazilganda, har bir aksiz tovar turi bo'yicha savdo tushumi summasini alohida memorial order orqali o'tkazilishi shart.

Pul mablag'ları bank aylanma kassasiga elektron to'lov tizimi yopilgandan keyin kirim qilingan bo'lsa, boshqa bankdagi mijozlarning hisobvarag'iga pul mablag'ları keyingi ish kunidan kechiktirilmagan holda o'tkazib beriladi.

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan boshqa banklarning hisob-kitob cheklari bo'yicha to'lovlarining o'tkazilishida initisiator (to'lov operatsiyasini boshlovchi) bank filiali tomonidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilishi lozim:

Dt 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali).

Kt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i.

Benefitsiar (to'lov operatsiyasini yakunlovchi) bankka elektron chek kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari».

Kt 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali).

Bunda boshqa banklar hisob-kitob cheklarining asl nusxalari initsiator bankda qoldiriladi hamda kunlik hujjatlar yig'ma jildiga belgilangan tartibda tikiladi va saqlanadi.

Mablag` to'lovchi va oluvchiga bir bankda xizmat ko'rsatilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari».

Kt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i.

Agarda qayta sanash vaqtida kamomad yoki ortiqcha naqd pullar va cheklar aniqlanmaganda quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi bilan mijozlar tomonidan topshirilgan naqd pul va cheklar bank kassasiga kirim qilinadi.

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i.

Aks holda, ya'ni agar qayta sanash kassasida qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari aniqlansa, belgilangan tartibda dalolatnoma tuzilib, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar» hisobvarag'i.

Va bankning qayta sanash kassasida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari ushbu bank mijoziga tegishli bolsa u mijozning hisobvarag'iga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Dt 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt «Mijoz depozit hisobvarag'i»

Agar bankning qayta sanash kassasida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari boshqa bank mijozining 29804-«Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'iga shartnomada kelishilgan hollarda o'tkazib berilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'i.

Agar qayta sanash kassasida naqd pul mablag'lari kamomad chiqqanligi aniqlansa, belgilangan tartibda dalolatnomha tuzilib, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar» hisobvarag'i,

Kt 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» hisobvarag'i.

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan kamomad summasi ushbu bank mijoziga tegishli bolsa va u mijozning hisobvarag'idan shartnomada kelishilgan shartlarga binoan undirib olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt «Mijozning depozit hisobvarag'i».

Kt 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar» hisobvarag'i.

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan kamomad summasi boshqa bank mijozining 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» balans hisobvarag'idan shartnomada kelishilgan shartlarga asosan undirib olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 29804 «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'i.

Kt 19935 «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar» hisobvarag'i.

## **7.5. Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari hisob-kitob kassa markaz (HKKM) lardan tijorat banklariga madad pullarini berish va olish operatsiyalari hisobi**

Tijorat bank Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlаридан naqd pul olish uchun hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan madad puli berish to'g'risidagi farmoyishga asosan tegishli buxgalteriya o'tkazmasi orqali hududiy Bosh boshqarmalarning hisob-kitob kassa markazlariga mablag' jo'natadilar.

Filiali mavjud bo'limgan initsiator bank madad puli olish uchun, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirishi lozim:

Dt 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filialiga, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlariiga madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy ravishda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» (16103 «Markaziy bank // filial // agentliklarning filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Kt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filiali, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlari tomonidan madad puli jo'natilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Initsiator bank filialiga madad puli keltirilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» hisobvarag'i.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlariiga madad pulini olganligi to'g'risida, initsiator bank filialidan tasdiqnomalar kelganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Dt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

Tijorat bank filiallari Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari farmoyishiga asosan boshqa tijorat bank filialidan madad puli olganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Initsiator bank filiallari madad puli olish uchun:

Dt 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filialiga, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlari madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy ravishda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» (16103 «Markaziy bank // filial // agentliklarning filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i,

Kt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» hisobvarag'i.

Benefitsiar bank filiali, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlari tomonidan madad puli jo'natilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i,

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Initsiator bank filialiga madad puli keltirilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» hisobvarag'i.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlari madad pulini olganligi to'g'risida, initsiator bank filialidan tasdiqnomaga kelganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Dt 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» hisobvarag'i,

Kt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

Tijorat bank filiallari Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari farmoyishiga asosan boshqa tijorat bank filialidan madad puli olganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Initsiator bank filiallari madad puli olish uchun:

Dt 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar-Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 21008 - «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filialiga madad puli uchun mablag' kelib tushganda dasturiy ravishda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Kt 21008 «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan Naqd pullar» hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filiali madad puli jo'qatganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Dt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Initiator bank filialida, ya'ni madad puli olgan filialda esa olingan madad puli summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

K 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar» hisobvarag'i.

Benefetsiar bank filialiga initiator bank filiali tomonidan jo'natilgan madad pulini olganligi to'g'risida tasdiqnomalar kelib tushganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Dt 21008 - «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan - Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

Bir bank filiallari o'rtaida madad pullarini berish va olish bo'yicha buxgalteriya hisobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Initiator bank filiali, ya'ni madad puli oluvchi filial naqd pul olish uchun shu bankning benefitsiar filialiga mablag' jo'natganda:

Dt 16101 - «Bosh bank// filiallardan olinadigan mablag'lar - Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 22202 - «Bosh bank// filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i.

Bankning benefitsiar bank filialiga elektron to'lov orqali madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalgga oshiriladi:

Dt 16101 - «Bosh bank// filiallardan olinadigan mablag'lar – Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank// filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) hisobvarag'i,

Kt 22202 - «Bosh bank// filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar» hisobvarag'i.

Bankning benefitsiar filiali, ya'ni madad puli jo'natuvchi 22202-sonli hisobvaraqa madad puli uchun mablag' kelib tushgandan so'ng, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalgga oshiradi:

Dt 10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i,

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Bankning initsiator filialiga, ya'ni madad puli oluvchi bankka madad puli keltirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalgga oshiriladi:

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 16101 - «Bosh bank// filiallardan olinadigan mablag'lar - Naqd pullar» hisobvarag'i.

Medad pulini qabul qilib olgan filial yuqoridagi buxgalteriya o'tkazmasini amalgga oshirgandan so'ng benefitsiar filialga ya'ni madad pulini jo'natgan filialga madad pulini qabul qilganligi to'g'risida belgilangan tartibda tasdiqnoma jo'natadi.

Benefitsiar bank filiali ya'ni madad puli jo'natgan filial, initsiator bank filiali, ya'ni madad puli olgan filialdan belgilangan tartibda tasdiqnoma kelganda, benefitsiar bank filiali tomonidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalgga oshiriladi:

Dt 22202 - Bosh bank// filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i.

**Shunday buxgalteriya o'tkazmalari yordamida banklar o'zlanining mijozlarining naqd pullarga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida Markaziy bank yoki o'z filiallaridan madad pullarini oladilar va beradilar.**

### **Qisqa xulosalar**

**Kassa ishi va hujjatlar aylanishi – bu bankning o'z xodimlari va mijozlari uchun sifatlari xizmat hamda sharoitlar yaratishi tushuniladi.**

**Kassa operatsiyalari hisobi – bu banklarda naqd pul mablag'lardan maqsadli foydalanish, ularning kirimi va chiqimini tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish hamda buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini nazorat qilishdir.**

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Banklarda kassa ishlari qanday tashkil etiladi?
2. Banklarda kassa operatsiyalarni olib borish uchun qanday kassalar tashkil etiladi?
3. Kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishini tashkil etish uchun qanday choralar kuriladi?
4. Kunduzgi va kechki kassalarning bir-biridan farqi nimada?
5. Kirim va chiqim operatsiyalari bo'yicha kassalar qanday jihozlangan bo'lislari lozim?
6. Kirim operatsiyalari va chiqim operatsiyalari qanday hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi?
7. Bank kassasida naqd pul mablag'larni saqlash va ularning limiti qaysi hujjatda o'z aksini topgan?
8. Kassadagi ortiqcha limit bo'yicha pul mablag'lari qaerda saqlanadi?
9. Bank ehtiyojlari uchun zaxiradagi naqd pullar qanday tartibda bankning o'ziga qaytariladi?
10. Naqd pullarning maqsadli ishlatalishi kim tomonidan nazorat qilinadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Тижорат банктарида касса ишини ташкил этиш. инкасация ва киммат тикларни ташишга доир йўрикнома. ЎзР АВ 29.03.2005 йилда 1263-1-сон билан рўйхатта олинган.

2. ЎзРМБ нақд чет эл валютасига оид операцияларни амалга ошириш койдалари. ЎзР АВ 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатта олинган.
3. Тижорат банкларининг Марказий банкдаги мажбурий заҳираларини депонентлаш тартиби тўғрисидаги низоми. ЎзР АВ 16.07.2005 йилда 1444-1-сон билан рўйхатта олинган.
4. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.. «Дашков и К», 2008. – 288 с.
5. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008. стр. 209
6. Наврўзова К.Н. ва бошқалар. Банк ҳисоби. Ўкув кўлланма, -Т., «Фан ва технология», 2006.
7. Кроливецкая Л.П. и др. Бухгалтерский учет в коммерческом банке в проводках. –М.. Финансы и статистика 2004, 192 стр.
8. Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учеб. пос. -М.. ЭКЗАМЕН, 2003. 254 с.
9. Масленченков Ю С. и др. Расчетные кассовые услуги банка. Учебное пособие издательство «ЮНИТИ-ДАНА» работы «Банк – партнер. 2005г

## **8-bob. BANKLARDA KREDIT VA LIZING OPERATSIYALARI HISOBI**

### **8.1. Bankdarda kredit operatsiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

Kredit operatsiyalari (lotincha «creditum» - kredit degan ma'noni anglatadi.) deganda shartlar asosida ya'ni qaytarishlilik muddatililik va to'lovililik shartlari asosida ma'lum bir miqdordagi pulni qarzga berish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari ma'lum summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun to'lov bahosi bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi. Odatda, zamonaviy bank kreditni pul shaklida qarzga beradi.

Bank o'z tabiati jihatidan moliya-kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kredit operatsiyalari, bank xizmatlarining bir ko'rinishi hisoblanib, u boshqa bank operatsiyalari ichida asosiy o'rinni egallaydi.

Bank o'z kredit operatsiyalari uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ishlatmay, balki bunday pul mablag'larining manbalarini shakllantirishdan hosil bo'lgan pul mablag'larini ham ishlatadi. Bunda boshqa banklardan olingan kredit bilan bir qatorda, bank, shuningdek, pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisob varaqlarga jalb etadi. Bu erda mablag'lar saqlanadi va turli xil hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bunday, pul mablag'larini jalb etish ham kredit xarakteriga ega chunki u ham qaytarishlilik muddatililik va to'lovililik shartlariga asoslanadi, bank esa bu erda qarzdor sifatida namoyon bo'ladi.

Bank kreditlari muddatiga qarab turlicha bo'ladi (uzoq va qisqa); qarzdorning tashkiliy - huquqiy tuzilishiga qarab (davlat, xususiy va aksionerlik jamiyati, kooperativlar, uyushmalar, boshqa banklar, qo'shma korxonalar, fermerlar, xususiy shaxslar va hokazolar); tarmoqqa qarab, (sanoat qishloq xo'jaligi, kommunal kredit); maqsadiga qarab (mavsumiy xarajatlar uchun, to'lov hujjatlarni to'lash uchun, aylanma mablag'larini to'ldirish uchun va boshqa asosiy aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish), shuningdek, boshqa mezonlarga qarab yirik va kichik kreditlarga farqlanadi.

Bank kredit berish uchun ja'b qilingan barcha mablag'larini va o'z mablag'larini ishlatishi mumkin. Tijorat banklari bu mablag'larining bir qismini majburiy rezervlar sifatida Markaziy bankga o'tkazishi kerak va

shuningdek, ularning bir qismini yuqori likvid mablag'lar shaklida saqlanishi lozim. Mablag'lar qoldig'i bankning kredit potensialini ifodalab, kredit berish uchun ishlataladi. Bank soyda ko'rib ishlashi uchun o'z kredit potensialidan samarali foydalanishi lozim, bu esa zamonaliviy sharoitlarda juda qiyin masala hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida rejali iqtisodiyotdan farqli o'laroq, kredit munosabatlarning markazlashtirilgan qat'iy me'yordi bo'lmaydi. Bu esa, bank va qarzdor o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tuzilishini anglatib, ikkala tomon qam teng huquqli va o'z maqsadlariga asoslangan holda ularni mujassamlashtirib faoliyat ko'rsatadilar.

Qarzdor kredit olish uchun o'ziga munosib bankni tanlashi va bir yo'la turli banklar kreditlaridan foydalanishi mumkin. Bank ham, o'z navbatida, mijozlarni tanlash huquqiga ega va unga kredit berishda o'zlariga muhim va foydali deb topgan shartlarni qo'yishi mumkin.

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarning ikki subyekti bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlar hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini mustaqil tuzadilar. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi. Tijorat bankining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Banklarda kredit siyosatiga quyidagicha ta'nif beriladi: bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir Shuningdek, banklarda kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart deyiladi.

Banklarning kredit siyosati kredit menejmentuni samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq obyektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, yuqori xatarlardan krichishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi. Yaxshi ishlab chiqilgan kredit

siyosati kredit xatarini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashdan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifitsiyalashgan umumiy qoida va tamoyillarining bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari - kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lmos'hni lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va yechimlar to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to'g'ri kredit narxlari belgilangan sharoitida muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarining mablag'larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini yaqqol bilishi lozim.

Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, qanday shaklda, kimga, qaysi shartlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir faoliyat xatar bilan bog'liq ekanligini hech qachon esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uniyag faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtaсидagi nisbatning, bank majburiyatlarini bilan kapitali o'rtaсидagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorda bo'lishini taqozo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning yetarliliqi, xatarlarni sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarining tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'z ichiga olmos'hni lozim. Endi biz bank siyosatiga to'xtaladigan bo'lsak bank siyosati - bankning depozit siyosati, kredit siyosati, foiz siyosati, valuta siyosati, mijozlarga kassa-hisob xizmatini ko'rsatish siyosati va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha siyosati, banklarning likvidlilagini ta'minlash siyosati, kadrlar siyosati majmuasidan iboratdir. Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish bilan bog'liq masalalar;

- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinnbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati;

- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlar;

kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida, albatta, saqlanadigan hujjatlar ro'yxati;

- kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni; eng yuqori kredit imtuyozlarini belgilash va ko'rsatish;

- bank xizmat ko'rsatadigan mintaqasi, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi jory etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektor; u muammoli kreditlar tarkibi va tahlili. bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimellari ko'rsatiladi.

Qolgan hujjatlarda ta'qilqanadigan yoki nomaqbtl kredit turlari tavsiflanadi.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me'yorda amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha xatarlardan xolos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtida, kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va huquqiy shartlarini hisobga olgan holda ancha yumshoq bo'lishi darkor.

## **8.2. Banklarda kredit operatsiyalarini amalga oshirishda kreditdash tamoyillari**

O'zbekiston Respublikasi qududida xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonun asosida va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida» gi qonuniga asosan kredit o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarga beriladi. Tijorat banklari xo'jalik

yurituvchi subyektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradilar. Kredit mijozning hisob-kitob varagi joylashgan bankda beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansa ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan kreditlar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy nobarqaror xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Kreditlar muddatiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

Qisqa muddatli kreditlar amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan kredit bo'lib, uning muddati uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirdarni o'tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli kreditlar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidiroq hisoblanadi. Uzoq muddatli kreditlar 3- 5 yildan ortiq muddatga beriladi. Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

kreditning muddatliligi;

kreditning qaytarilishligi;

kreditning ta'minlanganligi;

kreditning to'lovligi;

kreditning maqsadliligi.

Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sisatida boshqa pul munosabatlardan farq qiladi, ya'ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi.

Kreditning keyingi tamoyili muddatlilik bo'lib, u qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomonдан foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomonidan, qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlash muddatliligining bu ikki tomonlama xarakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarishini ta'minlash muunkin.

Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank

kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'lardan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankaing ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingen mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qaytarilish tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzuksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyatu borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlарining iqtisodiy kategoriyalardan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas atributti hisoblanadi.

Kreditning ta'minlanganligi bunda kreditning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. U o'z navbatida kreditni o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingen kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mayjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan kreditlar yoki tomonlar niajburiyatlari bilan real ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta'minlanganligi sifatida tovar-moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu holat bank xatarlarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlaydi.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralar ko'rildi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foizidan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditlashning yana bir tamoyili - olingen kredit uchun haq to'lash yoki foizlilikdir. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi-korxona o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'lardan vaqtincha

foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning «narxidir».

Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga, shu jumladan, resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan, mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga - iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy rivoj qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to'lovi mijidorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlar bo'yicha o'matilgan bazaviy foiz stavkasi;

banklararo kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar bo'yicha;

- turli depozit hisobvaraqlar bo'yicha mijozlarga bank tomonidan to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;

- bankning kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);

- kreditiga bo'lgan talab;

talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning ta'minlanganligiga bog'liq ravishda xatar darajasi;

mamlakatdagi pul aylanishini muvozanati (inflyatsiya sur'ati yuqori bolsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul-qadrsizlanishi tufayli bankning o'z resurslarini yo'qotish xatari ortadi) va boshqalardir.

Kreditning mijoz tomonidan maqsadli yo'naltirilishi tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko'zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish obyektlari va asbob-uskunalarni sotib olish uchun biznes-reja asosida beriladi.

Kreditning maqsadli yo'naltirishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga

rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida nazorat qilinadi.

Shunday qilib, tijorat banklari tomonidan berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bo'lsa, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi va belgilangan tartibda choralar ko'riliishi mumkin. Bankning kreditlash tamoyillarining barchasini amaliyotda yalpi qo'llanilishi bank manfaatlarini himoyalashga yordam beradi.

### **8.3. Banklarda kredit operatsiyalarining turlari va ularning shakllari**

Jaqon amaliyotida bank kreditlarini yagona, urumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. Shunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish mumkin. Bankning kredit operatsiyalarini quyidagi mezonlari bo'yicha tasniflanadi.

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarping guruhlari bo'yicha tasniflanishi mumkin: Bank kreditlarini oluvchilar bo'lib hukumat, boshqa banklar, xo'jalik subyektlari, turli moliya tashkilotlari, aholi hisoblanadi.

2. Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, istemol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Bank kreditlari ishlatilishi sohasi bo'yicha 2 xil bo'lishi mumkin: asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun kreditlar beriladi. Bular, o'z navbatida, ishlab chiqarish yoki muomala sohasiga yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Inflyatsiya sharoitida tijorat banklari amaliyotida savdo va chayqovchilik operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar aksariyat qismni tashkil etadi.

3. Hajmi bo'yicha kreditlar katta va kichiklarga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni belgi bo'yicha yagona o'lchov (mezon) i yo'q. XVF, ETTBning nuqtayi nazaridan 10000 AQSh dollarigacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

4. Qaytarish muddati bo'yicha kreditlar talab qilinguncha va muddatli bo'ladi. Muddatli kreditlar qisqa va uzoq muddatlilarga bo'linadi. Kreditlar bu mezon bo'yicha turli mamlakatlarda farqlanadi. Aksariyat banklar asosan qisqa muddatli va uzoq muddatli kredit berish bilan shuqullanadi.

5. Taminlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi. Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli deb ham ataladi va odatda faqat solo-veksel orqali takdim etiladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchiniig obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholashdan so'nggina beriladi. Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik xatari yuqori bo'ladi.

6. Berilish usullari bo'yicha kreditlar, qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisobvarag'iga xarajatlarni qoplash uchun o'tkaziladi. Bunda yana avans harakteridagi kredit mablag'larini o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinci holatda bank kreditsi bevosita naqd pulsiz hisob-kitoblarda hisob hujjatlarini to'lash uchun beriladi. Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo'ladi, ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi. Biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

7. Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo'yicha 2 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, ikkinchi guruhga bir necha muddatda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi. Odatda yuridik shaxslar va aholiga joriy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'ları kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar hisoblanadi. Bu erda asosiy qarz va foizlarni yagona summada kredit muddati tugashi bilan qaytariladi. Bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan kreditlar hisoblanadi. Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq hisobvaraq bo'yicha, veksel, lizing, faktoring, forfeiting va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bir kecha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslarga tovarlar va ko'chmas mulklarni sotib olish uchun beriladigan o'rta va uzoq muddatli

kreditlashda keng qo'llaniladi. Jahon moliya bozorlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarish sharti bilan beriladi.

8. Foiz stavkalarining turlari bo'yicha bank kreditlarini 2 guruhga bo'lish mumkin: qat'iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlar. Kreditlar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalari shartlarida berilishi mumkin. Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorda konyuktura o'zgarishiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarmas kelishilgan stavkada foiz to'laydi.

Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkala tomon ham berilgan kreditdan foydalinish bilan bog'liq bo'lган o'z daromad va xarajatlarini to'g'ri hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari, odatda, qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalarining har ikkalasi ham keng qo'llanilmoqda. Suzib yuruvchi foiz stavkalari - bu kredit bozorlarda vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lган doimiy o'zgaradigan foiz stavkalaridir.

9. Kredit qaysi valutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo'linadi. Odatda, tijorat banklari kreditlarni milliy valutada yoki chet el valutasida berishi mumkin. O'zbekistonda milliy valuta va chet el valutasidagi kreditlar ko'p qo'llanilmoqda.

10. Kreditlar soni bo'yicha kreditlar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin: yagona bank beradigan kreditlar; sindikatlashgan kreditlar; parallel kreditlar Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan kreditlar keng tarqalgan. Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati etmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarning guruhlarga qo'shilib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.

Sindikatlashgan kredit - bu birlashgan 2 yoki undan ortiq kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadi. Bir guruh bank-kreditorlar ma'lum muddatga bo'sh turgan moliyaviy resurslarini ma'lum bir obyekt yoki qarzdomi kreditlash maqsadida birlashtiradi. Bir yoki yetakchi bank-koordinatorlarning katta bo'lмаган bir guruhi butun sindikat normidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo'yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig'ishini ta'minlaydi. Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham

bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq, bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar.

Shundey qilib, banklarning kreditlari qaysi belgilarga qarab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozning mablag'ga bo'lgan chuyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishini ta'minlashdan iborat.

#### **8.4. Banklarda kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish va uarning buxgalteriya hisobi**

Banklarda kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan va adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yo'riqnomalar asosida amalga oshiriladi. Kreditni berish va hujjatlashtirish tartibi hozirgi paytda markazlashtunlmagan va u tijorat tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Lekin amaliyotdan ko'rsatilishicha, kreditilashning umumiy ishlab chiqilgan tartibi hamon mavjud bo'lib, unga borchcha tijorat banklari amal qiladilar.

Kredit olish uchun ariza, qarzdor kredit xizmatlaridan soydalanish uchun munosib bankni tanlagandan so'ng rasmiylashtiradi va teqdim etiladi. Bunda mijoz bankning kredit salohivali hajmini, uning passivlari, bankning ishonchilik darajasini, bankning ta'sischilar tarkibi, uning tarmoq xarakteri va u yoki bu operatsiyalarga moslashuvi va ixtisoslashuvi, shuningdek, kredit bo'yicha summa, soiz va kredit muddatlarini inobatga olishi mumkin. Bu kabib axborot manbalari sifatida ochiq muhr, shuningdek, bank mijozlari bilan norasmiy shartnomasi bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nobarqarorlik va doimiy ravishdagagi kredit qaytarilmasliklar sharoitida banklar kreditni shu bankda hisob-kitob varaq'iga ega bo'lgan qarzdorlarga berishni ma'qul ko'radir, bu esa qarzdor tomonidan bankni tanlash imkoniyatini cheklaydi. Bank qarzdorni tanlagandan so'ng, qarzdor arizani rasmiylashtiradi va unda ma'lum miqdordagi kredit summasi, muddatu va maqsadlarini belgilaydi. Ariza qarzdor-tashkilot rahbarining imzosi va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

Bunday ariza kreditlashning quyidagi bosqichlarini amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Kreditga layoqatilikni baholash uchun bank mijozidan o'tgan davrdagi hisoboti hujjatlarni (hisobot, buxgalteriya balansi ilovasi bilan kvartal va yillik uchun) talab qiladi, ko'rsatkichlarni

yanada aniqroq tekshirishga ehtiyoj tug'ilganda boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari va agar mumkin bo'lsa uzoq muddatli hisobotlar talab qilinadi.

Kreditga layoqatsizlik xatarini oldindan ko'ra bilish, ko'pincha, oson kechmaydi. chunki kerakli paytda mijozning faoliyatida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar mijozning qobiliyatsizligi tufayli uning mol yetkazib beruvchilari, xaridor va boshqa tashqi omillarning xatosi va muammosi bunga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun bank krediti operatsiyalarining har bir turi kreditning qaytmaslik xatari bilan bog'liq bo'ladi. Bunday xatarni pasaytirish uchun bank bo'lajak mijozning mavjud o'tgan moliyaviy ahvoli bo'yicha kreditga layoqatliligini baholab, salbiy tomonlarni oldindan bilishga, mijozning kelajak muammolarini ko'rishga intiladi. Qisman bu potensial mijozning hisobot va balansini tahlil qilishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari alohida bir kredit muassasa singari o'zining kredit siyosatiga ega. Ya'ni har bir bank o'zining bo'sh turgan mablag'larini o'zi xohlagan yo'nalishga, ko'proq daromad olishga yo'naltiradigan bo'ldi.

Mijoz kredit olish uchun bankka belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshirganidan keyin kredit kommissiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilib, bank va kredit oluvchi o'rtaida imzolangan kredit shartnomasiga asosan mijozga kredit beriladi.

Buning uchun mijozga alohida kredit hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobvaraqlarning debetida mijozlarga kreditlar beriladi. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilganda yoki muayyan kreditning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu kreditlar bo'yicha ko'rildan zarar qoplanayotganda tegishli kredit hisobvaraqlari kreditlanadi. Berilgan kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zaxiralar bankning harajatlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zaxiralar qarzdorning moliyaviy holatini berilgan kreditning ta'minlanganligi va qaytmaslik xatarlari baholash natijasida yaratiladi.

Demak, Banklarda 11900- 13200 gacha bo'lgan hisobvaraqlarda qisqa muddatli kreditlar va 14500-15500 gacha bo'lgan hisobvaraqlarda esa uzoq muddatli kreditlarning buxgalteriya hisobi yuritiladi.

**13100- «Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvaraqlarning debet tomonida tegishli bank korxona, tashkilot, jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar, kredit tomonida ularning qaytarilishi aks etadi. Yuqoridaq hisobvaraqlarning barchasi bir qator ikkinchi tartibli hisobvaraqlarni o'z ichiga olib, ularda muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rileyotgan kreditlar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi.**

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun fermaning o'z mablag'i yetmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun «kredit liniyasi ochilmagan» kredit hisob varag idan foydalaniladi. Bunday hisob varaqdan kredit berish bir marta kredit berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday kreditning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi.

Korxona va tashkilotlarga yoki alohida olingan jismoniy shaxslarga kredit hisob varag'i ochilgandan so'ng ular bo'yicha kreditning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Har bir kreditning berilishi kredit kommissiyasi farmoyishi asosida amalga oshiriladi. ya'ni kredit bo'limiga mijozga kredit berish to'g'risidagi farmoyishini hisob operatsion bo'limi mas'ul ijrochilariga beradilar. Mas'ul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida kredit berish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bajaradilar. Kredit hisobvaraqlarning o'zi muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rileyotgan kabi kreditlar bo'yicha alohida yuritiladi.

Kredit berilayotganda korxonaning hisob-kitob hujjati to'lanayotgan bo'lsa, pul o'tkazilishi lozim bo'lgan mol sotuvchi yoki xizmat ko'rsatgan korxona hisobvarag iga kredit summasi o'tkaziladi. Pul tushirilishi lozim bo'lgan korxonaga boshqa bank bo'limi xizmat ko'rsatsa kredit-summasi kredit berayotgan bankning vakillik hisobvarag'i orqali tegishli bankga o'tkaziladi va quyidagicha buxgalteriya yozushi amalga oshiriladi:

Dt 13101-«Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar».

Kt 16103-Bosh bank/filliallaridan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar yoki 20200 «Mijozning hisobvarag'i»

16103 -hisobvarag'ida bank tomonidan xususiy firmalar shirkatlar va jamoa xo'jaligi hamda korxonalar, nodavlat korporatsiyalar va shu

kabi xususiy mulkchilik shakliga ega bo'lgan korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlarning hisobi yuritiladi. Bu hisobvaraq bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va kredit turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisob varaqalarda olib boriladi.

Kredit oluvchi va bank o'rtasidagi tuzilgan kredit shartnomasiga binoan kreditning qaytarish muddatlari belgilanadi. Kreditni qaytarish muddati tugagandan so'ng kreditning qaytarilishi quyidagicha buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 20208 «Talab qilib olunguncha saqlanadigan depozitlari «hisobvarag» i.

Kt 13101- «Xususiy korxonalar va nodavlat korxonalariga beriladigan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i.

Bu buxgalteriya o'tkazmasi mijozning talab qilib olunguncha saqlanadigan depozit bo'yicha hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lgan holda amalga oshiriladi. Agar qarzdoming qarzni qaytarishga mablag'i bo'lmasa, kredit summasi, 13101- «Muddati o'tgan xususiy korxonalarga va nodavlat korporatsiyalariga berilgan hisobvarag»iga o'tkaziladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 13105- «Xususiy korxonalarga berilgan muddati o'tgan qisqa muddatli kreditlar».

Kt 13101 - «Xususiy korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i.

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va shundan so'ng 90 kun o'tgandan so'ng qaytib kelmagan kreditlar 13109 -«Xususiy korxona va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan kreditlar» balans hisobvarag'iga o'tkaziladi Korxona hisobvarag'iga pul kelib tushgandan so'ng kreditni qaytarishda quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 20208-«Talab qilib olunguncha saqlanadigan hisobvarag».

Kt 13101- «Xususiy korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i.

O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlarida «Pul mablag'larini jalb qilish hamda ularni qaytarishlik, to'lovlik va muddatlichkeit shartlari asosida o'z nomidan joylashtiruvchi muassasa bankdir» deb qayd etilgan. Shu boisdan, banklar va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning soxiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z holida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz oladilar. Bunda uch

subyekti, pul egasi, kredit tashkiloti va qarz oluvchining kredit munosabati paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda har bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar va Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi. Bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko'ra, qisqa va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. Qisqa muddatli kreditlar 1 yil muddatga, uzoq muddatli kreditlar esa 5 yildan ortiq muddaiga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlarning ham har xil turlari mavjud, ular bir biridan kredit berish shartlari, ta'minlash tarzi, qoplash muddatlari bilan farq qiladi. Qisqa va uzoq muddatli kreditlash operatsiyalarining hisobini yuritish uchun

Banklarning hisobvaraqlar rejasida bir qator asosiy hisobvaraqlar ochilgan bo'lib, ular 11900-15500 tartibda ochilgan birinchi va ikkinchi tartibli hisobvaraqlardan tashkil topadi.

Ushbu balans hisobvaraqlarida bankning rezident hamda norezident bo'lgan shaxslarga milliy va chet el valutalarda bergan kreditlarning hisobi olib boriladi. Kreditlar muddati, qarzdorlar va kreditning maqomi bo'yicha tasniflanadi. Kreditlar maqomi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

- muddati o'tgan kreditlar - bank va mijoz o'rtaida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar. Bu toifadagi kreditlar muddatsiz hisoblanib, imkoniyati bo'lishi bilan undirib olinadi.

- shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar - o'zaro qayta ko'rib chiqilgan yoki qayta tuzilgan shartnomalarga asosan muddati, yangi foiz stavkasi yoki ta'minlanganlik holatiga qo'shimcha talablar va shu kabi boshqa shartlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kreditlardir. Muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizlar ko'nda tutilmagan holatlar alohida hisobvaraqdha hisobga olib boriladi va qarzdor kreditni qaytarayotganda foizlari ham birga undirib olinadi.

Ushbu hisobvaraqlar boshqa banklarga va mijozlarga berilgan kreditlar summasiga debetlanadi. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilganda yoki muayyan kreditning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu kreditlar bo'yicha ko'rilib zarar qoplanayotganda tegishli kredit hisobvaraqlari kreditlanadi.

Berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilibi mumkin bo'lgan zararlar uchun zaxiralar bankning daromadlari hisobidan yaratiladi. Ushbu

zaxiralar qarzdoming moliyaviy holatini, berilgan kreditning ta'minlanganligi va qaytarilmaslik ehtimollarini baholash natijasida yaratiladi.

Kredit operatsiyalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning barchasi bir qator shaxsiy hisobvaraqlarni o'z ichiga olib, ular muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi. Agar kredit hisobvarag'i 01 bilan tugasa berilgan kredit, 05 bilan tugasa berilgan muddati o'tgan kredit, 09 bilan tugasa berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlarni tasniflaydi. Kredit operatsiyalari kredit hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun firmaning xususiy mablag'i yetmasa, bunday hollerda firmada bir martalik qarz mablag'lariiga ehtiyoj paydo bo'ldi deyishadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun «kredit yo'li ochilmagan» kredit hisobvarag'idan foydalilanadi. Bunday hisobvaraqdan kredit berish bir martalik kredit berish berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunday kreditning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida yana kredit zarur bo'lsa, mijoz rahbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to'plamini to'liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olinganidek muzokaralar olib borishi va barcha talablarni bajarishi lozim.

Shuning uchun, agar kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa «kredit yo'li ochib» kredit berish to'g'risida shartnoma tuzish qulayrok bo'ladi va arzonroq tushadi. Kredit yo'li deganda - bu mijoz bilan bank o'rtasida belgilangan summada qarzlar turkumini berish to'g'risida tuzilgan kelishuvidir.

Kredit yo'lini ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. Shu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo'shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi. Kredit yo'lining ochilishi shuni bildiradiki, mijozga yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bank kredit summasi doirasida mijozning hisob-kitob hujjatlari bo'yicha pul to'laydi. Shu bilan birga, bank pulni hujjatlar topshirilgan kuni to'lashga majbur. Kredit o'z vaqtida berilmaganligi va mijozning tovar yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitobni kechikib amalga oshirilganligi uchun bank javobgar hisoblanadi.

Kredit olish uchun alohida kredit yo'lini ochish shart emas. Bank bilan uning mijozni o'rtasida maxsus bitim tuzilib, shu bitimga asosan

mijozga uning hisob-kitob varag'ida qolgan mablag'dan ortiq summadagi to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Kreditning bunday turi overdraft deyiladi. Sharhnomada overdraft qarzning eng katta summasi, kredit berish shartlari: kreditni qoplash taribi, foiz darajasi belgilanadi. Overdraftda mijozning hisob-kitob varag'iga kelib tushadigan barcha summa qarzni qoplashga yo'naltiriladi.

Shuning uchun qarz hajmi mablag' kelib tushgan san o'zgarib turadi, ana shunisi bilan overdraft kreditning boshqa turlaridan farqlanadi. Overdraft qisqa muddatli kreditlash qoidalari ko'zda tutilganiga qaramay, tijorat banklari tajribasida overdraftni kontokorrentdan boshqa istalgan kredit turiga qayta rasmiylashtirish huquqi qo'llanilmoqda.

Kontokorrent hisobvarag'i mijozning barcha operatsiyalarini birga jamlashga imkon beradi. Kontokorrent hisobvarag'i mijozning bankdag'i kredit hisob-kitob xizmatini amalga oshirish uchun mo'ljalangan yagona hisobvarag'i bo'lib, barcha operatsiyalar shu hisobvaraq bo'yicha bajariladi. U kredit hisobvarag'i va hisob-kitob varag'i alomatlарини o'z ichiga jamlagan.

Kontokorrekt hisobvaraqdада bir tomondan tushumlar aks ettirilsa, ikkinchi tomondan kreditlar va to'lovlар qayd qilinadi. Natijada debet saldo (qarz) ham, kredit saldo (mablag'ning mavjudligi) ham vujudga kelishi mumkin. Kontokorrekt hisobvarag'i ochilganda qarz oluvchi mijozning hisob-kitob scheti yopiladi.

Bank kontokorrekt hisobvarag'i bo'yicha kreditlash limiti kreditning chegaraviy miqdorini belgilaydi. Shu limit summasiga bankning kafolat majburiyati rasmiylashtiriladi uning shakli xuddi kredit puli ochishdagidek bo'ladi. Ushbu kredit mablag'larini faqat mijozning asosiy faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan tovarlar va xizmatlarga sarflash mumkin. Boshqa barcha to'lovlarga faqat kontokorrekt qo'llanilmaydi. Kreditning bu turi schet el tajribasida cheklar va kredit kartochkalari bilan hisob-kitob qilishda keng qo'llaniladi.

Bank mijoji eng muhimni, kreditlashni tashkil qilish qoidalariiga muvofiq, mijoz o'z hisobvarag'ida kredit saldosini bo'lishini ta'minlashi lozim. Qarz oluvchining bankda depozit hisobvarag'i bo'lgan taqdirdagina qarzdorlikni saqlashga yo'l qo'yiladi, lekin uning salmog'i depozit hisobvarag'idagi mablag' summasidan ochmasligi kerak. Agar bankda mijozninig depozit mablag'larini bo'lmasa oy oxirida hisob-kitob varag'ida qarz paydo bo'lsa, qarzning miqdori qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kreditlik qoplangunga qadar bank kredit berishni tugatishi lozim.

Demak, agar hisobot oyi oxirida mijozning hisob-kitob varag'ida qarz paydo bo'lga bolsa, navbatdagi oy boshida overdraft doirasida firma to'lovlarni to'lashga umid qilishi mumkin emas va, aksincha, kreditni qoplash uchun mablag' izlashga tayyor bo'lib turish lozim bo'ladi. Bunday vaziyatdan chiqib ketishning yo'li - overdraftni kreditning boshqa turiga qayta rasmiylashtirishni talab qiladi.

Qaytaruvchanlikning ta'minlanishi hamda shartnomha va me'yoriy hujjatlarda belgilangan kreditlash muddatiga rioya qilish sharti bilan bank overdraftni kontokorrentdan boshqa istalgan kredit turiga qayta rasmiylashtirish huquqiga ega. Kontokorent hisobvarag'ida bir tomonidan tushumlar aks ettiriladi, ikkinchi tomonidan, kreditlar va to'lovlar qayd qilinadi. Natijada debet saldo, ya'ni qarz ham kredit saldo, ya'ni mablag'larning mavjudligi ham vujudga kelishi mumkin.

Kontokorrent hisobvarag'i ochilgan qarz oluvchi mijozning hisob-kitob varag'i yopiladi. Bank kontokorrent hisobvarag'i bo'yicha kreditlash limiti kreditning chegaraviy miqdorini belgilaydi. Shu limit summasiga bankning kafolat majburiyati rasmiylashtiriladi. Kontokorrent hisobvarag'i bo'yicha foizlar debet qoldig'i bo'yicha ham kredit qoldig'i bo'yicha bank foydasi va qarzdor foydasiga ham yoziladi. Debet qoldig'i (qarz) bo'yicha mijoz bankka kredit shartnomasiga ko'ra, foizlarni to'laydi. Kredit qoldig'i (mablag'ning mavjudligi) bo'yicha bank qarzdorga hisob-kitob shartnomasiga muvofiq foizlarni to'laydi.

Kontokorrent hisobvaraqning amal qilish muddati bir yildan oshmasligi kerak, agar o'n ikki oy o'tgandan so'ng qarzdor hisobvarag'iga mablag' tushishini ta'minlashi lozim. Agar belgilangan muddat oxirigacha hisobvaraqda salbiy saldo saqlanub qolsa, kredit to'liq qoplanguncha kredit berish to'xtatib qo'yiladi. Agar me'yoriy hujjatlar va kredit shartnomasining barcha shartlariga rioya qilingan bo'lsa kontokorrent hisobvaraq bo'yicha kredit berish tiklanishi mumkin.

Kreditni ta'minlash uchun faqat veksellardan emas, balki boshqa qimmatli qog'ozlardan ham soydalanish mumkin. Qimmatli qog'ozlar garovi evaziga alohida kredit hisobvarag'idan berilgan kredit lombard krediti deb ataladi. Agar mijoz molivaviy resurslarga vaqtinchalik ehtiyoj sezsa va o'zining qaramog'idagi qimmatli qog'ozlarini bozorida sotishda manfaatdor bo'lmasa, u kreditning bu turini rasmiylashtirish uchun murojaat qilishi mumkin.

Lombard kreditni ta'minlash uchun (ya'ni garov sifatida) boshqa elementlarning aksiyalari, veksellari va depozit sertifikatlari qabul

qilinadi. Markaziy bankning me'yoriy hujjalariiga muvofiq kredit beruvchi bankning xususiy aksiyalari garov bo'la olmaydi. Lombard kreditini berish uchun bank va qarz oluvchi o'rtaida 2 tomonlarma shartnoma, ya'ni kredit shartnomasi va garov to'g'risida shartnoma tuziladi.

Kredit shartnomasida kreditning miqdori, uni qoplash muddatları, foiz stavkasi ko'rsatiladi. Garov to'g'risidagi shartnomada kreditni ta'minlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar yuzasidan bankka garov huquqi beriladi.

Qimmatli qog'ozlarning garov qiymatini aniqlash qarz oluvchi uchun ham bank uchun ham juda muhim, chunki kreditning miqdori ana shunga bog'liq. kreditni ta'minlash qoidalarga muvofiq garov qiymatini ta'minlash uchun beriladigan qimmatli qog'ozlar bozori narxi yoki nominal qiymatining bir qisminigina tashkil qilish lozim. Bu garovni sotishda vujudga keladigan kurs tavakkalchiligi bilan bog'liq, chunki qimmatli qog'ozlarning bozor narxi kredit shartnomasi tuzilgan paytdagi darajaga hamda nominal qiymatiga nisbatan pasayishi mumkin.

Shuning uchun lombard kredit berish haqidagi qaror qabul qilishda bank qarz oluvchining molivaviy ahvolini hamda kreditga layoqatligini o'rGANISH bilan birga ta'minlashga qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlarning bozor narxi kredit shartnomasi tuzilgan paytdagi darajaga hamda nominal qiymatiga nisbatan pasayishi mumkin.

Kredit olish uchun bankda har bir kredit bo'yicha alohida kredit hisobvarag'i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tartibda ariza va boshqa hujjalalar paketini rasmiylashtirilib topshiradi. Kredit komissiyasining qaroriga ko'ra, kredit berish lozim deb topilsa bank va kredit oluvchi o'rtaida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kreditning nima maqsadda olinishi, muddati, summasi, qaytarilish tartibi, kredit uchun to'lovlar, tomonlarning majburiyatları, javobgarligi va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Kredit bo'limining farmoyishiga ko'ra, hisob operatsion bo'limida kredit oluvchi mijozning mulkchilik shakliga ko'ra, kredit hisobvarag'i ochiladi. Bu hisobvaraqa bank tomonidan mijozlarga berilgan kreditlarning hisobi yuritiladi. Hisobvaraqa debetida berilgan kreditlarning summasi, kreditida esa qarzdorlar tomonidan qaytarilgan kreditlarning summasi aks etturiladi. Bu hisobvara qo'shishda analitik hisob har bir qarzdor va kreditlarning turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Kredit hisobvarag'i ochilgandan so'ng, kreditning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirish mumkin. Kredit berilishi kredit komissiyasining farmoyishi asosida amalga oshiriladi va kredit bo'llimi xodimi hisob operatsiya bo'limga mijozga kredit berish to'g'risidagi farmoyishini ma'sul ijrochilarga beradilar Ma'sul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida kredit berish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini bajaradilar Kredit hisobvaraqlarini muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rileyotgandagilari bo'yicha alohida yuritiladi

Kredit summasi bank mijozining kredit ob'ektlari va maqsadidan kelib chiqib, mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar qiymatini pul o'tkazish orqali amalga oshiradilar Agar bank mijoziga kredit berilganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan rasmiylashtiriladi

Dt 11900-15500 -»Kreditning turlari» bo'yicha hisobvaraqlar.

Kt 10301- «Markaziy bankdag'i vakillik hisobvarag'i-Nostro» yoki

Kt 16103-Bosh bank/filliellardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i.

Kredit oluvchi va bank o'rtaida tuzilgan kredit shartnomasiga binoan, kreditni qaytarish muddatlari belgilanib, qaytarish muddati tugagandan so'ng kreditni qaytarish bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Dt 20200 «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari» hisobvarag'i.

Kt 119(X)-15500 hisobvaraqlar.

Bu buxgalteriya yozuvlari agar mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lgan holda bajariladi Agar qarzdorming hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun mablag'i yo'q bo'lgan taqdirda, kreditning summasi 12105 - 13205 - «... muddati o'tgan kreditlar» hisobvarag'iga (qisqa muddatli kreditlar uchun) o'tkaziladi. U buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi

Dt 12105 - 13205 - «... muddati o'tgan kreditlar» hisobvaraqlar.

Kt 12100 - 15500 hisobvaraqlar (qisqa muddatli kreditlar uchun).

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va to'lanish kunidan 90 kun o'tgandan so'ng ham qayti kelmagan kreditlar 12109-13109 - «... qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan kreditlar» hisobvarag'iga o'tkaziladi va mijoz hisobvarag'iga pul kelib tushgandan

**so'ng kreditni qaytarish bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.**

Kreditlarning qaytishi ma'lum tavakkalchilikni talab qiladi. Shu sababli banklarda kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etiladi. Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasining hisobini olib borish uchun har bir kredit turi bo'yicha alohida, ya'ni 12199-15599 hisobvaraqlari ochiladi. Har bir kredit turi bo'yicha shartnomada kelishilgan miqdorda foiz stavkalari asosida bank soydasiga foizli daromadlar undiriladi.

Hozirgi kunda kreditlar uchun foizlar Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan nizom asosida hisoblab boriladi. Bank kredit summasidan bank mablag'lardan foizlarni belgilaydi va foizlar bo'yicha summalar quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi.

Bank mijozlariga berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisoblanganda lekin hali undirilmagan holda buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv yozib qo'yiladi:

Dt 16309 - «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvaragi,

Kt 41401 44501 «.....berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvaraqlari.

Undirilganda esa,

Dt 20200 - «Mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvaragi,

Kt 16309 - «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvaragi.

Shunday qilib, banklarda berilgan va olinayotgan kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish qonuniy va me'yoriy hujatlarga asosan, shuningdek, bank tomonidan ishlab chiqilgan kredit siyosatida belgilangan shartlar bo'yicha amalga oshurish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## **8.5. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibi va ularni hisobga olish**

Tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditni berishni Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu operatsiya O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqamasining 1994-yil 3-maydagi 234-soni

qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Valuta birjasi huzuridagi kredit rusurslari kimoshdi savdolari orqali tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditlar berish tartibini belgilaydi. Bu jarayon Markaziy bankning pul-kredit vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Qayta moliyalash - Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul kredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u ikkinchi daraja banklarining likvidlik holatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin: Banklarning ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash: tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garov olish yo'li bilan kreditlar berish. ya'ni lombard krediti; to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Qayta moliyalash kreditlarini berayotganda Markaziy bank banklarning kredit potensialining joriy holatyni doimiy kuzatib turadi. Buning uchun u joriy monitoringlar o'tkazadi, ular vakillik hisobvaraqlarini tahlil qiladi va asosan o'zi kreditlarni joylashtirish va. jalb etish uchun qatnashadigan banklararo kredit bozori - O'zbekiston Respublikasi Valuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdosini kuzatib boradi.

Banklarning likvid holatini saqlashga yo'naltiriladigan, ularni qayta moliyalash uchun beriladigan kreditlar miqdori, shuningdek, qayta moliyalash stavkasi. Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining joriy vaqtdagi aniq vazifalariga muvofiq, hamda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

Markaziy bank yuqorida aytilgan qonunga muvofiq, tijorat banklariga milliy valutada lombard kreditni berishi mumkin. Lombard kredit qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini garovga qo'yish yo'li orqali beriladi. Lombard kreditining berilishi amaldagi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Qayta moliyalash kreditlari 41-sonli tartibiga muvofiq joylashtiriladi. Keyinchalik qayta moliyalash kreditlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ko'rsatmalari bo'yicha ularda belgilangan shartlar asosida Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari

va ujorai banklari o'tasida tuzilawgan kredit shartnomasi uchun rasmiylashtiriladi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi: tomonlar nomi; ularning o'zaro majburiyatları va iqtisodiy ma'suliyati; kredit muddati va miqdori; aniq maqsad ko'zlanganligi; kredit berish va qaytarish tartibi; foiz stavkasi va uni o'zgartirish shartlari; ta'minlash shakllari; jarima solish va tomonlar shartlashuvining boshqa jihatlari. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga kredit berishda Markaziy bank tomonidan o'matilgan iqtisodiy me'yorlarga majburiy zaxira talablariga rioya qilish e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda Banklarning vakillik hisobvaraqlarida mablag'lar umuman bo'limgan yoki yetarli bo'limgan holatlarda kechikturib bo'lmaydigan to'lovlarni amalga oshrish uchun tijorat bankiga, istisno tariqasida majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatи bilan uning hududiy Bosh boshqarmasi rahbari taqdimnomasi bo'yicha bank likvidligini qo'llab-quvvatlash uchun kredit berilishi mumkin.

Bu kreditni olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiy me'yorlarga rioya etadigan, zaxira, majburiy zaxira shartlarini to'liq bajaradigan, tijorat banklariga beriladigan ya'ni kreditni qaytmaslik xatari yo'q va u muddatida foizi bilan to'liq qaytishi ta'minlangan holda beriladi. Kredit 7 ish kuni muddati bilan tijorat banki tomonidan kredit resurslarini tartibga solish fondiga o'tkaziladigan mablag'larning 30 % miqdorida beriladi.

Kreditning o'z vaqtida, to'liq qaytmaslik hollari yuz berganda yoki kredit shartlari buzilgan hollarda Markaziy bank tijorat bankiga nisbatan kredit shartnomasida ko'rsatib o'tilgan choralarini qo'llash huquqiga ega. Agar kreditning - qaytmaslik hollari yuz bersa Markaziy bank garov mol-mulkini talab qilib olishga haqli. Ushbu kredit bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bank amaldagi qayta moliyalash stavkasida 1,3 barovarga ortiq miqdorda belgilanadi.

Tijorat bankida Markaziy bank tomonidan unga ilgari berilgan ushbu kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda, quyidagi ta'sir choralarini qo'llaniladi: belgilangan foiz stavkasi 2 baravar oshiriladi; «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 59-moddasiga binoan muddatu o'tgan qarz bosh bank hisobvarag'idan undirib olinadi.

---

Agar bosh bank hisobvarag'ida qarzlamni qoplaydigan miqdorda mablag'lar bo'lmasa, ushbu qarz to'la qaytarilmaguncha bank vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar to'xtatiladi.

Muddatidan oldin bo'shagan qayta moliyalash kreditlarini o'z vaqtida qaytarilmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank kredit qaytarilmagan hollarda Markaziy bank garovga qo'yilgan mulknusotish yoki kafolat xati bo'yicha talabnomaga qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega.

Qayta moliyalash kreditlarini belgilangan muddat ichida qaytarilishni ta'minlamagan tijorat banklariga nisbatan 1997-yil 25-yanvardagi 74-sonli yo'riqnomanining 6-bandiga va unga kiritilmagan 1998-yil 27-iyundagi 406-sonli qo'shimchaning 1-bandida ko'rsatilgan ta'sir choralarini qo'llaniladi.

Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'ilgan hollarda. Ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi.

Qayta moliyalash kreditlari bo'yicha marja darajasi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan qayta moliyalash kreditlarini hisobini yuritish bo'yicha operatsiyalar balansdagi 12101- «Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» va 12602 –»O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Muddati kechiktirilgan qayta moliyalash kreditlari hisobi 12109- «Boshqa banklarga berilgan muddati kechiktirilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Muddati o'tgan qayta moliyalash kreditlari hisobi 12105- «Boshqa banklarga berilgan muddatli o'tgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Agar kredit bergen bankda:

Dt 12101-«Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar»

Kt Tijorat banki vakillik hisobvarag'i yoki

Kt 21602 –»O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Kredit olgan bankda esa:

Dt Tijarat banki vakillik hisobvarag'i yoki 21602 –»O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i,

Kt 21602 - 21606 - «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Balans hisoboti tuzish yoki hisob-kitob sanasida: kredit bergen bo'lsa, olish uchun hisoblangan foizlar summasi;

Dt 16309 (tijorat banki) yoki 16305 «Markaziy bank) «Olish uchun hisoblangan foizlar summasi»,

Kt 41601 «Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foiz daromadlari» hisobvarag'i.

Kredit olgan bankda, to'lash uchun hisoblangan foizlar summasi;

Dt 53101 53106 (tijorat banki) yoki 52002 «Markaziy bank) «Markaziy bankdan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvarag'i.

Kt 22410 «Olingan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

To'lash muddati yetib kelganda va tijorat banki vakillik hisobvarag'ida yetarli mablag'lar mavjud bo'lganda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

a) Kredit uchun to'lov summasi;

Dt 21606 (tijorat banki) yoki 22114 (Markaziy bank) «Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli kreditlar».

Kt 10301 -»Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki)».

b) To'lash uchun hisoblangan foizlar summasi:

Dt 22410 «Olingan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar»,

Kt 10301-«Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki)».

Tijorat banki vakillik hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'limgagan yoki yetarli bo'limgagan va kredit belgilangan muddatda to'lanmagan hollarda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: kredit bergen bankda: Muddati o'tgan kredit to'lov summasiga;

Dt 12105- «Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan kreditlar».

Kt 12101- «Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i.

Kredit olgan bankda muddati o'tgan kredit summasi balansdag'i 21602-21606 - «Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Muddatida to'lanmagan qarzlar summasidagi kredit resurslari kreditorga qaytarilayotganda quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashdiriladi: kredit olgan bankda:

**Dt 21602-21606- (tijorat banki) yoki 22114 -(Markaziy bank) «Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingen qisqa muddatli kreditlar».**

Kt- «Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki) hisobvarag'i.

Kredit bergan bankda:

Dt- «Tijorat banki vakillik hisobvarag'i».

**Kt 12105- «Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan kreditlar» hisobvaraqlarida hisobga olinadi.**

Muddatidan oldin bo'shagan qayta moliyalash kreditlarini o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank kredit shartnomasida ko'zda tutilgan choralar qo'llashga haqli.

Qayta moliyalash kreditlari qaytarilmagan hollarda, Markaziy bank garovga qo'yilgan mulkni sotish yoki kasolat xati bo'yicha talabnama qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega. Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'yilgan hollarda, ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi. Ta'sir choralar Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi va tijorat banki o'rutasida tuziladigan kredit shartnomalarida aks ettirilishi shart.

## **8.6. Faktoring operatsiyalarining mazmuni va ularni rasmiylashtirish**

Faktoring – xo'jalik yurituvchi subyektlar – yetkazib beruvchilarni moliyalashga doir bank xizmatlarining bir turi bo'lib bunda, ular bank – moliyaviy obyektga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovchilar tomonidan akseptlangan, lekin to'lov talabnomalari bo'yicha hali to'lanmagan to'lovnvi regress huquqisiz olish huquqini berishdir.

Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha saqlanadigan depozitlar hisobvaraqlari joylashgan bankdagi mijozlar bilan shartnoma asosida amalga oshiradilar va ularning buxgalteria hisobi amaldagi me'yoni hujjatlar bilan tartibga solinadi<sup>12</sup>.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentuga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to'lovchilardan qarzni undirish bo'yicha ushbu muddatda to'lanmagan majburiyatlariga doir choralarini qonunlarda belgilangan

<sup>12</sup> Tijorat banklari tomonidan Uzbekiston Respublikasi xududida faktoring operatsiyalarini utkazish tarhibi tahrисидаги низом. ЎР АВ 03.08.2000 йида 953-сон билан рўхдатга олинган.

tartibda amalga oshiradilar. Faktoring operatsiyasini o'tkazishda bank pul mablag'larini ularning haqini to'lash huquqi faktoring shartnomasida ko'rsatilgan summada bankka taqdim etiladigan to'lov talabnomalari bo'yicha mijozning talab qilib olingungacha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazadi.

Bank tomonidan o'tkazilgan summa bilan shartnoma bo'yicha to'lov talabnomasi summasi o'rtaсидagi farq bilan diskontini tashkil etadi. Bunda bank tomonidan to'lovchida muddati o'tgan kreditorlik qarzining yo'qligi e'tiborga olinib, faktoring xizmatlarini amalga oshirishlari mumkin.

Faktoring shartnomasini rasmiylashtirish jarayonida mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomonidan imzolangan oldi-soldi ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasini moddiy boyliklar berilgani, ishlarni bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar; to'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar ro'yxati; to'lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur hujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida quyidagilar ko'rsatiladi: ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar; berilayotgan talabarning umumiyligi summasi; diskont summasi, shartnomaning amal qilish muddati; taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da'volarni bayon etish muddatlari; shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning ma'suliyati; shartnomani bekor qilish shartlari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish chog'ida mijoz va bank moliyaviy agenti to'lovchini ushbu bitim tog'risida yozma ravishda xabardor qilishi kerak. To'lovni amalga oshirish uchun to'lovchining talab qilib olingungacha saqlanadigan depozit hisobvarag'ida mablag'lar yetishmagan taqdirda to'lovchining banki bank moliyaviy agentga to'lov topshiriqnomasining 2-son kartotekaga qabul qilganligini ma'lum etadi.

## **8.7. Bankdarda faktoring operatsiyalarining buxgalteriy hisobi**

Faktoring operatsiyalari bo'yicha to'lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank fomonidan kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida 90966-«Xarid qilingan debitorlik qarzlari - faktoring» shaxsiy hisobvaraqlari

ochiladi. Ushbu hisobvaraq debeti bo'yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarning to'liq summasi aks ettiriladi, krediti bo'yicha esa to'lovchilar to'liq so'ndirgan, xarid qilingan debitorlik qarzları hisobdan chiqariladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 90966- «Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring».

Kt 96331- «Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Taraflar tomonidan faktoring pul talabini berish tog“risidagi shartnoma imzolangandan keyin bank moliyaviy agent mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga diskont summasini chegirgan holda o'tkazishni amalga oshiradi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 11101- «Sotib olingan debitorlik qarzlari –Faktoring» hisobvarag'i,

Kt 20208- «Talab qilib olingungacha saqlanadigan depozitlar» va

Kt 11195- «Sotib olingan debitorlik qarzlari –Faktoring – bo'yicha diskont» hisobvaraqlar.

Mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazishni bank mémorial orderlar bilan amalga oshiradi va ular ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya operatsiyalari amalga oshirilganidan keyin bankning kunlik hujjatlariga joylashtiriladi. Ikkinci nusxasi belgilangan tartibda mijozga yuboriladi. Faktoring muddati tugaganidan so'ng to'lovchi xaridordan kelib tushgan summaga quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» to'lovchining hisobvarag'i.

Kt 11101 –»Sotib olingan debitorlik qarzlari –Faktoring» hisobvaraq.

Diskont summasi debitorlik qarz bo'yicha to'lovchidan mablag'lar kelib tushganidan so'ng, bank daromadiga o'tkaziladi.

Dt 11195-«Sotib olingan debitorlik qarzlari –Faktoring – bo'yicha diskont» hisobvarag'.

Kt 45217- «Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar – Faktoring» hisobvarag'i va bir vaqtning o'zida to'lov hujjatlari balansdan tashqari hisobvaraqdan chiqariladi:

Dt 96331- «Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvarag'.

Kt 90966- «Sotib olingan debitorlik qarzlari Faktoring-hisobvaraq.

Faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan yuqori darajadagi xatar munosabati bilan banklar har oyda tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ularga doir ehtimoliy talafotlarni qoplash uchun barpo etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ishlatish tartibiga muvofiq faktoring operatsiyalari sifatini tasniflab boradilar.

Zaxiralar tashkil etilganda.

Dt 56814- «Sotib olingan debitorlik qarzlari -Faktoring bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvaragi.

Kt 11199- «Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring-bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasasi» hisobvaragi.

Agar zaxira summasi hisobidan debitorlik qarzi qoplansa.

Dt 11199- «Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring-bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasasi» hisobvaragi.

Kt 11101- «Sotib olingan debitorlik qarzlari -Faktoring» hisobvaragi.

### **8.8. Lizing operatsiyalarining mazmuni va ularni rasmiylashtirish**

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalari bilan bir qatorda lizing operatsiyalari ham amalga oshirilib. bunday operatsiyalar moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi tog'risidagi nizom<sup>13</sup>ga muvofiq tartibga solinadi.

Lizing – ijara munosabatlarning alohida turi bo'lib. bunda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchi) topshiring'iga ko'ra, uchinchi taraf (sotuvchi)dan mol-mulk (lizing obyekti)ni lizing shartnomasida belgilangan. keyinchalik lizing obyektining lizing oluvchi mulkiga o'tishi shartlarida uni lizing oluvchining egalik qilishi va foydalanishi uchun sotib oladi. Bankning kredit resurslari lizing bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish manbai hisoblanadi. Lizing subyekti bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: lizing beruvchi, lizing oluvchi hamda sotuvchi.

Mijoz bilan bank o'rtasida amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalari quyidagi talablardan biriga javob berishi lozim: lizing shartnomasi muddati tugaganidan keyin lizing obyekti lizing oluvchi

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси банкларни топонидан маданий лашнотни ўтишни тартиби түрлесидаги ишом. ЎзР АВ 20.07.1999 йиёда 776-сон билан рўйхатга олган

muliga o'tishi; shartnoma muddati lizing obyekti xizmat qilish muddatining 80 % dan ortig'ini yoki lizing obyektining qoldiq qiymati lizing shartnomasi tugagach, uning birlamchi qiymatining 20 % dan kamini tashkil etishi; lizing oluvchi lizing obyekti belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganidan keyin belgilangan narxda butunlay sotib olish huquqiga ega bo'lishi; lizing shartnomasi davrida to'lovlarning umumiy summasi lizing obyekti qiymatining 90 % dan ortig'ini tashkil etishi lozim.

Lizing shartnomasi munosabati bilan sarflangan mablag'larning qaytarilishi kafolati sifatida lizing beruvchi garov tarqasida bo'lsa ham lizing oluvchidan bank kafolatu yoki uchinchi shaxs kafilligi ta'minotini taqdim etishni talab qilishi mumkin.

Lizing shartnomasini rasmiylashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bank tomonidan lizingga ariza qabul qilinishi va lizing oluvchi bilan muzokaralar olib borish; lizing oluvchining to'lov qobiliyatini va uning loyihasining samaradorligi tog'risida xulosa chiqarish; lizing shartnomasini tayyorlash va tuzish; lizing beruvchi bank tomonidan uskunalar yetkazib berilishi uchun sotuvchiga buyurtma-naryad jo'natish; lizing obyekti sotib olish-sotish to'g'risidagi shartnomani imzolash; lizing uskunalarini soydalanishiga qabul qilib olishni amalga oshirish; lizing oluvchi va sug'urta kompaniyasi o'rtaida lizing obyekti sotib olish-sotish to'g'risidagi shartnomani imzolashni talab qiladi.

Lizing bo'yicha mablag' oluvchilar bankka to'lov qobiliyatini va o'z loyihasining samaradorligi tog'risidagi xulosa tayyorlanishi uchun bo'ilg'usi lizing oluvchi va lizing obyekti o'z egaligi va soydalanishiga olishni xohlagan shaxslar quyidagilarni taqdim etishlari lozim: oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balansi, o'z moliyaviy - ishlab chiqarish imkoniyatlarining tahlili, lizingning butun muddati uchun pulning kelib tushishi prognози ko'rsatilgan biznes reja.

Lizing shartnomasi tuzilganidan so'ng lizing beruvchi sotuvchiga uskunalarini yetkazib berishi uchun ishlarning bajarilishi shart-sharoitlarini belgilab beruvchi texnik topshiriqlar va boshqa hujjatlar ilova qilingan buyurtma naryadni jo'natadi. Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtaida lizing ashyosini sotib olish - sotish shartnomasi tuziladi. Lizing obyekti sotuvchisiga to'lov lizing beruvchi tomonidan qonunchilikka binoan, sotib olish - sotish shartnomasiga muvofiq shakl va muddatlarda amalga oshiriladi.

## **8.9. Banklarda lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobi**

Lizing bitimi lizing obyektini foydalanishga qabul qilish bayonnomasi imzolanib, mulkka egalik huquqi lizing beruvchiga o'tganidan so'ng amalga oshirilgan hisoblanadi. Foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi, kelishuvda qatnashayotgan barcha tomonlar: lizing beruvchi, lizing oluvchi hamda sotuvchi tomonidan imzolanadi. Lizing shartnomasiga binoan, lizing oluvchi lizing obyektiغا butun lizing muddati davomida egalik qilish va foydalanish huquqini oladi.

Lizing shartnomasining muddati tugaganidan so'ng lizing obyekti, agar shartnomada boshqa narsaga kelishib olingan bo'lmasa, bankka bu mol-mulkning qoldiq qiymati to'langanidan so'ng lizing oluvchining mulkiga o'tadi. Lizing to'lovlarining summasi amortizatsiya ajratmaları, lizing stavkasi (kredit foizi), komission to'lovlar va ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun haqdan tashkil topadi. Lizing to'lovi tarkibiga lizing shartnomasi shartlariga muvofiq lizing beruvchi tomonidan sug'urta obekti uchun to'langan sug'urta to'lovlar ham kiritilishi mumkin. Lizing stavkasi kredit uchun foiz to'lovi hisob-kitobi kabi aniqlanadi.

Lizing to'lovlarini lizing oluvchi tomonidan jadval asosida to'lanadi. Jadval taraflar kelushivi bilan tuzilib, lizing shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi. Lizing to'lovi lizing pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilganda lizing oluvchi lizing to'lovini amortizatsiya ajratmaları, foizlar, komission va qo'shimcha to'lovlar alohida ajratib ko'rsatish bilan aniqlashtirib berilishi shart. Lizing to'lovi kelib tushgandan so'ng ajratib ko'rsatilgan alohida to'lovlar bo'yicha bank tomonidan tegishli buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi: lizing uchun foizlar, komission va boshqa to'lovlar tijorat banklari buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga muvofiq bank daromadiga yoziladi.

Lizing shartnomasi bo'yicha mol yetkazib beruvchiga mablag'larni o'tkazganda:

Dt 15600- «Lizing (moliviy ijara) tegishli hisobvarag»;

Kt 20200- «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» – hisobvaragi.

Lizing bo'yicha foiz stavkasi hisoblanganda esa:

Dt 16323- «Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar (moliviy ijara) hisobvaragi».

**Kt 45100- «Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar» tegishli hisobvarag'i.**

Agar, mijoz (lizing oluvchi)dan lizing to'lovi kelib tushganda,

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i,

**Kt 15600- «Lizing (moliyaviy ijara) tegishli hisobvaraqlari.**

**Kt 16323- «Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar (moliyivi ijara),**

**Kt 45100- «Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar» tegishli hisobvaraqlar.**

Agar, lizing to'lovleri vaqtida to'lanmasa 45117- «Muddau o'tgan lizing bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'iga o'tkazilidi va mablag' kelib tushishi natijasida undirilishi kutib turiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Kredit, lizing va faktoring operatsiyalarining hisobi - bu bankning bo'sh turgan kredit resurslarini daromad keltiruvchi manbaalarga vaqtinchalik tavakkalchilik asosida yo'naltirishlari tushumiladi. Bunda, ushbu operetsiyalardan ko'riliishi lozim bo'lган zarar (xarajat) lar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar tashkil qilish zaruriyatini vujudga kelturishidi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

- 1 Kreditlash tamoyillarini sanab bering?
- 2 Kredit deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlarini bilasisiz?
- 3 Kontokorrent shaklida berilgan kreditning sharti nimadan iborat?
- 4 Kredit bo'limi hisob-operatsion bo'limga kredit berilishi bo'yicha qanday hujjat taqdim etishi lozim?
- 5 Kredit berishda bankda qanday buxgalteriya provodkasi bajariladi?
- 6 Xususiy mijozga kredit berishda va qaytarishda qanday buxgalteriya provodkalari bajariladi?
- 7 Kredit uchun foizlar qanday tartibda va qanday provodkalar orqali undiriladi?
- 8 O'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar bo'yicha qanday provodkalar bajariladi?

9. Tijorat banklarida lizing operatsiyalar qanday tartibda amalga oshiriladi?

10. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalari deganda nima tushuniladi?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Тижорат банкларида кредитларнинг бухгалтерия хисоби тартиби тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 17.12.2004 йилда 1435-сон билан рўйхатга олинган.

2. Ўзбекистон Республикаси банклари томонидан молиявий лизингни ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 20.07.1999 йилда 776-сон билан рўйхатга олинган.

3. Тижорат банклари томонидан Ўзбекистон Республикаси худудида факторинг операцияларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 03.08.2000 йилда 953-сон билан рўйхатга олинган.

4. Тижорат банкларида фоизларни хисоблаш тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 30.01.2004 йилда 1306-сон билан рўйхатга олинган.

5. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М. «Дашков и К», 2008. – 288 с.

6. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008. стр. 209

7 Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М. КНОРУС. 2009 – 656с. 2 эз.

8. Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в комерческих банках. -Москва.: 2007, стр. 399

9. Наврўзова К.Н. ва бошқалар, Банк хисоби. Ўқув кўлланма. -Т., Фан ва технология. 2006.

## **9-bob. BANKLARDA CHET EL VALUTASIDAGI OPERATSIYALARINI HISOBGA OLİSH**

### **9.1. O'zbekiston Respublikasida valuta operatsiyalarini tartibga solish**

Bozor munosabatlari sharoitida O'zbekiston Respublikasining xalqaro amaliy aloqlari o'sishi banklararo valuta savdosi hajmlari ortishiga olib kelmoqda. Mazkur bozorda mijozlarga malakali xizmat ko'rsatish asosiy o'nin tutadi. Bu ishni yuqori darajada bajarish uchun banklar doimo bozorda xizmatga hozir bo'lishlari kerak. Ular valuta kurslarining o'zgarishini kuzatib borishlari, dolzarb iqtisodiy va siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turishlari zarur.

Banklarning tashqi iqtisodiy faoliyatni tovar va xizmatlarni eksport-importida milliy va chet el valutalarida amalga oshiriladigan bank operatsiyalari. ularni O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valutasiga sotish, nosavdo operatsiyalar, norezidentlarning mamlakat ichidagi harakati va boshqa chet el valutasidagi operatsiyalar bilan bog'liqdir.

Valuta operatsiyalari bu valuta boyliklariga nisbatan bo'lgan egalik huquqining o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda chet el valutasidan to'lov vosisasi sifatida foydalanish. valuta boyliklarini xorijdan olib kirish va jo'natish hamda xorijga olib chiqish va jo'natish, shuningdek, xalqaro ko'lalma pul o'tkazish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalardir. Ushbu operatsiyalar amaldagi qonuniy va me'yoniy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi<sup>14</sup>

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari valuta munosabatlarining subyektlari bo'lib hisoblanadilar. Valuta boyliklari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar valutani tartibga solish obyekti bo'lib hisoblanadi. Chet el valutasi, chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valuta boyliklari hisoblanadi. Amaldagi qonunga muvofiq valuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga hamda kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalariga bo'linadi.

Joriy xalqaro operatsiyalarga quyidagilar kiradi: tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatilishi

<sup>14</sup> УзРМБ "Валутани тартибга solish tутрассидаги кунунги 04.12.2003 й. УзРМБ ишад чет эн валутасига оид операцийаларни amalga oshirish konzessiya. УзР АВ 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатга олинган.

munosabati bilan, mollarni eksport va import qilish, valuta boyliklarining oldi-sotdisi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, intellektual mulkka bo'lgan huquqni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq hisob-kitoblari to'lov muddatini kechiktirmaslik sharti bilan amalga oshiniladigan, zayom mablag'lari berilishi yoki jalb etilishini nazarda tutmaydigan operatsiyalar; bank omonatlari, kreditlari, investitsiyalar va boshqa moliya operatsiyalaridan foizlar, dividendlar hamda o'zga daromadlarni xorijga va xorijdan o'tkazish; savdo bilan bog'liq bo'limgan mablag'larni, shu jumladan, ish haqi, pensiya, aliment, meros pullarni o'tkazish, shuningdek, shunga o'xhash boshqa operatsiyalar kiradi. Joriy xalqaro operatsiyalar va chet el valutasini ular bilan bog'liq holda sotib olish yoki sotish cheklolvlsiz amalga oshiriladi.

Kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalariga joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar, shu jumladan: investitsiya faoliyatini amalga oshirish; kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish; ko'chmas mulknii sotib olish va sotish; xorijiy davlatlardan mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga jalb etish hamda xorijiy davlatlarda mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bir yildan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklariga bank iltimoslariga asosan chet el valutasidagi operatsiyalarini amalga oshirish uchun bu operatsiyalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va bankning ularni amalga oshirishga tavyorlik darajasiga qarab litsenziyalar beradi. Litsenziyalar xorijiy kapital ishtirokidagi banklar va chet el banklarining filiallarga belgilangan muddatdan ilgari, xususiy tijorat banklari uchun esa olti oy to'lishi bilan berilishi mumkin.

Litsenziyalar Bosh litsenziya ichki litsenziya va bir marta foydalananidigan litsenziyalarga bo'linadi. Bosh litsenziya tijorat banklarga O'zbekiston Respublikasi hududida chet elda chet el valutasidagi operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan huquq hisoblanadi. Ichki litsenziya tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valutasidagi operatsiyalarini to'la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan huquqdir. Bir marta foydalananidigan litsenziya chet el valutasida muayyan bank operatsiyasini amalga oshirish huquqini beradi.

Tijorat banklari tomonidan litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilgan iltimosnomasi zarur

hujjalarni topshirilgandan so'ng 30 kun mobaynida ko'rib chiqilishi lozim. Chet el valutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishiga berilgan litsenziya uchun Banklardan so'mda 5000 AQSH dollariga teng miqdorda haq olinadi. Chet el valutasidagi operatsiyalar o'tkazish uchun Bosh yoki ichki litsenziya olgan banklar vakolatli banklar deb ataladi va o'z mijozlarining valuta operatsiyalarini nazorat qiluvchi vakil (agent) vazifasini bajaradi.

Vakolatli banklar O'zbekiston Respublikasi hududida ochiq valuta mavqeい limiti doirasida chet el valutasini sotib olish va sotish bo'yicha shu jumladan xosila moliyaviy vositalar asosida chet el valutasini sotib olish va sotish bo'yicha bevosita o'zaro, o'z mijozlari bilan hamda valuta birjalari orqali, shuningdek, xalqaro bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirishlari. O'zbekiston Respublikasining banklarida va chet el banklarida vakillik hisobvaraqlariga hamda boshqa hisobvaraqlarga ega bo'lishlari. naqd chet el valutasini hamda chet el valutasidagi to'lov hujjalarni jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish operatsiyalarini amalga oshirish uchun ayrboshlash shoxobchalarini ochishlari mumkin.

## **9.2. Valuta operatsiyalarining turlari va ularning hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**

Valuta operatsiyalari bu valuta boyliklariga nisbatan egalik huquqining o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda chet el valutasidan to'lov vositasi sifatida foydalanish, valuta boyliklarini xorijdan olib kirish va jo'natish hamda xorijga olib chiqish va jo'natish, shuningdek, xalqaro ko'lalma pul o'tkazish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalar tushiniladi. Amaldagi qonun<sup>15</sup>ga muvofiq valuta operatsiyalari 2 turga bo'linadi:

- joriy xalqaro operatsiyalar;
- kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalar.

Joriy xalqaro operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan, mollarni eksport va import

<sup>15</sup> ЎзР «Валутаси тартибга solmali tўrtmisdanligi Конунаси. 1993 йил 7 май. Манзур Конунасигига ишги таҳдири ЎзР 11.12.2003 й. 556-П-сон Конунаси билан тасдиқланган. ЎзР ОМ 11.12.2003 й. 557-П-сон Кирори билан амалга киритилган.

qilish. valuta boyliklarining oldi-sotdisi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish. intellektual mulkka bo'lgan huquqni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq. hisob-kitoblari to'lov muddatini kechiktirmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan. zayom mablag'lari berilishi yoki jalb etilishini nazarda tutmaydigan operatsiyalar;

bank omonatlari. kreditlari. investitsiyalar va boshqa moliya operatsiyalaridan foizlar. dividendlar hamda o'zga daromadlarni xorijga va xorijdan o'tkazish;

- savdo bilan bog'liq bo'lмаган mablag'larni. shu jumladan ish haqi. pensiya. aliment. meros pullarni o'tkazish. shuningdek. shunga o'xhash boshqa operatsiyalar kiradi.

Joriy xalqaro operatsiyalar va chet el valutasini ular bilan bog'liq holda sotib olish yoki sotish cheklolvlsiz amalga oshiriladi<sup>16</sup>

Kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalariga:

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- kreditlar olish va berish;
- lizing operatsiyalarini amalga oshirish;
- ko'chmas mulkni sotib olish va sotish;
- xorijiy davlatlardan mablag'larni schetlar va omonatlarga jalb etish gamda xorijiy davlatlarda mablag'larni schetlar va omonatlarga joylashtirish kiradi.

Valuta operatsiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- «spot» bitimi – bu hisob-kitoblar shartnoma tuzilgandan keyin ikki ish kuni davomida. bitim tuzilgan sanada belgilangan kurs bo'yicha oshiriladigan bitimdir;

- «fordard» bitimi – bu shartnoma bo'yicha hisob-kitob ikki kundan keyin ma'lum muddat ichida. u tuzilgan sanada belgilangan kurs bo'yicha amalga oshiriladigan bitimdir;

- «svop» bitimi – bu ikki tomonlarma davriy to'lovlar majburiyatini amalga oshirishga asoslangan kelishuv bo'lib. «spot» va «fordard» bitimlari kombinatsiyasini tashkil qiladi;

- «option» bitimi – bu ma'lum miqdordagi chet el valutalarini muayyan vaqt davomida yoki ma'lum bir sanagacha belgilangan narx bo'yicha sotib olish («option-koll») yoki sotish («option-put») huquqini beruvchi bitimdir.

<sup>16</sup> УзР МБ 2002 йил 21 февралги 50%-сийос «Азиянинг ишлабчилик түргасини шаккаш» имтихонидан. Виджит операторларга ишлабчилик худохонадор туттаниш. Т. «Узбекистон». 2004

«Options» bitimi bo'yicha berilgan huquq ishlatalishi yoki ishlatalmasligidan qat'iy nazar, sotib oluvchi «options»ni sotuvchiga mukofot to'laydi.

Chet el valutasidagi bank operatsiyalari murakkabligi va tavakkalchiligining ortib borishi darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- mijozlarning chet el valutasidagi hisobraqamlarini yuritish;
- chet el valutasidagi nosavdo operatsiyalar;

chet el banklari bilan xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalari:

- tovar va xizmatlarni eksport-import qilish bilan bog'liq xalqaro hisob-kitob operatsiyalari;

ichki valuta bozorida chet el valutasini sotib olish va sotish operatsiyalari, jumladan chet el valutasidagi kassa operatsiyalari;

O'zbekiston hududiga valuta mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirishga doir ssuda va depozit operatsiyalari;

- xalqaro pul bozorlaridagi kredit operatsiyalari;

xalqaro pul bozorlarida valuta (depozit va konversion) operatsiyalari.

O'zbekiston Respublikasi banklari buxgalteriya hisobining amaldagi tizimi ko'p valutali tizimga asoslangan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi bankning valuta pozitsiyasi (mavqeい) ustidan boshqaruv va nazorat o'matishdir.

Ko'p valutalik tizimning asosiy tarmoyillari quyidagilar:

- banklarda mavjud har bir valuta turi (so'mlar, AQSh dolları, evro, Yaponiya ienasi va shu kabilar) bo'yicha dasturiy tarzda alohida Bosh kitob (BK) yuritaladi, ya'ni bank oborotida valutalarining nechta turlari bo'lsa shuncha Bosh kitoblar yuritiladi. Har bir BKda bank operatsiyalari hisobining to'liq yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda balans hisobvaraqlari ochiladi. Har bir balans hisobvarag'ida analitik hisobni tashkil qilish uchun esa, o'z navbatida, operatsiyalar turlari va boshqa belgilari bo'yicha kerakli miqdordagi yordamchi kitoblar ochiladi:

- har bir valuta turi bo'yicha ikkita hisobvaraq yuritiladi:
- 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvaraqlari»;
- 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvaraqlarining so'mdagi ekvivalenti».

Valuta pozitsiyasi hisobvaraqlari bankning chet el valutasidagi aktivlari yoki majburiyatlar bo'lib hisoblanmaydi, balki bankning aktivlari va majburiyatlar o'rasisidagi farqni aks ettiruvchi nazorat hisobvaraqlaridir.

Pozitsiya hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya yozuvlari faqat valuta ayirboshlash operatsiyalarida chet el valutasida olingan daromad va xarajatlarni so'm ko'rinishida konvertatsiyalashda, chet el valutasiga asosiy vositalar sotib oldinganda va ayirboshlash operatsiyalarida amalga oshiriladi;

- operatsion kum oxirida valuta pozitsiyasining so'mdagi ekvivalenti hisobvaraqlari valutadagi pozitsiya hisobvaraqlari bilan taqqoslanadi, aniqlangan farq esa shu davrdagi bank daromadlari va xarajatlari bo'lib hisoblanadi;

bankning asosiy vositalari, daromadlari va harajatlarining hisobi faqat milliy valutada yuritiladi;

valuta kross-operatsiyasi ikkita valutani o'z ichiga oladi va buxgalteriyada quyidagi tartibda aks ettirilishi lozim:

a) ikki xil valutani o'z ichiga oladigan operatsiyalar ushbu valutalardagi har bir bosh kitobda valuta pozitsiyasining tegishli hisobvaraqlariga aloqador bo'lgan buxgalteriya yozuvlari yordamida balanslanadi;

b) chet el valutasi va so'mda amalga oshirilgan operatsiyalar chet el valutasidagi bosh kitobda va so'mdagi bosh kitobda qayd etiladi;

v) ikki turdag'i chet el valutalarida amalga oshirilgan operatsiyalar ushbu ikki valutaga tegishli bosh kitoblarga qayd etiladi.

Chet el valutasida qayd etilgan aktiv va passiv hisobvaraqlar qoldiqlarini qayta baholash valuta kursi o'zgarishidan ko'nigan foyda yoki zararlarni aniqlash va moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlarida har bir oyning oxirgi ish kunida, shuningdek, jamlama balans hisobotini olish maqsadida oyning istalgan kunida o'tkaziladi. Har ikki holda ham bir xil qayta baholash qoidalari qo'llaniladi.

Buning uchun chet el valutalari bo'yicha barcha Bosh kitoblardagi hamma hisobvaraqlarning qoldiqlari Markaziy bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha quyidagi tartibda so'mga aylantiriladi:

a) bankning chet el valutasidagi aktiv va passivlari (quyidagi bandda ko'satilgan aktivlar va passivlardan tashqari) balans tuzish sanasida shu sanadagi Spot kursi asosida qayta baholanadi;

b) Ustav kapitali oldingi (dastlabki) qiymati bo'yicha, ya'ni Ustav kapitaliga mablag'lar kiritilayotgan kundagi Spot kursi bo'yicha qayta baholanadi. Agarda Ustav kapitali bir necha marta to'ldirilgan bolsa, unda qayta baholash maqsadida har bir hol uchun to'ldirilgan kundagi summa va Spot kursiga alohida yangi shaxsiy hisobvaraq ochiladi.

Qayta baholash har kuni buxgalteriya yozuvlarisiz dasturiy tarzda faqatgina jamlama balans hisobotini tuzish uchun o'tkaziladi. Qayta baholangan aktiv va passivlarning ikkita yakuniy summalarini o'rtaсидаги farq valuta bo'yicha kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi qoldig'ini o'zida aks ettiradi.

Har oyning oxirida moliyaviy hisobotda qayd etish uchun qayta baholash natijasida ko'rilgan foyda va zararlar aniqlanadi. Qayta baholash natijasida ko'rilgan foyda va zararlarni aniqlash tartibi quyidagicha:

a) alohida valutalarning Bosh kitoblari ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda balans tuzish sanasidagi har bir valuta bo'yicha aktiv va passivlarning barcha qoldiqlari jamlanadi. Aktiv va passivlar yakuniy summalarini o'rtaсидаги farq ushbu Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag' i qoldig'iga tenglashtirilishi lozim;

b) chet el valutasida qayd etilgan aktiv va passivlar tegishli ravishda yuqorida begilangan kurslar asosida so'mga aylantiriladi;

v) qayta baholangan aktiv va passivlarning ikkita yakuniy summalarini orasidagi farq valuta bo'yicha kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi qoldig'ini o'zida aks ettiradi.

Bu yangi qoldiq so'm bo'yicha kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining tegishli qoldig' i bilan taqqoslanadi. Olingan farq qayta baholashdan keyingi foyda yoki zararni tashkil etadi va mos ravishda quyidagi buxgalteriya yozushi asosida aks ettiriladi:

Dt 17101- «Valuta pozitsiyasi» hisobvaraqlari.

Kt 45401- «Spot» bitimi bo'yicha xorijiy valutalardagi foyda».

Yoki,

Dt 55302- «Spot» bitimlari bo'yicha xorijiy valutalarda ko'rilgan zararlar».

Kt 17101- «Valuta pozitsiyasi» hisobvaraqlari.

Bunda so'm bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag' i chet el valutasi bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi qoldig'iga mos kelgunga qadar doimiy ravishda tartibga solinib turiladi. Debet yoki kredit buxgalteriya yozuviga

muvofig bunday tartibga solinish natijasida qayta baholashdan olingan foyda yoki zarar aniqlanadi. Ustav kapitalining valuta qismiga teng valutadagi aktivlarni qayta baholash natijasida bo'lgan farq so'm bo'yicha kitobda 30906 -«Devalvatsiya uchun zaxira» balans hisobvarag'ida aks ettililadi va qayta soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladi.

Qayta baholashdan so'ng quyidagi hollarda foyda olinadi:

- agar chet el valutasi bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi kredit qoldig'i so'm bo'yicha valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining korrespondent debet qoldig'idan ortiq bo'lsa;

- agar chet el valutasi bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi debet qoldig'i so'm bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining korrespondentsiyalanuvchi kredit qoldig'idan kam bo'lsa.

Qayta baholashdan so'ng quyidagi hollarda zarar ko'rildi:

- agar chet el valutasi bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi kredit qoldig'i so'm bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining korrespondentsiyalanuvchi debet qoldig'idan kam bo'lsa;

- agar chet el valutasi bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining yangi debet qoldig'i so'm bo'yicha Bosh kitobdag'i valuta pozitsiyasi hisobvarag'ining korrespondentsiyalanuvchi kredit qoldig'idan ortiq bo'lsa.

Asosiy vositalar va boshqa moddiy boyliklar (xo'jalik inventari, materiallar, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va boshqalar) ko'rinishidagi aktivlar shuningdek, valuta mablag'lari hisobiga shakllangan nomoddiy aktivlar operatsiya amalga oshirilgan kundagi Spot kursi bo'yicha qayta baholanadi va so'mning joriy kursi chet el valutasiga nisbatan o'zgarishi tufayli o'tkaziladigan keyingi qayta baholashlar unga tegishli bo'lmaydi. chunki valuta pozitsiyasi darhol mablag' mol yetkazib beruvchiga o'tkazish vaqtida yopiladi.

### **Mijozlarga chet el valutasidagi hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi**

Mijozlar tomonidan joriy valutada talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarini va ikkilamchi talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma muddatli va boshqa depozit

hisobvaraqlarning chet el valutasilardagi turlarini ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan: chet el valutasida hisobvaraq ochish uchun ariza; davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi; imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan varaqcha.

tadbirkorlik subyektlari bo'limgan rezident yuridik shaxslar, jumladan budjet tashkilotlari tomonidan: chet el valutasida hisobvaraq ochish uchun ariza; soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi; imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan varaqcha.

Norezidentlar (jismoniy shaxslar kirmaydi) tomonidan: - chet el valutasida hisobvaraq ochish uchun ariza; - soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi; tegishli shakldagi imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan varaqcha.

Rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan: tegishli shakldagi hisobvaraq ochish uchun ariza; - shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi (pasport va unga tenglashtirilgen hujjatlar).

Ushbu bankda mijoz tomonidan ilgari ochilgan hisobvaraq mavjud bo'lsa, faqat hisobvaraq ochish uchun ariza taqdim etiladi. Mijozlarning chet el valutasidagi hisobraqamlarini yuritish nisbatan oddiy, ya'ni so'mda hisobvaraq yuritishdan katta farq qilmaydi. Mijozlarga chet el valutasidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari bilan birga tranzit hisobvaraqlari ham ochiladi. Valuta hisobvaraqlaridan to'lovlar vakolati banklar tomonidan hisobvaraqlardagi mablag'ning goldig'i doirasida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilman valuta tushumini majburiy sotish tushum korxonaning tranzit valuta hisob raqamiga tushgan sanadan boshlab 5 bank kunidan kechikmay, markazlashtirilgan eksport bo'yicha esa 3 bank kunidan kechikmay amalga oshiriladi. Bunda 500 AQSh dollariga teng bo'lgan miqdordan oshmaydigan chet el valutasidagi tushumdan majburiy sotishni har o'n kunda amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Oldindan to'langan to'lov (avanslar) korxonalarining tranzit valuta hisob raqamiga tushganda ushbu mablag'lar eksport qiluvchilarning buyurtmanomalari bo'yicha keyinchalik eksport haqiqatda amalga oshirilgandan keyin majburiy sotilgan holda valuta hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin.

Sotilgan chet el valutasining so'mdagi teng qiymati majburiy sotish amalga oshirilgan sanadan boshlab bir kundan kechikmay korxonalarining hisobvaraqlariga o'tkaziladi. Valuta tushumini majburiy sotish uchun korxonalar o'zining valuta hisobvaraqlari ochilgan vakolatli banklarga chet el valutasidagi mablag'larni o'tkazishga topshiriqni taqdim etadilar. Mablag' tushgandan keyin korxonalar belgilangan muddatda majburiy sotishni amalga oshirish uchun topshiriqni taqdim etmagan hollarda vakolatli banklar valuta mablag'larini mustaqil sotish huquqiga ega bo'ladilar

Tovarlar va xizmatlarni markazlashtirilmagan eksport bo'yicha sotishdan olingan chet el valutasidagi tushumning 50 foizi, markazlashtirilgan eksport bo'yicha sotishdan olingan chet el valutasidagi tushumning 100 foizi vakolatli banklarga majburiy sotilishi kerak. Mijozlarning hisobvaraqlariga tovarlar va xizmatlarni markazlashtirilmagan eksport bo'yicha sotishdan olingan chet el valutasidagi tushum kelib tushganda quyidagi buxgalteriya yozuvni beriladi: Valutadagi bosh kitoba:

Dt 10501- «Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari- Ностро»,

Kt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar»- eksportchi korxonaning valutadagi tranzit hisobvarag'i.

Mijozlarning chet el valutasidagi eksport tushumlaridan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda 50 foizi majburiy sotilgandan so'ng valuta mablag'larining qolgan qismi ularning joriy valuta hisobvarag'iga o'tkaziladi. Valutadagi bosh kitobda:

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» eksportchi korxonaning valutadagi tranzit hisobvarag'i -eksport tushumining 100 foiz summasi,

Kt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» eksportchi korxonaning joriy valutadagi hisobvarag'i -eksport tushumining 50 foiz summasi,

Kt 17101- «Valuta pozitsiyasi» hisobvaraqlari – majburiy sotish uchun ajratilgan eksport tushumining 50 foiz summasi.

So'mdag'i bosh kitobda:

Dt 17101-«Valuta pozitsiyasi» hisobvaraqlari,

Kt -Eksportchi korxonaning so'mdag'i hisobvarag'i – majburiy sotishdan kelib tushgan summasi.

Vakolatli banklar tomonidan valuta tushumining bir qismi korxonalar tomonidan majburiy sotilishi tartibida sotub olingan chet el

valutasidagi mablag'lar belgilangan tartibda birjadan tashqari valuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniлади.

Markaziy bank tomonidan korxonalar tomonidan chet el valutasidagi tushumning majburiy sotilishi tartibida sotib olingan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta zaxiralariга o'tkaziladi. uning balansida hisobga olinadi va O'zbekiston Respublika valuta birjasida sotish yo'li bilan mulliy valutani barqarorlashtirish tadbirlariga sarflanadi. Vakolatli banklar tomonidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan eksport bo'yicha valuta tushumini o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish va majburiy sotishni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

#### **9.4. Xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalar hisobi**

Tovar va xizmatlarni eksport-import qilish bilan bog'liq xalqaro hisob-kitob operatsiyalarda hisob-kitob shakli eksportchilar va importchilar tomonidan shartnoma tuzish vaqtida belgilanadi.

Hozirda quyidagi xalqaro hisob-kitob shakkari qo'llanilmogda: inkasso, ak kreditiv, bank o'tkazmalari (o'tkazma topshiriqnomalari)<sup>17</sup>


Inkasso – bu eksportchinining o'z bankiga importchidan ma'lum miqdordagi summani olishni yoki ushbu mablag'larni belgilangan muddatda to'lab berilishi haqida tasdiq (aksept)ni olish to'g'risidagi topshiring'idir.

Xalqaro amaliyotda inkasso quyidagi turlarga bo'linadi: sof inkasso va hujjatli inkasso.

Sof inkasso – bu pul majburiyatları (masalan cheklar va veksellar) bo'yicha mijozga tegishli bo'lgan mablag'larni olishdir.

Hujjatli inkasso – bu mijozga tegishli bo'lgan mablag'larni tijorat hujjatlari (tovarlar yetkazib berilganligi, ish va xizmatlar bajarilganligini tasdiqlovchi transport, sug'urta hujjatlari va boshqalar) bo'yicha olishdir<sup>18</sup>. Quyidagi chizmada eksport operatsiyalari bo'yicha oldindan akseptlab to'lanadigan hujjatli inkasso bilan hisob-kitoblar tartibi keltirilgan:

<sup>17</sup> 9-yil Markaziy bankning 2002 йил 21 fevralidagi 505-soni «Almazitpaiko shohobchasi turga misliyoti yozuvchi» (язувчи тартиби) Baxiyoti operatsiyalari ocha mijozlari hujjatlari tuzilmasi T. «Uzbekiston», 2004. йил чет эндиштаси миссонидаги АКПД доимийларни фойдаланадиган.



### **3-chizma Eksport operatsiyalari bo'yicha oldindan akseptlab to'lanadigan hujjatlil inkasso bilan hisob-kitoblar bo'yicha hujjatlar aylanishi**

Bu erda,

1. Tovarlar yetkazib beriladi;
2. Inkasso bankka taqdim etiladi;
3. Inkasso chet el bankiga jo'natiladi;
4. Importchi korxonaga to'lov hujjatlari kelib tushganligi haqida xabar bariladi;
5. Inkasso importchi tomonidan akseptlanadi;
6. Chet el banki tomonidan mablag'lar eksportchining banki vakillik hisobvarag'iga kirim qilinadi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt Importchining scheti (20208 840)

Kt Vakolatli bankning chet el bankidagi vakillik hisobvarag'i.

- 7 Vakolatli bank mablag'lami mijozи – eksportchi korxonaning valutadagi tranzit hisobvarag'iga kirim qiladi:

Valutadagi bosh kitobda:

Dt Vakolatli bankning chet el bankidagi vakillik hisobvarag'i

- Kt eksportchi korxonaning valutadagi tranzit hisobvarag'i (20208 840)

Mijozlarning chet el valutasidagi eksport tushumlaridan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda 50 foizi majburiy sotilgandan so'ng valuta mablag'larining qolgan ulaming joriy valuta hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Valutadagi bosh kitobda:

- Dt eksportchi korxonaning valutadagi tranzit hisobvarag'i (20208 840) –eksport tushumining 100 foiz summasiga,

Kt eksportchi korxonaning joriy valutadagi hisobvarag'i (20208 840) — eksport tushumining 50 foiz summasiga.

Kt 17101- «Valuta pozitsiyasi hisobvarag'i» — majburiy sotish uchun ajratilgan eksport tushumining 50 foiz summasiga.

So'mdagi bosh kitobda:

Dt - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag'i so'mdagi ekvivalenti»

Kt eksportchi korxonaning so'mdagi hisobvarag'i (20208 000) — majburiy sotishdan kelib tushgan summaga.


Akkreditiv — bankning tovarlarni yoki xizmatlarni sotuvchiga muayyan pul summasini tovar jo'natilganligi yoki shartnomadagi xizmatlar bajarilganligini tasdiqlaydigan tegishli hujjatlar o'z vaqtida taqdim etilgan hollarda to'lash haqidagi qat'iy majburiyatidir.

To'loving bajarilishini ta'minlash darajasiga qarab akkreditivlar 2 bo'linadi..

- qaytarib olinadigan;
- qaytarib olinmaydigan akkreditivlar.

Xalqaro banklar amaliyotida hujjatli akkreditivlarning quyidagi turlari mavjud:

- tasdiqlangan akkreditiv;
- tasdiqlanmagan akkreditiv;
- akseptli akkreditiv;
- to'lov muddati kechiktirilgan akkreditiv;
- muddatli akkreditiv;
- bo'nak to'lanadigan akkreditiv;
- revolver akkreditivlar.



4-chizma. Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha hujjatlar aylanishi tartibi

**Bu erda,**

1. Eksportchi va importchi o'rtaida akkreditiv shartnomasi tuziladi;
2. Eksportchining foydasiga akkreditiv hisobvarag'ini ochish to'g'risida ariza beradi;

3. Bank-emitent akkreditivni xat orqali yoki telekommunikatsiya vositalari orqali sotuvchi turgan mamlakatdagi banka topshuriqnomaga bilan yoki akkreditivni tasdiqlashga vakolat bensh bilan jo'natadi:

Dt 20208-Mijozning (importchi) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yoki kredit hisobvarag'i (13101 840).

Kt 10501-Vakolatli bankning chet el bankida ochilgan vakillik hisobvarag'i;

4. Bank-benefitsiar akkreditiv schetini ochib, bu haqda sotuvchiga xabar beradi:

Dt 10501 - Chet el bankining vakillik hisobvarag'i,

Kt 22602 - «Akkreditivlar» balans hisobvarag'i.

5. Sotuvchi tovarlarni jo'natadi;

6. Akkreditiv shartnomasiga muvofiq tovarlar jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjalarni taqdim etadi;

7. Chet el banki mablag'larni sotuvchining hisobvarag'iga kirish qiladi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 22602 - «Akkreditivlar» balans hisobvarag'i.

Kt 20208 Eksportchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i.

8. Akkreditiv muddati tugagandan keyin yoki amaldagi qonunchilik bo'yicha boshqa hollarda ishlatilmagan summa sotib oluvchining bankiga qaytariladi:

Dt 22602 - «Akkreditivlar» balans hisobvarag'i.

Kt 10501 - Chet el bankining vakillik hisobvarag'i.

9. Bank-emitent kelib tushgan mablag'larni mijozining hisobvarag'i ga kirish qiladi:

Dt 10501-Vakolatli bankning chet el bankida ochilgan vakillik hisobvarag'i

Kt 20208-Mijozning (importchi) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yoki kredit hisobvarag'i (13101);

## **9.5. Naqd schet el valutalariga oid operatsiyalarni amalga oshirish va hisobga olish**

Vakolatli banklar bo‘linmalari Almashuv punktlari orqali rezidentlar va norezidentlar bo‘lmish jismoniy shaxslardan chet el valutasining sotib olinishini amalga oshiradilar. Bank bo‘linmalari ish boshlaguniga qadar Almashuv punktlarining<sup>19</sup> kassirlarini qat’iy hisobot blanklari va kun davomida punktning faoliyat yuritishi uchun yetarli bo‘lgan miqdordagi so‘mlar va chet el valutasidagi bo‘nak bilan ta‘minlaydilar. Bo‘nakning berilishi va naqd chet el valutasi va chet el valutasidagi to‘lov hujjatlarining xarid qilinishi chog‘ida quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

1. So‘mlardagi naqd pullar summasining Almashuv punkti xodimiga hisobot uchun berish:

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo‘yicha,

Dt 10103- «Pul almashadirish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot topshiruvchi shaxsning shaxsiy hisobvarag‘i bo‘yicha)»

Kt 10101- «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag‘i.

2. Almashuv punkti tomonidan sotib olingan naqd chet el valutasi summasiga:

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo‘yicha,

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag‘i,

Kt 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag‘i ».

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo‘yicha,

Dt 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag‘i »

Kt 10103- «Pul almashadirish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot topshiruvchi shaxsning shaxsiy hisobvarag‘i bo‘yicha)».

3. Naqd pullar qoldig‘ining bank kassasiga kirim qilinishi:

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo‘yicha,

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag‘i,

Kt 10103- «Pul almashadirish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot topshiruvchi shaxsning shaxsiy hisobvarag‘i bo‘yicha)».

Vakolatli banklarning bo‘linmalari rezident jismoniy shaxslarga chet el valutasini sotishni Almashuv punktlari orqali amalga oshiradilar. Naqd chet el valutasini sotishga oid operatsiyalarning amalga oshirilishi chog‘ida quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

<sup>19</sup> ЎзР Марказий банкининг 2002 йил 21 февралдаги 505-сонни «Алмаштириш шохобчаси тўғрисидаги низоми» (хинти таҳтири). Валюта операцияларига oid месъёроти хужжатлар тўплами. Т.. «Ўзбекистон», 2004.

**1. Almashuv punktuning xodimiga naqd chet el valutasining hisobot uchun berilishi:**

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha.

Dt 10103-«Pul almashturish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot taqdim etuvchi shaxsnинг shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha)».

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

**2. Sotilgan chet el valutasi summasiga:**

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,

Dt 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag'i ».

Kt 10103 -«Pul almashturish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot taqdim etuvchi shaxsnинг shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha)».

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha.

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 17101 Valuta pozitsiyasi hisobvaraqlari - «Spot shartlarida valutaning oldi-sotdi hisobvarag'i ».

**3. Chet el valutasing qoldig'i bank kassasiga kirim qilinadi:**

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 10103- «Pul almashturish shoxobchalaridagi naqd pullar (hisobot taqdim etuvchi shaxsnинг shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha)».

**4. Undiriladigan komission taqdirlash summasiga:**

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo'yicha.

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 45409 - «Valuta transaksivalari bo'yicha marja» hisobvarag'i.

**5. Sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi ijobiy kursdagi farq summasiga, ya'ni daromad summasiga:**

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo'yicha,

Dt 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag'i »

Kt 45401 «Spot» bitimi bo'yicha xonijiy valutalardagi foyda hisobvarag'i.

**6. Markaziy bank kursi bilan sotish kursi o'rtasidagi ijobiy kursdagi farq summasiga nisbatan:**

faqat Bosh daftarda milliy valuta bo'yicha,

Dt 17101 - «Valuta pozitsiyasi hisobvarag'i »

Kt 45401 - «Spot» bitimi bo'yicha xonijiy valutalardagi foyda hisobvarag'i.

**7. Markaziy bank kursi bilan sotish kursi o'rtasidagi manfiy kursdagi farq summasiga:**

**faqat Bosh daftarda milliy valuta bo'yicha,**

**Dt 55302 - «Spot» bitimlari bo'yicha xorijiy valutalarda ko'rilgan zararlar hisobvarag'i,**

**Kt 17101 «Spot shartlari bo'yicha valutaning oldi va sotdi hisobvarag'i ».**

**Inkassoga qabul qilingan qimmatliklar uchun qoplash mablag'laring olinishi to'g'risida vakolatlari bank o'z vaqtida arizada ko'rsatilgan manzil bo'yicha mijozga yozma xabarnomani jo'natadi.**

**Buxgalteriya rasmiylashtirishi quyidagi provodkalar yordamida vakolatlari banklarning bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi:**

**1. To'lovga noqobil pul belgilari va to'lov hujjatlarining inkassoga qabul qilinishi:**

**faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,**

**Dt 90972 «Inkassoga qabul qilingan xorijiy (ichki) veksellar» hisobvarag'i,**

**Kt 96323 - «Inkassoga qabul qilingan xorijiy (ichki) veksellar bo'yicha kontr-hisobvarag'i ».**

**2. Xorijiy korrespondent bankka inkassoga yo'llanma:**

**faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,**

**Dt 90986 - «Inkassoga jo'natilgan xorijiy veksellar» hisobvarag'i.**

**Kt 96330 -«Inkassoga jo'natilgan (tashqi) veksellar bo'yicha kontr-hisobvarag'i».**

**3. Bir vaqtning o'zida alohida shaxsiy hisobvaraqlarda favqulodda vaziyatlar hisobvarag'ining kirimi bo'yicha yozuv quyidagi tarzda rasmiylashtiriladi:**

**Dt 96323 «Inkassoga qabul qilingan xorijiy (ichki) veksellar bo'yicha kontr-hisobvarag'i,**

**Kt 90972 «Inkassoga qabul qilingan xorijiy (ichki) veksellar» hisobvarag'i.**

**4. Inkassoga jo'natilgan hujjatlar uchun qoplashning olinishi chog'ida:**

**faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,**

**Dt 10101-«Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning korrespondentlik hisobvarag'i,**

**Kt 29801 - «To'lov uchun hisobvarag'i - mijozlar bilan hisob-kitoblar yoki mijozning depozit hisobvarag'i»**

**5. Bir vaqtning o'zida favqulodda vaziyatlar hisobvarag'i xarajatlari bo'yicha quyidagi tarzdagi yozuv rasmiylashtiriladi:**

Dt 96330 - «Inkassoga jo'natilgan (tashqi) veksellar bo'yicha kontr-hisobvarag'i»,

Kt 90986 - «Inkassoga jo'natilgan xorijiy veksellar» hisobvarag'i.

6. Xorijiy korrespondent bank tomonidan to'lanmagan hujjatlarning qaytarilishi:

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bbyicha,

Dt 96330 - «Inkassoga jo'natilgan (tashqi) veksellar bo'yicha kontr-hisobvarag'i»,

Kt 90986 - «Inkassoga jo'natilgan xorijiy veksellar» hisobvarag'i.

Ularning haqiqiyligi shubha tug'diruvchi yoki yaqqol qalbakilashtirish belgilanga ega chet el davlatlarining pul belgilari, chet el valutasidagi to'lov hujjatlari taqdim etuvchiga qaytarib berilmaydi va bank bo'linmasining cassiri tomonidan olib qo'yilishi kerak. Bir vaqtning o'zida mijozga uning 09005-son shakl bo'yicha haqiqiy ekanligiga shubha tug'diruvchi pul biletini (to'lov hujjati)ning ekspertizaga qabul qilib olinishi to'g'risida kvitantsiya beriladi. Kvitanziyaning birinchi nusxasi mijozga beriladi, ikkinchi nusxasi esa kundalik hujjatlarga qo'shib tikib qo'yiladi.

Eksperuzaga qabul qilingan pul belgilari (to'lov hujjatlari) 93609-«Saqlash uchun qimmatliklar» favqulodda vaziyatlar hisobvarag'inining alohida shaxsiy hisobvarag'iда hisobga olinadi.

Bank bo'linmalan ham o'zining, ham boshqa (shu jumladan, xorijiy va xalqaro) banklar, tashkilotlar, uyushmalar va to'lov tizimlari jamiyatani tomonidan emissiyalangan, rezident va norezident jismoniy shaxslarning debet va kredit kartochkalari bo'yicha naqd chet el valutasining berilishi va qabul qilib olinishiga oid operatsiyalarni amalga oshiradilar. Mazkur vakolati bank tomonidan emissiyalangan debet va kredit kartochkalanga oid schedarga turim qilinishi uchun rezident va norezident jismoniy shaxslardan naqd chet el valutasining qabul qilib olinishi mijozning arizasi bo'yicha uning talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'iga asosan amalga oshuniladi. Keyinchalik debet va kredit kartochkalanga turim qilinadi. Operatsiyalar quyidagi provodkalar asosida rasmiylashuniladi:

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha.

Dt 10101 - «Aylamma cassadagi naqd pullari» hisobvarag'i.

Kt 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i».

Dt 20206-«Jismoniy shaxslarning talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i».

Kt 20206-«Jismoniy shaxslarning talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i» (kartochkaning egasi hisobvarag'i bo'yicha).

Vakolatli banklar debet va kredit kartochkalari bo'yicha hisobvaraqlardan mablag'larning berilishini mijozning arizasiga asosan chet el valutasidagi to'lov hujjatlari asosida amalga oshirishlari mumkin. Bir vaqtning o'zida mijozning iltimosi bo'yicha 09006-sod sh. Bo'yicha (3-sod ilova) xorija naqd chet el valutasining olib chiqib ketilishiga ruxsatnomha ham berilishi mumkin.

Vakolatli banklar naqd chet el valutasini yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisobvarag'iga qabul qilib olishni amalga oshiradilar.

Naqd valutaning kassaga qabul qilinishi:

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,

Dt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt - «Mijozlarning tegishli depozit hisobvarag'i».

Banklar yuridik shaxslarga xizmat safarlariga oid xarajatlarga doir naqd chet el valutasining berilishini, ularning arizalariga va amaldagi qonunchilikka<sup>20</sup> binoan tasdiqllovchi hujjatlari asosida amalga oshiradilar.

Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha.

Dt - «Mijozlarning tegishli depozit hisobvarag'i».

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Vakolatli banklar naqd chet el valutasini qonunchilikda va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining meyoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun ham berilishini amalga oshirishlari mumkin. Mijozning iltimosiga ko'ra naqd chet el valutasining chegaradan tashqariga olib chiqib ketilishi uchun ruxsatnomha beriladi.

Rezident jismoniy shaxslarning schetlaridan mablag'lar ularning arizalariga binoan naqd chet el valutasi ko'rinishida belgilangan tarubda ariza taqdim etilgan kundan keyin keluvchi kundan kechiktirmasdan (chet el valutasidagi to'lov hujjatlari asosida) to'lanishi mumkin.

Operatsiya quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:  
faqat Bosh daftarda AQSh dollari bo'yicha,

<sup>20</sup> «Buxgalteriyar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning xodimlari uchun YAP tashrifdagi xizmat safarlariga xizmat qo'shilishiga haqida» 2010-yil 5 noyabr 932-sod bilan yuborilgan o'sezgasi.

Dt - «Mijozlarning tegishli depozit hisobvarag'i»,

Kt 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Hisobvaraqdan mablag'lar ular egalarining xohishlariga ko'ra «VISA» xalqaro plastik kartochkalari, yo'l cheklari bilan berilishi yoki naqdsiz tartibda chegaradan tashqariga hisoblab o'tkazib berilishi mumkin. Naqd chet el valutasining chegaradan tashaariga olib chiaib ketilishiga oid ruxsatnomalar fuaarolarning iltimoslari bo'yicha ular tomonidan vakolatlari banklardan naqd chet el valutasidagi kreditlarning olinishi chog'ida berilishi ham mumkin.

## **9.6. Xorijiy valutadagi kredit operatsiyalari hisobi**

Xorijiy valutadagi kreditlarni rasmiy lashtirish milliy valuta singari amalga oshiriladi. Kredit bo'yicha qarzlar qarzdoming topshiring iga ko'ra uning chet el valutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan to'lanadi. Masalan:

AQSh dollaridagi BKda:

Dt 13101 840 - Xususiy korxonaning kredit hisobvarag'i - 10000 \$

Kt 10501 840 - yoki 20200-mol yetkazib beruvchining hisobvarag'i - 10000 \$

Kredit bo'yicha qarznii to'lashda, birinchi navbatda kreditdan foydalanganlik uchun foiz summasi undiriladi.

Berilgan kreditlar bo'yicha foiz hisoblanganda:

AQSh dollaridagi BKda:

Dt 16309 840 - 100 \$

Kt 17101 840 - 100 \$

So'mdagi BKda: (O'R MB kursi 1510 so'm bo'lgan),

Dt 17101 000 - 15100 so'm

Kt 42601 000 - 15100 so'm

Hisoblangan foizlar qarzdordan undirilganda:

AQSh dollaridagi BKda:

Dt 20208 840 - XK joriy valuta hisobvarag'i - 100 \$

Kt 16309 840 - Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar hisobvarag'i - 100 \$

Kredit summasi qaytaulganda:

AQSh dollaridagi BKda:

Dt 20208 840 - XK joriy valuta hisobvarag'i - 100 \$

Kt 13101 840 - KKning kredit hisobvarag'i - 100 \$

## **Qisqa xulosalar**

Chet el valutasidagi operatsiyalar hisobi bu ushbu operatsiyalarning turlarini va ularni amalga oshirishdagi dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish hamda ularning buxgalteriya hisobini yuritishni to'g'ri tashkil qilishdir. Shuningdek, valuta siyosatini amalga oshirishni buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilish tushuniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Chet el valutasidagi operatsiyalar deganda qanday operatsiyalar tushuniladi?
2. Chet el valuta operatsiyalarining qanday turlarini bilasiz?
3. Banklarda chet el valutasidagi hisobvaraqlarni ochish uchun qanday talablar qo'yilgan?
4. Valuta mablag'lari qanday maqsadlar uchun kassadan sarflanadi?
5. Valuta almashuv punktlarini ochishdan sabab nima?
6. Chet el valutasi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan tranzit hisobvaraqlardan qachon foydalaniadi?
7. Chet el valutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni qaysi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
8. Ushbu operatsiyalar qaysi hisobvaraqlarda hisobga olinadi?
9. Chet el valutasi bo'yicha operatsiyalarga doir 4-5ta buxgalteriya o'tkazmalarini yozing.
10. Chet el valutasi bo'yicha operatsiyalardan olingan moliyaviy natijalar qaysi hisobvaraqlarda hisobga olinadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Валютани тартибга солиш түғрисида»ги қонуни 04.12.2003 й.
2. ЎзРМБ нақд чет эл валутасига оид операцияларни амалга ошириш кондатари. ЎзР АВ 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатта олинган
3. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкстарida бухгалтерия хисобининг хисобваракстари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).

4. Константинова Е.Н. Междү пародийс үзүүлэгчид түнштэй  
отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.
5. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке.  
Москва. 2008, стр. 209
6. Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в  
комерческих банках. -Москва. 2007, стр. 399
- 7 Наврӯзова К.Н. ва бошкалар, Банк хисоби, Ўқув қўлланма, -  
Т., «Фан ва технология», 2006.
8. Кроливецкая Л.П. и др. Бухгалтерский учет в коммерческом  
банке в проводках. –М. Финансы и статистика - 2004. 192 стр.

## **10-bob. BANK USTAV KAPITALI VA BOSHQA FONDLAR HISOBI**

### **Banklarda ustav kapitalini shakllantirish va ularni hisobga olish**

Tijorat banklari faoliyatining rivojlanishi – bozor mexanizmini to'g'ri tashkil etishda zaruriy shart-sharoit yaratadi, buning uchun iqtisodiyotning qayta shakllanish jarayoni bank tizimini qayta isloq qilishni talab etadi<sup>21</sup>.

Bugunda bu sfera dinamik ravishda rivojlanmoqda. Banklar ma'muriy boshqaruv tizimi davrida uzoq vaqtlar davlat tashkiloti bo'lib, iqtisodiyotni ma'muriy buyruqbozlik bilan boshqarish tizimida tashuvchi loyihalardan biri bo'lib, qatnashgan. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotning rivojlanish yo'liga o'tar ekanmiz, yo'l qo'yilgan kamchiliklardan voz kechib, rivojlangan davlatdar tajribasini o'rgangan holda bank va bank faoliyati to'g'risidagi bilimlarni oshirish bilan birga jahon andozasiga mos ravishda bank xizmatlarini ko'rsatish talab etilmoqda.

Bank – yundik shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziya asosida quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi: yuridik va jismoniy shaxslardan qo'yilmalar olish, ushbu qo'yilmalarni o'z xavf-xatari asosida moliyalashdirib, kreditlar berish, to'lovlarни amalga oshirish va hokazo.

Tijorat banklari ustavi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan ro'yxatdan o'tganlaridan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, tijorat banki tashkil etilgan hisoblanadi. Bankning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashishga tayyor bo'lgan va bankni tashkil etishga qiziquvchi yuridik va jismoniy shaxslar bankning ta'sischilari hisoblanadi.

Bank ta'sischilari ustavi va ta'sis shartnomasiga imzo chekib yo'l qo'ygan yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el rezidentlaridan tashkil topadi. Ular aksionerlik tijorat banki O'zbekiston Respublikasida banklarni Davlat ro'yxatga olish kitobiga ro'yxatga kirgan vaqtidan boshlab ta'sischi hisoblanadi.

<sup>21</sup> УзР Президентининг "Бозор ишлотларини чукурлаштириш ва ишлосидантига ишада эрлангаштиришин соҳасидаги устувор йўналашлар амалта олиғоривашини жаддатлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" таржомаси. 2005 йил 14 маён.

Bank ta'sischilarini bankni tashkil etishda zaruriy barcha hujjatlarni rasmiylashtirishni, bank ustav kapitalini shakllantirishi, moddiy-texnik ta'minoti bazasi, xizmat ko'rsatiladigan mijoz doirasi va amalga oshiriladigan bank operatsiyasini aniqlashni va muarmmoli bo'lgan masalalarni hal etishda javobgarlikni va ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi. Ular ta'sis shartnomasini imzolab rasmiylashtiradilar.

Ta'sis shartnomasi imzolangandan keyin ta'sischilar ta'sis majlisini o'tkazishga tayyorgarlik ko'radilar. Majlisda bankning ustavini belgilab oladi va bank boshqaruvi raisini saylaydi. Shu vaqtadan bank tashkil etilgan hisoblanadi. lekin to'liq oxirgi bosqichigacha tashkil etilgan hisoblanmaydi. Ustav kapitali faqat tasischi va aksiyadorlarning pul mablag'lardan tashkil topib amaldagi milliy valutada to'lanadi. Ustav kapitalini shakllanishida kreditga olingan, qarzga olingan va shu kabi jabol qilingan pul mablag'lari kiritilmaydi. Ayrim hollarda agar qonunchilik asosida davlat budgeti mablag'larini hisobidan ustav kapitalini shakllantirishda kiritilishiga yo'l qo'yilishi mumkin.

Bank ro'yxatdan o'tgan muddatda ta'sischilar tomonidan bankning ustav kapitaliga qo'yilgan pul mablag'larining yig'ilgan qismini Markaziy bankda yoki boshqa O'zRning Banklarda ochilgan hisobvarag'ida vaqtincha saqlash uchun qo'yadilar. Shuningdek, amaldagi me'yoriy hujjatlar<sup>22</sup>ga ko'ra yangi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitalining eng kam minimal miqdori belgilab qo'yilgan.

Bunga ko'ra, Toshkent shahrida ochiladigan tijorat banklari uchun ustav kapitalining miqdori 2.5million AQSH dollarigacha, so'm ekvivalentida; boshqa aholi yashaydigan punktlarida ochiladigan tijorat banklari uchun ustav kapitali miqdori 1.25 AQSH dollarigacha, so'm ekvivalentida; chet el kapitali ishtirokidagi ochiladigan banklar uchun ustav kapitali miqdori 5 million AQSH dollarigacha; xususiy banklar uchun 1.25million AQSH dollari ekvivalenti hisobida belgilab qo'yilgan. Ta'sischilar tomonidan bankning tashkil etilishida qarorlar qabul qilishda, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun Markaziy bank tomonidan o'matilgan milliy valutaning kursida ko'zda tutilgan ustav kapitalining minimal miqdorining shakllanishi bo'yicha hisoblaniladi.

Bank tashkil etilishida ustav kapitali summasi miqdorida norniga yozilgan aksiyalar chiqarilib, ro'yxatdan o'tgan kundan bir yilgacha bo'lgan muddatda bank aksiyadorlari tarkibidan chiqish huquqiga ega

<sup>22</sup> Узбекистон Республикаси Вазирилар Махкамасининг "Банк титимини ислоҳ ҳизниш борасидали чорадабирлари туттиришади"ги 16 солини карори. 1999 йил 15 маюни

bo'limgan ta'sischilar o'rtaida ushbu aksiyalar taqsimlanadi. Aksiyadorlik jamiyati ochiq va yopiq usulda aksiyaga a'zo ettilib, aksiyani joylashtirishni o'tkazish huquqiga ega.

Bunday hollarda aksionerlik jamiyati ustavida ko'rsatilgan usul bo'yicha aksiyalar joylashtiriladi. Agar ustavida aksiyalarni joylashtirish usuli qayd qilinmagan bo'lsa, u holda aksionerlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilib qaror qabul qilinadi, ularning ushbu qarori asosida aksiyalarni ochiq yoki yopiq usulda joylashtirish aniqlaniladi. Aksionerlik jamiyatining ustavida e'lon qilingan aksiyalarning joylashtirilishi tartibi, shartlari, aksiya kategoriyasi, aksiyaning nominal boshlang'ich qiymati va miqdori hamda shu tartibda aksiyalarni qayta chiqarilish emissiyasi ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Agar aksiyalarni joylashtirish tartibi, ya'ni aksiyani ochiq yoki yopiq turda a'zo qilinishi ustavda ham, aksionerlarning umumiy yig'ilish qarorida ham ko'rsatilib aniqlanmagan bo'lsa, u holda aksiyaga a'zo qilish tartibi ochiq turda aksiyaga a'zo qilinishi mumkin. Ustavda aksiyani joylashtirish tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda aksionerlik jamiyati qoshimcha bunday aksiyalarni chiqarish huquqiga ega bo'lmaydi. Qimmatli qog'ozni tayyorlovchidan olingan va berilgan qimmatli qog'ozlar blankasi uchun quyidagicha shartli 1 so'm miqdorida hisobvarag'larda aks ettiriladi:

a) qimmatli qog'oz blankasi olinganda:

Dt 90327- «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari» hisobvarag'i.

Kt 96314- «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvarag'i»

b) qimmatli qog'oz berilganda:

Dt 96314 «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvarag'i.

Kt 90327- «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari» hisobvarag'i.

Ularning analitik hisobi har bir qimmatli qog'oz turi bo'yicha alohida hisobvarag'larda yuritiladi. Qimmatli qog'ozni ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar 56795- «Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'ining «Qimmatli qog'ozlar blankalarini tayyorlash xarajatlari» deb nomlanuvchi alohida hisobvarag'i debetida hisobga olinadi.

Banklarda ustav kapitali va chiqariladigan aksiyalarni hisobga olish uchun birinchi tartibli 30300- «Ustav kapitali» hisobvarag'i va unga tegishli ikkinchi tartibli hisobvaraqlardan foydalilaniladi. Analitik hisobi

har bir aksioner bo'yicha alohida hisobvarag'larda yuntildi. Yuqondagi hisobvarag'lar quyidagi hisobvaraqlar bilan korrespondentsiyada bo'ladi: 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» - «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» - aksiya uchun naqd pul kassaga to'langanda, 10301- «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» yoki 10501- «Boshqa banklardagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» - boshqa banklardan aksiya uchun pul mablag'lari kelib tushganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning talab qilib olguncha depozit hisobvarag'idan, bank aksionerlaridan, ushbu bank xizmat ko'rsatadigan mijozlardan pullar aksiya uchun to'lov amalga oshirilganda sodir bo'ladi.

Bank aksiyasiga obuna ro'yxatga olinganligi uchun, lekin to'lik puli to'lanmagan va aksiya (sertifikati) ham berilmagan vaqtida quyidagi hisobvarag'larda aks ettiriladi:

Dt 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i, Kt 30303- «Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)» yoki 30306- «Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)» hisobvarag'i.

A'zo bo'lgan aksiya qiymati bilan aksiya uchun to'langan pul mablag'i farqiga, ya'ni. to'lanishi kerak bo'lgan summaga buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv yoziladi:

Dt 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 30309- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30312- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Obuna bo'lgan aksiya uchun puli to'liq to'langanda, aksionerlik kapitalidagi ulushi tasdiqlanib, aksiya (sertifikat) blankasi berilganda, esa, a) aksiya uchun to'lanishi kerak bo'lgan qoldiq summa to'langanda,

Dt 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 30303- «Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)» yoki 30306- «Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)» hisobvarag'i, b) aksiya (sertifikat) blankasi berilganda, Dt 30309- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30312- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i,

Kt 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Aksiyaning nominal boshlang'ich qiymati bilan obuna qilingan aksiya qiymati o'rtaсидаги farq summasiga 30603- «Qo'shimcha capital» hisobvarag'ining «O'z aksiyasini sotishdan qo'shilgan kapital» hisobvarag'i kreditiga yozuv qilinadi. Bir vaqtning o'zida aksiya (sertifikati) blankasi berilganda, Dt 30309- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30312- Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Kt 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Aksiyani sotishda boshlang'ich nominal qiymatidan haqiqatda sotilgan qiymati o'rtaсидаги oshiqcha farq summasiga 30603- «Qo'shilgan kapital» hisobvarag'ining «O'z aksiyasini sotishdan qo'shilgan kapital» hisobvarag'i kreditiga yozuv qilinadi.

## **10.2. Banklarning ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi**

Bank ustavida e'lon qilingan aksiyalarni joylashtirilish tartibi va shartlari hamda huquq va burchlari har bir tur aksiyani olish uchun belgilangan. Ushbu shart-sharoitlar ustavda keltirilmagan bo'lsa u holda jamiyat qo'shimcha bunday turdag'i aksiyalarni chiqarish va joylashtirish huquqiga ega bo'lmaydi. Jamiatning ustaviga o'zgartirish va to'ldirishlar aksionerlarning umumiyligi yig'ilishi qarori asosida qabul qilinib kiritiladi.

Aksioner jamiyatining dastlabki joylashtirilgan aksiyalari uchun hamma to'lovlar amalga oshirilgandan keyin, yangi aksiya emissiyasini chiqarish mumkin. Navbatdagi aksiyani chiqarish tartibi oldingi aksiya emissiyasi bo'yicha hamma hisob-kitoblar yakuniga yetkazilib bo'lgandan keyin ta'sis hujjatiga o'zgartirish kiritilib, shundan so'ng chiqariladigan aksiyani davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Qimmatli qog'ozlarning emissiyasini ro'yxatga oluvchi organlar davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatga olishi uchun emitent tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi: qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi arizasi, biznes reja (investitsiya deklaratsiyasi), ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxasi (o'zgarish va qo'shimchalar kiritilgan holda), tegishli boshqaruv organlaridan davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi emitent guvohnoma nusxasi, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi olyi

boshqaruv organining qarori, ikki nusxadagi qimmatli qog'ozlar emissiya prospekti (qimmatli qog'ozni (ommaviy) ochiq joylashtirilganda), ikki nusxada qimmatli qog'oz to'g'risida axborot ma'lumoti (qimmatli qog'ozni yopiq (xususiy) joylashtirilganda), ikki nusxadagi qimmatli qog'ozning namuna nusxasi, o'matilgan miqdordagi yig'imlarni to'laganlik to'g'risidagi to'lov hujjatlaridan ko'chirma nusxasi, oldingi chiqarilgan emissiya yakuni to'g'risida hisobot (ikkilamchi va navbatdagi emissiya) va boshqalar.

Emitent tomonidan arizaga zaruriy hujjatlar ilova qilib berilgan muddatdan 20 kun ichida kechikmasdan qimmatli qog'ozni chiqarish davlat ro'yxatidan o'tkazilib, hamma hujjatlar va hujjatlardagi ma'lumotlar talab darajasida bo'lsa, emitentga oy, kun, yili va davlat ro'yxatga olingan son raqami ko'rsatilgan va buni tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

Qimmatli qog'ozlarni milliy yagona identifikatsiya sonlash tizimi va qimmatli qog'ozlarni chiqarishni yagona davlat reestrini yuritish tartibi» asosida qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olinib davlat raqami beriladi. Emitentga ip bilan tikilgan va ro'yxatga oluvchi organ tomonidan pechat muhri bilan tasdiqlangan bir nusxada emissiya prospekti, guvohnoma ko'rsatigan naryad bilan birlgilikda beriladi. Qimmatli qog'oz ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 10 kun muddat ichida emissiya prospekti ommaviy axborot vositasida yoki maxsus nashrda aniq markazdan hamma potensial qimmatli qog'oz xaridorlarini axborot berib xabardor qilish maqsadida nashr etiladi.

Agar emitent qimmatli qog'ozlarni ochiq joylashtursa, u holda bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida ma'lumotlar albatta, ko'rsatilib, ommaviy axborot vositalanda xabar beriladi. Unda, emitentning statusi, to'liq nomi, manzili, chiqariladigan qimmatli qog'ozning tuni va baymi miqdori, mulkdorming investor doirasи, qimmatli qog'ozni ommaviy chiqarish va yakunlash muddati, emissiya prospekti bilan tanishtirilishi, ushbu chiqarilayotgan qimmatli qog'ozni ohshi mumkin bo'lgan joy va shu kabi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

Navbatdagi emissiya prospekti ro'yxatga olingandan keyin bank ustav kapitaliga mablag'ni jalb qilishga faol kirishadi. Aksionerlar yangi chiqarilgan aksiyaga a'zo bo'lishini kafolatlash uchun qo'yilmalarini depozitga qo'yishi mumkin. bu holda buxgalteriya hisobida qu'idagicha yozuv amaliga oshuniladi:

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i,

Kt 29830- «Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar» hisobvarag'i.

Agar aksiyalar sotilganda va aksiya (sertifikati) blarfiasi berilganda buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

Dt 29830- «Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar» hisobvarag'i,

Kt 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozi» hisobvarag'i yoki 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Bir vaqtning o'zida aksiya sertifikati berilganda:

Dt 30309- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Imtiyozi» yoki 30312- «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i,

Kt 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozi» hisobvarag'i yoki 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

E'lon qilingan aksiyalar uchun dividend hisoblanganda:

Dt 31203- «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» - yillik dividend hisoblanganda.

Dt 31206- «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)»- oraliq dividend hisoblanganda hisobvarag'i.

Kt 29822- «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar» hisobvarag'i.

Bank farmoyishiga ko'ra imtiyozi aksiyalar uchun dividend hisoblash davrida bank foydasi yetishmagan holatda 30903 – «Umumiy zaxira fondi» hisobvarag'i hisobidan qoplanadi. Bunda,

Dt 30903-«Umumiy zaxira fondi» hisobvarag'i,

Kt 29822- «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar» hisobvarag'i va dividend to'langanda esa,

Dt 29822- «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar» hisobvarag'i.

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i.

Agar banklar tomonidan xarid qilingan o'z aksiyalarini Markaziy bankning ruxsati bilan qayta sotishi yoki aksiyani bekor qilishi mumkin. Ular,

Dt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar Imtiyozi (kontr-passiv)» va 30324- Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» hisobvaraqlari.

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Xarid qilingan aksiyalar haqiqiy xarid bahosida balans hisobida aksioner kapitali umumiy summasidan ayrib hisobga olinadi, bunda,

Dt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» va 30324- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» hisobvarag'ları,

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar»- hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Agar bank aksiyasini bekor qilish uchun xarid qilsa, 90327- «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari» hisobvarag'idan, 96314- «Bankning qimmatli qoh'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvarag'i»ga o'tkaziladi. Ushbu xarid qilingan aksiya keyingi ikkilamchi bozorda yuqori bahoda qayta sotilsa.

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i,

Kt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» va 30324- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» aksiyaning haqiqiy bahosiga hisobga olinadi.

#### Aksiyani sotib olish narxiga

Dt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» va 30324-«Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar Oddiy (kontr-passiv)» hisobvarag'i aksiyaning haqiqiy bahosi.

Kt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Xarid qilib olingan aksiyalar qayta sotilganda 30603- «Qo'shilgan kapital hisobvarag'inining» «Xarid qilingan o'z aksiyasini sotishdan qo'shilgan kapital» balans hisobvaragida xarid qiymati bilan qayta sotish o'rtaсидаги ijobiy farq summasiga hisobga olinadi. Bir vaqtning o'zida aksiya (sertifikati) blankasi berilganda 96314- «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr -hisobvarag'idan, aksiyaning nominal bahosiga 90337- «Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i o'tkaziladi.

Xarid qilingan aksiyalar ikkilamchi bozorda xarid narxidan past bahoda sotilsa .

Dt 10101- «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i,

Kt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» yoki 30324- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» hisobvarag'i- aktsiyaning haqiqiy bahosi.

Bunda aksiyalarning sotib olish bahosi va ularni qayta sotish bahosi o'rtasidagi salbiy farq 30603- «Qo'shimcha kapital» hisobvarag'i «Xarid qilingan o'z aksiyalarini sotishdan olingan qo'shimcha kapital» shaxsiy hisobvarag'iga uning kredit qoldigi miqdori chegarasida o'tkaziladi. 30603- «Qo'shimcha kapital» hisobvarag'ining «Xarid qilingan o'z aksiyalarini sotishdan olingan qo'shimcha kapital» shaxsiy hisobvarag'i nolga teng bolsa, salbiy farq 31206-«Sof foyda(zarar)» hisobvarag'iga o'tkaziladi. Aksiyalarni bekor qilishda va bank aksiyadorlik kapitalini kamaytirishda

Dt 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli» yoki 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy» hisobvarag'i.

Kt 30321- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar Imtiyozli (kontr-passiv)» yoki 30324- «Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv)» hisobvarag'i.

Ularning sotib olish narxi buxgalteriya hisobida teskari provodka beriladi.

### 10.3. Banklarda fondlar hisobi

Bankning zaxira kapitali -umumiy maqsadga yo'naltirilgan zaxira fondi va imtiyozli kredit zaxira fondidan iborat bo'ladi. Bunda sof foydadan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni oshirgandan keyin bank kapitalini ko'paytirishga yo'naltirilgan mablag' miqdori liveraj koeffitsientidan kelib chiqqan holda o'matiladi.

Liveraj –bu bank kapitalining aktivlar summasini ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, bankning jami aktivlar summasini birinchi darajali kapitaliga nisbatan nomoddiy aktivlar va gudvil qiymatini avirib tashlanib aniqlaniladi.

Shu bois, bank kapitalini ko'paytirish koeffitsientining me'yorlari quyidagicha: liveraj koeffitsienti foydadan 0 dan - 0,15 gacha 30%; 0,15 dan-0,30gacha 20 %; 0,30 dan -0,30 dan yuqori 10 % qilib belgilagan.

Bankning birinchi darajali kapital tarkibiga puli to'liq to'lanib muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalari, nekumulyativ muddatsiz

imtiyozli aksiyalari kiradi. Bu aksiyalar aniq muddatga xarid qilinmaydi yoki shart asosida kelib tushishi bilan xarid qilinadi, aksiya egasi a'zosining xohishiga ko'ra xarid qilinadi, bular bo'yicha dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra hisoblanadi, shuningdek, bular bo'yicha o'tib ketgan davrlar uchun (nekumulyativ) dividend hisoblanmaydi.

30903 – «Umumiy zaxira fondi» hisobvarag'ida o'matilgan tartib asosida bank taqsimlanmagan foydasi hisobidan umumiy maqsadga yo'naltirilgan mablag'lar hisobi yuritiladi. Ushbu hisobvarag'ning debet qismi tomonida zaxira fondiga ajratma qilingan mablag'larning kelib tushishi, kredit qismida esa zaxira fondidan ma'lum bir maqsad uchun ishlatalgan mablag'larning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Analitik hisobi har bir shaxsiy hisobvarag' bo'yicha alohida hisobi yuritiladi.

Umumiy zaxira fondiga ajratma qilinganda, Dt 31206-«Sof soyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvarag'i, Kt 30903- «Umumiy zaxira fondi» hisobvarag'i.

#### **10.4. Banklarda imtiyozli kredit fondi va ularning hisobi**

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish jamg'armasini ishlab chiqish mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuqori texnologivalik hamda innovatsiya loyihibalarini amalga oshirish uchun imtiyozli kredit berish uchun tashkil etiladi.

Banklarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maqkamasi qarori muvofiq<sup>23</sup> maxsus imtiyozli kredit fondlari tuziladi. Imtiyozli kredit fondi bankning foydasi hisobidan 25% miqdorida ajratma qilib shakllantiriladi. Bu foyda bankning daromadlari bilan xarajatlari o'rtaсидagi farq hisobida qoplanadi. Tijorat banklari maxsus imtiyozli kredit fondlarini shakllantirib boradi va ularning buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylatiradi:

Dt 31206- «Sof soyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvarag'i -bank foydasidan maxsus imtiyozli kredit fondi uchun ajratilgan summasi,

Kt 30904 – «Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi» hisobvarag'i.

<sup>23</sup>УзР Президентининг «Банк тизимида янада эркиншаттириши ва истоҳа чилинганини чора-таббэрлар тўғрисидаги УП 2564- сан фарзими 21.03.2000 йил, УзР ВММнига «Тикорият банккори томонидаги маълум имтиyозли кредит фонdlari shakllantirishiga tўғrisida» ти 28-санчи карори 17.01.2004 й.

Imtiyozli kreditlash zaxira fondi joylardagi barcha bank va filiallarda tashkil etilib, hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha ajratmani 30904 «Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi» balans hisobvarag'iga o'tkazib boradi. Imtiyozli kreditlash zaxira fondi hisobidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditlanishi ular o'tasida tuzilgan shartnoma shartlari asosida moliyalashtiriladi. Imtiyozli kreditlash zaxira fondi shakllangandan keyingi oyning 1-kunigacha kichik biznes va dehqon-fermer xo'jaliklariga kredit turi sifatida berilishi mumkin.

Imtiyozli kreditlash zaxira fondi hisobidan kredit berilganda berilayotgan kredit mablag'i summasi bilan imtiyozli kreditlash zaxira fondining to'g'ri kelishligini bilish maqsadida hisobni tekshirib borish zarur, chunki berilayotgan kredit summasi imtiyozli kreditlash zaxira fondidan oshib ketmasligi kerak. Imtiyozli kreditlash zaxira fondidan filial bo'yicha kredit berilganda kichik biznes va dehqon-fermer xo'jaliklariga ularning har bir istiqbolli bines-rejası foydası tahlil qilinib berilishi kerak.

Aks holda, bank filialiga yoki ma'lum bir subyektga imtiyozli kreditlash zaxira fondidan ortiqcha mablag' sarflanishi mumkin. Aynim hollarda bir filialdan boshqasiga mablag' o'tkazilib turiladi, bunda ular buxgalteriya hisobida aks ettirilishi lozim: imtiyozli kreditlash zaxira fondiga filial uchun ortiqcha mablag' berilayotgan.

Dt 16101-«Bosh bank/ filiallardan olinadigan mablag'lar – Naqd pullar» hisobvarag'i.

Kt 10301- «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro» hisobvarag'i. Filial uchun, imtiyozli kreditlash zaxira fondidan mablag' olinganda esa.

Dt 10301- «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro» hisobvarag'i.

Kt 22202- «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar – Naqd pullar» hisobvarag'i.

Imtiyozli kreditlash fondidan kredit berish hisobiga olingan foizli daromadlar hisobi alohida yuritiladi. Chunki olingan daromad maqsadli imtiyozli kreditlash fondiga yo'naltirish uchun va shu bilan birga, ushbu daromaddan olinadigan soliqdan ozod bo'lish uchun hamda hisobot davridagi imtiyozli kreditlash fondiga o'tkaziladigan foyda hisobidan 25% ajratma qilinib, foizli daromad hisobiga imtiyozli kreditlash fondini qo'shimcha ko'paytirish ko'zda tutiladi.

## **Qisqa xulosalar**

Banklarda ustav kapitali va boshqa fondlar hisobi – bu bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va ta‘sischilar hamda manfaatdor shaxslar oldidagi majburiyatlarning bajarilishini buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishdir.

Shuningdek, bank tomonidan zaxira va boshqa fondlarni bank foydasi hisobidan shakllantirilishi, bank mijozlariga hamda bankning iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan siyosatidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklari ustav kapitalini qanday tartibda shakllantiradi?
2. Tijorat banklarining ustav kapitali tarkibini shakllantirishda qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?
3. Tijorat banklarining ustav kapitaliga ulush sifatida nimalar qo‘yilishi mumkin?
4. Banklar davlab tashkil etilishida ustav kapitalining qancha foizini shakllantirishlari mumkin?
5. Ustav kapitalini oshirish uchun nimalar qilinadi?
6. Tijorat banklarida qo‘shilgan kapital qanday shakllanadi?
7. Tijorat banklarida zaxira kapitali qanday shakllanadi?
8. Tijorat banklarida zaxira kapitalini shakllantirishning asosiy manbasini aytинг va u qanday amalga oshiriladi?
9. Imtiyozli kredit resurlarini tashkil qilishdan maqsad nima?
10. Ustav kapitali va boshqa fondlarning buxgalteriya hisobi qaysi me'yoriy hujjatlarga asosan tartibga solinadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида»ги қонуни. 02.09.1993й.
2. Тижорат банкларида қимматли қоғозлар операциялари бўйича бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 28.03.2003 йилда 662-3-сон билан рўйхатга олинган.
3. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири).

4. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва.. 2008, стр. 209
5. Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг Учебное пособ. - 2-е изд стер.- М.. КНОРУС, 2009.- 336 с.
6. Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.. КНОРУС, 2009. – 336 с.
- 7 Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.
8. Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в комерческих банках. -Москва.. 2007, стр. 399
9. Назрүзова К.Н. ва бошқалар. Банк хисоби, Ўкув кўлланма, - Т., «Фан ва технология», 2006.

## **11-bob. BANKLARDA QIMMATLI QOG'ÖZLAR OPERATSIYALARI HISOBI**

### **11.1. Banklarda qimmatli qog'ozlarning turlari va ularning tavsifi**

Qimmatli qog'ozlar pul hujjatlari bo'lib, sotib olgan shaxslarning uni chiqqargan yuridik shaxstarga nisbatan mulkiy huquqiy yoki qarz munosabatlarini bildiradi. Qimmatli qog'ozlar tayinlanish kriteriyasi bo'yicha hisob bozorining dastagi va moliyaviy bozor dastagiga bo'linadi. Hisob bozorida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar muomalada bo'ladi va iqtisodiy subyektlarning o'zaro hisob-kitoblariga xizmat qiladi. ularning harakati amaldagi qonuniy hamda me'yoriy hujjatlar<sup>24</sup> bilan tartibga solib boriladi.

Moliyaviy bozor dastagi kapitalning harakatini aks ettiradi va ularning vujudga kelishi investitsion munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, muomalada bo'lish jarayoni bir yildan ziyod bo'lgan qimmatli qog'ozlar kiradi.

Hisob bozorlandagi qimmatli qog'ozlardan farqi shundaki, bular seriyalab chiqariladi va ular mulkiy munosabatlarni hamda qarzmunosabatlarini aks ettiruvchi shakllarga bo'linadi. Qarz munosabatlarini aks ettiruvchi qog'ozlar qarz majburiyatni yoki obligatsiyalar deb ataladi. Mulkiy munosabatlarni ifodalovchi dastaklar aksiyalar deyiladi.

Aksiya - bu qimmatli qog'oz bo'lib aksionerlik kapitalining ma'lum bir qismini to'laganligini bildiradi va foydaning ma'lum qismini dividend shaklida olish hamda aksionerlik jamiyatni boshqarishda qatnashish, tugatilgan taqdirda qolgan mulkning bir qismiga egalik qilish huquqini beradi. Aksiya - bu qarz majburiyati hisoblanmaydi. Ro'yxatdan o'tishiga qarab, nomi yozilgan va nomi yozilmagan aksiyalarga bo'linadi.

Aksiyaning huquqiy turiga qarab oddiy aksiyalarga va imtiyozli aksiyalarga bo'linadi. Qarz majburiyatlarini oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak, bu qarzoluvchining kreditorga mablag'ini qarzolganda beradigan hujjati hisoblanadi.

<sup>24</sup> УзРинг «Кимматлиқ көрсеткіштер және фонд баржасын тұтынисдағыттың концепциясы. 02.09.1993г; Тикорет банкнанда кимматлиқ көрсеткіштер операциялари бүйінчі бухгалтерия хисоби тұтынисдағыттың ном. УзР АВ 28.03.2003 №122-3-сон башын рұйхатта озятас. УзР тикорет банкнанда кимматлиқ көрсеткіштер баланси бөлшек операцияларына дейр концепциянын күзактадағы тұтынисы. - "Ўзбекистон." 2003 №.

**Qarz majburiyatlariga quyidagilar kiradi: obligatsiyalarning har xil turlari, kaznachey veksellari, depozit sertifikatlari va veksellar.**

Obligatsiya - belgilangan foiz va stavkaga ega bo'lib, qarzdoming muddatli qarz majburiyatidir. Kaznachey vekseli bu davlat qarz majburiyatining asosiy turi hisoblanib, ular 3 oy, 6 oy va 12 oyga chiqariladi. Asosan, u banklar o'tasida va nominal qiymatdan past narxda sotiladi. Kaznachey veksellarini emissiya qilish va to'lash Markaziy bank tomonidan Moliya Vazirligining topshirig'iga asosan amalga oshiriladi. Depozitli sertifikat – qarz majburiyati bo'lib, kredit muassasasining omonotchilarga qo'yilgan pul va unga belgilangan foizini olish huquqini beruvchi yozma majburiyatdir

## **11.2. Banklarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha tijorat operatsiyalari hisobi**

10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar» hisobvaraqlarida bank tomonidan savdo qilish maqsadlarida sotib olingan qimmatli qog'ozlarning (veksellardan tashqari) hisobi yuritiladi va ushbu qimmatli qog'ozlar ularni kelajakda foyda bilan sotish maqsadida qisqa muddatga sotib olinadi. Analistik hisob sotib olingan qimmatli qog'ozlar turlari va muddatlari, shuningdek, emitentlar bo'yicha alohida yuritiladi.

REPO bitumi bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar hisobi alohida shaxsiy hisobvaraqlarida yuritiladi. Sotib olingan qimmatli qog'ozlar sotib olish qiymati bo'yicha hisobga olinadi, sotib olish qiymatiga qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar (brokerlik va birja vositachilik haqi va x.k.). shu jumladan, ko'zda tutilmagan xarajatlar kiritiladi. Diskont yoki mukofot xarid qilish sanasida ro'yxatga olinmaydi va qarz majburiyatiga egalik qilish muddati davomida amortizatsiya qilinmaydi. qimmatli qog'ozlarni sotib olishda quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvni amalga oshiriladi:

Dt 10700 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari».

Kt 10101 «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» yoki 20200 - «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvaragi.

Balans hisoboti tuziladigan sanada bozor narxini sotib olish narxi bilan taqoslash orqali qimmatli qog'ozlarni qayta baholash amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini aniqlashda, birja va

birjadan tashqari bozorlarda shakllanadigan baholar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Fond bozorida kotirovka mavjud bo'lмаган hollarda, mua'yan qimmatli qog'ozlarning qiymati emitentning moliyaviy hisoboti, auditorlik hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Bunda aksiyalar qiymati sof aktivlar (majburiyatlar chegirib tashlangan aktivlar)ni muomalaga chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Barcha qimmatli qog'ozlar bir vaqtning o'zida qayta baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar ikki narxda, bozor yoki sotib olish narxining eng kam qiymati bo'yicha baholanadi. Agar bozor narxi sotib olish narxidan past bo'lsa, bank xarajatlari hisobidan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi barpo etiladi. Bunda sotib olish narxi va bozor narxi o'tasidagi farq summasi

Dt 56806 «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i,

Kt 10799 - «Boshqa qimmatli qog'ozlar» hisobvaraqlari.

Agar bozor narxi xarid narxidan yuqori bo'lsa zaxira nolga tenglashtiriladi va bunda.

Dt 10799 - «Boshqa qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i.

Kt 56806 56806- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i.

Qimmatli qog'ozlar oldi - sotdisi hisobvaraqlari bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi umumiylasosda belgilanadi. Bu shuni anglatadiki, bozor narxini xarid narxi bilan taqqoslash qimmatli qog'ozlarning har bir tuni bo'yicha (alohida har bir qimmatli qog'oz bo'yicha emas) amalga oshiriladi, shundan so'ng ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashning umumiylasizasini barpo etish uchun jamlanadi.

Agar ilgari barpo etilgan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmi yangidan hisoblangan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmidan katta bo'lsa, u holda zaxira ortiqcha bo'lgan summaga kamaytitiriladi va

Dt 10799- «Boshqa qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i,

Kt 56806- 56806- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvaraqlari.

Maboda, oldindan barpo etilgan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmi yangidan hisoblangan ko'riliishi

mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmidan kam bo'lsa, u holda zaxira hisoblangan hajmgacha qo'shimcha ravishda oshiriladi:

Dt 56806- 56806- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i,

Kt 10799- «Boshqa qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i.

Ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini kontraktiv hisobvaraq bo'lib qimmatli qog'ozlarning umumiyligi balans qiymatidan chiqariladi va 10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i da quyidagicha hisobga olinadi: qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi hisobvarag'i - sotib olish narxi minus qimmatli qog'ozlar oldi va sotdisi hisobvarag'i bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini qimmatli qog'ozlar oldi va sotdisi hisobvaraqlari - sof qiymat.

Qimmatli qog'ozlarni sotishda yoki qisqa muddati qarz majburiyatlar to'lovini amalga oshirishda quyidagi buxgalteriya yozuvi bajariladi:

Dt 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pular» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i - sotish bahosiga,

Kt 10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i - balans qiymati.

Agar sotish bahosi qimmatli qog'ozlarning balans qiymatidan farq qilsa, qimmatli qog'ozlarni sotishdan ko'rigan foyda yoki zararlar summasiga:

Dt 55614- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rigan zararlar (Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)» hisobvarag'i.

Kt 45611- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida olingen foyda (Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)» hisobvarag'i.

Shuningdek, ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini qayta hisoblanadi va buxgalteriya hisobida uning miqdori tuzatiladi.

Agar bankning qimmatli qog'ozlarga nisbatan operatsiyalarini mazmuni o'zgarsa, 15900-So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar» hisobvarag'i ga o'tkazilishi mumkin. Bunda operatsiyalar mazmuni foiz stavkasi hamda bozor narxi, moliyalash shartlari va manbaalarining o'zgarishi oqibatida o'zgaradi hamda xarid va bozor qiymatlarining eng kami bo'yicha

amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan qiymatlarning eng kam o'tkazilgan qimmatli qog'oz uchun yangi balans qiymati bo'ladi.

Agar bozor qiymati xarid narxidan past bo'lsa, o'tkazishdagi farq summasiga, 15900- So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar» – bozor qiymati va 55614- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar (Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)» – farq summasi debetlanib, xarid qiymati sifatida kreditlanadi. Ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi qayta hisoblanadi va buxgalteriya hisobida uning miqdori tuzatib qo'yiladi.

Obligatsiyalar bo'yicha foiz ushbu qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati bo'yicha hisob-kitob qilinadi va ularga hisoblangan foiz summasi daromad sifatida hisobga olinadi hamda,

Dt 16305- «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i,

Kt 40605- «Davlat obligatsiyalari bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i.

Ular undirilganda esa, yoki

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i,

Kt 16305-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Agar emitentning moliyaviy ahvoli yomonlashishi oqibatida emitent tomonidan qarz majburiyatining uzilishi yoki ular bo'yicha foizlarning to'lanishi bankda shubha uyg'otsa banklar foizlarni o'stirmaslik tamoyilidan soydalanishi lozim. Qarz majburiyatani bo'yicha hisoblab yozilgan, lekin olinmagan barcha foizlari quyidagi hollarda, emitent tomonidan qisqa muddatli qarz majburiyatining uzilishi yoki ular bo'yicha foizlarning to'lanishi 60 kun; 90 kun va undan ortiq muddatga yoki muddatidan qat'uy nazar bankda shubha tug'ilganda bank balansidan hisobdan chiqarilishi mumkin, unda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv orqali amalga oshiriladi:

Dt 40613- «Korxonalarining qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i,

Kt 16305-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Balansdan chiqarilganidan so'ng qarz majburiyatları bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarning summasi ko'zda tutilmagan holatlar, ya'ni,

Dt 95411- «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Kt 96333- «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i» va undirilganda ushbu hisobvaraqlarda teskari yozuv amalga oshiriladi.

Banklarda qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar (vosita haqi, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov, qimmatli qog'ozlarni sotishda broker uchun mukosof puli va boshqalar) S5110 «Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

### **11.3. Banklarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya operatsiyalari hisobi**

15900-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» «Investitsiyalar» hisobvaraqlarida bank tomonidan investitsiya maqsadlariga uzoq muddatli asosda sotib olingan qimmatli qog'ozlarning hisobi yuritiladi. Uzoq muddatli obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli qarz majburiyatları, odatda, ularning to'lov muddatli kelgunga qadar bankning foizli daromadining doimiy oqimi bilan ta'minlash uchun hisobvaraqlarida hisobda turadi.

Aksiyalarga qilingan investitsiyalarning hisobi bank tomonidan tijorat faoliyati uchun sotib olingan 10700 «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» hisobvaraqlarida hisobga olinadigan aksiyalardan tashqari barchasi 15913 - «Korxonalarning qarz qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Uzoq vaqt davomida egalik qiladigan aksiyalar bankka o'z mansaftalaridan kelib chiqib, korxonalarning faoliyati va hisob siyosatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Ularning analitik hisobi sotib olingan qimmatli qog'ozlarning turlari va muddatları bo'yicha hamda emitenlar bo'yicha alohida yuritiladi.

Sotib olingan qimmatli qog'ozlar xarid qiymati bo'yicha hisobga olinadi, unga ularni xarid qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar (brokerlik va birja vositasi haqi va x.k.) shu jumladan, ko'zda tutilmagan xarajatlar kiritiladi va quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvı amalga oshiriladi:

Dt 15900-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» hisobvarag'i.

Kt 10101- «Amaliyot (operations) kassadagi naqd pullar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i.

Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga obuna bo'lishda bank aksiyalar qiymatuning bir qismini to'lashi mumkin. Aksiyalar qiymati va obuna bo'yicha kiritiladigan to'lov summasi o'tasidagi farq summasi aniqlanadi va ular quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 15913- «Korxonalarining qarz qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i - aksiyalar narxi.

Kt 20200 - «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» to'lov summasi va 29826 - «Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash - Xususiy kapitalni» -obuna paytidagi aksiya narxi hamda obuna to'lovi farqi sifatida hisobga olinadi. Bank obuna bo'yicha qolgan summani to'laganda:

Dt 29826- «Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash - Xususiy kapitalni» hisobvarag'i,

Kt 16103 - «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» yoki 20200 - «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i.

Agar qarz majburiyati diskont yoki mukofot bilan sotib olinsa, diskont yoki mukofot xarid qilish sanasida ro'yxaiga olinmaydi. Biroq, diskont yoki mukofot summasi to'g'ri chiziqli usul bo'yicha qarz majburiyatining muomalada bo'lishi muddati davomida amortizatsiya qilinadi. Muomala muddatining so'ngida qarz majburiyatlariga qilingan investitsiyalarning balans qiymati qarz majburiyatining nominal qiymatiga teng bo'lishi lozim.

Diskont amortizatsiyasi summasiga

Dt 44800 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i.

Kt 15913 - «Korxonalarining qarz qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i va mukofot amortizatsiyasi summasiga esa.

Dt 15913 - «Korxonalarining qarz qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'i.

Kt 44800 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i.

Aksiyalar shuningdek, diskont (ya'ni nominal qiymatidan past) yoki mukofot bilan (ya'ni nominal qiymatidan yuqori) xarid narxda qilinishi mumkin. Bunda diskont yoki mukofot xarid kuniga qayd va amortizatsiya qilinmaydi, ya'ni, burchli majburiyatlar diskontlari hamda mukofotlardan farqli o'laroq, xarid qilingan aksiyalar narxini nominal qiymatga kelurish davri hisobga olinmaydi.

Balans hisobotini tuzish sanasida bozor qiymatini balans qiymati bilan taqqoslash orqali qimmatli qog'ozlar qayta baholanadi va ularning bozor qiymatini aniqlashda, birja va birjadan tashqari bozorlarda shakllanadigan baholar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniлади. Fond bozorida kotirovka mavjud bo'lmagan hollarda muayyan qimmatli qog'ozlarning qiymati emitentning moliyaviv hisoboti, auditorlik hisobot ma'lumotlanni tahlil qilish asosida aniqlanadi. Bunda aksiyalar qiymati soф aktivlarni muomalaga chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lsh orqali hisoblanadi. Qrz majburiyatlarining balans qiymati diskont yoki mukofot amortizatsiyalar hisobiga xarid qiymatidan farq qilishi mumkin.

Aksiyalarning balans qiymati ularni sotib olish qiymatiga teng. Barcha qimmatli qog'ozlar bir vaqtning o'zida qayta baholanadi, ya'ni bozor yoki balans qiymatining eng kam'i bo'yicha baholanadi. Agar bozor qiymatli balans qiymatidan past bo'lsa, bank xarajatlari hisobidan qoplanishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi barpo etiladi. Bunda balans qiymati va bozor narxi o'rasisidagi farq summasiga,

Dt 56826- «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiya bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvaragi,

Kt 15999- «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvaragi.

Agar bozor qiymati balans qiymatidan yuqori bo'lsa zaxira nolga tenglashtiriladi.

Investitsiyalar hisobvaraqlarda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi umumiyy asosda belgilanadi. Bu shuni anglatadiki, bozor qiymatini balans qiymati bilan taqqoslash qimmatli qog'ozlarning har bir turi bo'yicha amalga oshiriladi, shundan so'ng, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashning unumiy zaxirasini barpo etish uchun jamlanadi. Bunda oldindan barpo etilgan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmi yangidan hisoblangan zararlarni

qoplash zaxirasining hajmidan yuqori bo'lsa, u holda zaxira ortiqcha bo'lgan summaga kamaytiriladi, ya'ni:

Dt 15999 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i.

Kt 56826 «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiya bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i.

Agar oldindan barpo etilgan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasining hajmi yangidan hisoblangan zararlarni qoplash zaxirasining hajmidan past bo'lsa, u holda zaxira ko'zda tutilgan hajmgacha qo'shimcha ravishda oshiriladi, ya'ni:

Dt 56826 «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiya bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i.

Kt 15999 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i.

Ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi kontraktiv hisobvaraq bo'lib, qimmatli qog'ozlarning umumiy balans qiymatidan chiqariladi va quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Investitsiyalar hisobvaraqning - balans qiymati minus investitsiyalar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi investitsiyalar hisobvarag'i - sof qiymati ko'rinishida aks ettiriladi

Agar qimmatli qog'ozlarni sotishda yoki qisqa muddatli qarz majburiy atlari to'lovini amalga oshirishda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 10101 - «Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar» yoki 20200 - «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i - amaldagi sotish bahosiga.

Kt 15900 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» hisobvarag'i balans qiymati summasiga.

Agar sotish (to'lovini amalga oshirish) bahosi qimmatli qog'ozlarning balans qiymatidan yuqori bo'lsa, foyda summasiga 45803 - «Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda» yoki 45809 - «Xususiy kapitalga qilingan investitsiya bo'yicha olingan dividendlar» hisobvaraqlari (aksiyalar

bo'yicha) kreditlanadi. Agar sotish bahosi qimmatli qog'ozlarning balans qiymatidan past bo'lsa, sotishdan ko'rilgan zararlar summasiga 55804 - «Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» yoki 55806 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvaraqlari (aksiyalar bo'yicha) debetlanadi. Shuningdek, ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi qayta hisob-kitob qilinadi va buxgalteriya hisobida uning summasi tuzatib qo'yiladi.

Bankning 15900 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar»-hisobvaraqlarida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarga nisbatan operatsiyalari mazmuni o'zgartirilsa, u holda ularning hisobi 10700 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» - tegishli hisobvaraqlarga o'tkazilishi (qayta tasniflanishi) mumkin. Bu foiz stavkasi, bozor narxi, moliyalash shartlari va manbalarining o'zgarishi oqibatida vujudga keladi. Natijada, o'tkazish balansi va bozor qiymatlarining eng kami bo'yicha amalga oshiriladi. Yuqorida qayd eulgan narxlarning eng kami o'tkazilgan qimmatli qog'oz uchun yangi balans qiymati bo'ladi. Agar bozor qiymati balans qiymatidan past bo'lsa, o'tkazishdagi tafovut 55804 - «Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» yoki 55806 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» - (aksiyalar uchun) debetiga kiritiladi.

Bunda, 10700 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» -bozor qiymatiga.

Dt 55804 - «Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» yoki 55806 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarning sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar» hisobvarag'i - farq summasi.

Kt 15900 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» hisobvarag'i - balans qiymati.

Shuningdek, ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi qayta hisob-kitob qilinadi va buxgalteriya hisobida uning summasiga tuzatish qilinadi. Shuningdek, obligatsiyalar bo'yicha foiz ushbu qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati bo'yicha (xarid qiymati bo'yicha emas) hisob-kitob qilinadi.

#### **11.4. Bankiarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha vositachilik operatsiyalari va muddatli bitimlar hisobi**

Banklar mijozlar bilan tuzilgan vositachilik yoki topshirig' shartnomalari asosida qimmatli qog'ozlar oldi sotdisi bo'yicha operatsiyalarни bajarishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun mijozlar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari hamda vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha sotishdan olingan pul mablag'laringin hisobi 22608- «Mijozlarning qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalari bo'yicha mablag'lari» hisobvarag'ida yuritiladi. Analitik hisobi mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha yuritiladi.

Sotish uchun olingan yoki mijoz topshirig'inining bajarilishi natijasida sotib olingan naq qimmatli qog'ozlar 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» va 93623- «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar tijorat hujjatlari» ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida nominal qiymat bo'yicha:

Dt 93616 «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar tijorat hujjatlari» hisobvarag'i,

Kt 96379 «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvarag'i»

Analitik hisobi har bir shartnoma bo'yicha ochiladigan alohuda shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Mijozlarning topshirig'i bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotishda, sotilmagan qimmatli qog'ozlarni mijozlarga qaytarishda, shuningdek, mijozlarga ularning topshirig'i bo'yicha xarid qilingan qimmatli qog'ozlarni topshirishda nominal qiymat bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvi amalgalashiriladi:

Dt 96379 «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvarag'i»,

Kt 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar tijorat hujjatlari».

Banklar tomonidan brokerlik operatsiyalarini bajarishdan olingan daromadlar esa 45209 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalgalashirilgan

brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlar» hisobvarag'ining kreditiga o'tkaziladi va daromad sifatida tan olinadi.

Qimmatli qog'ozlar bilan muddatli bitimlar deganda,- bitimni tuzish sanasidan farq qiluvchi hisob-kitoblarning aniq sanasi ko'rsatilgan holda shartnomalar bilan rasmiylashtirilgan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari (REPO bitimlari, fyucherslar va x.k.) tushuniladi.

Muddatli bitimlar tuzishda hisob-kitob qilish sanasi bitimni tuzish sanasi bilan mos kelmaydi. Muddatli bitimlar Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiq. bitim tuzish sanasidan boshlab hisob-kitoblar o'tkazish muddatiga qadar ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olinadi. Hisob-kitoblar boshlangan kuni bir vaqtning o'zida belgilangan tartibda balans hisobvaraqlarida aks ettirish bilan birga bitimlarni ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olish to'xtatiladi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar operatsiyalarida fyuchers kontraktlari ham tuzilishi mumkin. Fyuchers kontraktlarini tuzishda qimmatli qog'ozlarning xaridori bo'lgan bank ularni sotib olish bo'yicha majburiyatlarini bitim tuzish sanasidan boshlab, hisob-kitoblar qilish sanasigacha hisobga oladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi, 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» debetlanib, 96374 «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i» kreditlanadi. Qimmatli qog'ozlarning turlari va shartnomalari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlar yuritiladi.

Hisob-kitoblar sanasi kelganda ularning haqini to'lashda va olishda xaridor bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha balans hisobida tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Dt 96374 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

Kt 92802 «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'i.

Fyuchers kontraktlarini tuzishda qimmatli qog'ozlarning sotuvchisi bo'lgan bank ularni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlarini bitim tuzish sanasidan boshlab, ular bo'yicha hisob-kitoblar qilinadigan sanagacha hisobga oladi:

Dt 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'i.

Kt 96376 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

Hisob-kitoblar sanasi kelganda, ularning haqini olishda va yetkazib berishda sotuvchi bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha balans hisobida tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bajariladi,

Dt 96376 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

Kt 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'i.

Shuningdek, banklarda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha REPO operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

REPO (qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'nsidagi kelishuv) bitimi deganda, ma'lum muddatdan so'ng oldindan kelishilgan bahoda sotib olish majburiyati bilan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha tuzilgan bitim tushuniladi.

REPO bitimlari quyidagi tamoyillarning hech bo'limganda biri bajarilgan taqdirda moliyalashtirish operatsiyalari sifatida hisobga olinadi: avval sotilgan qimmatli qog'ozlarning o'zi qayta sotib olinsa; agar qayta sotib olinayotgan qimmatli qog'ozlar barcha jihatlariga ko'ra sotilgan qimmatli qog'ozlarga o'xshasa.

Qimmatli qog'ozlar quyidagi shartlar bajarilsa «barcha jihatlariga ko'ra o'xshash» deb qaraladi: qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir shaxs va shu shaxsning o'zi majburiyatlar olgan bo'lishi; qimmatli qog'oz egalarini bir xil tavakkalchilik va huquqlar bilan ta'minlanishlari uchun ushbu qog'ozlar shakl va ko'rinishi jihatidan bir xil bo'lishi; qimmatli qog'ozlar bir xil soiz stavkasiga ega bo'lishi; qimmatli qog'ozlar bir xil to'lov muddatiga ega bo'lishi; qimmatli qog'ozlar bir xil nominal qiymatga ega bo'lishi zarur. Aks holda REPO bitimlari qimmatli qog'ozlar oldi - sotdisi operatsiyalari sifatida hisobga olinadi.

Ayrim holatlarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar REPO bitimlari hisobini moliyalashtirish operatsiyalari sifatida hisobga olinadi. REPO bitimlarining yuridik shakli oldi-sotdi bitimi bo'lganligi sababli, ushbu operatsiyalarning iqtisodiy mohiyati xarid qilingan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan moliyalashtirishdir. Xalqaro andozalarga

muvofig, buxgalteriya hisobi uning yuridik shakliga emas, iqtisodiy mohiyatiga qarab amalga oshirilishi lozim.

REPO bitimlari qimmatli qog'ozlar garovi asosida kreditlash operatsiyalaridan shu bilan farq qiladiki. qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda ularga egalik qilish huquqi qarzdordan kreditorga o'tadi. Ushbu operatsiyalarda qimmatli qog'ozlar sotuvchisi qarzdor, xaridor esa pul mablag'lari kreditori rolini bajaradi.

REPO kelishuvida ko'rsatilgan muddat tugagach. qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismi bajarilgan taqdirda ularga egalik qilish huquqi qayta kreditordan qarzdorga o'tadi.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda qimmatli qog'ozlarni sotuvchi bank tomonidan bitimning birinchi qismi bo'yicha ularni sotish summasiga quvidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 10103-«Pul almashtirish shoxobchalaridagi naqd pullar» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvaragi,

Kt 22300-«REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» hisobvaragi.

Bir vaqtning o'zida bank tomonidan sotilgan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan sotib olinishi lozin bo'lgan qimmatli qog'ozlar summasiga ko'zda tutilmagan holatlari hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya yozuvi bajariladi. 92802-«Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvaragi da qimmatli qog'ozlar REPO operatsiyalarining birinchi qismiga ularning sotish sanasidan boshlab esa, bank tomonidan ikkinchi qismiga muvofig, sotib olish muddatigacha hisobga olinadi.

Kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish narxi va kelishuvning birinchi qismi bo'yicha ularni sotish narxi o'rtaсидаги farq o'z mohiyatiga ko'ra olingan pul mablag'lari uchun to'lov hisoblanadi. Ko'rsatilgan farq amortizatsiya qilinadi va sotuvchi bank tomonidan har oyda qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning amal qilish muddati davomida foizli xarajatlar:

Dt 54300-«Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan - REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvaragi,

Kt 22300-«REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» hisobvaragi.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qayta sotib olingan qimmatli qog'ozlar summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 22300-«REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» hisobvaragi.

Kt 10301- «Markaziy bankdag'i vakillik hisobvaragi - Nostro» yoki 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvaragi.

Bir vaqtning o'zida qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar summasiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya yozuvi bajariladi.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvlarda har bir tomon o'z majburiyatlarni bajarmasa, odaitda, jarima choralarini qo'llashlari mumkin. Kelishuvning ikkinchi qismi bajarilmagan hamda qimmatli qog'ozlar xaridor portfeliga o'tkazilgan taqdirda sotuvchi-bank quyidagi buxgalteriya yozuvini amalga oshiradi:

Dt 22300-«REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» hisobvaragi - bitimning ikkinchi qismiga ko'ra qayta sotib olinay otgan summasi.

Kt 10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» yoki 11300- «Sotib olingan veksellar» yoki 15900-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» hisobvaraqlarning - qimmatli qog'ozlar balans qiymati summasi.

Kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar xaridi narxi va uning balans qiymati o'rtafiga farq tegishli foyda va zararlar hisobvarag'iga kiritiladi.

Bir vaqtida hisob-kitoblar sanasi kelganda, qimmatli qog'ozlar haqini to'lashda va ulami olishda xaridor bank tomonidan ulami sotib olish bo'yicha balans hisobida tegishli o'tkazmalar amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha quyidagi yozuv bajariladi:

Dt 96374- «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvaragi»,

Kt 92802- «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'i.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda qimmatli qog'ozlarni xarid qiluvchi bank kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar xaridi summasiga buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalg'a oshiriladi:

Dt 11800 «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i.

Kt 20200 «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i.

Ayni vaqtida, bank tomonidan xarid qilingan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank sotishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha ham hisobga olinadi.

Kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish narxi va kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar xaridi narxi o'rjasidagi farq o'z mohiyatiga ko'ra sotib oluvchi bank tomonidan berilgan pul mablag'lari uchun to'lov hisoblanadi. Ko'rsatilgan farq amortizatsiya qilinadi va oluvchi bank tomonidan har oyda qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning amal qilish muddati davomida foizli daromadlar hisobvarag'iga kiritiladi, bunda.

Dt 11800 «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i.

Kt 45000 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalg'a oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'ida daromad sifatida hisobga olinadi.

Banklar REPO bitimi bo'yicha kontragentning moliyaviy ahvoli yomonlashgan holda qimmatli qog'ozlarning qayta xaridi bankda shubha uyg'otsa, foizlarni o'stirmaslik tamovillaridan foydalanishlari lozim. Bunda foizli daromad bank balansidan quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan hisobdan chiqariladi, bunda.

Dt 45000 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalg'a oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i.

Kt 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i.

**Hisobdan chiqarilgandan so'ng kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish narxi va kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar xarid narxi o'rtaсидаги farq amortizatsiyasi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga, ya ni**

Dt 95411- «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Kt 96333-«Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida yuritiladigan hisob REPO kelishuvining ikkinchi qismi bajarlidan so'ng to'xtatiladi va bunga

Dt 96333-«Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Kt 95411- «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Balans hisoboti sanasida kelishuvning birinchi qismi bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati balans qiymati bilan tenglashtiriladi. Bozor qiymati balans qiymatidan tushib ketsa, bank xarajatlari hisobidan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi tashkil etiladi. Bunda balans va bozor o'rtaсидаги farq summasiga

Dt 56824-«REPO bitimlari bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i.

Kt 11899-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlardan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i. Bozor qiymati balans qiymatidan oshib ketsa zaxira nolga tenglashtiriladi:

Dt 11899 -«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlardan ko'riliши mumkin byo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i,

Kt 56824-«REPO bitimlari bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i.

REPO bitimiga doir ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi har bir REPO kelishuvi bo'yicha alohida belgilanadi. Agar avval tashkil etilgan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi miqdori yangi hisoblangan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasidan oshib ketsa, zaxira oshib ketish summasiga kamaytiriladi.

Agar avval tashkil etilgan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi miqdori yangi hisoblangan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasidan kam bo'lsa, zaxira hisoblangan hajmgacha qo'shimcha ravishda ko'paytiladi. Ko'naliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi kontr-aktiv hisobvaraq bo'lib, REPO bitimi bo'yicha xarid qilingan qimmatli qog'ozlarning umumiy balans qiymatidan chegiriladi va 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvaraqqqa quyidagi tarzda taqdim qilinadi:

REPO bitimlari bo'yicha xarid qilingan qimmatli qog'ozlar hisobvarag'i balans qiymati minus REPO bitimlari bo'yicha xarid qilingan qimmatli qog'ozlarga doir ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi = REPO bitimlari bo'yicha xarid qilingan qimmatli qog'ozlar hisobvarag'i - sof qiymati.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank quyidagi buxgalteriya yozuvini bajaradi:

Dt 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i,

Kt 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i - kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish summasi. Ayni vaqtida, qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan sotilgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'nda tutilmagan holatlар hisobvaragi bo'yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Bunda kelishuvning ikkinchi qismi bajarilmagan va qimmatli qog'ozlar xaridor bank portfeliga o'tkazilgan taqdirda quyidagi buxgalteriya yozuvi bajariladi: qimmatli qog'ozlar bozor qiymati kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar xaridi summasidan oshib ketsa: ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi miqdorini to'g'rilashga doir buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: qimmatli qog'ozlarni bank portfeliga o'tkazishga doir operatsiyalarga esa, buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

Dt 10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» yoki 11300-«Sotib olingan veksellar» yoki 15900-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» hisobvarag'i,

Kt 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i - kelishuvning birinchi qismi bo'yicha xarid qilinadigan qimmatli qog'ozlar summasi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlar olish summasidan kam bo'lsa: ko'rilihi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi miqdorini to'g'rilashga doir buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi; qimmatli qog'ozlarni bank portseliga o'tkazishga operatsiyalar uchun.

Dt 10700-«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» yoki 11300-«Sotib olingan veksellar» yoki 15900-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar»- bozor qiymatiga,

Dt 11899-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlardan ko'rilihi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)» hisobvarag'i.

Kt 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» kelishuvning birinchi qismi bo'yicha xarid qilinadigan qimmatli qog'ozlar summasi sisatida hisobga olinadi.

Bunda bank foizlarni o'stirmaslik tamoyillariga amal qilmagan bo'lsa, kelishuvning ikkinchi qismini bajarish sanasida 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» - hisobvarag'ida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning balans qiymati kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish summasiga teng bo'lishi lozim. Kelishuvning ikkinchi qismi bajarilmagan holda bank foizli daromadlarni balansdan chiqarishi. ya'ni foizlarni o'stirmaslik tamoyillarini qo'llaydi, bunda.

Dt 45000- «Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i.

Kt 11800-«REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'ida daromad sisatida tan olinadi.

Shu bilan bir qatorda, REPO bitimlari qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari sisatida ham hisobga olinadi. Bunda, qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda qimmatli qog'ozlar sotuvchisi bo'lgan bank balans hisobida qimmatli qog'ozlar sotuvi bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvini amalga oshiradi.

Bunda sotilgan qimmatli qog'ozlar bank balansidan chiqariladi. Ayni vaqtda, bank tomonidan sotilgan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning

ikkinchi qismini bajarishda bank sotib olishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida hisobga olinadi. 92802- «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» -hisobvarag'ida qimmatli qog'ozlar REPO operatsiyasining birinchi qismiga muvofiq. ularning xaridi sanasidan boshlab bank tomonidan REPO operatsiyasining ikkinchi qismiga muvofiq qimmatli qog'ozlarni sotish muddatigacha hisobga olinadi.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bankning balans hisobida qimmatli qog'ozlar xaridi bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvini amalga oshiradi. Ayni vaqtida qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'i bo'yicha ham buxgalteriya yozuvini amalga oshiriladi.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda qimmatli qog'ozlar xaridori bo'lgan bankning balans hisobida qimmatli qog'ozlar sotuvi bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvini amalga oshiradi. Ayni vaqtida bank tomonidan sotib olingan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank sotishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'iga ham o'zgarish suminasi buxgalteriya hisobida yozib qo'yiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Qimmatli qog'ozlar hisobi – bu banklarda qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va ularni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarini buxgalteriya hisobining hisob shakllari hamda registlerida to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining turlari bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash va ularni bankning buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarida o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlashdan iboratdir

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
2. Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish uchun qanday hisobvaraqlardan foydalaniлади?
3. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasini tashkil etish qanday amalga oshirilad?
4. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida qanday operatsiyalarni amalga oshiradilar?
5. Qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
6. Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar deganda nimanı tushunasiz?
7. Investitsiyaga yo'naltirilgan qimmatli qog'ozlar qanday hisobga olinadi?
8. Investitsiyaga yo'naltirishdan asosiy maqsad nima va ularning manbalarini aytинг?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Кимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида»ги конуни. 02.09.1993й.
2. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкстарининг кимматли қоғозлар билан боғлик операцияларига доир қонунчилик хуҗжатлари тўплами. -«Ўзбекистон.» 2003 й.
3. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия хисоби ва хисоботи тўғрисидаги йўрикнома. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатга олинган.
4. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия хисобининг хисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири).
5. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. Москва. 2008, стр. 209
6. Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг: Учебное пособие. - 2-е изд стер.- М., КНОРУС, 2009.- 336 с.
7. Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.

## **12-bob. BANKLARDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI**

### **12.1. Banklarda moliyaviy natijalarining shakllanishi**

Banklarda moliyaviy natijalar operatsion oy yakunlangandan so'ng yakuniy balansda o'z aksini topadi. Biroq, moliyaviy natijalarni to'liq barcha bank operatsiyalari bo'yicha aniqlash, shuningdek, bank majburiyatlarini qoplash va ularni to'lab berish yillik moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topadi. Banklarda ham moliyaviy natijalarni shakllantirish amaldagi me'yoriy hujjalarga asosan amalga oshiriladi.

Shu boisdan, Banklarda moliyaviy natijalarni aks ettirish uchun buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari 31200 - «Taqsimlanmagan foyda», 40000 - «Daromadlar» va 50000 - «Xarajatlar» hisobvaraqlaridan foydalaniлади. Bunda, tijorat banklari faoliyatini amalga oshirishdagi barcha operatsiyalar bo'yicha sarflanadigan va to'lanadigan xarajatlarni 50000- «Xarajatlar» hisobvaraqlarida aks ettirilib, butun oy yoki yil davomidagi xarajatlar analitik va sintetik hisob ma'lumotlarida rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, bank operatsiyalari faoliyatini tashkil qilish va mijozlariga xizmat ko'rsatish jarayonida ulardan foizli hamda foizsiz tarzda olingan ustamalar, shu bilan bir qatorda, bank tomonidan o'z aktivlarini daromadli manbalarga joylashtirilishi tufayli olingan daromadlarning barchasi 40000-«Daromadlar» hisobvaraqdada hisobga olinadi.

Natijada, bank faoliyatini amalga oshirishda qilingan barcha xarajatlar olingan daromadlar hisobidan qoplanishi va ortiqcha mablag'lar bankning hisobot yilidagi (oy) sof foydasi hisoblanadi. Ushbu sof foyda hisobidan soliqlar va aksiyadorlarga to'langan (dividenddan soliq) dividendlardan qolgani bankning taqsimlanmagan foydasiga o'tkaziladi.

Ushbu yuqorida operatsiyalar bankning moliyaviy natijalarini ifodalab, ushbu natijalar buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida har bir operatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ularni daromad va xarajat sifatida bank faoliyatining turlari bo'yicha alohida-alohida hisobga olishni talab qiladi.

## **12.2. Bankdarda xarajatlari va ularning buxgalteriya hisobi**

Banklarning xarajatlari bu bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan foizli va foizsiz hamda bank operatsion xarajatlaridan tashkil topadi. Ushbu xarajatlarning barchasi buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi 50000 - «Xarajatlар» hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi.

Bankning foizli xarajatlariiga quyidagi operatsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlari kiradi: talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning turlari bo'yicha foizli xarajatlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari, boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari, qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlari, boshqa foizli xarajatlardir.

Forzsiz xarajatlarga esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, boshqa banklarga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, qimmatli qog'ozlar oldi-soldi operatsiyalar bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, qinomatbaho metallar, toshlar va tangalar oldi-soldi operatsiyalar bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari, sotib olingen veksellar bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, akkreditivlar va akseptlar bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari, overdraft bo'yicha xarajatlari, kreditlar bo'yicha vositachilik xarajatlari, kredit majburiyatları bo'yicha xarajatlari, menejment bo'yicha xarajatlari, sindikat kreditlarda qatnashish bilan bog'liq xarajatlari, mahalliy to'lovlari bo'yicha va vositachilik xarajatlari, xorijiy to'lovlari bo'yicha va vositachilik xarajatlari, inkasso operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari, kasolat va kafillik operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari, boshqa vositachilik va xizmat xarajatlari, boshqa foizsiz xarajatlari, ya'ni bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlari, bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlari va boshqa zararlari kiradi.

Bankning operatsion xarajatlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin; bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa

xarajatlari, ijara va ta'minot xarajatlari, xizmat safarları va transport xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, reprezentatsiya va xayriya xarajatlari, eskirish xarajatlari, sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar va ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatlari hamda dagomad solig'ini baholashdan iboratdir.

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalarini doirasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignatsiyalarini hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrgacha o'tkazilishi lozim.

### **12.3. Banklarda operatsion xarajatlar hisobi**

Tijorat banklar o'z operatsion xarajatlarini bank Boshqaruvi tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta doirasida amalga oshiradilar.

Bankning operatsion xarajatlarini smetasi bo'yicha mablag'larni bank rahbari tasarruf etadi. Bank rahbari bank bo'yicha buyruq chiqarib, smeta xarajatlarini tasarruf etish huquqini o'z o'rinnbosarga ishonib topshirishga haqlidir. Bank Boshqaruvi raisi ham buyruq chiqarib smeta bo'yicha xarajatlarni tasarruf etish huquqini o'zining bиринчи o'rinnbosarga berishi mumkin. Biroq, smeta bo'yicha xarajatlarni tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berib qo'yish bilan bank Boshqaruv raisini uning smeta intizomi ahvoli uchun qonunda belgilangan shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta doirasida moliyalashtirish hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrgacha o'tkazilishi lozim.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi bank tomonidan «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasida belgilangan tartibda aks ettililadi. Bank operatsion xarajatlari bo'yicha hujjatlarni rasmiyalashtirish vazifasi yuklatilgan xodim bu xarajatlar bo'yicha hujjatlarni buxgalteriya o'tkazmalari uchun qabul qilayotganda quyidagilarni tekshiradi:

a) puli to'lanayotgan hujjatda kreditlarni tasarruf etuvchining ruxsat imzosi bor-yo'qligi;

b) puli to'lanayotgan hujjatdagi xususiy summalar va yakunlar to'g'riligi;

v) hujjat to'g'ri rasmiylashtirilgani va xususan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun tuzilgan to'lov hujjatlariiga bankning tegishli mansabdon shaxslari bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qabul qilinganini tasdiqlab qo'ygan imzolarning bor-yo'qligi;

g) sotib olingan moddiy qimmatliklar uchun yozilgan to'lov hujjatlarda bu qimmatliklarni ular but saqlanishi uchun javobgar shaxslar qabul qilib olganligi to'g'risidagi tilxatlamining bor-yo'qligi;

d) hujjat puli hisoboti topshiriladigan summalaridan to'langan hollarda pul olingani to'g'risida hujjatga imzo chekildgani.

Agar hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshirilsa, u holda memorial order tuziladi. Memorial va kassa orderlari bank ichki hisobvaraqlari bo'yicha hisob yuritadigan buxgalter hamda bosh buxgalter yoki uning o'rinnbosari tomonidan imzolanadi. Kelajakdagi hisobot davriga tegishli bo'lgan xarajatlar tegishli hisobot davri davomida amortizatsiya qilinishi lozim.

Bunday xarajatlarga yil oxirida ta'milga ketayotgan xodimlarga to'langan ish haqi, xususan kelasi yilga taalluqli to'lovlari, davriy nashrga obuna bo'lish bo'yicha, kelgusi yillar smetalari hisobidan o'mi qoplanishi kerak bo'lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash xarajatlari summasi, binoni ijarasi uchun oldindan to'lov, oldindan sug'urta badali, oldindan auditorlik xizmatlari uchun to'lovlari, faoliyat ko'rsatish bilan bog'liq tashkiliy xarajatlar va boshqa soliq to'lovlari misol bo'lishi mumkin.

Avtotransportdan foydalanish va uni joriy ta'mirlash xarajatlari, foydalanilgan yonilg'i qiymati hisobi «Transportni saqlash va shahar bo'ylab yurish» nomli alohida shaxsiy hisobvaraqa yuritiladi. Bundan tashqari, mazkur shaxsiy hisobvaraqa markazlashtirilgan ta'minot anjomlarini viloyat doirasida tashish xarajatlari hisobi han olib boriladi.

Bank reklama va xabar berish, kanselyariya anjomlari va ofis buyumlarini sotib olishga qiladigan xarajatlar, pochta, telefon hamda faks xarajatlar, davriy nashrlar, kitoblar, gazetalar uchun qiladigan xarajatlar hisobi «Ma'muriy xarajatlar» nomli shaxsiy hisobvaraqa tegishli tarzda ikkinchi tartib hisobvaraqlarida yuritiladi. Bu hisobvaraqlar bo'yicha xarajatlar bosh bank belgilagan smetalari chegarasida qilinadi. Bank xodimlarining ish haqi va ularga to'lanadigan boshqa to'lovlari qonun hujjatlariiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Hisobdoplilik asosidagi mablag'lar amaldagi ehtiyojga qarab beriladi va ular faqat bevosita ko'zlangan maqsadlarga, ya'ni xizmat safaplapi, xo'jalik xapajatlapi va boshqalapga sapflanishi lozim. Xizmat safari xarajatlariga ish haqi hisobidan bo'naklar berish taqiqlanadi.**

Xizmat safapi xapajatlapi uchun bo'naklar xizmat safariga jo'natilayotgan xodimning shaxsan o'ziga beriladi. Xizmat safari xarajatlari uchun bo'naklarning hammasini guruhi rahbarlariga berish taqiqlanadi. Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar uchun hisobdoplilik asosidagi mablag'lap xizmat safariga boradigan shaxslarga xizmat safari joyiga etib borish va qaytib kelish qiymatini, kundalik xarajatlarni hamda turar joy xapajatlarini qoplaydigan summalar chegarasida beriladi.

**Hisobdorlik asosida pul olgan har bir bank xodimi o'zi olgan bo'nakni qanday sarflagani to'g'risida bo'nak hisoboti topshirishi. unga xo'jalik xarajatlari bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilishi shart. Bu hisobot bo'nak olinganidan keyin ko'pi bilan 3 kun ichida, xizmat safari xarajatlari bo'yicha esa safardan qaytilganidan so'ng uzog'i bilan 3 kun ichida topshirilishi zarur.**

**Hisobdorlik asosida bepilgan mablag'lapning sarflanmagan qoldiqlari topshiriq bajarilganidan yoki xizmat safaridan qaytilganidan keyin bank kassasiga topshirilishi lozim. Agar topshiriq bekor qilinsa, uni bajarish uchun hisobdorlik asosida berilgan bo'nak summasi darhol qaytarilishi kerak. Yangi bo'nak berilishi uchun avval olingan bo'nak bo'yicha to'la hisob-kitob qilingan bo'linishi shart.**

**Hisobdor shaxs o'zi bajarayotgan topshiriqlar xususiyatiga ko'ra yonida doimo naqd pul olib yurishi zarur bo'lgan hollar bundan mustasno. Sarflangan summani to'ldirish uchun yangi bo'nak berilishi mumkin bo'lgan bo'nak qoldig'i miqdori banklar rahbarlari tomonidan belgilanadi. Tasdiqlangan bo'nak hisobotlari bo'yicha tegishli hisobvaraqlarga kiritiladigan xarajatlar, garchi u berilgan bo'nakdan ortgan bo'lsada, to'la summada hisobdor shaxslar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar kreditida qayd etiladi. O'tgan yili tugallangan xizmat safarları bo'yicha sarflangan bo'naklar to'g'risidagi hisobotlar o'sha yilning o'zida qayd etilishi lozim.**

**O'tgan yili boshsanib, yangi yilda tugallangan xizmat safarları bo'yicha sarflangan bo'naklar to'g'risidagi hisobotlar yangi yil aylanmalarida qayd etiladi. Sarflanganligi to'g'risidagi hisobot**

berilmagan summalar ham 1 yanvar holatidagi hisobdor shaxslar hisobvaraqlari qoldiqlarida aks ettirilishi lozim.

## **12.4. Banklarda daromadlar va ularning buxgalteriya hisobi**

Banklarning daromadlarini to'g'ri hisobga olish va moliyaviy hisobot shakllarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuuni shakllantirishda buxgalteriya hisobi alohida ahamiyatga ega. Banklarda buxgalteriya hisobining amaldagi hisobvaraqlar rejasida bank daromadlarini hisobga olish uchun alohida to'rtinch bo'lim hisobvaraqlari tayinlangan bo'lib, ularda bank daromadlari turlari bo'yicha hisobga olinadi. Bank o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida daromadlar oladilar va bu daromadlar foizli va foizsiz ko'rinishga ega bo'lib, bank faoliyatining moliyaviy ahvoliga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu daromadlar quvidagi manbalardan: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlari, boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlari, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlari, soushga mo'ljalangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlari, sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlari, mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar, bankning to'lanmagan akseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga shuningdek, boshqa mulkchilik shaklidagi yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan qisqa hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlari, so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlari, boshqa foizli daromadlari, lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizi daromadlari, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlardan tashkil topadi.

Foizsiz daromadlar esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hamda boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlari qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlari, bankning qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar bilan amalga oshirgan operatsiyalari bo'yicha daromadlari, sotib olingan debitorlik qarzları bo'yicha daromadlar – faktoring, bankning trast operatsiyalari bo'yicha

daromadlari, akkreditivlar va akseptlar bo'yicha vositachilik va boshqa xizmatlar uchun olingan daromadlari, overdraft bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun daromadlari, kreditlar bo'yicha vositachilik daromadlari, kredit majburiyatları bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar, menejment xizmati bo'yicha daromadlari, sindikat kreditlarda qatnashganlik uchun olingan daromadlari, mahalliy to'lovlardan bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlari, xorijiy to'lovlardan bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlari, mijozlarning inkasso operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlari, kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlari, boshqa ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar, xorijiy valutalardagi foyda, qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va shu'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan olingan foyda va dividendlari, investitsiyalardan olingan foyda va dividendlari, boshqa foizsiz daromadlari, ya'ni bank asosiy vositalarining ijarasidan olingan daromadlari bankning boshqa ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalaridan olingan daromadlari, bank asosiy vositalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foydasi, bankning boshqa xususiy mulklarini sotish va yoki dispozitsiya qilishdan olingan foydasi, hisobdan chiqarilgan mablag'larining qaytarilishidan ko'rilgan daromadlardan iborat.

Ushbu hisobvaraqlar passiv hisobvaraqlar bo'lib, ularning kreditida olinadigan daromadi hisobga olinadi va hisobvaraqlarning debetiga esa qachonki olingan daromad foyda tarkibiga o'tkazilganda yoziladi. Shuningdek, ushbu hisobvaraqning debetiga olinadigan foiz daromadlari noto'g'ri hisoblanganda ham yoziladi. Agar tijorat banki 01.07.2007 yil holatiga o'z mijozni bo'lган qo'shma korxonaga 1 000 000 so'm qaytarish sharti bilan 6 oy muddatga, yillik 20% miqdorida qisqa muddatli kredit berdi. Bir oylik o'rtacha foiz to'lovi 16667 so'm. Ushbu operatsiyalar buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Asosiy kredit summasiga,

Dt 12901- «Chet el kapitali ishtiroyidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvaragi - 1000000 so'm,

Kt 16103- «Bosh bank / filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvaragi - 1000000 so'm.

Foiz hisoblanganda esa,

Dt 16309- «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i - 16667 so'm.

Kt 42401- «Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i 16667 so'm.

Agar ushbu hisoblangan foiz summasi mijoz tomonidan to'lansa unda:

Dt 20214- «Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari» hisobvarag'i - 16667 so'm.

Kt 16309-«Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i - 16667 so'm.

Hisoblangan foiz to'lovleri yil oxirida sof foyda tarkibiga o'tkazilganda,

Dt 42401- «Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'i - 100000 so'm.

Kt 31206- «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvarag'i - 100000 so'm.

Kreditning asosiy summasi to'liq qaytarilganda.

Dt 16103- «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisobkitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i - 1000000 so'm.

Kt 12901- «Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'i - 1000000 so'm.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank daromadlarining tarkibida investitsiyalardan olinadigan daromadlar ham sezilarli solmoqqa ega. Ushbu daromadlar 44800-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraqning kreditida investitsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz daromadlari, debetida esa ushbu daromadlar foyda tarkibiga o'tkazilishi aks ettiriladi. Investitsiya qilingan mablag'larga hisoblangan foiz summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi:

Dt 16311- «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

Kt 44800-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» – tegishli hisobvaraqlari.

Foiz daromad sifatida tan olishda, esa,

Dt 44800-«So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar» tegishli hisobvaraqlar bo'yicha foiz daromadlari.

Kt 31206- Sof foyda (zarar) hisobvaragi.

Shunday kilib, banklar faoliyatida olinadigan daromadlarning buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabi darajasida tashkil qilishni ta'minlaydi va banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuuni vujudga keltiradi.

## 12.5. Bankarda daromadlar va xarajatlarni tan olish usullari

Daromadlar – bu bankning odatdag'i faoliyati natijasi sifatida iqtisodiy resurslarning yovud aktivlarning oqib kelishi yoki o'sish yo'li orqali yoxud majburiyatlarning qisqarishi yo'li orqali o'sishidir.

Xarajatlar – bu foydani ko'paytirish maqsadida bank faoliyatidan kelib chiqadigan passivlarning kamayishi yoki majburiyatlarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda tan olishni moddaning bank moliyaviy hisobotlariga kiritilishi jarayoni deb ta'riflaydi. Tan olish ko'rsatilgan summani hisobotning yakuniy ko'rsatkichlarida aks eturishdan iboratdir.

Daromad moddalarini qondirish lozim bo'lgan tan olish mezonlari quyidagicha:

a) modda o'lhash uchun tegishli asosga ega va summani oqilona baholashni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;

b) kelgusida iqtisodiy mansaatlarning olinishi mumkinligi yoki olinishidan iboratdir.

Shunday qilib, daromadlar, odatda, shartnomaning bajarilishi amalga oshirilganda va tushumni o'lhash hamda olish imkoni mavjudligi to'g'risida qat'iy ishonch hosil bo'lganda tan olinadi. Daromad va xarajatlar o'zaro sabab-natijaviy munosabatlар bilan bog'liq bo'lganda xarajat daromadga mos keladi va bitta dav'i daromadining yakuniy hisob-kitobiga kiritiladi. Boshqa hollarda xarajatlar daromadlar bilan

bog'liq bo'lmasligi mumkin, biroq, operatsiyalar amalga oshiriladigan davrga tegishli bo'lishi mumkin.

Tan olishning 4 mezon - aniqlash, baholash, o'z vaqdilik va ishonchilik - molivaviy hisobotlarda tan olish uchun hamma modalarga nisbatan qo'llaniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda banklar daromadini vaqtiga muvofiq tan olishda quyidagi usullardan foydalanish qo'llaniladi: daromadlarni tan olishning kassa usuli, shartnoma yoki aktivdan foydalanish davri davomida tan olish usuli.

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari ichida shundaylari mavjudki, ulardan olingan daromad xizmatlar bajarilganida tan olinadi. Shuning uchun ham daromadni tan olishning ushbu usuli kassa usuli deb ataladi.

Shartnoma yoki aktivdan foydalanish davri davomida daromadni tan olish usuli bank o'z aktivlaridan boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanish uchun shartnoma asosida berilganda qo'llaniladi. Banklarning daromadlari ularning xarajatlarini qoplaydigan asosiy manba hisoblanadi. Bank daromadlari asosan ikki manbadan tashkil topadi: foizli va foizsiz daromadlardan, shuningdek, bank xarajatlari ham uch manbadan, foizli va foizsiz hamda operatsiyaon xarajatlardan, ulaniing tarkibi yuqoridaqgi paragrafdi keltirilgan.

### **Qisqa xulosalar**

Tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi - bu bank raoliyatining umumiyligi natijalarini aniqlash va bu natijalarning vujudga kelish manbalarini chuqur o'rGANISH hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarni inobatiga olib, xarajat va daromad sifatida tan olish davrlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirishdan iboradir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklarida moliyaviy natijalarni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy natijalarni shakllantirish qaysi me'yoriy hujjatlarga asosan tartibga solinadi?
3. Banklarda moliyaviy natijalar qachon aniqlanadi?
4. Bankning operatsion xarajatlari smetasi deganda nima tushuniladi?
5. Bank xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?

6. Banklarda operatsion xarajatlar deganda qanday xarajatlarni tushunasiz?
7. Bank daromadlari nima va ular qachon daromad sifatida tan olinadi?
8. Bank daromadlari va xarajatlari buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida qaysi bo'limlarda aks etturilgan?
9. Bank daromadlari qachon daromad sifatida tan olinadi?
10. Bank xarajatlari qachon xarajat sifatida tan olinadi?

#### **Asosiy adabiyotlar:**

- 1 Банкларнинг хисоб снёсати ва молиявий хисоботлари тўғрисидаги Низом. 19.07.2003й
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларининг чоп этиладиган йиллик молиявий хисоботларига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом. 02.10.2004й.
3. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия хисоби ва хисоботи тўғрисидаги йўриқнома. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатга олинган.
4. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкстарида бухгалтерия хисобининг хисобвараклари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатта олинган (янги таҳрири).
- 5 Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ – М.. «Дашков и К », 2008. – 288 с.
6. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке. Москва.. 2008, стр. 209
- 7 Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка Учебник – М.. КНОРУС. 2009 – 656с.
- 8 Усатова Л.В. Серошин М.С. Бухгалтерский учет в коммерческих банках -Москва.. 2007, стр. 399
9. Наврўзова К.Н. ва бошқалар, Банк хисоби, Ўқув қўлланма. - Т., «Фан ва технология», 2006.
10. [www.bankclub.ru/rankings-bk.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bk.htm). По активам
- 11 [www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm). По капиталу
12. [www.bankclub.ru/rankings-bpp.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bpp.htm). По прибыли
- 13 [www.bankclub.ru/rankings-bpa.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bpa.htm). По текущему доходу

## **13-bob. BANKLARDA MOLIYAVIY HISOBOT**

### **Banklarda kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilish**

Banklar kunlik bajarilgan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'matilgan shaklda kunlik balans hisoboti tuzadi. Kunlik balans hisoboti Bosh bank tomonidan butun bank bo'yicha yagona qilib tayyorlanadi.

Bosh bankning Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti tomonidan yagona balans hisobotini tuzish ustidan monitoring o'matiladi. Yagona balans «Bank binosidan tashqarida joylashgan mas'ul ijrochi buxgalter» qoidasi asosida shakllantiriladi. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlovchi Bosh server Bosh bankda, filiallarda esa yagona lokal hisoblash tarmog'iga ulangan buxgalter, iqtisodchi, filial rahbariyati va boshqa xodimlarning ishchi stansiyalari joylashgan bo'ladi.

Filiallarda barcha pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshirilayotgan operatsiyalar maxsus o'matilgan belgilar sifatida Bosh serverga avtomatik uzatiladi va shu zahoti Bosh serverda aks ettiriladi. Har ish kuni oxirida Bosh bankda kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalarining banklararo, filiallararo va ichki bank operatsiyalariga bo'lingan holdagi ro'yxati tayyorlanadi. Bu operatsiyalarining jamlanma summasi kun mobaynida amalga oshirilgan butun bank operatsiyalari summasiga teng bo'lishi lozim.

Bosh bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning Axborotlashtirish bosh markazidan END faylini olgandan so'ng, kun yopish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni bajaradi va shu zahoti o'zining filiallariga kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida END faylga mos bo'lgan nazorat faylini yuboradi.

Bank filiallari o'matilgan tartibda kunlik buxgalteriya hujjatlarini yig'majildga tikishlari va ularni balans ma'lumotlari bilan solishtirishlari lozim. Har bir hisobot shakli filial rahbari va bosh buxgalteri tomonidan sinchiklab tekshiriladi.

Bosh bank rahbarlari balans bo'limgan, hisobda tartibga solinmagan tafovutlar chiqqanda va bir kun davomida mijozlarga xizmat ko'rsatilishi ta'minlanmagan hollarda bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur barcha chora-tadbirlarni ko'rishi lozim. Bank filiallari rahbarlari va bosh buxgalterlari balans chiqmaganligi haqida belgilangan

muddatda Bosh bankka xabar qilmasalar, ularga nisbatan egallab turgan lavozimlaridan ozod qilishgacha bo'lgan choralar ko'rildi. Balansning to'g'ri tuzilganligi quyidagi tartibda tekshiriladi:

kunlik balansning aktiv va passivlarning qoldiqlar bo'yicha yakunlari tengligi;

- «Ko'zda tutilmagan holatlар» hisobvaraqlari qoldiqlari yakunining to'g'riligi, shu hisobvaraqlar bilan ularga tegishli kontr-hisobvaraqlar qoldiqlarining o'zaro tengligi;

- aktiv hisobvaraqlarda kredit qoldiq, passiv hisobvaraqlarda debet qoldiq bo'imasligi;

- aktiv hisobvaraqlarga ochilgan kontr-aktiv hisobvaraqlar qoldig'i shu aktiv hisobvaraqlarga qoldig'idan ortiq bo'imasligi, passiv hisobvaraqlarga ochilgan kontr-passiv hisobvaraqlar qoldig'i shu passiv hisobvaraqlarga qoldig'idan ortiq bo'imasligi;

- Bosh bankda ochilgan 16100 va 22200 - hisobvaraqlari qoldiqlari hamda ular bo'yicha ochilgan ikkinchi tartibli mos hisobvaraqlarning qoldiqlari o'zaro teng bo'lishi;

- asosiy vositalar, daromadlar va xarajatlar hamda bank kapitali hisobi faqat milliy valutada yuritilishini ta'minlash va balansning rezident va norezident ustunlarini shunga mos ravishda to'ldirilganligi.

Balansning to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan so'ng kunlik buxgalteriya hisoboti sifatida bir nusxa balans chop etiladi. Bankning yagona kunlik balansi bank rahbari va Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori tomonidan imzolauishi lozim. Filiallar balansi filial boshqaruvchisi va uning bosh buxgalteri tomonidan, kassa operatsiyalari bo'yicha hisobtlarga ulardan tashqari kassa mudiri yoki mas'ul kassa xodimi imzo chekadi.

Banklar balansi boshqa zarur ma'lumotlar bilan birgalikda Markaziy bankka taqdim qilish uchun Bosh serverdan Axborotlash boshqaruvi tizimiga uzatiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat budjeti kassa ijrosi departamenti tijorat banklari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy Bosh boshqarmalarining balanslarini alohida jamlab, so'ngra butun respublika banklari bo'yicha yig'ma balans tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank balansi Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat budjeti kassa ijrosi departamenti tomonidan, tijorat banklari balanslari Kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va

tartibga solish departamenti tomonidan tahlil qilinadi. Tahlil natijalari bo'yicha tijorat banklariga tegishli ko'rsatmalar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning vakolatlari departamentlari ABT dan o'matilgan tartibda balans va boshqa tegishli ma'lumotlar olishi mumkin.

Kunlik balans hisobotlari va shaxsiy hisobvaraqlarga qo'lida bironbir tuzatishlar qilinishiga yo'l qo'vilmaydi. Summalarni o'chirib yozish va tuzatish shuningdek, o'chiruvchi suyuqliklardan foydalanib, ularga tuzatishlar kiritish qatiyan taqiqilanadi.

Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo'natilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish yo'l bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to'g'rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning roziligidisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz o'rasisida tuzilgan shartnomada ko'rsatib o'tilgan bo'lishi shart.

Tuzatish orderlari, agar mijozlarga bitta bank filiali xizmat ko'rsatsa to'rt nusxada tuzilishi lozim. Ularning birinchi nusxasi order bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari mijozlar uchun debet va kredit yozuvlari bo'yicha bildirishnomalar bo'lib hisoblanadi, to'rtinchini nusxa esa order kitobchasida qoladi. Bu kitobcha bosh buxgalter yoki uning o'rribosarida saqlanishi lozim. Orderlarga boshqa hujjatlardan farqlanadigan tartib raqamlari qo'yilishi shart.

Tuzatish orderi matnida qachon va qaysi hujjatda xato yozuvga yo'l qo'yilgani ko'rsatilishi kerak. Agar unga mijoz arizasi sabab bo'lgan bo'lsa, shu sabab ko'rsatiladi. Bunda memorial orderning to'rtinchini nusxasining orqa tomoniga kimning aybi bilan xatolikka yo'l qo'yilganligi qayd etiladi, ijrochining shuningdek, noto'g'ri yozuvni nazoratdan o'tkazgan shaxsnинг lavozimi va familyasi ko'rsatiladi.

Tuzatish memorial orderlari tuzilishida asos bo'lgan arizalar kitobga tikilgan memorial orderlar bilan birga saqlanishi lozim.

Summasi keyinchalik teskari buxgalteriya o'tkazmalari bilan tuzatilgan shaxsiy hisobvaraqdagi xato yozuv qarshisiga, albatta, «To'g'rilangan» belgisi qo'yilishi, to'g'rilash kiritilgan sana va to'g'rilangan memorial orderingi raqami ko'rsatilishi shart. Bu qayd to'g'rilangan memorial orderini imzolagan bosh buxgalter yoki uning o'rribosari imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bosh buxgalter to'g'rilangan memorial orderlarning kitobchada qolgan nuxxalaridan foydalanib, xodimlarning ishidagi xatolar hisobini yuritadi va ushbu xatolar sabablarini o'rganib ishlashi yaxshilash choralarini ko'radi. Banklararo va filiallararo elektron to'lovlar bo'yicha xatolarni memorial orderlar bilan to'g'rilash qat'yan man etiladi.

Banklararo va filiallararo elektron to'lovlar bo'yicha xatolarni to'g'rilash uchun xatolikka yo'l qo'ygan bank filiali, xato elektron to'lovi jo'natilgan bankka «Lotus-Notes» aloqa elektron pochtasi orqali xato o'tkazilgan to'lov to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatgan holda, xato yuborilgan to'lov hujjatini qaytarish to'g'risida iltimosnomasi xati jo'natadi.

Bu holda, xato o'tkazilgan mablag'ni qaytarilmasligidan qat'i nazar, tashabbuskor bank mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan «19997 Boshqa aktivlar» hisobvarag'i orqali oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart.

### **13.2. Banklarda moliyabiy hisobotlarni tuzishning o'ziga xos xususiyatlari**

Buxgalteriya balansi bankning moliyaviy mablag'larini va ularning kelib chiqish manbalarini tegishli guruhlar bo'yicha pul ifodasida ma'lum bir sanaga (kun, oy, chorak va yillik) holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishdir.

Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan buxgalteriya hisobi va hisobotlari, avvalo, ichki va tashqi (bank boshharuvi va xodimlari, bank ta'sischilar, soliq inspeksiyasi, kreditorlar, investorlar) foydalanuvchilarning manfaatlari hamda qiziqishlarini qondirishi, shuningdek, bankning moliyaviy holatiga xolisona baho berish maqsadida tuziladigan ma'lumotlar majmuasi hisoblanadi.

Shu boisdan, banklarda tuziladigan balans hisobotlari muddatiga ko'ra, korxonalarnidan farqli o'laroq, kunlik balans, oylik balans, choraklik balans va yillik balans shaklida tuziladi. Banklarda buxgalteriya xizmatining asosi balans tuzishdan iborat. Kirish balansidan tortib tugatish balansiga qadar bo'lgan davr murakkab buxgalteriya jarayonini qamrab oladi.

Kunlik balansda banklarning o'zlik va jalb qilingan mablag'larning holati, shuningdek, ularni kredit va boshqa daromadli operatsiyalarga joylashtirishi aks ettiriladi. Balans ma'lumotlariga ko'ra, pul

mablag'larining shakllanishi va joylanishi. kredit, hisob-kitob, kassa va boshqa operatsiyalarining holati hamda ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi nazorat qilinadi. Banklarda balanslar tuzilishiga ko'ra: kirim balansi, joriy balans, yig'ma balans (konsolidirovanniy), qayta tiklash balansi, birlashtirish balansi, tugatish balanslariga bo'linadi.

Baians tuzishda ma'lumotlar asosan aylanma qaydnomalardan (oborot vedomostlar) ko'chirib yoziladi. Buxgalteriya hisobotining ikkinchi shakli sifatida «foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobot tuziladi. Bunda bankning daromadlari va xarajatlarining hisobini yuritishda tayinlangan asosiy hisobvaqarlardagi ma'lumotlar korrektirovka qilinib, bankning kunlik, oylik, choraklik va yillik xarajatlari hamda daromadlarining holati bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan inaqsad bankning daromalari va xarajatlarini tahlil qilish, ularni hisoblashdagi xato hamda kamchiliklarini aniqlab, olingan natijalarga asoslangan holda bankning istiqboldagi faoliyatini rejalashtirishdir.

Bankning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarda hisobot oyi davomida naqd pul malag'larining, ya'ni, bankga kelib tushgan va chiqim qilingan pul mablag'larining harakati o'rifodasini topgan bo'ladi.

Buxgalteriya hisobotining 3-shakli balansa ilova hisoblanib, bunda hisobotning birinchi qismida budjet daromadlariga ajratmalar va to'lovlar aks ettirib boriladi. Ikkinci kunida esa markazlashtirilgan sug'urta fondlariga, zaxira fondlariga boshqa maxsus fondlarga ajratmalar aks ettiriladi.

Bank balandsdagagi ma'lumotlar har bir operatsiyaning ro'y berishi natijasida aktivlar va passivlarni holati bo'yicha to'liq ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Bu holat hisob-kitob-pul hujjatlarining dastlabki hisobini tegishli hisob registrlarida rasmiy lashtirilib. so'ngra buxgalteriya bo'limida analistik va sintetik hisob bo'yicha umumlashtiriladi va buxgalteriya hisobining hisobvaqarlarda ikki yoqlama yozuv orqali aks ettiriladi. Bank ish kuni yakunida har bir hisobvaqarlar bo'yicha qoldiq summalar aniqlanadi. Hisobvarqlardagi oxirgi qoldiq summalar bosh va yordamchi kitobga ko'chiriladi hamda balansda o'matilgan tartibda aks ettiriladi

Buxgalteriya balansi ikki qismdan, aktiv va passivdan iborat bo'lib, ularning o'zarो tengligi balansning to'g'ri tuzilganligi – bankning ish kuni to'liq yakunlanganligini ifodalaydi. Bank balansi o'matilgan

tartibda kunlik, choraklik va yillik buxgalteriya hisoboti shakllarini tuzish ko'rsatmasiga asosan, andozadagi blankalarga tuziladi.

Undagi ko'rsatkichlar urumiy bir o'lchov birligida, ya'ni milliy valutada (qiymat ko'rsatkichida) aks ettiriladi. Bu andozadagi balans blankasidagi satrlar bir nechta bo'lib, moddalari ham turlichadir. Balansning ikkala qismi, ya'ni aktivlar va passivlarning jami summalari bir-biriga teng bo'lishi bilan izohlanadi.

Balansining aktiv tomonida naqd pul mablag'lari, xorijiy valutadagi pul mablag'lar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i, majburiy zaxiralari, qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar, kreditlar, sarmoyalalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hamda boshqa aktivlardan tashkil topadi.

Passiv tomoni esa depozitlar, boshqa banklardan olingan kreditlar, bank tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlar, aksionerlik kapitali kabi hisobvaqlardan iboratdir.

Bankning aktivlari tarkibidagi naqd pullar - bank mablag'lari toifasi bo'lib, bankning to'lov faoliyatining ahvolini belgilaydi va mijozlarning naqd pul mablag'lariiga bo'lgan talabini qondirish uchun bank mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini belgilaydi.

Xorijiy valutadagi pul mablag'lari esa, banklarning valuta bozoridagi operatsiyalarining hajmini ifodalaydi. Markaziy bankdagi vakillik hisobvaqlari - balans hisobvaqlari bo'lib, unda ayni paytda bankda inablag'larning mavjudligini anglatadi. Har bir Banklarning hisobvarag'i Markaziy bankda ochiladi. Mablag'lar o'tkazish va mablag'larning tuzilishi bo'yicha bank amaldagi hamma operatsiyalar vakillik hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Majburiy zaxiralarni fondi Markaziy bankdagi alohida hisobvarag'ida mavjud bank mablag'lari bo'lib. O'zbekistonning hamma tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa, ularning likvidiligidini saqlab turishiga ma'lum darajada kafolatlaydi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar foiz stavkalarini belgilash Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan tijorat banklari likvidiligidini saqlab turishning eng ta'sirchan mexanizmi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar tijorat bankning fond bozoridagi operatsiyalarini aks ettirib, balans aktivining boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarida bankning amaliy faolligini ifodalaydi. Ular emitentlar maqomiga qarab, ikki toifaga bo'linadi; hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli

qog'ozlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar chiqargan qimmatli qog'ozlardan tashkil topadi.

Hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar yuqori darajali likvidliliqi bilan ajralib turadi. ammo bu qog'ozlarning daromadliligi boshqa emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarnikidan bir muncha past bo'ladi.

Kreditlar - tijorat bankining kreditga oid operatsiyalari bo'lib, bankning foyda olishini belgilovchi muddasi hisoblanadi. Balansda kredit muddatlari (qisqa va uzoq) bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakliga qarab tasniflanadi.

Sarmoya - bankning boshqa yuridik shaxslar faoliyatidagi ulushini ifodalaydi. Bank sarmoyalari xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshharish yo'li bilan qo'shimcha foyda, dividend sifatida, boshqa turdag'i daromadlar olish maqsadida turli loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmini izohlaydi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar - bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo'lib, bank o'z faolivatini tashkil etishda moddiy bazasini shakllantirishga va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun yo'naltirilgan mablag'laridir. Ular jumlasiga: bank binolari, inshootlari, kapital qurilish uchun qilingan xarajatlari, ofis va ish mebellari, jihozlari, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi, aloqa vositalaridan iboratdir. Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlar Banklarning kapital xarajatlari miqdori bank aktivlarining 10 foiz miqdorida chegaralangan.

Bank passivida aks ettiriladigan moddalari quy'idagilarni o'z ichiga oladi: depozitlari - bankning boshqa subyektlarda xarid qilgan manbalarini ifodalaydi. Ular talab qilib olinadigan, jamg'arma, muddatli depozitlarga bo'linadi. Talab qilib olinadigan depozitlardan tashqari barcha depozitlar kredit resurslarining eng barqaror manbalaridan hisoblanadi. Jalg qilingan manbalarda muddatli depozitlar ulushining oshishi qo'ilmalarni uzoq muddatga, shu bilan birga, yuqoriroq foiz bilan amalga oshirish imkonini beradi. bu esa bankning omonatlar (depozitlar) bo'yicha foiz xarajatlarini ko'paytiradi.

Boshqa banklardan olingan kreditlar - tijorat bankining bo'sh mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji va mijozlariga pullik xizmatlar hajmini oshirish maqsadida boshqa moliya institutlari bilan o'zaro munosabatlарини ifodalaydi. Biroq, banklararo kreditlar birinchidan, boshqa mablag'larga nisbatan olish imkoniyatining yuqoriligi va

ikkinchidan, eng qimmat kredit manbasi hisoblanadi. Banklarda jalg qilingan mabag'lar ulushida banklararo kreditlarning salmog'i yuqoriligi ularda depozit siyosati yaxshi ishlab chiqilmaganligini izohlaydi.

Bank chiqargan qarz majburiyatlar moddasi – tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlarining ulushini ifodalaydi. Qarz majburiyatlarini chiqarish bankka uzoq muddatli manbaalarmi shakllantish imkonuni beradi. Bundan tashqari, bunday katta hajmdagi qarz mablag'lari bank uchun qulaydir, chunki uning pulini to'lash va qaytarib berish oldindan ma'lum bo'ladi. Bu esa, bankning to'lay olmaslik xavfini kamaytiradi.

Aksiyadorlik kapitali – bankning o'z mablag'lari hajmini anglatadi. Markaziy bank tomonidan Banklarning kapitalining shakllanishini nazorat qiladi va tartibga solib turadi. Bu esa, bank operatsiyalari daromadliligini oshirishi va ularning faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Bank tizimiga ishonchni mustaqkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning moliyaviy faoliyatining sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalgalash oshirib bormoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyatini to'g'risida»gi qonuning 42-moddasiga, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq, banklarning e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlariga doir O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablari to'g'risida nizomi ishlab chiqilgan.

Ushbu nizomning ishlab chiqilishi tijorat banklari yillik hisobotlarining ochiq matbuotda e'lon qilinishi dunyoda muayyan darajada oshkoraliqi bilan ajralib turadigan bank tizimini yaratish uchun dastlabki qadamdir. Ushbu nizomga ko'ra, barcha banklar o'z yillik hisobotlarini, jumladan, balans hisobotini matbuotda e'lon qilishlari lozim. Quyida tijorat banklari tomonidan tuziladigan yillik balans hisobotning namunaviy shaklini keltiramiz (1-jadvalga qarang).

Balandsdagi moddalar bo'yicha ko'rsatkichlar hisobot yili boshiga va hisobot davri oxiriga (kunlik, oylik, choraklik) ko'rsatiladi. Bunday tartibda tuzilishiga sabab, aktivlar va passivlarning holatini o'rganish hamda kelgusida ularning daromadliligini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishdir.

Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan balans hisobotlari konsodatsiyalashgan balans shaklida tuzilib, undagi ma'lumotlar bank filiallarining bir butun moliyaviy ahvolini o'zida mujassamlashtiradi.

1-jadval

**Bankning balans hisoboti  
(201 -vil 2-yanvar holatiga ko'ra)**

(Ming so'm hisobida)

| <b>Aktiylar</b>  |                |
|--|----------------|
| <u>Naqd pullar</u>   | 150151         |
| <u>Markaziy bankdagi vakillik hisobvagi</u>                | 978221         |
| <u>Xorijiy valutadagi pul mablag'ları</u>                  | 1534           |
| <u>Majburiv zaxiralar fondi</u>                            | 163211         |
| <u>Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar</u> | 9523           |
| <u>Berilgan kreditlar</u>                                  | 3597862        |
| <u>Investitsiyalar</u>                                     | 45126          |
| <u>Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar</u>               | 653148         |
| <u>Boshqa aktivlar</u>                                     | 2103456        |
| <b>Jami aktivlar</b>                                       | <b>7702232</b> |
| <b>Majburiyatlar</b>                                       |                |
| <u>Depozitlar, shu jumladan:</u>                           | 5120593        |
| a) Talab qilib olinguncha saqlanadigan                     | 3564594        |
| b) Jamg'armalar  | 126413         |
| v) Muddatli  | 1429616        |
| <u>Boshqa banklardan olingan kreditlar</u>                 | 954630         |
| <u>To'lanmagan akseptlar</u>                               | 0              |
| <u>Boshqa passivlar</u>                                    | 325160         |
| <b>Majburivallarning jami</b>                              | <b>6400383</b> |
| <b>Kapital</b>   |                |
| <u>Aksiyadorlik kapitali</u>                               | 820233         |
| <u>Rezerv kapitali</u>                                     | 420233         |
| <u>Taqsimlanmagan foyda</u>                                | 58156          |
| <b>Kapitalning jami</b>                                    | <b>1301849</b> |
| <b>Jami passivlar</b>                                      | <b>7702232</b> |
| <b>Balansdan tashqari hisobvagarlar</b>                    |                |
| <u>Bank tomonidan berilgan kafolat va kafilliklar</u>      | 4645452        |
| <u>Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaragi</u>       | 412850239      |
| <u>Balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha jami</u>      | 417495691      |

**Bankning balans hisobotlari hisobot oyining oxirgi kuni holatiga tuzilishini talab qiladi.** Balans hisobotlari daromad va xarajatlarni tan olishning hisoblash usuli asosida tuziladi va Markaziy bankka hisobot oyidan keyingi oyning 10- sanasigacha (Toshkent shahri uchun 5- sanaga) topshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan tuzilay otgan ushbu balans hisobotlarning bo'sh qolgan satrlarida yozuv bo'lмагan holda, bo'sh qolgan satrlarga no'l yoki chiziqcha tortib qo'yiladi. Ayrim holatlarda tuzilayotgan balans hisobotlaridagi ma'lumotlar ijobjiy yoki salbiy bo'lsa, albatta, ular salbiy bo'lsa, qavs (-) ichida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Oylik balans hisobotlarini tuzishda hisobotning jami summasi jadvalda so'm hisobida degan yozuv bilan yozib qo'yiladi. Chunki ushbu yozuvlarni (o'qishda) butun shaklda (okrugleni) yozishda xatoliklarga yo'l qo'yilmaslikning oldini oladi.

### **Qisqa xulosalar**

**Banklarda kundalik va boshqa hisobotlar – bu hisobotlar bankning moliyaviv (aktivlari va passivlari) holati bo'yicha ma'lum bir muddatga ma'lumotlar berishidir.** Shuningdek, hisobotlarda aks ettiriladigan natijalarni balansning har bir moddalari bo'yicha asoslanishi tushuniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklarda tuziladigan hisobotlarning qanday turlari mavjud?
2. Banklarda balans qachon tuziladi?
3. Konsolidatsiyalashgan balans deganda nima tushuniladi va boshqa balansdan farqini tushuntiring?
4. Bankning balansi korxona balansidan qanday farq qiladi?
5. Balans hisoboti deganda nimani tushunasiz?
6. Balans qanday qismlardan iborat va ularda nimalar aks ettiriladi?
7. Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobot shakllariga qanaqa ilovalar qilinadi?
8. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda nimalar aks ettiriladi?
9. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda nima aks ettiriladi?
10. Bank hisobotining to'g'ri tuzilishiga va o'z vaqtida topshirilishiga kim javobgar hisoblanadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларининг чоп этиладиган йиллик молиявий хисоботлариiga қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом. 02.10.2004й.
2. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия хисоби ва хисоботи тўғрисидаги йўрикнема. ЎзР АВ томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатга олинган.
3. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия хисобининг хисобваражслари режаси. ЎзР АВ 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (яниги таҳрири).
4. Константинова Е.П. **Международные стандарты финансовой отчетности**. Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.
5. Курсов В.Н. **Бухгалтерский учет в комерческом банке**. Москва.. 2008, стр. 209
6. Усатова Л.В., Серошин М.С. **Бухгалтерский учет в комерческих банках**. -Москва.. 2007. стр. 399
- 7 Наврўзова К.Н. ва бошқалар. **Банк хисоби. Ўқу в қўлланма**. - Т., «Фан ва технология», 2006.
8. [www.bankclub.ru/rankings-bl.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bl.htm). По активам
9. [www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm). По капиталу
10. [www.bankclub.ru/rankings-bpp.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bpp.htm). По прибыли
11. [www.bankclub.ru/rankings-bpa.htm](http://www.bankclub.ru/rankings-bpa.htm). По текущему доходу

## Izohli lug'atlar

**Avans** (fr. avance) - mo'ljallangan xarajat va to'lov uchun berilgan pul mablag'ları. Davlat Markaziy bankining ko'satnasiiga ko'ra avans xalq xo'jaligida kassa jarayonlarini olib borish qoidalariiga, asosan, qat'iy belgilangan maqsadlar uchun beriladi.

Agent kelishuvı - shartnomaga turi bo'lib, jismoniyligiga yoki uridik shaxs bilan tuziladi. Shartnomada buyurtmachi nomidan va uning hisobiga ma'lum bir majburiyatlarni agent tomonidan bajarilishi kelishib olinadi.

Aktiv - buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, ma'lum bir muddatga subyekt mablag'larining tarkibi va joylanishini pul ko'rinishida aks ettiradi.

**Akkreditiv** (lat. accredo - ishonaman) - naqd pulsiz hisob-kitob turlaridan biri. Ma'lum bir tovar va xizmatlar uchun belgilangan muddatda mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun ajratilgan pul mablag' idir.

**Aksept** (lat. acceptuk - qabul qilingan) - belgilangan sharoit bo'yicha shartnomaga tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitobda aksept xaridoring mol yetkazib beruvchi taqdirmaligida qilgan hisobini to'lashga rozilik bildiradi.

**Akseptant** (lat. acceptane - qabul qiluvchi) - hisob bo'yicha to'lovnini analga oshirish uchun rozilik bildirish.

**Akseptlash** (lat. acceptare - qabul qilish) - to'lov hisobini qabul qilish, mol yetkazib beruvchi schetiga to'lovnini o'tkazishga rozilik berish.

**Aksiyalar** - aksiyadorlik jamiyati kapitaliga ma'lum bir ulushning qo'shilganligiga guvoh beruvchi va dividend ko'rinishida foydaning bir qismini olishiga huquq beruvchi qimmatli qog'oz.

**Aksiyadorlar** - aksiyadorlik jamiyatining a'zosi bo'lib, bunga bir yoki bir necha aksiyalarini sotib olish orqali erishadi.

**Analitik hisob** - ma'lum bir ko'rsatkich, mablag', jarayon natijasida sodir bo'lgan hodisalarini maydalab, alohida pul, zarur bo'lgan hollarda esa, boshqa o'lchov birliklari ko'rinishida hisobga olib borish.

**Asosiy vosita** - bu material (moddiy) aktivlar bo'lib, bank faoliyatida bir yildan uzoq xizmat qiladigan va ijaraiga berilishi mumkin bo'lgan vositalardir.

**Amortizatsiya** - eskirishning qiyomatdag'i ifodasi bo'lib, asosiy vosita aktivning butun xizmati davomida xarajatlarga qo'shiladigan amortizatsiya qiyomatini sistematik ko'rinishda taqsimlashdir.

**Balans** (fr. balance- muvozanat, tarozining ikki pallasi) - doimiy o'zgarishda va o'zaro bog'liq kattaliklarning holatini ko'rsatuvchi,

ko'rsatkichlar tizimi, tenglik. Balans ikki qismdan iborat bo'lib, belgilangan muddatga tuziladi.

Bank (fr. banque) - to'lov va kreditlarga vositachilik qiluvchi muassasa. Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'adi va ularni tadbirkorlarga foiz hisobida beradigan muassasa.

Bank korrespondent boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarda bo'ladigan va ulaming topshiriqlari bilan ma'lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.

Bank emitent - muomalaga pul belgilari, qimmatli qog'ozlar, to'lov-hisob-kitob hujjatlarini chiqaruvchi bank.

Barter pul emas, balki tovar ko'rinishida bo'lgan o'zaro xo'jalik munosabatlari.

Birja - bozoming tashkiliy shakli bo'lib, tovarlar, qimmatli qog'ozlar, valuta va ishchilarning erkin savdosi amalga oshiriladi.

Birja bahosi birja savdosi orqali sotilayotgan tovarlar bahosi bo'lib, tegishli tovar bahosining darajasi va dinamikasi yuzasidan ma'lumotlarning muhim va ishonchli manbai hisoblanadi.

Birja kotirovkasi birja kopiroval komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinadigan va e'lon qilinadigan savdo birjasining tovarlar bahosi hamda qimmatli qog'ozlar kursi.

Birja poshlinasi - birja qo'mitasi tomonidan birja kelishuvlarini amalga oshirish huquqi uchun qimmatli qog'oz xaridorlaridan olinadigan pul yig'imi.

Birlamchi hisob hisob jarayonining boshlang'ich bosqichi, xo'jalik jarayonining ko'rsatkichlari o'lchanadi, aniqlanadi va hujjatlarda aks ettiriladi. Birlamchi hisob sintetik va analistik hisobning asosi hisoblanadi.

Birlamchi hujjatlar - buxgalteriya hujjatlari bo'lib, xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtida tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

Bonifikatsiya (fr. bonifico yaxshilayman) agar shartnomada belgilanganidan tovarning sifati yuqori bo'lsa, shu shartnomaga asosan, ushbu tovarning bahosiga ustama. Teskari bonifikatsiya (refaksiya) shartnomada kelishganidan tovar sifati past bo'lsa, shu tovar bahosidan chegirma.

Broker - xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida kelishuv tuzilishidagi savdo vositachilar. Brokerlar tovarlar va xizmatlarning ma'lum bir turi bo'yicha ixtisoslashgan bo'lib, mijozlar topshirig'i va nomidan harakat qilib, ulardan rag'batlantirish oladi.

**Buxgalteriya daftarlari - sintetik va analitik hisobni hujatlarga asosan qayd qilish.**

**Gudvill** - noaniq nomoddiy aktiv. Gudvill - xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda uning sof aktivlari qiymatidan yuqori to'lanadigan summa sifatida ta'nflanadi (barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o'tasidagi farq).

**Leveraj** - bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks etiruvchi ko'rsatkich. U birinchi darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan, gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiyl aktivlar summasiga nisbatli sifatida aniqanadi.

**Lizing subyekti** - bu lizing beruvchi (bank), lizing oluvchi (xaridj) hamda sotuvchi (mol yetkazib beruvchi).

**Ijara** - bu bir tomonnnig ikkinchi tomonga aktivdan foydalanish uchun taqdim qilgan huquqi.

**Mualliflik huquqi** - bu mualliflarga adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va boshqa yaratilgan asarlar uchun qonun yo'li bilan berilgan himoya shakli. Mualliflik huquqi egalariga ma'lum eksklyuziv huquqlar, jumladan, o'z ishlarini chop eturish, qayta bosish va ko'paytirish, sotish va nusxalarini taqsimlash va o'z asarlarini ijro etish hamda yozdirish huquqi beriladi.

**Maxsus zaxiralar** - «standart», «substandart», «shubhali» va «urmidsiz» deb tasmislangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarga qarshi zaxiralar.

**Moliyaviy lizing** - ijara munosabatlaring alohida turi bo'lib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchi) topshiring'iga ko'ra uchinchini taraf (sotuvchi)dan mol-mulk (lizing obyekti)ni lizing shartnomasida belgilangan, keyinchalik lizing obyektining lizing oluvchi mulkiga o'tishi shartlarida uni lizing oluvchining egalik qilishi va foydalanishi uchun sotib olish tushuniladi.

**Faktoring** - xo'jalik yurituvchi subyektlar - yetkazib beruvchilarni moliyalashga doir bank xizmatlarining bir turi bo'lib bunda ular bank - moliyaviy obyektga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovchilar tomonidan akseptlangan, lekin to'lov talabnomalari bo'yicha hali to'lamagan to'lovnin regress huquqisiz olish huquqini berishdir.

## **O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasি**

### **I. Hisobvaraqlar rejasining umumiyl tavsifi**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasи O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida», «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonunlari talablariga muvofiq hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi. Tijorat banklari tomonidan buxgalteriya hisobi ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtidan boshlab qayta tashkil etilgunga yoki tugatilgunga qadar uzlusiz ravishda yuritiladi.

Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qatt'iy rioya qilishlari lozim. Mazkur hisobvaraqlar rejasи bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini aks ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hisobvaraqlar rejasи bank operatsiyalarining hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llanadigan Bosh kitob hisobvaraqlarini ro'yxatidan iboratdir.

Xatolarni to'g'rakash va hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha tuzatishlar kiritishda, hisobvaraqlarning ta'riflarida ko'zda tutilmagan bo'lsa ham hisobvaraqlarning debet va kreditlari bo'yicha tuzatish o'tkazmalari berishga ruxsat beriladi.

Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasи buxgalteriya hisobining ko'p valutali tizimiga asoslangan bo'lib, chet el valutasidagi operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo'lgan barcha hisobvaraqlarda xorijiy valutadagi operatsiyalar hisobini aks ettirish imkonini beradi. Har bir valuta turi bo'yicha sintetik hisobni yuritish uchun-alohida Bosh kitob, analistik hisobni yuritish uchun esa Yordamchi kitoblar ochiladi. Har bir valuta bo'yicha Yordamchi kitoblardagi so'mmalar yig'indisi Bosh kitoblarining tegishli balans hisobvaraqlaridagi so'mmalar yig'indisiga mos kelishi kerak. Bank tomonidan amalga oshiriladigan har bir operatsiya tegishli valuta turi bo'yicha Bosh va Yordamchi kitoblarda ro'yxatga olinishi kerak. hisobot

sanasida Bosh kitoblarining xonijiy valutalar bo'yicha jami so'mmalari milliy valutaga o'tkaziladi va hisobot davri davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha bankning jamlanma balansi tuziladi.

Hisobvaraqlarni kodlashtirish quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqilgan:

- hisobvaraqlarning Bosh va Yordachi kitoblarda joylanishini engillashtirish;

- hisobvaraqlarni bir tizimda tasniflash va guruhashinga yordam berish;

- hisob jarayonlarini avtomatlashtirishni engillashtirish;

- operatsiyalar yozuvini tezlashtirish.

Balans hisobvaraqlarining Bosh kitobda kodlashtirilish tizimi quyidagi sxema bo'yicha beshta belgidan iboratligi qabul qilingan:

| C | MM | SS |
|---|----|----|
|---|----|----|

| C | Hisobvaraqturkumi (kategoriyasi): | A va P<br>hisobvaraqlar |
|---|-----------------------------------|-------------------------|
| 1 | Aktiv                             | A                       |
| 2 | Majburiyatlar                     | P                       |
| 3 | Kapital                           | P                       |
| 4 | Daromadlar                        | P                       |
| 5 | Xarajatlar                        | A                       |
| 9 | Ko'zda tutilmagan holatlar        | A                       |

|    |  |
|----|--|
| MM | Hisobvaraqturkumiga tegishli asosiy hisobvaraqlar<br>(birinchi tartib) |
|----|--|

|    |   |
|----|---|
| SS | Asosiy hisobvaraqlarga tegishli subhisobvaraqlar<br>(ikkinchi tartib) |
|----|---|

Raqamli kodlashtirishga quyidagi zarur shartlar joylashtirilgan:

- jamlanma hisobvaraqlar uchun MM va / yoki SS nol raqamlariga ega (masalan, 10000-«Aktivlar», 10100-«Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujatlari» va boshqalar);

- «Aktivlar» bo'limidagi «... zararlarni qoplash zaxirasi» sariyavhali subhisobvaraqlar uchun SS o'mida 99 raqam qabul qilingan.

Yordamchi kitobda shaxsiy hisobvaraqlar quyidagi sxema bo'yicha kodlashtiriladi:

| CCCC<br>C | VV<br>V | K                   | SSSSSSSS       | NN<br>N |                              |
|-----------|---------|---------------------|----------------|---------|------------------------------|
|           |         |                     |                |         | Hisobvaraqning tartib raqami |
|           |         |                     |                |         | Bank kodi yoki mijoz kodi    |
|           |         |                     | Nazorat kaliti |         |                              |
|           |         | Valuta kodi         |                |         |                              |
|           |         | Balans hisobvarag'i |                |         |                              |

Bundan tashqari, operatsiyalarni boshqarish maqsadida Yordamchi kitoblarga Markaziy bank, tijorat banklari boshqarmalari hamda tijorat banklari menejmenti (boshqarishi) uchun zarur bo'lgan batafsil axborotlar bilan ta'minlovchi qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasida har bir hisobvaraqning aktiv yoki passiv bo'lishi aniq belgilab qo'yilgan, aktiv-passiv qoldiqlarga ega bo'ladigan ayrim hisobvaraqlar bundan mustasno.

Aktiv hisobvaraqlarga «Aktivlar», «Xarajatlar» va «Ko'zda tutilmagan holatlar» bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari taalluqlidir.

Passiv hisobvaraqlarga «Majburiyatlar», «Kapital» va «Daroinadlar» bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari taalluqlidir.

Aktivlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida «Aktivlar» bo'limiga kontr-aktiv hisobvaraqlari, majburiyatlarining real qiymatini aks ettirish maqsadida esa «Majburiyatlar» bo'limiga kontr-passiv hisobvaraqlar kiritulgan.

«Ko'zda tutilmagan holatlarlar» bo'limiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi bo'yicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riligini qo'shimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr-aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Ba'zi hisobvaraqlardan tashqari «Aktivlar», likvidlilik, «Majburiyatlar» esa muddatlichkeit tamoillariga asosan tasniflangan.

Mazkur hisobvaraqlar rejasida har bir ikkinchi tartibli balans hisobvarag'i uchun hisobvaraq ta'risi berilgan bo'lib, unda hisobvaraqning debeti va krediti bo'yicha qanday operatsiyalarni aks ettirish, hamda analiük hisobini yunitish ko'rsatilgan. Batafsil analitik

hisob yuritish uchun banklarda shaxsiy hisobvaraqlardan tashqari qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

«Daromadlar» va «Xarajatlar» bo'limi uchun analitik hisob ko'rsatilmagan bo'lib, ushbu bo'limlardagi hisobvaraqtar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o'zları belgilaydilar.

## **II. Hisobvaraqlar ro‘yxati**

### **Kodi Nomi**

#### **10000-AKTIVLAR**

- 10100-Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari
- 10101-Aylanma kassadagi naqd pullar
- 10102-Naqd pullar zaxirasi
- 10103-Pul almashtirish shoxobchalaridagi naqd pullar
- 10105-Cheklar va boshqa to‘lov hujjalari
- 10107-Bankomatlardagi naqd pullar
- 10109-Yo‘ldagi pullar
- 10111-Bank binosida joylashnagan amaliyot (operations) kassalardagi naqd pullar

#### **10300-Banking O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi (O‘zRMB) hisobvaraqlari**

- 10301-Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragi - Nostro
- 10305-Markaziy banking vakillik hisobvaragi - Vostro, overdraft
- 10307-Markaziy bankdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar – Naqd pullar
- 10309-Markaziy bankdag‘i majburiy zaxura hisobvaragi
- 10311-Markaziy bankdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar – Topshirilgan naqd pullar
- 10397-Markaziy bankdag‘i boshqa hisobvaraqlar - Depozitlar

#### **10500 -Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari**

- 10501-Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari - Nostro
- 10505-Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlari - Vostro, overdraft
- 10507-Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar – Naqd pullar
- 10597-Boshqa banklardagi hisobvaraqlar - Depozitlar
- 10599-Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

#### **10700 -Oldi-setdi qimmatli qog‘ozlari**

- 10701-Davlat xazina veksellari
- 10705-Davlat obligatsiyalari
- 10709-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari va boshqa qarz qimmatli qog‘ozlari
- 10711-Korxonalarining qarz qimmatli qog‘ozlari
- 10715-Evroobligatsiyalar
- 10719-Korxonalarining ulushli qimmatli qog‘ozlari

- 10791- Oldi-soldi qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontr-aktiv)
- 10793-Oldi-soldi qimmatli qog'ozlar bo'yicha mukofot
- 10795-Oldi-soldi qimmatli qog'ozlar haqiqiy qiymatining o'zgarishi
- 10799-Oldi-soldi qimmatli qog'ozlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)
- 10800 -Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar**
- 10801-Davlat xazina veksellari
- 10805-Davlat obligatsiyalari
- 10809-O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalarini va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari
- 10813-Korxonalarning qarz qimmatli qog'ozlari
- 10817-Evroobligatsiyalar
- 10821-Korxonalarning ulushli qimmatli qog'ozlari
- 10879-Boshqa qimmatli qog'ozlar
- 10889-Soushga mo'ljallangan qarz qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar
- 10891-Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha diskont (kontr-aktiv)
- 10893-Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha mukofot
- 10895-Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar haqiqiy qiymatining o'zgarishi
- 10899-Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)
- 10900- Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar**
- 10901-Qimmatbaho metallar
- 10905-Qimmatbaho toshlar
- 10909-Qimmatbaho tangalar
- 10999-Qimmatbaho metallar, toshlar va tangalarning savdosidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)
- 11100- Sotib olingan debitorlik qarzları - Faktoring**
- 11101-Sotib olingan debitorlik qarzları - Faktoring
- 11103-Muddau o'tgan sotib olingan debitorlik qarzları - Faktoring
- 11105-Sud jarayonidagi sotib olingan debitorlik qarzları - Faktoring

**11195-Sotib olingen debitorlik qarzları - Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv)**

**11199-Sotib olingen debitorlik qarzları - Faktoring - bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**

**11300- Sotib olingen veksellar**

**11301-Eksport bilan bog'liq sotib olingen veksellar - hujjatsiz**

**11305-Eksport bilan bog'liq sotib olingen veksellar - hujjatlı**

**11309-Sotib olingen mahalliy veksellar - hujjatsiz**

**11311-Sotib olingen mahalliy veksellar - hujjatlı**

**11315-Muddati o'tgan sotib olingen veksellar**

**11319-Sud jarayonidagi sotib olingen veksellar**

**11395-Sotib olingen veksellar bo'yicha diskontlar (kontr-aktiv)**

**11399-Sotib olingen veksellar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**

**11500-Mijozlarning akkreditiv va / yoki trast hujjatlari bilan kafolatlangan trattalari bo'yicha majburiyatları**

**11501-Mijozlarning import bilan bog'liq veksellar bo'yicha majburiyatlari**

**11505- Mijozlarning trast hujjatlari bilan kafolatlangan import bilan bog'liq veksellar bo'yicha majburiyatlari**

**11509-Mijozlarning trast hujjatlari bilan kafolatlangan mahalliy veksellar bo'yicha majburiyatlari**

**11511-Muddati o'tgan import bilan bog'liq veksellar va akseptlar**

**11515-Muddati o'tgan mahalliy veksellar va akseptlar**

**11519-Sud jarayonidagi import bilan bog'liq veksellar**

**11521-Sud jarayonidagi mahalliy veksellar**

**11599-Import bilan bog'liq va mahalliy veksellar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**

**11700- Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatları**

**11701-Mijozlarning mahalliy akseptlar bo'yicha majburiyatlari**

**11705-Mijozlarning xorijiy akseptlar bo'yicha majburiyatlari**

**11800- REPO bitimlari bo'yicha sotib olingen qimmatli qog'ozlar**

**11801-REPO bitimlari bo'yicha O'zR MBidan soub olingen qimmatli qog'ozlar**

**11803-REPO bitimlari bo'yicha boshqa banklardan soub olingen qimmatli qog'ozlar**

- 11805-REPO bitimlari bo'yicha hukumatdan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11807-REPO bitimlari bo'yicha jismoniy shaxslardan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11809-REPO bitimlari bo'yicha yakka tartibdagи tadbirkorlardan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11811-REPO bitimlari bo'yicha davlat korxona, tashkilot va muassasalaridan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11813-REPO bitimlari bo'yicha chei el kapitali ishtirokidagi korxonalardan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11815-REPO bitimlari bo'yicha xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlardan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11897-REPO bitimlari bo'yicha boshqa qarzdorlardan sotib olingan qimmatli qog'ozlar**
- 11899-REPO bitimlari bo'yicha sotib elingen qimmatli qog'ozlardan ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 11900-Markaziy bankka berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 11901- Markaziy bankka berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12100-Boshqa bankdarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12101-Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12105-Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan kreditlar**
- 12109-Boshqa banklarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12199-Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 12300-Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12301-Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12305-Hukumatga berilgan muddati o'tgan kreditlar**
- 12309-Hukumatga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12399-Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 12400-Budget tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12401-Budget tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar**
- 12405-Budget tashkilotlariga berilgan muddati o'tgan kreditlar**
- 12409-Budget tashkilotlariga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar**

**12499-Budjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)»**

**12500 -Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

12501-Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12505-Jismoniy shaxslarga berilgan muddati o'tgan kreditlar

12509-Jismoniy shaxslarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

12599-Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**12600-Yakka tartibdag'i tadbirdorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

12601-Yakka tartibdag'i tadbirdorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12605-Yakka tartibdag'i tadbirdorlarga berilgan muddati o'tgan kreditlar

12609-Yakka tartibdag'i tadbirdorlarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

12699-Yakka tartibdag'i tadbirdorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**12700-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

12701-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12705-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan muddati o'tgan kreditlar

12709-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

12799-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**12900-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

12901-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12905-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan muddati o'tgan kreditlar

12909-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

**12999-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**

**13000-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

13001-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar

13005-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan muddatli o'tgan kreditlar

13009-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

13099-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**13100-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

13101-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

13105-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddatli o'tgan kreditlar

13109-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

13199-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**13200-Bank bo'limgan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar**

13201-Bank bo'limgan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

13205-Bank bo'limgan moliyaviy muassasalarga berilgan muddatli o'tgan kreditlar

13209-Bank bo'limgan moliyaviy muassasalarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

13299-Bank bo'limgan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

**14500-Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar**

14501-Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar

- 14505-Boshqa banklarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14599-Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 14700-Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14701-Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14705-Hukumatga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14799-Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 14800-Budjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14801-Budjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14809-Budjet tashkilotlariga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14899-Budjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 14900-Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14901-Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14905-Jismoniy shaxslarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 14990-Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 15000-Yakka tartibdag'i tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 15001-Yakka tartibdag'i tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 15005-Yakka tartibdag'i tadbirkorlarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 15099-Yakka tartibdag'i tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)**
- 15100 -Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
- 15101-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar**
